

Xavfsizlik sohasi ustidan parlament nazorati: Tamoyil, mexanizm va amaliyot

Barcha huquqlar himoya qilingan. Parlamentlararo Ittifoq yoki Qurolli Kuchlarni Demokratik Nazorati Qilish Jeneva Markazi ruxsatisiz mazkur nashrni chop etish, ko'chirish yoki biror bir tizimda saqlash; elektronik, mexanik, foto, audio yoki video nusxasini yaratish taqiqlanadi.

Ushbu kitob tarqatilar ekan, noshirning ruxsatisiz sotuvga qo'yish yoki ijaraga berish mumkin emas. Asarning bosmadan chiqqan asl shakli va muqovasi saqlanishi qat'iy talab qilinadi.

ISBN 92-9142-205-3 (IPU, Parlamentlararo Ittifoq)

ISBN 92-9222-016-0 (DCAF, Qurolli Kuchlarni Demokratik Nazorat Qilish Jeneva Markazi)

**Xavfsizlik sohasi ustidan parlament nazorati:
tamoyillar, mexanizm va amaliyot**

Published by:

Parlamentlararo Ittifoq
Qurolli Kuchlarni Demokratik Nazorat Qilish
Jeneva Markazi tomonidan nashr etilgan

Tahrirchilar

Filip Fluri, Shveysariya
Anders B. Jonsson, Shvetsiya

Bosh muallif

Gans Born, Niderlandiya

Bosh noshir

Harbiylar va Fuqarolararo Aloqalar Markazi, Belgrad

Tarjimon

Navbahor Imamova, O'zbekiston/AQSh

Jeneva, 2008

Xavfsizlik sohasi ustidan parlament nazorati: Tamoyil, mexanizm va amaliyot

“Vis consilii expers mole ruit sua”
(Aqlsiz kuch o'zini yemiradi)
Goratsiy, Qasidalar, 3, 4, 65

Xavfsizlik sohasi ustidan parlament nazorati haqidagi kitob nashri hay'ati

Bosh Muharrir

Filip Fluri (Shveysariya) va Anders B. Jonsson (Shvetsiya)

Muharrir va Bosh Muallif

Gans Born (Niderlandiya)

Kitobga hissa qo'shganlar

Aleksey Arbatov (Rossiya), Jan-Kristof Burkel (Fransiya), Eva Buza (AQSh), Marina Kaparini (Kanada), Umit Sizre (Turkiya), Deyvid Darchiashvili (Gruziya), Jona Isava Elaigvu (Nigeriya), Gans-Piter Furrer (Shveysariya), Deniz Garsia (Braziliya), Syuzana Gavrilesku (Ruminiya), Vilgelm German (Germaniya), Oven Grin (Britaniya), Miroslav Xajich (Serbiya va Montenegro), Karl Galtiner (Shveysariya), Xayner Xanggi (Shveysariya), Deyvid Xobbs (Britaniya), Yan Xokema (Niderlandiya), Roger Xyuzenga (Niderlandiya), Andrey Karkozka (Polsha), Piter G. Kelli (AQSh), Simon Lunn (Britaniya), Tom Makdonald (Britaniya), Doriyan Marsich (Sloveniya), Gian Giakomo Migone (Italiya), Maykl F. Nun (AQSh), Aleksandr Pikayev (Rossiya), Kristin Pintat (Fransiya), Andreas Prufert (Germaniya), Kristofer Sabatini (AQSh), Lilian Serban (Ruminiya), Ravinder Pal Sinkx (Hindiston), Anders C. Syaastad (Norvegiya), Bauk Snop (Niderlandiya), Svitlana Svetova (Ukraina), Yan Trapans (Latviya), Matias Tuler (Argentina), Marlin Urcheler (Shveysariya), Pentti Vaananen (Finlandiya), Bilyana Vankovska (Makedoniya), Mari Vlachova (Chexiya), Kasper V. Vrum (Niderlandiya), Tamas Vashler (Vengriya), Donna Vinslov (Kanada), Gerbert Vulf (Germaniya).

Tahririyat

Parlamentlararo Ittifoqning Siyosiy Masalalar, Xalqaro Xavfsizlik va Qurolsizlanish bo'yicha Qo'mita a'zolari – Villem van Ekelen (Niderlandiya), Andreas Gross (Shveysariya), Miroslav Filipovich (Serbiya va Montenegro), Stepan Sulakshin (Rossiya), Dimitro Tabachnik (Ukraina), Ahmad Husni Hanajla (Malayziya), Adeseye Ogunleve (Nigeriya) va Elissavet Papadimitriu (Gretsiya). Parlamentlararo Ittifoqning Parlament, Adliya va Inson Huquqlari bo'yicha Qo'mita a'zolari – Bet Mugo (Keniya) and Rikardo Vaskez (Argentina).

Tilshunos Muharrir

Oliver Veytes (Britaniya)

Tarjimon

Navbahor Imamova (O'zbekiston/AQSh)

Asl nusxa: Ingliz tilida, Jeneva, 2003


So'zboshi

Tinchlik hayot uchun eng muhim zaruriyat ekan, davlat xavfsizligi siyosatida xalq fikri inobatga olinmog'i lozim. Hukumat bu siyosatni belgilashda xavfsizlik bilan bog'liq hech bir omilga ko'z yuma olmaydi.

Demak, xalq saylagan vakillar hukumat va xavfsizlik sektori bilan yaqindan ishlashi zarur. Biroq bir maqsad yo'lida harakat qilinsa-da, ularning vazifasi bir-biridan tubdan farq qiladi. Parlament qonunchilik va byudjet masalalari bilan shug'ullanadi hamda xavfsizlik sohasini nazorat qiladi. Buni axborot va texnik bilimsiz, qolaversa, hukumatni javobgarlikka tutmasdan turib amalga oshirib bo'lmaydi. Ishonch va o'zaro muloqotga tayanmagan jamiyatda bunga erishish qiyin.

Chilida xalq va qurolli kuchlar o'rtasidagi aloqalari keyingi yillarda ancha yaxshilangan. Bugun xalqaro hamjamiyat bu mamlakatda o'zaro hurmat va hamkorlikka asoslangan muhit vujudga kelganiga guvoh bo'lmoqda. Kelajakda bu jarayon yanada takomillashishiga umid bildirish mumkin. Ishonchimiz komilki, mazkur qo'llanma xavfsizlikni ta'minlashda rol o'ynaydigan har bir tomonni fuqaro manfaati uchun xizmat qilishga chorlaydi.

Senator Sergio Paáez Verdugo
Parlamentlararo Ittifoq Kengashi prezidenti



Muqaddima

Qadim tarix shundan dalolat beradiki, davlat suvereniteti va xavfsizligi hokimiyat mustahkamligi uchun eng muhim omil bo'lib kelgan. Bugunga kelib xavfsizlikni ta'minlovchi kuchlar katta o'zgarishlarga yuz tutgan. Qurolli mojarolar yangicha tus olib, xalqaro aloqalarning kuchayib borayotgani xavfsizlik tushunchasiga nisbatan yangicha yondashishni talab qiladi. 2001 yilning 11 sentabrida yuz bergan voqealar va uning ketidan avj olgan jarayonlar buni yaqqol aks ettiradi.

Parlamentning xavfsizlik kuchlari ustidan samarali nazorati bugun yanada muhim. Toki xavfsizlikni ta'minlash harakatlari oshkora va mas'uliyatli ravishda rejalansin va amalga oshirilsin. Aks holda, xavfsizlik kuchlari asl maqsadni noto'g'ri talqin qilishi, o'zini alohida hokimiyat sifatida tuta boshlashi, moliyaviy suiste'molga berilishi va shu tariqa siyosiy-iqtisodiy ta'sirini kuchaytirishi mumkin. Ular demokratik taraqqiyotga bolta urishi, hatto mojarolarga zamin yaratishi mumkin. Natijada, ayniqsa, o'tish davri hukmronlik qilayotgan, urush yoki inqirozlarni boshdan kechirgan jamiyatlar tahdid ostida qoladi. Xavfsizlik muhiti tobora o'zgarib borar ekan, barqaror demokratik mamlakatlar ham fuqaro va harbiy kuch o'rtasidagi aloqalarni ko'zdan qochirmasligi, ularni taraqqiy ettirishi va boshqarishi lozim.

Xavfsizlik sektori tabiatan va dinamik jihatdan murakkab. Parlamentga uni samarali nazorat qilish oson emas. Turli texnik masalalar, xavfsizlik xodimlarining keng va murakkab tizimi, qolaversa, maxfiy ma'lumotlar haqidagi qonunlar, qoida va amaliyotlar parlament nazoratiga to'sqinlik qiladi. Qonunchilik organidan mustaqil izlanish va kuchli mahorat talab qilinadi.

Shu maqsadda Parlamentlararo Ittifoq (PI) va Qurolli Kuchlarni Demokratik Nazorat Qilish Jeneva Markazi (QKDNQ) mazkur qo'llanmani ishlab chiqishga qaror qildi. Konkret ko'rsatmalarga asoslangan bu kitob parlamentga xavfsizlik kuchlarini qay yo'l va mexanizmlar orqali idora etish usullarini aniq va o'rgatadi. Matn qonunchi va soha egalaridan iborat tahririy hay'at tomonidan qayta-qayta ko'rib chiqildi va boyitildi.

Qo'llanma yozilar ekan, barcha davlatlarga mos keladigan yagona nazorat modeli yo'q ekani esda tutildi. Bir mamlakatda qol kelgan qoida va usullar boshqa biri uchun tamoman nomutanosib bo'lishi mumkin. Bundan tashqari turli davlatlarda parlamentlar turlicha vakolatlarga ega. Shu haqiqatni tan olgan holda, kitobdagi ayrim tavsiyalar o'quvchiga o'ta ideal yoki hech qachon ro'yobga chiqmaydigan maqsaddek tuyulishi mumkin. Lekin xavfsizlik masalalari o'ta murakkab ekani uchun ham barcha jihatlarni bir kitobda ko'rib chiqish mumkin emas. Shu bois ham ushbu qo'llanma xavfsizlik ustidan parlament nazorati haqida umumiy ma'lumot beruvchi

PI va QKDNQ – Xavfsizlik sohasi ustidan parlament nazorati, 2003

manba sifatida qaralishi kerak. Kitob o'quvchini chuqurroq izlanishga chorlasa ajabmas. Umid qilamizki, bu nashr xavfsizlik siyosati va amaliyotida xalq fikri inobatga olinishiga hissa qo'shadi.



Anders B. Johansson
Parlamentlararo Ittifoq Bosh Kotibi



Ambasador Dr. Theodor H. Winkler
Qurolli Kuchlarni Demokratik Nazorat
Qilish Jeneva Markazi Direktori

Qo'llanma mazmuni

Ushbu kitob sakkiz qismdan iborat bo'lib, ularning har biri bir necha bobdan tashkil topgan. Uni ikki yo'l bilan o'qish mumkin. Qo'llanmani to'liq o'qish xavfsizlik masalalari va parlament nazorati ahamiyati haqida mukammal ma'lumot beradi. Biroq o'quvchi o'z qiziqishiga qarab, ayrim qism va boblarni tanlashi ham mumkin. Shu maqsadda kitob indeksi va izohli ro'yxat ilova qilinmoqda.

Asosiy matnda tilga olinuvchi murakkab masalalar alohida jadvallarda ham tushuntiriladi. Jumladan, turli davlatlardagi xavfsizlik tizimlari ustidan parlament nazorati haqidagi qonun va qoidalar keltiriladi. Har bir bob oxirida Qonunchi sifatida nima qilishingiz mumkin? degan savolga javob beramiz va aniq tavsiyalar qilamiz. Ammo, avval qayd etilganidek, maslahatlarga har bir davlatdagi vaziyat nuqtai nazaridan yondashish lozim.

Kitobning birinchi va ikkinchi qismida xavfsizlik sektori ustidan parlament nazorati nazariy va tahliliy jihatdan muhokama qilinadi. Birinchi qism xavfsizlik tushunchasi haqida batafsil ma'lumot berib, parlament va boshqa organlarning xavfsizlikni ta'minlashdagi rolga global miqyosda nazar tashlaydi. Quyidagi savollarga javob izlanadi:

- Xavfsizlik sohasida qanday o'zgarishlar bor?
- Yangi tahdidlar va ularga nisbatan javoblar nimadan iborat?
- Parlament nima uchun xavfsizlik sektorini nazorat qilish kerak?
- Xavfsizlik sektorini demokratik boshqarish nimaga asoslanadi?
- Hukumat va adliya bilan qiyoslaganda, parlament qanday rolga ega?

Ikkinchi qism davlat xavfsizlik siyosatining barcha qirralari, shuningdek, u bilan bog'liq xalqaro qonunlarni tahlil qiladi. Uning oxirgi ikki bobi fuqarolik jamiyati va ommaviy axborot vositalari roliga bag'ishlanadi. Xavfsizlik masalalariga ayollar va erkaklar qanday yondashishi haqida so'z boradi. Asosiy mavzular:

- Davlat xavfsizlik siyosatiga tegishli qarorlarda parlament qanday rol o'ynaydi?
- Xalqaro qonunlar davlat xavfsizlik siyosatini qay tariqa cheklaydi yoki takomillashtiradi?
- Fuqarolik jamiyati va axborot vositalari xavfsizlik sohasiga qanday qaraydi va parlament ulardan qanday foydalanishi mumkin?
- Xavfsizlik masalalari ommaga qanday tushuntirilishi lozim?
- Xavfsizlik sektorida xotin-qizlar qanday o'ringa ega?

Uchinchi qism xavfsizlik sektorida kim qanday vazifani bajarishi, xususan, armiya, ichki ishlar xodimlari, razvedka xizmati, boshqa harbiy tashkilotlar va xususiy xavfsizlik kompaniyalari tog'risida ma'lumot beradi.

- Har bir xavfsizlik xizmatining asosiy va alohida vazifalari nima?
- Ularga qanday ichki va siyosiy mas'uliyatlar yuklanishi lozim?
- Parlament xavfsizlik xizmatlarini qay yo'l bilan samarali nazorat qilishi mumkin?

To'rtinchi qism parlament qo'lida buning uchun qanday qurollar borligi haqida hikoya qilib, quyidagi savollarga javob beradi:

- Parlamentlar xavfsizlik sektorini nazorat qilish uchun qanday usullardan foydalanishi mumkin?
- Parlamentning xavfsizlik masalalari haqidagi bilimini qanday oshirishi mumkin?
- Xavfsizlik masalalari bo'yicha parlament tekshiruvi va tinglovlar qanday ahamiyat kasb etadi?

PI va QKDNQ – Xavfsizlik sohasi ustidan parlament nazorati, 2003

- Mudofaa bo'yicha qo'mitalar faoliyatini qanday yaxshilash mumkin?
- Ombudsmanning vazifasi nimadan iborat?
- Mudofaa yuzasidan ombudsman ishi qanday olib boriladi?
- Qonunchilar nima uchun xavfsizlik xizmatlariga tegishli inshootlarga borishi shart?

Beshinchi qism xavfsizlik bilan bog'liq favqulodda vaziyatlar, ichki xavfsizlikka tahdid, terrorizm va Internetdagi jinoyatlarga e'tibor qaratadi. Xalqaro tinchlik missiyalarida ishtirok etish; notinch yoki beqaror hududlarga qo'shin safarbar etish oqibatlari ham kitobning shu qismda bafurja tahlildan o'tadi:

- Favqulodda holatlarda qanday qilib ichki xavfsizlik va inson huquqlari ta'minlanishi mumkin?
- Favqulodda holatdan maqsad nima? Uni cheklash mumkinmi?
- 11 sentabr voqealaridan beri nima o'zgardi? Terrorizmni huquqiy demokratik norozilikdan qanday ajratish mumkin? Xalqaro xavfsizlik uchun bu qanchalik muhim? Parlamentga bunda qanday vazifa yuklanadi?
- Xalqaro tinchlik missiyalari uchun qo'shin jo'natishga qaror qilishda parlamentning aralashuvi naqadar zarur?

Oltinchi, yettinchi va sakkizinchi qismlarda xavfsizlik sektori uchun muhim uch manba haqida so'z boradi. Oltinchi qism mudofaa byudjeti va uning parlament va hukumat audit idoralari tomonidan qanday nazorat qilinishi xususidagi quyidagi savollarga javob izlaydi.

- Xavfsizlik byudjeti qanday qilib oshkora va mas'uliyat bilan yuritilishi mumkin?
- Xavfsizlik byudjetini izchil nazorat qilish shartlari nimalardan iborat?
- Xavfsizlik sektori moliyasini qay yo'l bilan tekshirish mumkin? Tekshiruv nega mustaqil holda olib borilishi shart? Bu qanday amalga oshiriladi?

Yettinchi qism xavfsizlik xodimlari masalasida bo'lib, parlamentlarga harbiy yollash; tanlov, tayyorlash va malaka oshirish; iste'fo va nafaqa turlari; majburiy, erkin va muqobil xizmatlar haqida ma'lumot va maslahat beradi.

- Xavfsizlik sektori vakillari ongiga demokratik qadriyatlarni qanday qilib singdirish mumkin?
- Xizmatchilar harbiy uyushmalar tuzishi mumkinmi?
- Bu sohaning professional madaniyati nimadan iborat?
- Dunyoda harbiy xizmatga yollash va muqobil xizmatning qanday turlari bor?
- Xodimlar uchun etik qoidalar joriy etilganmi? Xalqaro me'yorlar-chi?
- Xavfsizlik sektori kadrlar boshqaruvining qay jihatlari parlament bilan bog'liq?

So'nggi, sakkizinchi, qismda xavfsizlik sektori qanday moddiy manbalarga ega ekani, qanday qurollar kimdan olinishi, qurol-aslaha savdosi va tashishilishiga doir quyidagi masalalarni yoritishga qaratilgan.

- Qonuniy cheklovlar nimalardan iborat?
- Qurol-aslaha olish yuzasidan mukammal qarorlar qanday qabul qilinadi?
- Qay vaziyatda maxfiy ish tutish mumkin?
- Parlament bu masalalarga qanday yondashadi?

Mundarija

So'zboshi	1
Muqaddima	2
Qo'llanma mazmuni	4
Izohlar roy'xati	8
Birinci Qism	
Xavfsizlikdagi o'zgaruvchan tushuncha va o'yinchilar: Parlamentlar oldidagi asosiy masalalar	
1-bob – O'zgaruvchan dunyoda o'zgaruvchan xavfsizlik	12
2-bob – Parlament nazoratining ahamiyati	15
3-bob – Parlament va davlatning boshqa organlariga yuklangan vazifalar	17
Ikkinchi Qism	
Davlat xavfsizlik siyosati ustidan nazorat	
4-bob – Davlat xavfsizlik siyosatining tuzilishi	22
5-bob – Davlat xavfsizlik siyosati va xalqaro qoidalar	26
6-bob – Fuqarolik jamiyati va ommaviy axborot vositalari roli	29
7-bob – Xavfsizlik siyosati ikki jins nigojida	36
Uchinchi Qism	
Xavfsizlik sektorining asosiy operatsion qismlari	
8-bob – Armiya	44
9-bob – Boshqa harbiy tizimlar	49
10 -bob – Ichki ishlar tizimi	51
11 -bob – Maxfiy xizmatlar va razvedka	54
12 -bob – Xususiy xavfsizlik va harbiy kompaniyalar	59
To'rtinchi Qism	
Davlat xavfsizligi parlament nazoratida: shart va mexanizmlar	
13-bob – Parlament nazorati samarasi yo'lidagi shartlar	64
14-bob – Parlamentning xavfsizlik sektoriga tegishli mexanizmlari	69
15-bob – Parlamentning mudofaa yoki xavfsizlik bo'yicha qo'mitalari	75
16-bob – Ombudsman	79
17-bob – Xavfsizlik inshootlarini ko'zdan kechirish	83

Beshinchi Qism

**Xavfsizlik xizmatlari faoliyatini nazorat qilish:
favqulodda vaziyatlar va amaliyotlar**

18-bob – Istisno holatlar	88
19-bob – Ichki xavfsizlikni saqlash	91
20-bob – Terrorizm	95
21-bob – Xavfsizlik va informatsion texnologiya: yangi qurol va muammolar	103
22-bob – Xalqaro tinchlik missiyalari	106

Oltinchi Qism

**Moliyaviy manbalar:
Xavfsizlik sektori byudjetining samarali nazorati**

23-bob – Xavfsizlik va hamyon qudrati	114
24-bob – Davlat byudjetining xavfsizlikka doir qismini tekshirish	124

Yettinchi Qism

**Xavfsizlik sektori kadrlari:
professionalizmni ta'minlash va demokratik nazorat**

25-bob – Xavfsizlik sektorini demokratlashtirish	130
26-bob – Xavfsizlik sektorida kadrlar boshqaruvi	139
27-bob – Harbiy xizmat va uning vijdonan rad etilishi	142

Sakkizinchi Qism

**Moddiy manbalar:
qurol-aslaha olish va ko'chirishni samarali nazorat qilish**

28-bob – Qurol va harbiy aslaha olish	150
29-bob – Qurol savdosi va tashilishi	155

Parlamentlararo Ittifoq	166
--------------------------------------	-----

Qurolli Kuchlarni Demokratik Nazorat Qilish Jeneva Markazi	167
---	-----

Izohlar ro'yxati

1- izoh	Xavfsizlikka nisbatan boshqa tahdidlar	13
2- izoh	Turli xavfsizlik choralari	14
3- izoh	Davlat bosh organlarining xavfsizlik bo'yicha ehtimoliy vazifalari	18
4- izoh	Xavfsizlikni demokratik nazorat qilishda samarali boshqaruv ahamiyati	20
5- izoh	Davlat xavfsizlik siyosatini savolga tutish	22
6- izoh	Bevosita demokratiya va xalqaro kelishuvlar ratifikatsiyasi: Shveysariya misolida	28
7- izoh	Lotin Amerikasida fuqarolik jamiyati: nohukumat tashkilotlarining roli va ahamiyati	30
8- izoh	Yangicha urushlar: matbuot erkinligi uchun murakkab davr	31
9- izoh	Matbuot erkinligining 2001 yil 11 sentabrdan keyingi ahvoli	32
10- izoh	Parlamentning Internetdagi sahifasi	33
11- izoh	Parlamentlar va axborot vositalari	34
12- izoh	Tinchlik muzokaralarida gender masalasi	36
13- izoh	Tinchlikka erishish harakatlari ayol va erkak nigohida	37
14- izoh	Harbiy ayollar: NATO davlatlaridan misollar	38
15- izoh	Ayollar va xavfsizlik siyosati: jinsiy tenglik	39
16- izoh	Ayollarni xavfsizlik sektoriga jalb etish natijasida tug'iladigan imkoniyat va muammolar	39
17- izoh	Armiyasiz davlatlar	44
18- izoh	Mudofaa islohoti: maqsad nima?	45
19- izoh	Janubiy Afrika qonun-tartibotida harbiy kuchdan foydalanish	46
20- izoh	Ayrim davlatlardagi harbiy bo'linmalarga misollar	49
21- izoh	Demokratik xususiyatlar	51
22- izoh	Qaltis vaziyatlar	53
23- izoh	Eritreyada politsiya ahvoli	53
24- izoh	Parlament va razvedka agentliklariga alohida mablag' ajratish: Argentina misolida	55
25- izoh	Maxfiy hujjatlar bilan ishlovchi qonunchilik qo'mitalari faoliyatidan	56
26- izoh	Xususiy xavfsizlik va harbiy kompaniyalar: demokratiyaga ehtimoliy xavf	59
27- izoh	Xavfsizlik sektorini demokratik nazorat qilish uchun foydali vositalar	65
28- izoh	Parlament uchun faol strategiya	66
29- izoh	Parlamentning xavfsizlik bobidagi bilimni oshiruvchi mexanizm va amaliyotlar: qator tavsiyalar	67
30- izoh	Parlamentning umumiy jihatlar va ijroiya ustidan nazorat	70

PI va QKDNQ – Xavfsizlik sohasi ustidan parlament nazorati, 2003

31- izoh	Javobgarlikka tutishning samaralari usullari	71
32- izoh	Tekshiruv qo'mitalarining asosiy jihatlari	72
33- izoh	Kanadaning Somaliga qo'shin jo'natishi ustidan tekshiruv komissiyasi: Xavfsizlik yuzasidan parlament hisobotlarining jamoatchilikka ta'siri	73
34- izoh	Mudofaa va xavfsizlik masalalari bo'yicha qonunchilik qo'mitalarining ehtimoliy vazifalari	76
35- izoh	Tashqi aloqa va mudofaa qo'mitalarining qo'shma majlislari: Storting, Norvegiya parlamenti misolida	77
36- izoh	Ombudsman	79
37- izoh	Ayrim davlatlardagi mudofaa ombudsmanlari	80
38- izoh	Germaniya parlamentida Qurolli Kuchlar Komissari	81
39- izoh	Argentina misolida	82
40- izoh	Qiynoqlarga Qarshi Konvensiya protokoli xavfsizlik inshootlariga borish imkoniyatini kengaytiradi	83
41- izoh	Favqulodda holatlar: maqsad va asos	84
42- izoh	Xavfsizlik va demokratiyani asrash	92
43- izoh	Jiddiy oqibatlariga olib boruvchi xatolar	93
44- izoh	BMT Xavfsizlik Kengashining 11 sentabr voqealariga javobi	96
45- izoh	Terrorizmga qarshi kurash	97
46- izoh	Shaxsiy Ma'lumotni Avtomatik Ravishda Tekshirish Yuzasidan Fuqaro Himoyasi Konvensiyasi (ETS N° 108)	104
47- izoh	Tinchlikni tiklash, saqlash, ta'minlash va mustahkamlash: BMT ta'rifi	106
48- izoh	BMT tinchlik saqlovchi kuchlarini safarbar etish jarayoni	109
49- izoh	Tinchlik missiyalari uchun shart va qoidalar	110
50- izoh	BMTda tinchlikparvar kuchlar tayyorlash	111
51- izoh	Byudjet: demokratik boshqaruv uchun asosiy vosita	114
52- izoh	Byudjet tuzilishida parlament nega faol ishtirok etmogi lozim?	115
53- izoh	Dunyo bo'ylab mudofaa xarajatlari, yalpi daromadga qarab % hisobida	116
54- izoh	Rejalashtirish, dasturlashtirish va byudjet tizimi	117
55- izoh	Mudofaa byudjeti asoslari: Ispaniyaning 2002 yilgi mudofaa byudjeti	119
56- izoh	Mudofaa byudjetini oshkora tuzish yo'lidagi to'siqlar	119
57- izoh	Xavfsizlik byudjetini maxfiy tutishning uch darajasi	121
58- izoh	Xavfsizlik byudjeti nazoratini cheklovchi muammolar	121
59- izoh	Janubi-sharqiy Yevropa davlatlaridagi mudofaa byudjetlari (2001)	122
60- izoh	Bosh Auditor	124
61- izoh	Xavfsizlik sektori ustidan parlament nazoratida Britaniya Davlat Audit Idorasi roli	126

PI va QKDNQ – Xavfsizlik sohasi ustidan parlament nazorati, 2003

62- izoh	Gruziya parlamenti va byudjet nazorati	127
63- izoh	Qurolli kuchlar a'zolarining kasbiy uyushish huquqi yuzasidan Yevropa Kengashi maslahatlari	131
64- izoh	Germaniya qurolli kuchlarida yetakchilik va ijtimoiy ta'lim: "Innere Führung" tamoyili	134
65- izoh	Qonun-tartibot xodimlari uchun ahloqiy qoidalar	135
66- izoh	Xavfsizlikning siyosiy-harbiy jihatlarini yuzasidan YXHT Ahloqiy Qoidalari (1994)	136
67- izoh	Kadrlar boshqaruvi: qonunchilar uchun dolzarb masalalar	139
68- izoh	Jahonda harbiy xizmat	142
69- izoh	Majburiy xizmatchiga bosim o'tkazilishi	144
70- izoh	BMT Inson Huquqlari Komissiyasining 1998/77 – rezolyutsiyasi: harbiy xizmatdan vijdonan bosh tortish	145
71- izoh	Muqobil xizmat: Shveysariya misolida	146
72- izoh	Qurol-aslaha olishda qonunchilar roli	151
73- izoh	Qurol olishda mujmal siyosat yoki o'ta yashirin harakatlar oqibati	151
74- izoh	Niderlandiyada mudofaa ta'minoti: parlament nazorati asoslari	152
75- izoh	Qurollar transportirovkasi ta'rifi	155
76- izoh	Qurollar transportirovkasi uchun mintaqaviy choralar	156
77- izoh	Qurollarga qarshi sanksiyalarni kuchaytirish: parlament nima qila oladi?	158
78- izoh	Eski va ortiqcha qurollar savdosi: qurolsizlanishning salbiy mahsuli	159
79- izoh	Kichik turdagi qurollar savdosining taxminiy hisoblari	160
80- izoh	Kichik va yengil qurollar kontrabandasiga qarshi BMT Dasturi: parlament uchun dolzarb masalalar	160
81- izoh	Qurol-aslaha eksporti nazoratida parlament roli: Yevropa Ittifoqidagi oshkorlik va mas'uliyat	161

Birinchi qism

**Xavfsizlikdagi o'zgaruvchan
tushuncha va o'yinchilar:
Parlamentlar oldidagi asosiy masalalar**

O'zgaruvchan dunyoda o'zgaruvchan xavfsizlik

O'tgan o'n yil ichida global xavfsizlikda misli ko'rilmagan o'zgarishlar yuz berdi. Eski tahdidlar o'rnini yangi va yanada xavotirli muammolar egalladi. Ular insonni xavfsizlik, mojaro va tinchlik masalalariga o'zgacha yondashishga undamoqda.

Demokratik jamiyatlarda tinchlik va xavfsizlik

Har bir mojaro ham tinchlik va xavfsizlikka rahna solavermaydi. Muayyan bir jamiyatda o'ziga yarasha raqobat, qarama-qarshilik va muxolif qarashlar hukm suradi. Demokratiyada xalq so'z erkinligidan foydalangan holda o'zi saylagan vakillarga fikr bildiradi. Bu vakillar esa o'z navbatida xalqni qiynayotgan masalalarni jamoatchilik oldida ochiq muhokama qiladi. Aynan shu jarayon demokratik jamiyatlarni mojarolardan asraydi va ko'pchilikka ma'qul choralar ko'rilishiga sabab bo'ladi. Sir emaski, demokratik jihatdan zaif muhitda kelishmovchiliklar tez alanga oladi, vaziyat izdan chiqadi va qonli mojarolar yuzaga kelishi mumkin. Masalani munozara orqali hal qilish imkoniyatini bergani uchun ham demokratiya tinchlik va xavfsizlik zaminidir.

Shunga tayangan holda yana bir xulosaga kelish mumkin: xavfsizlik alohida maqsad emas balki xalq farovonligi uchun eng zarur shartdir. Kuchli parlamentga asoslangan demokratiyada bunga erishish mumkin:

"Inson erkin bo'lmagan jamiyat, mintaqa, davlat yoki hukumatda haqiqiy mustaqillik bo'lmaydi." – Vaclav Xavel

Davlat xavfsizligi inson xavfsizligi demakdir. Unda shaxs va jamoatchilik himoyasi birinchi o'rinda. Bu qarash davlatlarni xavfsizlikka nisbatan tahdidlarga kengroq javob berishga majbur qiladi:

- ✓ **Mojarolarning oldini olish:** kelishmovchilikka yo'l qo'ymaslik, tomonlarni murosaga chorlash, tinchlikni ravnaq toptirish;
- ✓ **Aralashish:** favqulodda hollarda, boshqa choralar samara bermasa, aholi manfaatlarini himoya qilish uchun ichki nizolarda vositachilik qilish;
- ✓ **Insonparvarlik:** fuqarolar urushi paytida yoki undan keyin jabrdiydalarga ko'mak berish. Uy-joysiz qolganlar uchun lagerlar barpo etish, qochqinlarga boshpana berish va boshqa turdagi gumanitar yordam ko'rsatish.

Harbiy xavfsizlikdan umum xavfsizlikka

“Inson xavfsizligi” faqatgina harbiy kuch orqali muhofaza qilinmaydi. Bugunga kelib, jahon hamjamiyati xavfsizlikni ta’minlashda noharbiy omillar ham muhim ahamiyat kasb etishini anglab yetgan (1-izohga qarang).

1 -izoh

Xavfsizlikka nisbatan boshqa tahdidlar...

- ▷ **Siyosiy tahdid**, jumladan, ichki siyosiy beqarorlik, hokimiyatning zaiflashishi, terrorizm va inson huquqlarining poymol etilishi;
- ▷ **Iqtisodiy tahdid**, jumladan, qashshoqlik, boy va kambag’allar o’rtasidagi tafovut, xalqaro moliyaviy inqiroz, iqtisodiy jihatdan kuchli yoki beqaror bo’lgan qo’shni davlatlar ta’siri va iqtisodiy jinoyatchilik;
- ▷ **Ekologik va antropogen omillar natijasida vujudga kelgan tahdid**, jumladan, yadroviy falokat, global iqlimdagi salbiy o’zgarishlar, zilzila va suv toshqinlari, oziq-ovqat va boshqa manbalar taqchilligi;
- ▷ **Ijtimoiy tahdid**, jumladan, ozchilik va ko’pchilik o’rtasidagi ziddiyatlar, aholi sonining ko’pligi, uyushgan jinoyatchilik, xalqaro qaradori savdosi, noqonuniy savdo/kontrabanda, nazoratsiz immigratsiya va kasalliklar.

Xavfsizlik bo’yicha keng qamrovli siyosat shunisi bilan ustunki, u tahdid turlarini tushunadi va ularga qanday javob berishni biladi. Biroq bunday siyosat natijasida xavfsizlik xizmatlari, davlat va xalq himoyasi yo’lida kuch ishlatish, buni buyurish yoki undan foydalanib qo’rqitish vakolatiga ega barcha tashkilotlar jamiyatning noharbiy jabhalarida ham faollashsa, o’ta qudratli organga aylanadi. Xavfsizlik sektori buning natijasida tug’ladigan yangi muammolarga tayyor bo’lmasligi mumkin.

Davlatlararo xavfsizlik yo’lida hamkorlik

Davlat xavfsizligi bir mamlakat xavfsizligi bilan cheklanmaydi. Xalqaro xavfsizlik keng hamkorlik talab qilishi yangilik emas. XIX asrda “kuchlar muvozanati” degan yondashuv hukm surgan. XX asrda kollektiv xavfsizlik tashkilotlari taraqqiy etdi. Davlatlar Ligasi keyinroq Birlashgan Millatlar Tashkilotiga aylandi. Mudofaa bobida boshqa ittifoqlar ham vujudga keldi, xususan, NATO – Shimoliy Atlantika Shartnomasi Tashkiloti shular jumlasidandir.

Sovuq urush ketidan jahonda ichki mojarolar alanga oldi. Terrorizm tahdidi – zamonamiz matbuotidan tushmayotgan masala. Globalizatsiya davlatlarning bir-biriga tobeligini oshirdi, jumladan, xavfsizlik sohasida ham. Bugungi kunda bir mamlakat xavfsizligiga tahdid chegaralar osha butun mintaqa, hatto dunyo tinchligiga rahna solishi mumkin. Barqarorlik va kengroq siyosat zaruriyati xalqaro hamkorlikni kuchaytirishni taqazo etmoqda.

2 - izoh

Turli xavfsizlik choralari

▷ Kollektiv Mudofaa

Kollektiv xavfsizlik deganda ikki yoki undan ko'p davlatlarning bir-birini tashqi hujum yoki xavfdan himoya qilishga, yordam berishga kelishishi tushuniladi. Bunga yaqqol misol sifatida NATO va Amerika Davlatlari Tashkilotini keltirish mumkin.

▷ Kollektiv Xavfsizlik

Bunday kelishuvda ishtirok etuvchi tomonlar kuch ishlatmaslikka va bir a'zo davlat boshqa bir a'zo hujumiga uchraganida unga yordam berishga kafolat beradi. Mazkur tizim xalqaro hamjamiyatdan xalqaro tinchlikni saqlash uchun zudlik bilan chora ko'rishni talab qiladi. Kollektiv mudofaadan farqli o'laroq, bu kelishuv ichki xavfni nazarda tutadi. BMT ana shunday tizim namunasidir. Tashkilot xartiyasining 41 va 42-moddasiga binoan xalqaro hamjamiyat tinchlikni buzgan tomonga noharbiy yoki harbiy kuch yordamida bosim o'tkazishi mumkin.

Sumber: SIMMA Bruno: The Charter of the United Nations, 1995

▷ Kooperativ Xavfsizlik

Kooperativ xavfsizlik tinchlik va barqarorlik yo'lida kengroq harakat qilishni talab qiladi. Kollektiv xavfsizlik ko'lamini oshirishni ko'zda tutadi. U miqyos jihatdan ko'p-qirrali kafolat; alohida davlatlar uchun emas, hamma uchun; a'zolikni cheklamaydi; ikki emas, ko'p davlatli yondashuvni ma'qul ko'radi; harbiy choralarni ustun qo'ymaydi; xavfsizlik tizimida davlatlar asosiy o'yinchilar deb biladi; no-davlat tomonlar roli va ahamiyatini to'g'ri baholaydi; rasmiy xavfsizlik tashkilotlari tuzilishini talab etmaydi va eng muhimi, davlatlar-aro doimiy muloqotni yoqlaydi.

Sumber: EVANS Gareth: Cooperating for Peace, 1993

“Kollektiv mudofaa chorasini” eng keng hamkorlik turlaridan biridir. Xavfsizlik bobida birgalikda harakat qilishning boshqa yo'llari ham bor. Ikki yoki bir necha davlat o'rtasida bitimlar imzolanishi mumkin. Ularning rasmiy yoki biror harbiy ittifoqqa bir-lashishi shart emas.

Barqarorlik yo'lida hamkorlik qilish uchun biror tashkilotga, ayniqsa kollektiv mudofaa tashkilotiga a'zo bo'lish mamlakat xavfsizligiga kuchli ta'sir o'tkazadi. Bu qadam bilan davlat xavfsizligi mustahkamlanishi va tahdidga nisbatan birgalikda zarba berilishi mumkin. Ammo a'zolikning o'z talablari bor: davlat tashkilot maqsad va shartlariga javob berishi kerak. Natijada mamlakat o'z xavfsizlik siyosatini mustaqil ravishda belgilay olmasligi mumkin. Xalqaro hamkorlik tashkilotiga kirish, shuningdek, parlament nazoratini ham cheklaydi. Chunki qaror qilish jarayoni endi xalqaro sanhaga ko'chadi.

Parlament nazoratining ahamiyati

Odatda xavfsizlik siyosati ijroiya organining “tabiiy” vazifasi deb qaraladi. Chunki mazkur tizim buning uchun zarur ma’lumotga ega va zudlik bilan ish ko’ra oladi degan tushuncha hukmron. Parlamentga esa xavfsizlik masalalari bilan shug’ullanishga moslanmagan, ko’p vaqt oladigan, yetarlicha ma’lumot va salohiyatga ega bo’lmagan organ sifatida e’tirof etiladi. Modomiki, ijroiya organi boshqa siyosiy idoralar singari parlament tekshiruv va kuzatuv ostida. Parlament uchun xavfsizlik sektorini nazorat qilish naqadar muhim ekanini quyidagi to’rt omildan bilish mumkin.

Avtokratiyadan saqlovchi demokratik poydevor

Fransiya sobiq bosh vaziri Jorj Klemenso shunday degan ekan: “Urush chunonan jiddiy masalaki uni armiyaga ishonib bo’lmaydi”. Hazil o’z yo’liga, ammo bu iqtibos demokratiya nima ekanligini eslatadi. Demokratik tuzumda hokimiyat xalq tomonidan saylanadi. Demak davlatning hech bir organi nazoratdan istisno emas. Xavfsizlik sektori, ayniqsa armiya, parlament tomonidan nazorat qilinmagan davlat demokratik jamiyat emas.

Amerikalik taniqli olim Robert A. Dal “yakkahokimlikdan saqlanish siyosatidagi eng muhim va doimiy masala” degan ekan. Xavfsizlik sektori davlatning asosiy vazifalaridan birini bajarar ekan, ijroiya organini tekshirib turish va hokimiyatda muvozanatni ta’minlash talab qilinadi. Xavfsizlik sektori ustidan parlament nazorati shu bois ham davlat darajasida hokimiyat taqsimotining ajralmas bir qismidir.

Vakil bo’lmasa, soliq to’lanmaydi

Parlament ijroiya organi ustidan nazoratni byudjet orqali amalga oshiradi. G’arbiy Yevropa tarixida qonunchilik palatalari azaldan siyosiy qarorlar ular ishtirokisiz qabul qilinmasligini talab qilib kelgan. “Vakil bo’lmasa, soliq ham to’lanmaydi” degan shior ana shu davrdan qolgan. Xavfsizlik tashkilotlari davlat byudjetining katta qismini ishlatar ekan, mablag’ning samarali va ayab sarflanayotganini tekshirib turish xalq vakillaridan iborat parlament zimmasiga tushadi.

Xavfsizlik bobida qonuniy cheklovlar

Amalda xavfsizlik yuzasidan qonunlarni ijroiya organi yozadi. Bu loyihalarni izchillik bilan ko'zdan kechirish esa parlament burchidir. Xavfsizlik borasidagi yangi fikr va yondashuvlarni aks ettirish maqsadida qonunchilar bu hujjatlarga tuzatishlar kiritishni taklif etishi mumkin. Qonunlarning faqat qog'ozda qolib ketmasdan amalda rioya qilinishini ta'minlash ham parlamentga yuklangan.

Omma bilan ko'prik

Ijroiya organi xalqni xavotirga solayotgan barcha xavfsizlik muammolari haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lmasligi mumkin. Parlament a'zolari aholi bilan doimiy aloqada bo'lib, uning fikrini o'rganib turadi. Shu sabab vakillar xalq dardini ko'tarib chiqishi va bu masalalar xavfsizlik bilan bog'liq qonun va siyosatda o'z aksini topishi mumkin.

Xavfsizlik sektori ustidan parlament nazorati yo'lidagi asosiy to'siqlar

Parlament bunda asosan uch muammo bilan yuzlashadi:

- ✓ Davlat sirlarini saqlash to'g'risidagi qonunlar xavfsizlik sektori faoliyatini oydinlashtirishga halal berishi mumkin. Ayniqsa yosh demokratik davlatlar yoki nizolar hukmron jamiyatlarda mazkur qonunlar sababli nazorat cheklanishi ehtimoldan holi emas. Buning yana bir sababi mamlakatda axborot olish erkinligini kafolatlovchi qonunlarning yo'qligidir.
- ✓ Xavfsizlik sektori o'ta murakkab soha bo'lib, parlamentlar qurol ta'minoti, qurolaslah nazorati va harbiy bo'limlarning tayyorgarligi kabi masalalarni muhokama qilishiga to'g'ri keladi. Qonunchilik organining hamma a'zolari ham bu mavzular borasida yetarlicha bilim va tajribaga ega bo'lmasligi mumkin. Ko'p hollarda qonunchilarning ushbu masalalarni o'rganishga vaqti yoki imkoni yetmaydi. Chunki ularning parlamentdagi muddati cheklangan. Buning ustiga ularga zarur resurslar har doim ham mavjud emas.
- ✓ Xavfsizlik bobida xalqaro hamkorlikka katta urg'u berilib, parlament jarayondan chetda qolsa, davlat xavfsizlik siyosati oshkora yoki demokratik tarzda olib borilmasligi mumkin. Shu bois parlament bu siyosat ishlab chiqilishida faol hissa qo'shishi, masala borasida xalqaro sahnadagi bahslarda va qarorlarda bevosita ishtirok etishi va ularni yaqindan kuzatishi lozim.

Parlament va davlatning boshqa organlariga yuklangan vazifalar

Mas'uliyatni taqsimlash

Parlament va ma'muriyat xavfsizlik yuzasidan turlicha rolga ega bo'lsa-da, bu soha samaradorligini ta'minlash har ikkisi uchun birdek mas'uliyat. Uni o'zaro taqsimlash uchun siyosiy va harbiy rahbarlar doimiy aloqada bo'lishi lozim. Ular bir-biriga nisbatan dushmandek ko'rilishi mumkin emas. Aksincha xavfsizlik siyosati xalq manfaati uchun xizmat qilishini ta'minlash har ikki tomondan birga ishlashni, bir-biriga suyanishni talab qiladi. Demokratik nazorat siyosiy rahbarlar va yuqori lavozimli harbiy rasmiylar o'rtasida muntazam muloqotni o'z ichiga oladi. Bu muloqot o'zaro ishonch, oshkora aloqa va yaqin hamkorlikka asoslanishi shart. Toki siyosatchi va harbiylar bir-biridan begonalashmasin va mustahkam barqarorlik uchun zamin yaratilsin.

Rollarning taqsimlanishi

Davlatning uch asosiy organi - qonunchilik, ijroiya va adliya – xavfsizlik siyosatida o'ziga xos vazifalarga ega. Ijroiya organi davlat rahbari, ma'muriyat va umumiy xodimlarni o'z ichiga oladi. Ularning vazifalari bilan 3-izohda tanishish mumkin. Lekin turli davlatlarda siyosiy tizimlar turlicha majburiyatlarga ega ekanini nazarda tutgan holda bu ma'lumotga global ta'rif sifatida qarash kerak emas.

Parlament, adliya va ijroiya organlaridan tashqari fuqarolik jamiyati ham xavfsizlik siyosati tuzilishi va amalga oshirilishida muhim hissa qo'shadi. Ommavy axborot vositalari esa xalqni davlat tizimlari nima ish qilayotgani va qanday maqsadlarni ko'zlayotgani haqida ogoh qilib turadi (6-bob qarang).

Davlat xavfsizlik siyosati va uning byudjet qanday yuritilayotganini nazorat qilishda yana ikki idora muhim rol o'ynaydi. Bular Ombudsman (16-bobga qarang) va Bosh Auditor (24-bob).

Siyosiy javobgarlik

Xavfsizlik xizmatlari davlarning har bir organi oldida javob beradi:

- ✓ **Ijroiya** organi xavfsizlik xizmatlarini markaziy, mintaqaviy va mahalliy hokimiyatlar orqali nazorat qiladi. Ularning byudjeti va asosiy faoliyatini belgilaydi hamda umumiy ko'rsatmalar beradi.

- ✓ **Qonunchilik** organi xavfsizlik xizmatlarini ularning ishini aniqlashtiruvchi, vakolatini belgilovchi va moliyalovchi qonunlar qabul qilish orqali nazorat qiladi. Parlamentda ommadan tushayotgan shikoyatlarni tekshiruvchi ombudsman yoki komissiya tashkil etish ham shu nazorat ichiga kiradi.
- ✓ **Adliya** organi xavfsizlik sektorini kuzatib boradi va qonunni buzgan xizmatchilarni fuqaro va jinoiy sudlar orqali javobgarlikka tortadi.

3 - izoh

Davlat bosh organlarining xavfsizlik bo'yicha ehtimoliy vazifalari

	Parlament	Adliya	Ijroiya		
			Hukumat rahbari	Vazirlar mahkamasi	Bosh harbiy qo'mondon
Oliy qo'mondonlik	Ayrim davlatlarda parlament munozaralar orqali Oliy qo'mondon tayinlaydi	Konstitutsion sud prezident yoki vazirlar mahkamasi bosh qo'mondon sifatida naqadar qonuniy ekanini belgilaydi	Ayrim davlatlarda hukumat rahbari faqat nominal kuchga ega. Boshqalarida esa ular haqiqiy qo'mondon. Masalan, urush paytida	Hukumat urush paytida bosh qo'mondon	Ayrim davlatlarda bosh harbiy qo'mondon faqat urush paytida tayinlanadi. Boshqalarida esa lavozim doimiydir
Xavfsizlik siyosati	Munozara orqali xavfsizlik to'g'risida qonunlar qabul qiladi		Xavfsizlik siyosatiga tegishli qonunlarga imzo chekadi	Xavfsizlik siyosati bo'yicha takliflar kiritadi va qonunlarni amalga oshiradi	Hukumatga maslahat beradi, rejalar tuzadi, xavfsizlik siyosatini amalga oshiradi
Byudjet	Byudjetni ma'qullaydi			Byudjet taklif qiladi	Hukumatga maslahat beradi
Mudofaa qonunlari	Qonunlar qabul qiladi	Konstitutsion sud qonunlarning bosh qomusga naqadar mos ekanini belgilaydi	Qonunlarning e'lon qilinishi buyuradi	Qonunlar taklif qiladi va ustavlar qabul qiladi	Hukumatga maslahat beradi; qonunni amalga oshiradi



Kadrlar	Ayrim davlatlarda bosh lavozimlarga kimlar tayinlanishini parlament ma'qullaydi	Kadrlar hulqi va harakati naqadar qonuniy ekanini belgilaydi	Asosiy qo'mondonlar tayinlaydi; kadrlar yuzasidan rejalarni ma'qullaydi	Asosiy qo'mondonlar tayinlaydi	Kadrlar yuzasidan maslahat beradi; rejalarni amalga oshiradi; quyi qo'mondonlar tayinlaydi
Ta'minot	Meninju dan/atau menyetujui proyek-proyek pengadaan persenjataan yang penting	Menghakimi dalam pengadilan atas pelanggaran hukum tentang korupsi dan penipuan		Mengusulkan pengadaan persenjataan	Memprakarsai dan melaksanakan pengadaan persenjataan
Chetga qo'shin yo'llash/ xorijiy qo'shirlarni qabul qilish	<i>Priori (oldindan)</i> ma'qullash, <i>Posteriori (keyin)</i> ma'qullash yoki rad etish	Ularning hatti-harakati naqadar qonuniy ekanini belgilaydi		Xalqaro ishtirok yuzasidan muzokara olib boradi va qoidalar bo'yicha qaror qabul qiladi)	Operatsion boshqaruv bilan mashg'ul
Xalqaro bitimlar, ittifoqlarga qo'shilish	Xalqaro bitimlarni tasdiqlaydi		Xalqaro bitimlarni ratifikatsiya qiladi va imzo chekadi	Xalqaro muzokaralar uchun mas'ul	Hukumatga maslahat beradi

Yuqorida aytilganidek, turli davlatlarda davlat organlari turlicha rolga ega. Ammo hokimiyatni to'g'ri taqsimlash javobgarlik va muvozanat uchun juda muhim. Bu ayniqsa xavfsizlik sohasida siyosiy suiste'molga berilishdan saqlaydi. Ko'p mamlakatlarda ma'muriyat xavfsizlikni boshqarishini hisobga olsak, parlamentga buni nazorat qilish uchun kuchli vakolat va resurslar berilishi zarur. Xavfsizlikda yangidan-yangi muammolarga duch kelinar ekan, ularga yechim topish uchun davlat idoralari ham o'z rollarini qayta ko'rib chiqishga majbur (1-qismga qarang).

Demokratik va parlament nazorati asoslari

Xavfsizlik va mudofaa davlat suvereniteti bilan bog'liq masala deb qaralar ekan, demokratik va parlament nazorati yuzasidan xalqaro me'yorlar mavjud emas. Bu borada ba'zi mintaqaviy standartlarni tilga olish mumkin, jumladan, Yevropada

PI va QKDNQ – Xavfsizlik sohasi ustidan parlament nazorati, 2003

Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti Ahloqiy Qoidalari (66-izohga qarang). Fuqaro-harbiy munosabatlari demokratik kechishi yo'lida ham qator tamoyillar bor:

- ✓ Davlat qurolli kuchlarni nazorat qiluvchi yagona qonuniy hokimiyatdir; xavfsizlik xizmatlari qonuniy demokratik boshqaruv oldida javobgardir;
- ✓ Parlament oily organdir. Ijroiya tizimi xavfsizlik va mudofaa siyosatini tuzish, amalga oshirish va kuzatish bo'yicha uning oldida javob beradi;
- ✓ Parlament mudofaa va xavfsizlik xarajatlarini belgilash va tekshirish uchun alohida konsitutsion rolga ega;
- ✓ Parlament mamlakatda favqulodda holat yoki urush e'lon qilinishida va uni bekor qilishda ham o'ta muhim rol o'ynaydi (18-bobga qarang);
- ✓ Samarali boshqaruv asoslari (44-izohga qarang) va qonun ustuvorligi hukumatning barcha tizimlariga tegishlidir, xususan, xavfsizlik sektoriga;
- ✓ Xavfsizlik sektori xodimlari davlat va xalqaro qonunlarni (fuqaro yoki jinoiy) buzgani uchun sud oldida javob beradi;
- ✓ Xavfsizlik sektori siyosiy jihatdan neytraldir.

4 - izoh

Xavfsizlikni demokratik nazorat qilishda samarali boshqaruv ahamiyati

"Samarali boshqaruv oshkora va aniq siyosat yuritish demakdir. Bu xalq manfaatini ko'zlovchi, professional tamoyillarga rioya qiluvchi, qonun ustuvorligini ta'minlovchi, adolatli jarayonlarni ma'qul ko'ruvchi, siyosatda fuqaro jamiyati ishtirokini quvvatlovchi idora usulidir. Zaif boshqaruv esa buning aksi bo'lib, unda siyosat yuzaki va yakkahokimlik hukmron bo'ladi. Tizim o'zini xalq oldida javobgar hisoblamaydi. Ma'muriyat adolat bilan ish tutmaydi yoki qonunlarni amalga oshirmaydi. Ijroiya organi o'z kuchini suiste'mol qiladi. Unda fuqarolik jamiyati siyosatdan uzoqlashtiriladi va korrupsiya keng tarqaladi".

Manba: Jahon Banki. 1994. Boshqaruv: Jahon Banki Tajribasi Vashington

Ikkinchi Qism

**Davlat xavfsizlik siyosati
ustidan nazorat**

Davlat xavfsizlik siyosatining tuzilishi

Asos

Davlat xavfsizlik siyosati oddiy qilib aytganda hukumatga xavfsizlikka qanday yondashish va barqarorlikni qanday ta'minlashni o'rgatadi. Bu siyosatga binoan qilingan qarorlar davlat va jamiyatning ichki va tashqi xavfsizligiga ta'sir o'tkazmay qolmaydi. U harbiy tizimga yo'l ko'rsatadi va sohani tebratadi. Xavfsizlik siyosati davlat a'zo xalqaro va mintaqaviy kelishuvlarga rioya qilgan holda tuziladi. Shunday ekan, uni faqatgina ichki xavfsizlik bilan bog'liq omillar emas, balki tashqi bosim va majburiyatlar ham belgilaydi. Xavfsizlik siyosati mamlakat konstitutsiya yoki xartiyasida bitilgan qadriyat va prinsiplarga javob berishi kerak.

5 - izoh

Davlat xavfsizlik siyosatini savolga tutish

Xalq saylagan vakillar davlat xavfsizligi yuzasidan hujjatlar tasdiqlaganda, ular ustidan munozara qilganda yoki turli vaziyatlarda ular ijrosi haqida bahslashganda quyidagi masalalar borasida o'ylanishi lozim:

- ✓ Jamiyat qanday tahdid va xavf bilan yuzlashmoqda? Kimning qanday manfaatlari himoya qilinmog'i lozim? Davlatga qanday xavfsizlik kerak?
- ✓ Davlat xavfsizlik siyosati uyushgan jinoyatchilik va terrorizm kabi yangi tahdidlarni hisobga oladimi?
- ✓ Qancha xavfsizlik yetarlicha xavfsizlik?
- ✓ Davlat xavfsizligiga qanday erishish mumkin? Ittifoqlarga qo'shilibmi? Neytral turibmi?
- ✓ Davlat xavfsizlik kuchlari qanday amaliyotlarni bajarishi mumkin? Faqat mudofaa bo'yichami yoki ular tinchlik saqlash uchun safarbar etilishi ham mumkinmi?
- ✓ Yetarlicha xavfsizlikka erishish nimalarni talab qiladi va buning uchun qanday choralar ko'rilishi lozim? Qancha muddatga va qanday vaziyatda?
- ✓ Davlat xavfsizlik siyosati qachon qayta ko'rib chiqilishi kerak?



- ✓ Xavfsizlik siyosati xalqaro insonparvarlik va inson huquqlari qonunlari hamda prinsiplariga rioya qilishini qanday kafolatlash mumkin?
- ✓ Bu siyosat qanday moliyaviy va iqtisodiy oqibatlarga olib boradi? Soliq to'lovchining qurbi yetadimi?
- ✓ Bu siyosat va uning amaliyoti tashqi aloqa va mintaqaviy barqarorlikka qanchalik ta'sir ko'rsatadi?
- ✓ Ommaviy qirg'in qurollari yuzasidan davlatning hozirgi strategiyasi qanday va u kelajakda qanday bo'ladi?

Odatda davlat xavfsizlik siyosatini amalga oshirishda ko'plab boshqarma va idoralar ishtirok etadi hamda son-sanoqsiz hujjatlar yoziladi. Shu bois ham mamlakat keng qamrovli va aniq, xavfsizlik bilan bog'liq barcha jihat va tomonlarni o'z ichiga olgan siyosat ishlab chiqishi lozim. Shundagina hukumat masala bilan izchil shug'ullana oladi. Yangi tahdidlar, jumladan, terrorizm va xalqaro jinoyatlarga qarshi kurash puxta choralar talab qililadi. Bu kurashda harbiy boshqarmalar, ichki ishlar bo'limlari, chegara va razvedka xizmatlari hamda moliya vazirligi qatnashishi shart.

Parlament aralashuvi

Xavfsizlikni ta'minlashda qanchalik ko'p idora hissa qo'shishini va parlamentning asosiy vazifasi xalq manfaatini va muammolari yo'lida ishlash ekanini hisobga olsak, qonunchilik organi davlat xavfsizlik siyosatini ishlab chiqishda faol ishtirok etishi va bu borada qarorlarni oshkora tasdiqlashi lozim. Buning qator sabablari bor:

- ✓ Davlat xavfsizlik siyosati xalq hayoti, qadriyatlarini va ijtimoiy ta'minotni o'zgartiradi. Bu masalalar faqat ijroiya yoki harbiylar qo'lga topshirilmasligi kerak.
- ✓ Davlat xavfsizlik siyosati armiya va zobitlar kelajagini belgilaydi.
- ✓ Davlat xavfsizlik siyosati xalqning moliyaviy ahvoriga va soliq to'lovchining cho'ntagiga ta'sir ko'rsatmay qolmaydi.
- ✓ Moliyaviy oqibatlardan tashqari xavfsizlik choralari fuqaro erkinliklari va huquqlarini cheklashi va demokratiyaga zarba berishi mumkin.
- ✓ Parlament xavfsizlik choralari xalqaro insonparvarlik qonunlarini buzmasligini kafolatlashi kerak. Xususan, to'rt Jeneva Konvensiyasi, ikki Protokol, Inson Huquqlari Umumbashariy Deklaratsiyasi hamda Fuqaro va Siyosiy Huquqlar bo'yicha Xalqaro Bitimlarga rioya qilinishi shart.

Xavfsizlik siyosatini amalga oshirishda parlament roli

Davlat xavfsizlik siyosati yuzasidan munozaraga to'rt bosqichdan iborat jarayon deb qarash lozim: uni ishlab chiqish, qaror qabul qilish, tadbiq etish hamda natijani baho-

lash. Siyosatni qanday yuritish ijrochilarga havola bo'lsa-da, jarayon iloji boricha ochiq olib borilishi va ko'pchilik fikrini aks ettirishi muhim. Toki xavfsizlik siyosati-gata'sir ko'rsatuvchi barcha tomonlar, jumladan, xavfsizlik sektori va mudofaa kompleks orasida muvozanat saqlansin.

Ijroiya organlariga omma xohish-istagini yetkazish maqsadida qonunchilar o'z ixtiyoridagi mexanizmlarni ishga sola oladi: og'zaki va yozma savollar, takliflar, rasmiy talablar, parlament qo'mitalarida tinglovlar, ish qog'ozlari hamda davlat idoralari va vazirlarga arznomalar. (14-bobga qarang).

Siyosatni ishlab chiqish

Davlat xavfsizlik siyosatini tuzishda parlament cheklangan rol o'ynaydi. Bu vazifa odatda tegishli idora va agentliklarga yuklanadi. Ammo bu boradagi siyosat xalq ehtiyojlarini qondirishini ta'minlash va kerak bo'lsa, qonun loyihasiga o'zgartirishlar kiritish deputatlarning vazifasidir.

Qonunchilar faqatgina hujjatni tasdiqlash yoki rad etish bilan cheklanmaydi. Loyiha matni yuzasidan parlamentning tegishli qo'mitalari bilan boshidan maslahatlashib ish tutgan ma'qul. Shu zaylda hujjat tayyor bo'lgach va parlamentga taqdim etilgach, debatlar ham ijobiy ruhda o'tadi. Mamlakatning oliy manfaatli qonunchilik organidagi raqib guruhlar orasidagi raqobatdan hamisha ustun turadi va qonun matnining demokratik ruhda chiqishiga halal bermasligi lozim. Parlament ana shu tarzda ishlab chiqilgan va muhokamaga qo'yilgan hujjatlarga o'zgartirishlar kirita oladi.

Qaror qabul qilish

Qaror qabul qilish bosqichida parlament faol ishtirok etishi kerak. Buning ustiga xavfsizlik siyosati bo'yicha hujjat qonunchilarga yetib kelgach u "parlament mulki"ga aylanadi va uning taqdiri uchun deputatlar javobgar deb hisoblash mumkin. Loyihani shoshmasdan, mufassal o'rganib chiqish lozim.

Hujjat ma'qul deb topilsa, parlament uni qabul qilish yoki uni o'zgartirishni talab qilish huquqiga ega. Aynan shu bosqichda qonunchilar ularga berilgan imkoniyatlardan to'liq foydalanishi kerak. Munozara va debatlarida nimalarni savolga tutish haqida sal avval aytib o'tgan edik.

Qaror qabul qilish jarayonida parlament qo'lidagi eng asosiy qurol byudjetdir. (Qo'shimcha ma'lumot kitobning 6-qismida). Xavfsizlik sektori byudjetini parlament qo'mitalarida alohida muhokama qilish va uning har bir bandiga ovoz berish mumkin. Mamlakat mudofaasi bilan bog'liq rejalar va moliyaviy ehtiyojlar muhokamadan oldin belgilab olinadi.

Xavfsizlik masalasiga bag'ishlangan debatlarini oshkora o'tkazib, omma e'tiborini jalb qilish ulkan ahamiyatga ega. Shunday ekan, parlamentdagi tinglov va muhokamalar oddiy fuqarolarga va ommaviy axborot vositalariga ochiq bo'lishi zarur.

Tadbiq etish

Xavfsizlik bobida parlamentning roli qonun loyihasi va byudjetni ma'qullash bilan cheklanmaydi; audit va nazorat funksiyalarini ham to'liq ishga solish darkor. Tadbiq

etish jarayonida parlament o'z tasarrufidagi mexanizmlar (14-bob) va taftish qiluvchi idoralar yordamida (24-bob) hukumat faoliyatini sinchiklab tekshiradi. Ayniqsa, byudjetga doir qarorlari orqali o'z so'zini o'tkazishi mumkin. Parlament, shuningdek, audit idoralarning professional va texnik jihatdan butligini ko'zdan kechiradi.

Mamlakatda yirik o'zgarish va mojarolar ro'y berganda hukumat harakatlarini tasdiqlash ham qonunchilarning vazifasidir. Masalan, xorijga qo'shin safarbar etish (22-bob) yoki favqulodda holat e'lon qilishda (18-bob). Bundan tashqari parlament hukumat jiddiy xatolar qilganda ham aralashishi mumkin. Qonunchilar odatda hukumatni savolga tutadi va ekstremal holatlarda maxsus tergovlar o'tkazadi.

Xulosa va saboq

Demokratik jamiyatlarda hukumat siyosiy qarorlarning qanchalik o'rinli ekanini chuqur baholash va natijani parlamentga taqdim etish uchun javobgardir. Qonunchilar ushbu hisobotda audit xulosalari va byudjetga doir aniq raqamlar keltirilganiga ishonch hosil qilgach, uni bafurja ko'rib chiqadi. Hisobot kechikkan taqdirda ham undagi ma'lumotlardan samarali foydalanish mumkin. Fuqarolik jamiyati faol mamlakatlarda nohukumat tashkilotlar ham alohida tekshiruv o'tkazadi. Masalan, tinchlik missiyalari, yirik va qimmatbaho qurol-yarog'lar va mudofaa vazirligining kadrlar, ayniqsa, harbiy xizmatga yollash/chaqirish tizimiga baho beriladi. Parlament maxsus audit uchun konsultant-maslahatchilarni ham ishga solishi mumkin.

Qonunchi sifatida nima qila olasiz?

Xavfsizlik siyosati

- ▷ Davlat xavfsizlik siyosati, operatsion doktrinalar, mudofaa rejaları va byudjet talablari orasida mutanosiblikni ta'minlang.
- ▷ Amaldagi xavfsizlik siyosatini boshqa davlatlar strategiyasi va tajribasiga qiyoslagan holda savolga tuting. Ularning samarasini so'nggi o'zgarish va voqealarga qarab tahlil qiling. (1-qismga qarang).
- ▷ Xavfsizlik siyosatini ishlab chiqish, qabul qilish, tadbiiq etish va uning natijasini baholash jarayonini qonunlar orqali joriy eting. Uning har bir bosqichida parlamentning roli nimadan iborat ekanini belgilang.

Tegishli savollar

- ▷ Xavfsizlik siyosati muhokama qilinayotganida 5-izohda tilga olingan masalalarga e'tibor bering.

Davlat xavfsizlik siyosati va xalqaro qoidalar

Xalqaro tamoyillar

Xalqaro qonun-qoidalar davlat xavfsizlik siyosatini baʼzida cheklaydi, baʼzida esa yangi imkoniyatlarga yoʻl ochadi. Dunyoning aksariyat davlatlari Birlashgan Millatlar Tashkilotiga (BMT) aʼzo ekan, uning Xartiyasiga, xususan, 2.3 va 2.4 bandlarida amal qiladi:

“Barcha aʼzo davlatlar oʻzaro kelishmovchiliklarni xalqaro tinchlik, xavfsizlik va adolat tamoyillariga ziyon yetkazmasdan, tinch yoʻl bilan hal qiladi.”

“Barcha aʼzo davlatlari xalqaro aloqalarda boshqa mamlakatlarning hududiy yaxlitligi va siyosiy suverenitetiga tahdid solmaydi; tashkilot maqsadlariga zid harakatlar qilmaydi.”

Bundan tashqari yana qator xalqaro qonunlar ham eʼtiborga loyiq. BMT Bosh Assambleyasining xalqaro huquqlar haqidagi 2625 (XXV) sonli Deklaratsiyasi (1970) millatlar orasida doʻstona aloqalar va hamkorlik prinsiplariga bagʻishlanadi. BMT Xartiyasining ishonchli talqini deb koʻrilgan bu deklaratsiyaga barcha aʼzolar amal qilishi shart va undan quyidagi sakkiz tamoyil mustahkam oʻrin olgan:

- I Tamoyil:** Tahdid va kuch ishlatmaslik.
- II Tamoyil:** Xalqaro mojarolarni tinch yoʻl bilan hal qilish.
- III Tamoyil:** Hududiy yaxlitlik va sarhadlar daxlsizligi.
- IV Tamoyil:** Xalqlarning oʻz taqdirini oʻzi belgilash, dunyo ahli tomonidan tan olingan va kafolatlangan hududda tinch yashash huquqi.
- V Tamoyil:** Davlatlarning suveren tengligi va bir-birining ichki ishlariga aralashmasligi.
- VI Tamoyil:** Inson huquqlariga hurmat.
- VII Tamoyil:** Davlatlararo hamkorlik.
- VIII Tamoyil:** Xalqaro qonunlar asosida olingan majburiyatlarni vijdonan bajarish.

Koʻp tomonlama xavfsizlik va mudofaa bitimlari

Xavfsizlik sohasida koʻp tomonlama va xilma-xil masalalarni oʻz ichiga olgan bitimlar imzolangan. Quyida ayrim asosiy hujjatlar bilan tanishish mumkin:

Dunyo xavfsizligini belgilovchi bitim: Birlashgan Millatlar Tashkiloti Xartiyasi

Xalqaro va mahalliy miqyosdagi qurolli mojarolarni tartibga soluvchi xalqaro insonparvarlik shartnomalari: To'rt Jeneva Konvensiyasi, 1949, va ularga qo'shimcha Protokollar, 1977.

Turli qurollar va qurol tizimlarini idora etuvchi xalqaro kelishuvlar: Ballistik Raketalariga Qarshi Bitim, Strategik Qurollarni Kamaytirish To'g'risida Shartnoma, Yerosi Minalariga Doir Konvensiya, Tlatelolko Shartnomasi va hokazo.

Qisman xavfsizlik bilan shug'ullanuvchi mintaqaviy tashkilotlarga asos solgan xalqaro shartnomalar: Amerika Davlatlari Tashkiloti Xartiyasi, Yevropa Ittifoqi Shartnomasi, Xelsinki Deklaratsiyasi, Afrika Ittifoqi Ta'sis Hujjati.

Harbiy hamkorlik va mudofaa sektorida o'zaro yordam bo'yicha mintaqaviy kelishuvlar: Shimoliy Atlantika Shartnomasi (NATO), Tinchlik Yo'lida Hamkorlik Dasturi, G'arbiy Yevropa Ittifoqi Shartnomasi, Amerika Davlatlari Orasida O'zaro Yordam Kelishuvi.

Xalqaro xavfsizlik shartnomalarini ratifikatsiya qilishdan maqsad xalqaro muomala qonun-qoidalarini belgilab, xavfsizlikni mustahkamlash va ko'p tomonlama hamkorlikni yo'lga qo'yishdir. Muzokaralarni odatda davlat rahbari tashqi ishlar vazirligi orqali olib boradi.

Do'stlik, hamkorlik va o'zaro harbiy yordam bo'yicha ikki tomonlama bitimlar

Xavfsizlik siyosatini belgilashda ikki tomonlama kelishuvlar markaziy o'rinni egallaydi. Hujjat shartlari unda ishtirok etayotgan ikki tomon manfaatlari, talablari va sharoitlariga mos holda tuziladi. Masalan, sobiq Sovet Ittifoqi va Qo'shma Shtatlar orasida strategik qurollarni kamaytirish bitimi.

Bu kabi kelishuvlar nafaqat do'stlik va hujum qilmaslik kafolati sifatida qo'llanadi (Masalan, Rossiya va Armaniston o'rtasida 1997 imzolangan do'stlik, hamkorlik va o'zaro ko'mak shartnomasi), balki amaliy harbiy hamkorlik masalalarida, jumladan, chet davlatda qo'shin va qurol tizimlarini joylashtirishda ham ish berishi mumkin. 1990-yillarda Rossiya sobiq Sovet davlatlari bilan harbiy hamkorlik bitimlari imzolangan edi.

Ular zarurat tug'ilganda harbiy ko'mak ko'rsatishni ham nazarda tutadi. 1992 yilda AQSh va Qozog'iston harbiy hamkorlikni rivojlantirishga kelishib olgan edi. Hujjat 1994 yilda yangilanib, Demokratik Hamkorlik Xartiyasi deb nomlangan.

Xulosa qilib aytganda, ikki tomonlama shartnomalar xavfsizlik siyosatini yo'lga soluvchi, do'stona rishtalarni mustahkamlovchi va konkret muammolarni yechishga qodir vositalardir. Bu kabi bitimlarni tasdiqlashda va ularning matniga o'zgartirishlar kiritishda odatda parlament hal qiluvchi ovozga ega.

Parlament va jamoatchilik ishtirokining ahamiyati

Xalqaro shartnomalarni ratifikatsiyalashda jamoatchilik va parlament ishtirokini rag'batlantirish zarur. Demokratik jamiyatda ijroiya organi parlament ijozati va roziligisiz ikki tomonlama va ko'p tomonlama maxfiy bitimlar tuzolmaydi. Mamlakat suvereniteti,

hududi va maqomiga ta'sir ko'rsatuvchi xalqaro kelishuvlar parlamentda muhokama qilinishi va tasdiqlanishi shart.

Shveysariya kabi davlatlarda yirik shartnomalar referendumga qo'yiladi. Shu tariqa fuqarolik jamiyatining tashqi siyosiy qarorlarda ishtiroki kafolatlangan. Shveysariyada referendum ratifikatsiya jarayonidan oldin o'tkaziladi.

6 - izoh

Bevosita demokratiya va xalqaro kelishuvlar ratifikatsiyasi: Shveysariya misolida

Shveysariyada xalqaro shartnomalarni ratifikatsiyalashda Federal Parlament, Federal Kengash (hukumat) va aholi ishtirok etadi. Mamlakat uchun muhim bitimlar nafaqat parlamentda, balki jamoatchilik orasida ham muhokama qilinadi. Xalq o'z fikrini referendum orqali bildirib, Federal Kengashga ko'rsatma beradi. Hukumat "kollektiv xavfsizlik yoki siyosiy va iqtisodiy chegara tanlamaydigan tashkilotlarga" qo'shilmoqchi bo'lsa, referendum o'tkaziladi.

Manba: Shveysariya Federal Konstitutsiyaning 140.b bandi

Qonunchi sifatida nima qila olasiz?

Muzokaralar

- ▷ Parlament va uning tegishli qo'mitalari:
 - boshqa davlatlar bilan bitimlar tuzish jarayonida ishtirok etsin, jumladan, muzokarachilar turli siyosiy guruhlardan bo'lishini ta'minlasin;
 - muhokamadagi mavzular to'g'risida fuqarolik jamiyati, xususan, tadqiqotchilar va lobbichi tashkilotlar bilan maslahatlashsin;
 - hukumatga o'z fikr-mulohazalarini o'z vaqtida va rasman bildirsin, toki xalq tashvish va manfaatlarini inobatga olinsin.

Natija va tahlil

- ▷ Bo'lajak bitimlarning (yaqin va uzoq muddatda) siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy oqibatlari to'g'risida tahlil va hisobotlar parlamentga taqdim etilsin va muhokamaga qo'yilsin.

Ratifikatsiya

- ▷ Parlamentga hujjatlarni ratifikatsiyalash uchun yetarlicha vaqt berilsin;
- ▷ Qaror va farmoyishlarga o'zgartirishlar kiritish orqali mahalliy qonunlar va ratifikatsiyaga qo'yilgan bitim uyg'unligi ta'minlansin; zaruratga qarab qo'shimcha shartlar va izohlar kiritish ham mumkin.

Qo'shimcha shart va izohlar

- ▷ Mamlakat tomonidan qo'yilgan shart, izoh va istisnolar davlat xavfsizlik siyosati qayta ko'rib chiqilayotganda yana ko'zdan kechirilsin.

Fuqarolik jamiyati va ommaviy axborot vositalari roli

Xavfsizlik sektorining tobora kengayib, murakkablashib borishi qonunchilar uchun qator muammolar kasb etadi. Chunki sohani samarali nazorat qilish uchun parlamentlarda ko'pincha zarur resurs va mutaxassislar yetishmaydi. Hukumatni savolga tutish parlamentning oliy javobgarligi ekan, unga bu ishda yordam berishi mumkin bo'lgan nohukumat tizimlar bor. Fuqarolik jamiyati va ommaviy axborot vositalari parlament belgilagan doirada xavfsizlik sektorini tekshirishga hissa qo'shadi.

Fuqarolik jamiyati

Fuqarolik jamiyati deganda davlat va fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi mustaqil tashkilotlar tushuniladi. Ya'ni ko'ngilli uyushma va ijtimoiy harakatlar, turli manfaatlarni ko'zlaydigan tashkilot va guruhlar. Quyida ularning xavfsizlik sektorini nazorat qilishda tutgan o'rni va ahamiyatiga nazar tashlaymiz.

Fuqarolik jamiyati va demokratiya

Fuqarolik jamiyati demokratlashtirish jarayonining ajralmas qismidir. Demokratik davlatlarda uning roli tobora kengayib bormoqda. Fuqarolik jamiyati rahbarlarni sarf-xarajat va siyosatda xalq talabi va manfaatlarini inobatga olishga chorlaydi. Fuqarolik jamiyati shuning uchun ham demokratiya o'zagidir. U davlat hokimiyatiga bas kelish va avtoritar boshqaruvga qarshi turish kuchiga ega. Fuqarolik jamiyati negizida oshkorlik va turfa fikrlik yotar ekan, davlatning muayyan guruhlar qo'lida o'yinchoq bo'lib qolmasligini ta'minlaydi.

Fuqarolik jamiyati va xavfsizlik sohasi

Fuqarolik jamiyatini tashkil etuvchi guruhlar, jumladan, ilmiy muassasalar, tadqiqot markazlari, inson huquqlari va boshqa mavzularni o'rganuvchi nohukumat tashkilotlar xavfsizlik siyosatiga ta'sir ko'rsatish uchun faol harakat qila oladi.

Hukumatlar ham xavfsizlik siyosati, qurolli kuchlar, huquq-tartibot va razvedka masalalaridagi munozaralarga nohukumat tashkilotlarni jalb qilishi mumkin. Bu o'z navbatida hukumat faoliyatining oshkorligini ta'minlaydi.

Nohukumat tashkilotlar va tadqiqot institutlarining xavfsizlik sektoridagi roli va hissasi

Nohukumat tashkilotlar odatda xususiy notijoriy guruhlar bo'lib, muayyan ijtimoiy yo'nalish va manfaatlarni ko'zlab ish tutadi. Tadqiqot institutlari esa hukumatdan mustaqil faoliyat yuritishi yoki, aksincha, davlat tomonidan moliyalanishi mumkin.

Har ikkisi quyidagi yo'llar bilan xavfsizlik sektori ustidan demokratik va parlament nazoratini kuchaytirish salohiyatiga ega:

- ✓ Xavfsizlik sektori, harbiy kuch va mudofaa to'g'risida mustaqil tahlil va ma'lumotlar to'plab, ularni qonunchilik organi, ommaviy axborot vositalari va xalqqa havola etish;
- ✓ Xavfsizlik sektorida qonun ustuvorligi va inson huquqlari ahvolini kuzatish hamda hurmat qilishga chaqirish;
- ✓ Jamiyat uchun muhim bo'lgan xavfsizlik masalalariga hukumat e'tiborini qaratish;
- ✓ Qonunchilar malakasi va tajribasini oshirish uchun treyning va seminarlar tashkil etish;
- ✓ Amaldagi xavfsizlik siyosati, mudofaa byudjeti va qurol-aslaha ta'minoti to'g'risida mustaqil mutaxassislar fikrini tanishtirish, muhokamaga qo'yish va muqobil takliflar bilan chiqish;
- ✓ Xavfsizlik siyosatiga doir qarorlar va ularning ijrosini sharhlash;
- ✓ Xalqning bilim saviyasini oshirish va debat-muhokamalarga chorlash.

Xavfsizlik sektorini nazorat qilishda nohukumat tashkilotlar va tadqiqot institutlari qanday rol o'ynashini Lotin Amerikasi mamlakatlari misolida 7-izohda ko'rish mumkin.

7 - izoh

Lotin Amerikasida fuqarolik jamiyati:

Nohukumat tashkilotlarining roli va ahamiyati

Lotin Amerikasi mamlakatlarida nohukumat tashkilotlar 1980-yillar oxiri va 1990-yillarda ish boshlagan. Yangi saylangan noharbiy hukumatlar armiyani isloh qilayotgan bir paytda bu tashkilotlar oddiy aholi va harbiylar o'rtasida muloqotni yaxshilashga uringan. Natijada fuqarolik jamiyati, xalq saylagan rahbarlar va oliy qo'mondonlar orasida yaqin aloqalar o'rnatilgan. Nohukumat tashkilotlar o'shandan beri yanada takomillashib, xavfsizlik va mudofaa masalalariga noharbiy nuqtai nazardan baho beruvchi muhim axborot va tahlil manbaiga aylangan. Ular harbiy siyosat va byudjetni ham sinchiklab tekshiradi.

Misollar

Argentinada SER en 2000 tashkiloti 1990 yilgi harbiy to'ntarishdan so'ng tuzilgan edi. Tashkilot dastlab fuqarolik jamiyati, siyosiy partiyalar va harbiylar orasida muloqot vositasi edi. Ana shu tajriba asosida SER en 2000 mamlakat mufoaa siyosati negizida yotgan qonunni ishlab chiqishga ko'maklashgan.

Dominikan Respublikasida FLACSO tashkilotining fuqaro xavfsizligi va mudofaa bo'yicha ekspertlari harbiylar bilan hamkorlikda politsiyani isloh qilishga doir qonun loyihasini tuzgan. Ijroiya va qonunchilik organlariga maslahatlar bergan.

Lotin Amerikasida ko'pgina guruhlar parlamentlarning mudofaa va xavfsizlik qo'mitalari bilan yaqindan ishlab, organning harbiy nazorat salohiyatini oshirishda har tomonlama yordamlashadi.



Masalan, Peruda Instituto de Estudios Politicos y Estrategicos (IDEPE) Kongressning mudofaa qo'mitasi a'zolarini harbiy byudjet va boshqaruv masalalarida tayyorgarlikdan o'tkazadi.

Guatemalada esa FLACSO guruhi mutaxassislari razvedka va harbiy xizmatga doir qonunlarni muhokama va tahlil qilishda ishtirok etgan.

Mutaxassislarning yetishmasligi

Lotin Amerikasida mudofaa va xavfsizlik sektorida noharbiy mutaxassislarning yetishmaydi. Natijada ijroiya va qonunchilik organlari harbiylarni mukammal nazorat qila olmaydi. Shunday bo'lsa-da, fuqarolik jamiyati tashkilotlari davlat muassasalariga ko'maklashish va mutaxassislarni tayyorlash orqali qisqa muddatda bu bo'shliqni to'ldira oladi.

Tizim

SER en 2000 guruhi xavfsizlik va mudofaa masalalariga ixtisoslashgan ilmiy tadqiqot markazlari va nohukumat tashkilotlarning mintaqaviy tizimini barpo etgan. RESDAL tizimi (www.ser2000.org.ar) xavfsizlik va mudofaa bilan bog'liq qonun va qo'llanmalar to'plamidir. Shuningdek, tadqiqot imkoniyatlari va qator amaliy dasturlar taklif etadi.

Manba: Kris Sabatini, Demokratiyani Qo'llab-Quvvatlash Tashkiloti, Vashington, 2002.

Ommaviy axborot vositalari

Mustaqil axborot vositalari xalqqa va ularning siyosiy namoyandalariga ongli ravishda, asosli qarorlar qabul qilishda ko'maklashadi. Ular hokimiyat organlari faoliyatini kuzatishga hissa qo'shib, muhokamaga qo'yilgan masalalar mohiyati va sifatiga e'tiborni oshiradi. Bu o'z navbatida hukumat, biznes, ilm ahli va fuqarolik jamiyatini faollikka undaydi. Shunday ekan, erkin matbuot demokratiyaning tarkibiy qismidir. 8-Izohda o'z hukumatini tanqid qilishga uringan jurnalistlar qanday muammolarga duch kelishi qayd etilgan. Jurnalistlar xavfsizligi ta'minlanmagan jamiyatda so'z erkinligi bo'lmaydi.

8 - izoh

Yangicha urushlar: matbuot erkinligi uchun murakkab davr

“Dunyo aholisining qariyb uchdan bir qismi so'z erkinligi bo'g'ilgan mamlakatlarda yashaydi... Biz urush zonalarida tasodifan halok bo'lgan jurnalistlar va qaltis mavzularni yoritgani, o'zboshimcha siyosat, o'g'rilik, nohaqlik, jinoyat va yulg'ichlikni tanqid qilgani uchun ataylab nishonga olingan muxbirlarni bir-biridan farqlashimiz zarur. Yangicha urushlar avvalgidek armiyalar o'rtasida emas balki etnik, mafkuraviy, diniy va jinoyat manfaatlar o'rtasida kechar ekan, bu jarayonlarni yoritish tobora xavfli bo'lib bormoqda. Bu mojaralarda jurnalistlarning o'limi yoki jarohatlanishini doimo tasodif deb bo'lmaydi. Urush guvohlari jangarilar va hatto harbiylar tomonidan ham nishonga olinadi”.

Manba: Yillik Hisobot 2002, Chegara Bilmas Muxbirlar

Ommaviy axborot vositalari hukumat nazorati ostida bo'lgan jamiyatlarda ular amaldorlar qo'lidagi propaganda vositasidir. Bunday sharoitda axborot vositalari qurolli kuchlar ustidan ochiq va demokratik nazoratni oshirish yo'lida hissa qo'sha olmaydi.

Internet asrida rasmiy ma'lumotlar olish qiyin emas. O'tgan o'n yillikda bu yo'nalishda ijobiy qadamlar tashlangani, oshkoralik va ijtimoiy javobgarlik oshgani kuzatiladi. Bu jarayonni qo'llab-quvvatlash lozim. Chunki axborot erkinligi fuqaro bilim saviyasini oshiradi, bahs-munozaralarni mazmunan boyitadi va shu tariqa boshqaruvni yaxshilaydi. Internetning o'ziga xos salbiy jihatlari ham bor. Ekstremist guruhlardan, deydik, irqchilik va antisemitizm g'oyalarini tarqib qilish uchun foydalanadi. Qaynoq nuqtalarda ba'zida radio stansiyalar ekstremistlar uchun minbar sifatida xizmat qiladi va o'zaro nafrat urug'ini sochadi.

Xavfsizlik sohasida ma'lumot to'plash va tarqatish

Demokratiya va adolatli boshqaruv nuqtai nazaridan qaraganda ommaviy axborot vositalari xalq manfaati yo'lida xavfsizlikka doir ma'lumot to'plash va tarqatish erkinligiga ega. Ular haqqoniy, aniq va xolis axborot uzatish uchun javobgardir.

Hukumat va parlament xalqqa o'z qarorlari va siyosatini ommaviy axborot vositalari orqali tushuntiradi. Biliş va shu asnoda siyosiy jarayonda ishtirok etish esa fuqarolarning uzviy huquqidir. Masalan, axborot vositalari xavfsizlik idoralari rahbarlari, xavfsizlik siyosati, chet elga qo'shin safarbar etish, harbiy doktrina, ta'minot, kelishuvlar, ishtirokchilar va kun tartibiga qo'yilgan mavzular haqida ma'lumot tarqatib, ommani ulardan xabardor qiladi. Biroq maxfiy ma'lumotlarga kelganda tashqaridan yoki o'z o'zini senzura qilish hollari kuzatiladi.

Ommaviy axborot vositalari va xavfsizlikka tegishli qonunlar

Barcha mamlakatlarda so'z erkinligi to'g'risida qonunlar qabul qilingan. Inson Huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasining 19-bandida quyidagi satrlar bitilgan:

“Har bir inson fikr va so'z erkinligiga ega. Jumladan, aralashuvsiz mulohaza yuritish, ma'lumot va g'oyalar izlash, olish va har qanday axborot vositasi orqali uzatish huquqiga ega”.

Bunday erkinlikka qanday erishish va uni himoya qilishga qaratilgan xalqaro dasturko'rsatmalar mavjud emas. Qayd etish joizki, yuqoridagi prinsipda xavfsizlik sohasiga tegishli ehtimoliy cheklolarga umuman ishora qilinmagan.

9 - izoh

Matbuot erkinligining 2001 yil 11 sentabrdan keyingi ahvoli

Har yili 3 may kuni Xalqaro Matbuot Erkinligi Kuni nishonlanadi. 2002 yilda ushbu bayram munosabati bilan asosiy diqqat turli davlatlarda 2001 yilning 11 sentabri ketidan ko'rilayotgan xavfsizlik choralari va ularning matbuot erkinligiga ehtimoliy ta'siriga qaratildi.

“Terrorizm tahdidi bilan yuzlashar ekanmiz, erkinlik muhimmi yoki xavfsizlik deya o'ylanib qolganmiz. Terrorizmga qarshi kurashning asl maqsadi erkinliklarni asrab qolish bo'lishi kerak”, – deydi Koichiro Matsuura, BMT Ta'lim, Ilim-Fan va Madaniyat Tashkiloti (UNESCO) bosh direktori.

Manba: Parlamentlar Dunyosi, 6-son, may, 2002, Parlamentlararo Ittifoq.

Parlament va xalq orasida xavfsizlik mavzusida muloqot

Demokratik nazorat, samarali boshqaruv prinsipi sifatida, xalq parlamentda qanday yirik mavzular muhokamada ekanini bilsagina ish berishi mumkin.

Xavfsizlik bobida fikrlar almashinuvi hukumat va parlament tomonidan ommaga havola etilgan ma'lumotlarning qanchalik aniq va serob ekaniga bog'liq. Aholiga kerakli va yetarli ma'lumotni yetkazish qonunchilar nazaridan chetda qolmasligi zarur, toki odamlarning bu boradagi bilimi oshsin va qarorlar zamini va natijasini tushunib yetsin.

Matn-ma'lumotlarni ommaga yetkazish

Parlament hukumat bilan hamkorlikda yoki yakka tartibda, xavfsizlikka doir turli ma'lumot va hujjatlarni ommaga yetkaza oladi. Masalan, bosma shaklda va hozirga kelib, veb sahifalari orqali.

10 - izoh

Parlamentning Internetdagi sahifasi

2002 yilning may oyidagi hisoblarga ko'ra, dunyoning 180 davlatida jami 244 qonunchilik palatasi ish yuritayotgan edi. Jahonning 64 parlamenti ikki palataga ega. Parlamentlararo Ittifoqqa ko'ra, 128 mamlakat parlamentlarida jami 165 internet sahifasi ishlayotgan edi. Ayrim davlatlarda parlamentning har bir palatasi alohida saytga ega. Parlamentlararo Ittifoq kengashi 2000 yilning mayida "Parlament veb sahifalari mazmuni va tuzilmasi uchun qo'llanma" ishlab chiqqan: <http://www.ipu.org>

Xavfsizlik sektori bilan bog'liq quyidagi ma'lumotlarni omma e'tiboriga, o'zlashtirishga oson shaklda, havola etish mumkin:

- ✓ Strategik ahamiyat kasb etuvchi hujjatlar;
- ✓ Mudofaa byudjeti (maxfiy mablag' mustasno);
- ✓ Parlamentda xavfsizlik mavzusida kechgan debat-muhokama, qaror va takliflar xususida press-revizlar;
- ✓ Parlament va uning qo'mitalarida xavfsizlik bo'yicha yig'ilish va muhokamalar protokoli (yopiq eshiklar ortida o'tgan majlislar mustasno); protokolda yopiq tinglovning muhokama doirasi va javobgarlik me'yori qayd etiladi;
- ✓ Xavfsizlik masalalari yuzasidan parlament so'roviga doir bosma materiallar;
- ✓ Parlamentning xavfsizlik xizmatlari faoliyati to'g'risida yillik tahlilnoma va xulosalari;
- ✓ Ombudsman va audit idorasining xavfsizlikka tegishli hisobotlari; ba'zi hollarda ombudsman o'tkazgan maxsus tekshiruv xulosalari faqatgina parlament qo'mitalariga topshiriladi; hukumat ombudsman va auditorlar hisoboti asosida qanday chora ko'rishini parlament muhokamasiga qo'yishi darkor;
- ✓ Ko'p tomonlama va ikki tomonlama kelishuvlar haqida ma'lumot;
- ✓ Deputatlar va siyosiy fraksiyalar xavfsizlik masalalarida (masalan, byudjet, xalqaro ittifoqlarga qo'shilish, harbiy xizmat yoki ta'minot) qanday ovoz bergani haqida ma'lumot;
- ✓ Ma'lumot/axborot olish va uzatish erkinligi to'g'risidagi qonunlar.

Ommani parlament faoliyatiga jalb qilish

Bir tomonlama, deylik, parlament yoki hukumatdan xalqqa ma'lumot uzatish bilan cheklanish yaramaydi. Qonunchilar xalqqa xavfsizlik masalalarida o'z fikrini bildirish imkoniyatini berishi lozim. Ikki tomonlama aloqa-dialog muhim, chunki bunda:

- ✓ Fuqaro tomonidan ishtirok va nazorat ta'minlanadi;
- ✓ Xalqning parlament faoliyatiga nisbatan ishonchi oshadi;
- ✓ Boshqaruvda xatolarning oldi olinadi (masalan, parlament ombudsmeni orqali);
- ✓ Ommaning qonunchilik va hukumat siyosatiga ishonchi va natijada demokratik barqarorlik mustahkamlanadi.

Ikki tomonlama aloqani yaxshilashga xizmat qiluvchi vositalar – parlament tarqatuvchi ma'lumotlar, tinglov va axborot monitoring xizmati, televizion munozaralar, parlament qoshidagi tadqiqot markazlari tomonidan qo'mita a'zolari uchun tayyorlangan maxsus axborotnomalar va hokazo.

11 - izoh

Parlamentlar va ommaviy axborot vositalari

"11. Assambleya jahon parlamentlarini quyida bayon etilgan maqsadlar yo'li-da zudlik bilan chora ko'rishga chaqiradi:

- i. Parlament faoliyati, jumladan, qo'mita yig'ilishlari oshkora yuritilishini ta'minlash; bunga nafaqat kommunikatsion siyosat nuqtai nazaridan, balki demokratik muhitga ta'sir ko'rsatuvchi siyosiy omil deb qarash;
- ii. An'anaviy kommunikatsiya usullari va yangi axborot texnologiyalarini birgalikda qo'llash, jumladan:
 - a. ommaviy axborot vositalari, ayniqsa, parlament muxbirlariga ishlash uchun eng qulay sharoitni yaratib berish;
 - b. debatlar haqidagi ma'lumotni tezlikda tarqatish – yig'ilish protokoli va so'zma-so'z matnini kechiktirmasdan chop etish;
 - c. Fuqarolar va jurnalistlarga internet orqali to'g'ridan-to'g'ri chiqish;
 - d. muayyan qonun loyihasiga ovoz berish oldidan omma orasida muhokamani rag'batlantirish maqsadida parlament hujjatlari bilan tanishish uchun keng imkoniyatlar yaratish;
- iii. Kommunikatsiya sohasi mutaxassislaridan maslahat olish;
- iv. Qonun loyihasi matnlarini oddiy o'quvchilar e'tiboriga havola etish;
- v. Ish tartibini osonlashtirish va tezlashtirish yo'llarini belgilab, ko'proq siyosiy muhokamaga urg'u berish;
- vi. Axborot xizmatlari orasida qonunlar majmua-to'plamini tuzish harakatlari qo'llab-quvvatlash; qiziqqan muxbirlar va professional doiralarga mazkur to'plam bilan tanishga yo'l berish;
- vii. Jurnalistlarni parlament ishi bilan yaqinroq tanishtiruvchi seminarlar tashkil etish, toki ular qonunchilik tartibi hamda parlament va xalqaro tashkilotlar orasidagi munosabatlar haqida ko'proq bilsin; mahalliy muxbirlarga alohida e'tibor qaratish lozim.
- viii. Fuqarolarning deputatlar va parlament axborot xizmatlari bilan aloqada bo'lishi uchun internetda kommunikatsiya tizimlarini barpo etish;



- ix. Yevropa Ittifoqining ayrim davlatlari, AQSh va Kanadada bo'lgani singari parlament faoliyatini yorituvchi mustaqil televizion kanallar ochilishini rag'batlantirish;
- x. Erkin bozor sharoitida qiynalayotgan, ammo mustaqil tarzda sifatli axborot uzatishni maqsad qilgan ommaviy axborot vositalariga ko'mak berish, jumladan, ularni moliyaviy quvvatlash".

Manba: Yevropa Kengashi Parlament Assambleyasining 1142-rezolyutsiyasi (1997)

Fuqaro faol bo'lmagan jamiyat demokratik barqarorlikka erisha olmaydi. Uning siyosiy jarayonlardagi ishtirok ko'lami har bir davlatda turlicha. Ba'zi parlamentlar fuqarolarni qo'mita yig'ilishlariga kiritadi. Nohukumat tashkilotlar va qonunchilik jarayoniga shunchaki qiziqqan fuqaro uchun bu ulkan ahamiyatga ega. Ular muhokamaga aralashish huquqiga ega bo'lmasa-da, yig'ilishda hozirlikning o'zi katta gap.

Qonunchi sifatida nima qila olasiz?

Nohukumat tashkilotlarning xavfsizlik siyosatiga ta'siri

- ▷ Xavfsizlik masalalarida fuqarolik jamiyati vakillarining fikr-mulohazasi parlament tomonidan hisobga olinishini ta'minlang.
- ▷ Shu maqsadda, agar zarurat bo'lsa, qonun loyihasi bilan chiqing, toki malakali muassasalar, nohukumat tashkilotlar va ommaviy axborot vositalari parlamentning xavfsizlik qo'mitalari ishida ishtirok eta olsin.

Omma xabardorligi

- ▷ Parlamentning xavfsizlikka doir qarorlari va ularni qabul qilish jarayoni haqida omma to'liq ma'lumot olishi uchun sharoit yarating.

Xavfsizlik va s'oz erkinligi orasidagi bog'liqlik

- ▷ Xavfsizlik xususidagi tashvishlarga qaramasdan matbuot erkinligi ham qonunda, ham amalda ta'minlanishi, cheklolvar esa xalqaro inson huquqlari tamoyillariga zid bo'lmasligi lozim.
- ▷ Axborot erkinligi to'g'risidagi qonunlarga amal qilinishini ta'minlang.

Xavfsizlik siyosati ikki jins nigohida

Jinsiy tenglik yaqin o'tmishda ommaviy sahnaga ko'tarilgan masala bo'lib, bugungi kunda unga, ayniqsa, xavfsizlik sohasida katta e'tibor qaratilmoqda. Buning qator sabablari bor. Qurolli mojarolardan jabr ko'rayotgan insonlar, jumladan, qochqinlar va uy-joyidan ayrilgan odamlarning aksariyati xotin-qizlar va bolalardir. Shuningdek, jahon aholisining yarmidan ko'pi ayollar ekan, teng huquqli fuqarolar sifatida ular ham dunyo tinchligiga o'z hissasini qo'shadi. Xavfsizlikni ta'minlashda ayollar iqtidori va bilimidan foydalanish xalq manfaatlariga uchun xizmat qiladi va har tomonlama ijobiy o'zgarishlarga olib boradi. Xavfsizlik siyosatida jinsiy tenglikni ta'minlashning ikki yo'li bor. Birinchidan, siyosat har ikki jins uchun muhim bo'lgan omillarni hisobga olishi lozim. Xotin-qizlar huquqlari va foydasini ko'zlovchi tizimlar ishlab chiqilishi va mavjud muammolarga yechim izlanishi kerak. Ikkinchidan, xavfsizlik bobida qarorlar qabul qilish jarayonida ayollar ham faol qatnashishi kerak.

Ayollar va mojarolar yechimi

Urushga barham berish, tinchlik saqlash va barqarorlikni mustahkamlash faqat erkaklar zimmasidagi vazifa bo'lishi kerak emas. Afsuski, tinchlik muzokaralarida ayollar juda cheklangan rol o'ynab kelgan. Vaholanki, notinch hududlarda xotin-qizlarning an'anaviy majburiyatlari o'zgarib, ular odatda erkaklar qiladigan ishlarni ham bajaradi. Shunday ekan, bugunga kelib, dunyo ahli tinchlik yo'lida ayollar qobiliyati, fikri va tajribasiga tayana boshlagan. Ular mojarolarga yechim topish va tinchlikparvarlik sohalari-da faollashgan. Ayol va erkakning jamiyat va urushdagi o'rni tobora o'zgarib bormoqda.

12 - izoh

Tinchlik muzokaralarida gender masalasi

“Xotin-qizlar roli va manfaatlariga ko'z yumgan muzokara uzoq muddatli tinchlikka yetaklamaydi”... “Mojarodan keyingi qayta tiklash ishlariga xotin-qizlarni jalb etish va bu jarayonda ularni quvvatlash ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga olib boradi. Ko'p hollarda frontda jang qilmasa-da, ayollar ham erkaklar singari urush jabrdiydalari va ishtirokchilaridir. Urush davrida ular yangi faoliyatlarga kirishadi va ko'plab qo'shimcha vazifalarni o'z bo'yniga oladi. Shunga qaramasdan ular tinchlikni parvarishlash va xalqaro hamjamiyat tomonidan bu borada olib borilayotgan tashabbus va harakatlardan chetda qoladi.”

Gendering Human Security: From Marginalisation to the Integration of Women in Peace-Building, 2001, Norwegian Institute of International Affairs

13-izoh BMT Xavfsizlik Kengashining 2000 yilda qabul qilingan 1325- rezolutsiyasidan parcha keltirib, xotin-qizlarning urushda faqat jabrdiyda (jumladan, zo'ravonlik va jinsiy tahqirlanish qurboni) emas, balki mojarolarga yechim topishda behisob hissa qo'shuvchi, tinchlikni tiklash va barqarorlikni mustahkamlashda erkaklar bilan teng qadam tashlovchi insonlar ekanini aks ettiradi. Masalani tushunish uchun ayol va erkaklarning urushdan oldingi, urush davridagi va keyingi o'rnini ko'rib chiqish kerak. Shundagina jinsiy tenglik milliy va xalqaro miqyosda qabul qilinadigan siyosat va qonunlarning ajralmas qismi bo'lishi lozimligiga ishonch hosil qilasiz.

13 - izoh

Tinchlikka erishish harakatlari ayol va erkak nigohida

Xavfsizlik Kengashi...

7. *Shunga chaqiradiki*, a'zo davlatlar jinsiy tenglik uchun muhim hisoblangan sohalarni moddiy, moliyaviy, texnik va tashkiliy jihatdan ko'proq quvvatlasin. Xususan, BMT Ayollar Jamg'armasi, BMT Bolalar Jamg'armasi, BMT Qochqinlar Agentligi va boshqa tashkilotlar doirasida olib boriladigan loyihalarga mablag'ni oshirsin;
8. *Shunga chaqiradiki*, tinchlik muzokarasi olib borayotgan va kelishuvlarni amalga oshirayotgan tomonlar jinsiy tenglikka e'tibor qaratsin. Jumladan:
 - a) Xotin-qizlarni vatanga qaytarish, uy-joy bilan ta'minlash, yangi hayot boshlashda yordam berish, jamiyatga qayta qo'shish va mamlakatni tiklashda ularning talab va zarurlari hisobga olinsin;
 - b) Mahalliy ayollarning tinchlik tashabbuslari va mojarolar yechimi yo'lidagi harakatlari quvvatlansin. Tinchlik kelishuvlari amaliyotiga xotin-qizlar jalb etilsin;
 - c) Xotin-qizlar huquqlari himoya va hurmat qilinishi uchun, ayniqsa, ularning konstitutsion, saylov jarayoni va adliya tizimidagi erkinliklari e'zozlanishi uchun choralar ko'rilsin.
15. *Shuni qayd etadiki*, Xavfsizlik Kengashi missiyalarida jinsiy tenglik va ayollar huquqlariga alohida ahamiyat qaratsin. Xotin-qizlar muammolarga qarshi kurashuvchi mahalliy va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilinsin..."

BMT Xavfsizlik Kengashining 2000 yil 31 oktabrda qabul qilingan 1325-rezolyutsiyasidan parcha

BMT Bosh kotibi, 1325-rezolyutsiyaga tayangan holda, 2002 yilning 16 oktabrida "Ayollar, Tinchlik va Xavfsizlik" deb nomlangan hisobot taqdim etdi. Unda qurolli mojarolarning xotin-qizlar hayotiga ta'siri; xalqaro huquqiy tizim; ayollarning tinchlik muzokaralari, tinchlikparvarlik missiyalari, insonparvarlik yordami, qayta qurish va reabilitatsiya jarayonidagi roli; qurolsizlanish va urush tugagach harbiylarni uyga qaytarish kabi masalalar tilga olinadi. Ushbu jarayonlarga tegishli ayrim shartlar bilan mazkur bob oxirida tanishish mumkin.

Parlament qo'mitalarida ayollar roli

Parlamentlararo Ittifoqning xotin-qizlar va siyosat mavzusida o'tgan chorak asr mobaynida olib borgan izlanishlari shundan dalolat beradiki, mudofaa masalalari bilan shug'ullanuvchi qonunchilik qo'mitalarida ayol a'zolar hamon juda oz yoki umuman

yo'q. Shunday ekan, ularni bu qo'mitalar raisi yoki rais o'rinbosari vazifada ko'rish deyarli mumkin emas.

Parlamentlararo Ittifoqning "Siyosatda Erkak va Ayol: Demokratiyaga Intilib" nomli 1997 yilgi tadqiqotida o'rganilgan 97 parlamentning mudofaa qo'mitalarida raislik qilayotgan qonunchilarning atigi 3 foizi ayol bo'lgan. Barcha qo'mitalarga qaralganda esa ularni boshqarayotganlarning 19 foizga yaqini ayollar ekani aniqlangan. Bu hol ortida ikki asosiy sabab bo'lishi mumkin. Birinchidan, dunyoda ayol qonunchilar juda kam. 2002 yilda jahon deputatlarining 14,3 foizi ayollar edi. Ikkinchidan, dunyo bo'ylab urush, tinchlik va xavfsizlik hamon erkaklar ishi degan qarash hukmron. Shunisi achenarlilki, urushlar butun aholi hayotiga xavf soladi va ko'p hollarda ulardan erkaklarga qaraganda ayollar ko'proq aziyat chekadi.

Qurol-aslah va ayollar

Qator mamlakatlarning qurolli kuchlar tizimida ma'muriy, tashkiliy va boshqa xizmatlarda ko'plab ayol xodimlarni uchratish mumkin. Ular faoliyati nafaqat tinch, balki notinch sharoitda, ayniqsa, urush davrida chuqur ahamiyat kasb etadi. Xotin-qizlar armiya va harbiy amaliyotlarga yaqindan boshlab jalb etila boshladi. Harbiy ayollar soni haqida aniq ma'lumotlar yetishmagani bois xalqaro maydondagi vaziyatni tahlil qilish qiyin. 14-izoh NATOga a'zo davlatlar armiyasiga xotin-qizlar necha sonni tashkil etishini tasvirlaydi.

14 - izoh

Harbiy ayollar: NATO davlatlaridan misollar

Mamlakat	Son	Qo'shin orasidagi foizi
Belgiya	3,202	7,6%
Kanada	6,558	11,4%
Chexiya Respublikasi	1,991	3,7%
Daniya	863	5,0%
Fransiya	27,516	8,5%
Germaniya	5,263	2,8%
Gretsiya	6,155	3,8%
Vengriya	3,017	9,6%
Italiya	438	0,1%
Lyuksemburg	47	0,6%
Niderlandiya	4,170	8,0%
Norvegiya	1,152	3,2%
Polsha	277	0,1%
Portugaliya	2,875	6,6%
Ispaniya	6,642	5,8%
Turkiya	917	0,1%
Britaniya	16,623	8,1%
AQSh	198,452	14,0%

Manba: NATO, 2001

Umuman, qurolli kuchlar safida ayollarning ko'payishi turli omillarga bog'liq. Hukumat ularni majburiy xizmatga chaqirishi yoki professional harbiy bo'linmalarga ko'proq yo'l-yo'l boshlashi mumkin. Harbiy ayollar sonining oshishi ba'zan xavfsizlik sohasidagi o'zgarish va taraqqiyot mahsulidir. Ikki, bir-biridan mustaqil, holat ko'zga tashlanadi.

- ✓ Davlat himoyasi va xavfsizligini ta'minlashga barcha fuqarolarni jalb etish;
- ✓ Qurolli kuchlarning zamonaviylashishi, xususan, tizimning ijtimoiy jihatdan taraqqiy etishi va shu tariqa jinsiy tenglikka intilishi.

15 - izoh

Ayollar va xavfsizlik siyosati: jinsiy tenglik

Davlat xavfsizlik siyosatini unda jinsiy tenglikka qanchalik e'tibor berilganiga qarab baholash mumkin. Jahon Ayollarining Pekinda o'tgan To'rtinchi Anjumanida BMT jinsiy tenglik tushunchasini yoyishni global strategiya sifatida qabul qilgan. Tashkilot buni shunday izohlaydi: "... Jinsiy tenglik siyosiy qaror va qonunlarning ayol va erkak hayotiga, ular turmushining har bir jabhasiga ta'sirini o'lchaydi. Bu strategiya siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy dasturlarni rejalash, amalga oshirish, nazorat qilish va baholashda ayol va erkak muammolari va tajribasini hisobga olishni talab qiladi. Toki siyosat har ikki jins manfaatlarini birdek ko'zlasin. Jamiyatda jinsiy tenglik ravnaq topsin".

Manba: BMT Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengashi Yakuniy Qarorlari 1997/2

Qurolli kuchlar safida ayollarning ko'payishi mudofaani inson xavfsizlik tizimiga aylantirishga turtki beradi. Bunda diqqat ko'proq jismoniy va harbiy kuch yoki ularning usul va amaliyotiga emas, balki ilmiy tadqiqot, axborot texnologiyasi va razvedka faoliyatiga qaratiladi. Bu esa xavfsizlik sohasida xotin-qizlar uchun qator yangi imkoniyatlar yaratadi, ayniqsa, ayol va erkaklar teng ta'lim olish huquqiga ega jamiyatlarda.

16 - izoh

Ayollarni xavfsizlik sohasiga jalb etishda tug'iladigan imkoniyat va muammolar

Xavfsizlik sektorida, jumladan, armiya va ichki ishlar tizimida xotin-qizlar soni oshar ekan, harbiy, ayniqsa, jismoniy tayyorgarlik va ahloqiy qoidalar har ikki jins uchun bir xil bo'lishi ma'qulmi degan savol tug'iladi.

Shuningdek, shu paytgacha armiya, harbiy tashkilot yoki ichki ishlar tizimida tan olinmagan va aynan jinsiy hayot bilan bog'liq masalalar ham ko'tariladi: turmush qurgan yoki qurmagan juftliklarni bir yoki turli bo'linmalarga safarbar etish; onalik va otalik hamda boshqa oilaviy talablar.

Kiyim-kechak, estetika, tashqi ko'rinish va jinsiy tenglik: erkak va ayollar uchun bir xil forma bo'lsinmi? Hammaning sochi kalta qirilsinmi?

Bu savollar hukumat va xalqni o'ylantirishi tabiiy. Qonunchilik va butun xavfsizlik tizimidagi qoida va tartib qayta ko'rib chiqishi, yangilanishi, isloh qilinishi va zamon talablariga javob berishi kerak.

Tinchlikparvarlik amaliyotlari va mudofaa vazirliklarida ayollar o'rni

NATO davlatlari qurolli kuchlarining 2001 yildagi tahliliga ko'ra, Ikkinchi Jahon Urushidan beri amalga oshirilgan tinchlik missiyalarida ko'p ayol qatnashmagan. Eng yuqori ko'rsatkichni Kanada, Vengriya, Fransiya, Niderlandiya va Portugaliyada ko'ra-

siz: tinchlikvarpar kuchlar safida xotin-qizlar soni besh foizni tashkil etgan. BMT tajribasi shuni ko'rsatadiki, ayol harbiylar urushdan qaqshagan aholi tomonidan ijobiy qabul qilinadi va bu xizmatchilarning operatsiya va missiya muvaffaqiyatida hissasi katta. Masalan, ayollar ishtirok etgan amaliyotlarda xotin-qizlar hayotiga kengroq e'tibor berilib, zo'ravonlikka qarshi ko'proq choralar ko'riladi.

Jahonda mudofaa vaziri, hatto bu vazir o'rinbosari bo'lib xizmat qilayotgan ayollar juda kam. Parlamentlararo Ittifoqning ma'lum qilishicha, 2000 yilda mudofaa va xavfsizlik masalalari bilan mashg'ul vazirlarning 1,3 foizi, vazir muovini yoki shu sohada gi yuqori lavozim egalarining 3,9 foizi ayollar bo'lgan. Bu borada kengroq tasavvurga ega bo'lish uchun 2000 yilda PI va BMT tomonidan tuzilgan "Ayol va Siyosat" nomli dunyo xaritasiga qarang).

Qonunchi sifatida nima qila olasiz?

Ma'lumot

- ▷ Qurolli kuchlarning har bir tizimidagi, jumladan, ichki ishlar va razvedka, qolaversa barcha tayyorlov markazlaridagi ayollar soni haqida ma'lumot so'rang. Yuroqi lavozimlarda qancha ayol ishlashi va qarorlar qabul qilinishida ularning ishtiroki, shuningdek, BMT, NATO va boshqa xalqaro tashkilotlarda xavfsizlik masalalari bilan shug'ullanuvchi vakillaringiz orasida ayollar bor-yo'qligini surishtiring.

Jinsiy tenglik, mojarolar yechimi va qayta qurish

- ▷ Tinchlik muzokaralari olib borayotgan guruhlarda jinsiy tenglik ta'minlanishiga undang;
- ▷ Tinchlik bitimlarida urushning xotin-qizlar hayotiga ta'siri, bugungi ehtiyojlari, ularning tinchlikka qo'shadigan hissasi va urushdan keyingi muammolariga e'tibor bering;
- ▷ Urush paytida ayollar orttirgan bilim, tajriba va salohiyatdan mamlakatni qayta qurishda foydalanishga harakat qiling.

Jinsiy tenglik va tinchlik missiyalari

- ▷ Tinchlik missiyalari va qayta qurish ishlarida ayollar ishtirokini targ'ib qiling.
- ▷ Qonunlar taklif qilib, tinchlik saqlovchi kuchlar va boshqa xalqaro xizmatchilar madaniy va jinsiy hurmat bobida maxsus tayyorgarlikdan o'tishini talab qiling.
- ▷ Xotin-qizlar huquqlarini poymol etgan askarlar va xizmatchilar munosib jazo olishini ta'minlang.



Hukumat

- ▷ Mudofaa vazirligida muayyan bir davr, masalan, o'tgan 10 yil ichida, jinsiy tenglik va muvozanat qanday bo'lganini tekshiring. Ayollarning yuqori mansablarga ko'tarilishi va qarorlar qabul qilishdagi rolini oshirish va bu borada jinsiy tenglikni ta'minlash uchun zarur shart-sharoit va qonunlar bor-yo'qligini aniqlang.

Parlament

- ▷ Mudofaa va xavfsizlik masalalari bilan shug'ullanuvchi qonunchilik qo'mitalari tarkibini tekshiring. Ularning avvalgi va bugungi a'zolarini qiyoslang. Qo'mitada ayollar qanday rolga ega ekanini ko'rib chiqing.
- ▷ Bu qo'mitalar jinsiy tenglik masalalariga ahamiyat berayaptimi? Xavfsizlik sohasida jinsiy muvozanat va hurmat borasida zarur talablar qo'yayaptimi? Shular yuzasidan izlaning.

Manba: BMT Bosh kotibining "Ayollar, Tinchlik va Xavfsizlik" nomli hisobotida berilgan tavsiyalar, 16 oktabr, 2002.

Uchinchi Qism

Xavfsizlik sektorining asosiy operatsion qismlari

Armiya

Armiya tarixi uzoq asrlarga borib taqaladi va davlatning qilich va qalqoni sifatida e'tirof etiladi. 17-izohda keltirilishicha 2002 yilning o'rtalariga kelib dunyoda o'z armiyasiga ega bo'lmagan davlatlar soni juda kamaygan.

17 - izoh

Armiyasiz davlatlar

Ayrim mamlakatlarda qurolli kuchlar mavjud emas. Ularning ba'zilari Tinch okeani janubida joylashgan kichik davlatlar, xususan, Nauru, Maldiv orollari, Kiribati, Samoa, Solomon orollari, Tuvalu, Palau and Vanuatu; Karib dengizidagi Avliyo Vinsent oroli va Grinadinlar, Sent Kits va Nevis, Sent Lusiya, Dominika va Grenada. Qurolli kuchlarsiz kun ko'radigan boshqa davlatlar qatorida Kosta Rika, Islandiya, Mavrikiy, Panama, Sharqiy Timor, Somali (ayni damda armiya tuzishga kirishgan), Andorra, San Marino, and Gaiti ham bor. Bu mamlakatlarning ko'pida yarim-harbiy bo'limlar faoliyat yuritadi. Masalan, davlat qo'riqchilari va chegarachilar.

Armiya vazifalari

Sovuq urush tugaganidan beri xavfsizlik sohasida yuz bergan o'zgarishlar yer yuzi bo'lab harbiy kuchlarga misli ko'rilmagan darajada ta'sir ko'rsatgan. Qurolli kuchlar zimmasiga yangi vazifalar yuklangan, biroq ulardan eski burchlarni o'zgacha tarzda bajarish ham talab qilinmoqda. Bugungi dunyoda harbiylardan asosan quyidagi besh vazifani ado etish kutiladi:

- ✓ Davlat mustaqilligi, suvereniteti va hududiy birligi hamda fuqarolarini himoya qilish;
- ✓ Xalqaro tinchlikni saqlash yoki tinchlikni ta'minlash missiyalari;
- ✓ Ofatlar ketidan yordam yetkazish;
- ✓ Ichki xavfsizlik vazifalari (fuqaro qonun-tartibot organlariga favqulodda hollarda yordam berish);
- ✓ Davlat qurishda hissa qo'shish (ijtimoiy vazifa).

Harbiy kuch bu vazifalarni turli davlatlarda turlicha darajada amalga oshiradi. Ko'p hollarda bu davlat qonunlari va xavfsizlik ahvoriga bog'liq.

Suverenitet va jamiyat himoyasi

Xavfsizlik shartlari va tahdidlar o'zgarib borayotganiga qaramay armiyaning an'anaviy ishi vatanni yoki davlatlarni tashqi harbiy hujumlardan muhofaza qilish bo'lib qolmoqda. Bu nafaqat mamlakat hududi va siyosiy suverenitetini balki butun jamiyatni himoya qilish demakdir.

Sovuq urush yakun topganidan beri siyosiy rahbarlar va armiyalar shuni anglab yetdiki, davlat suverenitetiga xavf faqat xorijiy harbiy kuchlardan kelmaydi. Endilikda noharbiy tahdidlar ham kuchaymoqda, jumladan, terrorizm, fuqarolar urushlari, uyushgan jinoyatchilik, Internetdagi xurujlar va korrupsiya (1-izohga qarang). Dunyoda deyarli har bir armiya islohotlarni boshdan kechirmoqda. 18-izoh bu islohotlarning uch muhim turiga to'xtaladi.

18 - izoh

Mudofaa islohoti: maqsad nima?

1990 yildan beri jahonda armiyalarning aksariyati butunlay isloh qilindi. Turli davlatlarda bu islohotlar turlicha sabablarga ko'ra olib borildi. Oddiy qilib aytganda, ulardan uch maqsad ko'zlandi:

▷ **Demokratlashtirish**

Sobiq kommunistik hamda sobiq diktatorlik tuzumi yoki mojarolarni boshdan kechirgan jamiyatlardagi mudofaa islohoti ortida demokratik maqsadlar bor:

- Harbiy kuchlarni demokratik tarzda saylangan siyosiy rahbariyatga bo'ysundirish. Aks holda ular demokratiyaga tahdid soladi;
- Resurslarni harbiy kuchlar va jamiyatning boshqa jabhalari o'rtasida muvozanat bilan taqsimlash.

▷ **Yangi xavfsizlik muhitiga o'rgansh**

- Harbiy kuchlar byudjetini yangi tahdidlarga moslash;
- Harbiy kuchlarni yangi missiyalarga, masalan, tinchlikparvarlikka tayyorlash.

▷ **Internatsionallashish**

Harbiy kuchlar hozirga kelib faqat mamlakat miqyosida emas balki boshqa davlat armiyalari bilan ham xizmat qila boshlagan. Bu kabi ad hoc (lotinchada maxsus) harbiy hamkorlik, masalan, BMT tinchlik saqlovchi missiyalari doirasida yoki uzoq-muddatli va tashkiliy asosda, masalan, NATO doirasida, qolaversa ikki yoki ko'p-davlatli asosda olib borilishi mumkin.

- Harbiy kuchlarni (qisman) xalqaro qo'mondonlik va tashkiliy tizim ixtiyoriga topshirish;
- Harbiy kuchlarni boshqa davlat qo'shinlari bilan ishlay olishini ta'minlash, xususan, vositalar, tayyorgarlik, til, axborot, boshqaruv va nazorat sistemalari bobida (birgalikda amaliyotlarni eplay olish).

Doimiy xalqaro bo'limlarga misollar:

- 1-Nemis-Niderland Korpusi;
- Boltiq Battalioni (Litva, Estoniya va Latvia);
- Polsha-Daniya-Germaniya Korpusi;
- Slovakiya, Vengriya, Ruminiya va Ukraina aro Ko'pmillatli Muhandislar Bataloni ("TISA" Bataloni).

Xalqaro tinchlikka hissa qo'shish

Harbiy kuchlar tinchlik missiyalariga ikki sabab bilan jalb qilinadi. Birinchidan, mojarolarning oldini olish va nizolarni yoyilishdan saqlash. Xususan, mintaqalarning beqarorlashishiga va iqtisodiyotning izdan chiqishiga yo'l qo'ymaslik va qochqinlar oqimini nazorat qilish. Ikkinchidan, inson xavfsizligi yo'lida hissa qo'shish va mojaroli nuqtalarda aholini himoya qilish. Inson xavfsizligini, ayniqsa inson huquqlaridan foydalanishni ta'minlash bugun xalqaro hamjamiyat oldida turgan asosiy masala. Chunonchi yaqin o'tmishda vujudga kelgan kelishmovchiliklar qonli to'qnashuvlarga

aylanib aholi hayotiga katta zarar keltirdi. Tinchlik missiyalarida ishtirok etishning foydasi shuki ular harbiy bo'limlarni real vaziyatda chiniqtirish va malakasini oshirish uchun imkon beradi.

Ofatlar ketidan yordam yetkazish

Mamlakat borki qachondir tabiiy yoki inson xatosi bilan ofatlarga uchragan va uchrashi mumkin. Zilzila, suv toshqini, yong'in va havo halokatlari ko'plab xalqlar boshidan o'tgan. Bunday kutilmagan holatlarda hukumat harbiy kuchlarni yordamga chaqiradi va ulardan jabrdiydalarga yordam yetkazishni so'raydi. Qo'shinlar, shuningdek, qonun-tartibot, oziq-ovqat va boshqa resurslar ta'minoti hamda tibbiy yordam bilan shug'ullanadi. Qolaversa, aloqa va transport tizimini yuritadi. Bunday xizmatning nafi shundaki, harbiy kuchlar jamiyatda ijobiy taassurot uyg'otadi va xalq ularni yanada quvvatlay boshlaydi.

Qonun-tartibot organlariga yordamlashish

Ayrim armiyalar qonun-tartibot idoralariga ko'maklashishi mumkin. Biroq bu juda ziddiyatli masala. Jamiyatlar ba'zan hukumat muassasalari va ichki ishlar xodimlari eplay olmaydigan xavf bilan yuzlashadi. Shu bois harbiy kuchga zaruriyat tug'iladi. Bunday tahdidga misol sifatida terror xurujlari, uyushgan jinoyatchilik va qoradori savdosi kabi muammolarni keltirish mumkin. Qonun-tartibotda armiyadan qo'llanish quyidagi tashvish va oqibatlariga sabab bo'ladi:

- ✓ Bu fuqaro va harbiy kuch nazoratini qiyinlashtiradi;
- ✓ Bu harbiy kuchning siyosiylashishiga olib boradi;
- ✓ Armiya vaqtincha tartib o'rnatishi mumkin xolos. Harbiy kuchlar mojaro ortidagi siyosiy, ijtimoiy yoki iqtisodiy masalalarni yo'q qila olmaydi;
- ✓ Qurolli kuchlar jang maydoni uchun tayyorlangan va shu bois qonun-tartibot yoki fuqaro masalalari bilan shug'ullanishga moslashmagan;
- ✓ Ichki ishlar xodimlari va qurolli kuchlar o'rtasida vazifa jihatdan kelishmovchilik vujudga kelishi mumkin.

19 - izoh

Janubiy Afrika qonun-tartibotida harbiy kuchdan foydalanish

... Janubiy Afrika Davlat Mudofaa Kuchlari (SANDF) faqatgina favqulodda hollarda safarbar etiladi. Xususan, jamiyatda notinchlik vujudga kelib, Janubiy Afrika politsiyasining qurbi yetmasa yoki davlat mudofaaga muhtoj bo'lgan vaziyatlarda ... Harbiylar mamlakat ichida ishga solinganda parlament tomonidan nazorat qilinadi. Konstitutsiyada kafolatlangan huquqlar e'zozlanishi va jarayon qonunchilikka binoan olib borilishi shart.

Manba: "Demokratiyada Mudofaa". Janubiy Afrika Respublikasi Davlat Mudofaasi haqida Oq Qog'oz, May 1996.

Ijtimoiy vazifalar

Armiya, ayniqsa majburiy xizmat asosida tuzilgan harbiy kuchlarning davlat taraqqiyotiga qo'shgan hissasi katta. Qo'shinlar safida turli joylardan to'plangan, turli ijtimoiy kelib chiqishga ega va etnik jihatdan xilma-xil yoshlar (asosan erkaklar) birga xizmat qiladi. Buni muhojir va ko'p millatlardan tashkil topgan jamiyatlarda yaqqol ko'rish mumkin. Mazkur mamlakatlarda armiyani "qaynoq qozon" deyishadi.

Armiyaning yana bir ijtimoiy jihati shuki u yoshlarga ta'lim olish imkoniyatini beradi. Imkoniyatlari cheklangan va ishsizlikdan qiynalgan odamlar armiyaga kirib, qator imtiyozlardan foydalanishi mumkin.

Rivojlanayotgan davlatlarda harbiy kuchlar uzoq mintaqalarda fuqarolar boshqaruvida ham ko'maklashadi. Ta'lim sohasini yuksaltirish, sog'liqni saqlash va ekologik talofatlarning oldini olishda hissa qo'shadi.

Bular armiyaning jamiyatga ijobiy ta'siriga misollar. Afsuski, ayrim mamlakatlarda qurolli kuchlar xalq hayoti, siyosat va iqtisodni og'irlashtirayotganiga ham guvoh bo'lamiz. Ba'zi jamiyatlarda harbiylar siyosiy masalalarga aralashib hukumatga tahdid soladi. Boshqalarida esa armiya tijorat bilan mashg'ul. Ular bu bilan o'zini moliyalaydi, ammo jarayon boshqarilmaydi, qolaversa demokratik nazorat ostida emas.

Qonunchi sifatida nima qila olasiz?

Armiya vazifalari

- ▷ Harbiy kuchlar faoliyati:
 - Qonun, harbiy qoida va tartiblarda aniq belgilanishi lozim;
 - Davlat xavfsizlik tushunchasi va siyosatiga mos bo'lishi kerak;
 - Jamiyatning xavfsizlik talablarini qondirishi lozim.
 - Noharbiy vazifalar armiyaning asosiy mas'uliyati- davlat suvereniteti himoyasi uchun tayyor turishiga va xalqaro qonun ustuvorligiga hissa qo'shishiga halal bermasligi kerak.

Mudofaa islohoti

- ▷ Parlamentning tegishli qo'mitalari qanday islohotlar ko'zlangani va amalga oshirilayotgani haqida tahliliy hisobotlar olib turishi lozim. Islohotlar bilan bog'liq masalalar tinglovlar tashkil etish orqali muhokama qilinishi kerak.

Huquq-tartibotda harbiy kuchdan foydalanish

Nazariy jihatdan armiyaning qonun-tartibotga aralashmagani ma'qul. Ammo boshqa iloj bo'lmagan taqdirda parlament:

- ▷ Harbiylarning qonun-tartibotga qanday aralashishini belgilashi, cheklashi va jarayonni qonunga binoan boshqarishi lozim. Unda quyidagilar e'tiborga olinadi:



PI va QKDNQ – Xavfsizlik sohasi ustidan parlament nazorati, 2003

- Vaziyat harbiylar aralashishiga arziydimi?
- Qanday aralashuv va u qanday cheklanadi?
- Aralashuv qancha davom etadi?
- Qachon qanday bo'limlar safarbar etiladi?
- Harbiylarni chaqirishga qaror qiluvchi va ular aralashuvini to'xtatuvchi tashkilotlar bormi?
- Qonun buzilganda yoki inson huquqlari oyoq osti qilinganda adolat bilan ta'minlashga qodir adliya bormi?
- ▷ Tintuv, qamoq va o'q ochishdan oldin tegishli idoradan tasdiqnoma, buyruq yoki ruxsat olinishi shart degan qonun qabul qilinishi lozim.
- ▷ Harbiy kuchlarning fuqarolar hayotiga aralashuvi xalqaro insonparvarlik va inson huquqlari bo'yicha qonun va tamoyillarga mos holda olib borilishini ta'minlash uchun parlament yoki boshqa organlar biror tizimga ega bo'lishi muhim.

Boshqa harbiy tizimlar

Davlatning boshqa harbiy tizimlari qanday vaziyat va qaysi mamlakat haqida gap ketayotganiga qarab turlicha ma'noga ega. Lekin ular xususiy harbiy tashkilotlardan farq qilinadi. Londonda asoslangan Xalqaro Strategik Tadqiqotlar Institutiga ko'ra davlatning boshqa harbiy tizimlari ba'zida yarim-harbiy tashkilotlar deb ham ataladi. va ularga "jandarmlar" ya'ni ichki ishlar xodimlari, bojxona xizmati va chegara qo'riqchilari kiradi. Ammo bu kuchlar harbiy taktikalar bilan tanish bo'lishi, zarur qurol-aslaha bilan ta'minlanishi va urush chiqqan holda armiyagaga bo'ysunishi lozim.

Mazkur tizimlar dunyoning deyarli barcha davlatlarida bor. Ular harbiylar bilan yaqin aloqada. Ayrim hollarda armiya ularni vosita va baza bilan ta'minlaydi. Shuningdek ularni tayyorgarlikda o'tkazadi.

Bu yarim-harbiy tizimlar o'z faoliyatida harbiy usullarni suiste'mol qilgan va inson huquqlarini jiddiy ravishda buzgan hollar talaygina. Ichki ishlar xodimlari va harbiy kuchlarni bir-biridan farqlash uchun ularning roli va vazifasi aniq belgilanishi lozim. Ichki xavfsizlikni ta'minlashda bu tizimlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Parlament bu borada qonun qabul qilishi va hukumat uni qanday amalga oshirishini kuzatishi kerak. Prezident yoki bosh vazir bu harbiy tizimlarning qonunchilik organi tomonidan nazorat qilinishi uchun ruxsat berishi darkor. Chunki qonunan davlat tomonidan moliyalangan har bir harbiy tashkilot parlament nazorati ostida bo'lishi lozim. Bu nazoratning yana bir muhim sababi shuki bu kuchlarning keng miqyosda tekshiruvsiz faoliyat ko'rsatishi jamiyatni xavf tomon yetaklaydi.

20 - izoh

Ayrim davlatlardagi harbiy bo'linmalarga misollar

Davlat	Qurolli kuchlarning faol a'zolari	Boshqa harbiy tizimlardagi xodimlar	Bo'linma turlari
Finlandiya	31.700	3.400	Penjaga perbatasan
AQSh	1.365.800	53.000	Fuqaro Havo Patruli
Rossiya Federatsiyasi	1.004.100	423.000	Chegara qo'riqchilari, ichki xavfsizlik qo'shinlari, Rossiya Federatsiyasini qo'riqlovchi kuchlar, Federal Xavfsizlik Xizmati, Federal Kommunikatsiya va Axborot Agentligi, Temiryo'l qo'shinlari va hokazo.



PI va QKDNQ – Xavfsizlik sohasi ustidan parlament nazorati, 2003

Marokash	198.500	42.000	Jandarmlar, Qo'shimcha Kuchlar va hokazo
Fransiya	294.430	94.950	Jandarmlar
Italiya	250.600	252.500	"Karabinieri" – politsiya va Ichki ishlar vazirligi qoshidagi Jamoat xavfsizligi himoyachilari
Turkiya	609.700	220.200	Jandarmlar/davlat qo'riqchilari, sohil qo'riqchilari
Burkina Faso	10.000	4.450	Jandarmlar, xavfsizlik kompaniyalari
Chili	87.000	29.400	"Karabineros" – politsiya
Koreya Respublikasi	683.000	3.500.00	Fuqaro Mudofaasi Korpusi Civilian va Defence Corps and dengiz politsiyasi
Indoneziya	297.000	195.000	Politsiya, mahalliy qo'shimcha harbiy kuchlar

Manba: IISS, Harbiy Muvozanat 2000-2001, London

Bu tizimlarning vazifalari

Davlat armiyasi safiga kirmaydigan boshqa harbiy tashkilotlarga qator majburiyatlar yuklangan, xususan, quyidagilar:

- ✓ Chegara nazorati, jumladan, kontrabanda va inson savdosiga qarshi kurash;
- ✓ Qo'zg'olonlarni nazorat qilish;
- ✓ Favqulodda hollarda huquq-tartibotni saqlash, davlat rahbarini himoya qilish, qolaversa atom zavodlari kabi muhim inshootlarni muhofaza qilish.

Qonunchi sifatida nima qila olasiz?

Oldingi va keyingi boblarning shu qismiga qarang.

Ichki ishlar tizimlari

Demokratik jamiyatlarda ichki ishlar tizimi

Ichki ishlar tizimi qonun doirasida ish yuritishi shart. Bu soha xodimlari o'zlari tadbir etayotgan va himoya qilayotgan qonunga o'zlari ham bo'ysunishga majbur. Qolaversa, ichki ishlar boshqarmasi rol jihatdan prokuratura, sud va ahloqni tuzatish koloniyalaridan ajralib turishi lozim. Samalari boshqaruv nuqtai nazaridan davlatlar xalqni xavfsizlik bilan ta'minlashi zarur, ammo bunda shaxs erkinligi va inson huquqlaridan voz kechilmasligi kerak. Demokratik jamiyatda fuqarolar ichki ishlar tizimidan ularga nisbatan odil, xolis va qonun asosida muomala qilishni kutadi. Ichki ishlar xodimlarining jamoatchilikka nisbatan munosabati bu mamlakatda demokratiya qay darajada ekanini namoyon etuvchi eng muhim omillardan biri.

21 - izoh

Demokratik xususiyatlar

- ▷ Ichki ishlar tizimi qonunni e'zozlashi va professional etikaga rioya qilishi sharts;
- ▷ Demokratik faoliyat yuritish jamoat xavfsizligini ta'minlashda inson huquqlarini ham hurmat qilishdir;
- ▷ Ichki ishlar tizimi mas'uliyatli bo'lishi uchun oshkoralik, ichki va tashqi nazorat talab qilinadi;
- ▷ Ichki ishlarni demokratik yuritish quyidan yuqoriga qarab ishlash demakdir. Bunday tizim fuqaro va jamoatchi guruhlarning talab va tashvishlariga javob beradi; omma ishonchi va olqishini qozonib, u tomondan qo'llab-quvvatlanadi. Shu bois ham ichki ishlar oshkoralik va muloqotga asoslanishi darkor. Ko'p mamlakatlarda bu tizim markazlashmagan holda ishlaydi, chunki bu yo'l bilan mahalliy talabni tez va to'g'ri qondirish mumkin.

Maxsus choralar uchun talab

Ichki ishlar idoralari ijroiya organi qo'lidagi muhim vosita. Hukumat bu tizim ustidan qonuniy monopolyaga ega va undan o'z vazifalarini bajarishda keng foydalanadi. Ammo bu ustunlik hokimiyatni qonunbuzarlik, zo'ravonlik, inson huquqlarining buzilishi va korrupsiyaga olib borishi mumkin. Demokratik jamiyatda ichki ishlar tizimini ana shunday xavfdan himoya qilish uchun mujayyan choralar ko'riladi toki tizim siyosatchilar, byurokratlar yoki o'z boshqaruvi emas, balki jamiyat manfaatlarini himoya qilsin. Ichki ishlar ehtiyotkorlik bilan mustaqil holda faoliyat yuritishi kerak. Tizim xolis bo'lsin, qonunni hurmat qilsin va ishga professional yondashsin. Xodimlar har qanday sharoitda kasbiy etika qoidalariga rioya qilishi shart. Jumladan, inson yashashga haqli degan huquqni ta'minlash va qonuniy maqsad yo'lida favqulodda hollarda kuch ishlatish oily tamoyil sifatida qabul qilinishi lozim. Kuch mutlaq zarur

vaziyatdagina, qonunan buyruq berilsagina, qo'llanishi mumkin. Ichki ishlar xodimlari har bir holatni chuqur o'rganishi va tajribaga asoslanib, to'g'ri yo'l tutishi talab qilindi. Ichki ishlar tizimi ham hukumatga, ham adliyaga, shuningdek o'z boshqaruvi oldida javob berishi shart (3-bobga qarang). Tizimning mas'uliyali bo'lishi uchun tashkiliy jihatdan zamin yaratishi kerak. Ichki ishlar xodimlari belgilangan chegaradan chiqqanda va ommadan shikoyat tushganda masala professional tizim doirasida ko'rib chiqilishi shart.

22 - izoh

Qaltis vaziyatlar

“Xavfsizlik kuchlarining nodemokratik boshqaruvi tinchlikka rahna solishi mumkin. Ko'plab davlatlarda hukumatlar harbiy xavfsizlikka berilib ichki ishlarni ham harbiylashtirishni boshlaydi. Bu bilan albatta armiya va politiya o'rtasidagi farq yanada kamayadi. Ayrim hollarda hukumatlar ichki ishlar tizimiga kam mablag' ajratishi, oqibatda politiya jamoat xavfsizligi yo'lida jon kuydirmay qo'yishi mumkin. Ayniqsa kambag'al davlatlarda ichki ishlar va xavfsizlik xodimlarining maoshi oz, malakasi past yoki umuman tajribasiz, boshqaruv korrupsiyaga botgan va savodsizlik darajasi yuqori...”.

“Yosh va tajribasiz demokratik davlatlarda saylangan rahbarlar hokimiyatni boy bermaslik uchun ko'pincha xavfsizlik kuchlariga tayanadi, xususan, harbiy bo'linmalarga. Chunki xavfsizlik kuchlari jamiyatdagi eng qudratli tizim. Xuddi shu sababga ko'ra rahbarlar armiyada ham oshkoralik va mas'uliyatga yo'l qo'ymaydi. Chunki bu kuchlar ham ular kelajagi uchun xizmat qilishini istaydi.

Manba: BMT Inson Taraqqiyoti Hisoboti, 2002

Mahalliy tashabbuslar

Ichki ishlar tizimi ustidan demokratik nazoratni mustahkamlashda inson huquqlari bo'yicha mahalliy tashkilotlarining roli beqiyos, chunki ular xalqning bu tizimga nisbatan ishonchini shakllantirishda yordam beradi. Ombudsman singari omma shikoyatini o'rganuvchi jamoat muassasalari ichki ishlar xodimlarini javobgarlikka undovchi tashqi kuchlardir. Ayrim hollarda nohukumat tashkilotlari vakillari va mahalliy yetakchilardan tuzilgan xavfsizlik kengashlari ichki ishlar xodimlari faoliyatining yaxshilanishiga sabab bo'lgan. Ammo ichki ishlar tizimidagi kamchiliklarni fosh etishda yordam beradigan insonlar va jamoatchilik tashkilotlarini militsiya, maxfiy xizmatlar va harbiy kuchlar bosimidan himoya qiluvchi qonun qabul qilinishi kerak.

23 - izoh

Eritreyada politiya ahvoli

Politsiya tizimi va u faoliyat ko'rsatuvchi muhit o'rtasidagi munosabat hamisha ko'pqirrali va murakkab bo'lib kelgan. Tizim yuzlashadigan ikki jihat masala shuki politiya qonunni kuch bilan himoya qiladi va bir paytning o'zida jamoatchilikka xizmat qiladi. Eritreya kabi rivojlanayotgan



davlatlarda yuqoridagi ikki vazifani o'tash politsiya uchun katta muammolar tug'dirgan. 30 yildan oshibdiki, mamlakat Efiopiyadan mutlaq ozodlikka erishish uchun kurashib keladi. 1990-yillar boshida politsiya safiga 5000 ga yaqin sobiq jangarilar qo'shilgan. Hukumat shu tariqa urush faxriylariga g'amho'rlik qilishga majbur bo'ldi. Bu sobiq jangarilar orasida politsiyachilik tajribasiga ega, bir paytlar Efiopiya hukmronligi ostida zobitlik qilgan malakali kishilar bor edi.

Jinoiy tekshiruv borasida texnik yordamdan tashqari Niderlandiya davlati moliyaviy ko'magi bilan politsiya akademiyasi tashkil etildi va o'quv dasturlari ishlab chiqildi. Biroq tinchlikni tiklash mentalitni yangilashni ham taqozo etdi. Hech bo'lmaganda donorlar va elita uchun. Armiyada xizmat qilgan kishilar kuchni qachon va qanday ishlatish haqida urush ko'rmagan insonlarga qaraganda ancha o'zgacha qarashga ega. Shunday murosaga kelindiki, unga asosan Eritreya Politsiya Kuchlari Niderlandiya homiyligida o'z faoliyatini demokratlashtirishni va tartibni iloji boricha kamroq kuch ishlatgan holda saqlashni maqsad qilib oldi.

Manba: Kasper. V. Vrum, Niderlandiyadagi Maastricht Universiteti ilmiy xodimi, 2002 yilda Eritreya Politsiya Kuchlarini madaniy jihatdan o'zgartirish loyihasi ustida ishlagan

Qonunchi sifatida nima qila olasiz?

Demokratik tizim

- ▷ Ichki ishlar tizimining qonun doirasida ishlashi kafolatlansin.
- ▷ Ichki ishlar tizimining kasbiy etikaga rioya qilishi ta'minlansin toki fuqarolar bu tizimdan adolatli, xolis va qonunda belgilanganidek xizmat kutsin. Davlatda 1979 yilda BMT tomonidan qabul qilingan Qonun-Tartibot Xodimlarining Ahloqiy Qoidalariga amal qilinsin (65-izohga qarang).

Malaka oshirish

- ▷ Ichki ishlar xodimlarining kasbiy bilimi va malakasini oshirishda qonun himoyasi va tartib saqlash yo'lida iloji boricha kam kuch ishlatish uqtirilsin. Shuningdek demokratik va etik qadriyatlar, inson huquqlariga hurmat va jinslarlaro masalalar haqida ta'lim berilsin (7-bobga qarang).

VI, VII va VIII qismlardagi moliyaviy, kadrlar va moddiy resurslar haqidagi tavsiyalarga qarang.

Maxfiy xizmatlar va razvedka

Razvedka xizmatlari ayrim hollarida “xavfsizlik xizmatlari” deb ham ataladi va har qanday davlatning asosiy qurollaridan biridir. Bu xizmatlar davlat va jamiyat xavfsizligi hamda uning eng muhim manfaatlari muhofazasi yo'lida mustaqil tahliliy axborot beruvchi manbalardir. Ular asosan ijroiya organi qo'lida biroq bu xizmatlar faoliyatini nazorat qilishda parlament o'ta nozik rol o'ynaydi.

Xalqaro terrorizm, qoradori savdosi, kontrabanda, uyushgan jinoyatchilik va noqonuniy migratsiya kabi muammolar oqibatida vujudga kelayotgan yangi tahdidlar, ichki xavfsizlikka rahna solayotgan masalalar, razvedka xizmatini kuchaytirishni taqozo etadi. Ayniqsa 2001 yil 11 sentyabr voqealari ketidan maxfiy ma'lumotlar yig'ish naqadar chuqur ahamiyat kasb etishi ayon bo'ldi. Mazkur xurujlardan keyin ko'plab davlatlarda hukumatlar xavfsizlik xizmatlari vakolatini kengaytirdi, xususan, ularga insonlarning Internet, telefon va faks vositasida qilayotgan aloqalarini yaqindan kuza-tish uchun sharoit yaratildi (20-bobga qarang).

Ichki va tashqi xavfsizlik xizmatlari orasidagi hamkorlik yanada kuchaygan va yangi texnologiyalar fuqarolarni kuzatish, gumon ostidagi (ehtimoliy) shaxslarni aniqlash va xavotirga nisbatan javob berishda bu soha salohiyatini oshirmoqda.

Xavfsizlik xizmatlarining vakolatlari kengayar ekan, ularning xalqaro insonparvarlik va inson huquqlari haqidagi qonunlar hamda prinsiplarga qarshi ish tutmasligini ta'min-lash - parlament bo'ynida.

Razvedka xizmatlari vazifasi

Razvedka xizmatlari ma'lumot yig'adi va uni tahlil qiladi. Bu kabi faoliyat yuqori saviyada maxfiylik bilan ish tutishni talab qiladi. Ammo to'plangan ma'lumot siyosiy maydonda suiste'mol qilinishi ham mumkin. Natijada razvedka xizmatlari jamiyat va siyosiy tuzumga xavf sifatida qarala boshlashi mumkin. Vaholanki bu xizmatlardan asl maqsad - ularni himoya qilish. Shu bois ham xavfsizlik xizmatlari ustidan nafaqat ijroiya organi balki parlament ham aniq demokratik nazorat o'rnatishi lozim. Demokratiyaning javobgarlik va muvozanat talabi ijroiya organi yoki parlamentni bu xizmatlarni o'z siyosiy maqsadlari yo'lida qo'llashdan saqlaydi.

Demokratik jamiyatda xavfsizlik xizmatlari samarali, siyosiy jihatdan neytral, kasbiy etikaga rioya qilgan holda, qonuniy majburiyat va erkinliklardan chetga chiqmagan ravishda, konstitutsion-huquqiy me'yor hamda davlarning demokratik tamoyillariga binoan faoliyat yuritishi kerak.

Razvedka tizimi ustidan demokratik nazorat avvalo bunung uchun qonuniy zamin hozirlashdan boshlanadi. Bu xizmatlar qonunga muvofiq, parlament tomonidan tasdiqlangan holda yaratilsin. Tizim qanday vakolatga ega ekani qonunlarda mufassal aks ettirilishi shart. Ular o'z faoliyatida qanday usullar qo'llaydi, qachon va qanday sharoitda javobgarlikka tutiladi? Qonunchilik bu savollarning barchasiga aniq javob bermog'i lozim.

24 - izoh

Parlament va razvedka agentliklariga alohida mablag' ajratish: Argentina misolida

Davlat Razvedkasi to'g'risida Qonun N° 25.520 (27 noyabr, 2001), 37-Modda: "Milliy Kongressning ikki palatali qo'mitasi davlat razvedkasi uchun ajratilgan byudjetni nazorat qiladi va kuzatadi. Milliy Kongressning ikki palatali qo'mitasi shu maqsadda quyidagilarni qila oladi:

1. Ijroiya organi tomonidan Kongressga jo'natilgan davlat byudjeti loyihasiga aralashadi va uni muhokama qiladi. Ijroiya organi buning uchun barcha zarur hujjatlar bilan ta'minlaydi, xususan, a) zaxiradagi, maxfiy yoki yashirin tarzda boshqarilayotgan byudjet haqida batafsil ma'lumotlar; b) xarajat nima maqsadda, qanday dastur asosida va nimaga sarflanayotganini bayon etuvchi ma'lumotlar.
2. Ushbu qonunda nazarda tutilayotgan barcha razvedka organlaridan yordam so'ray oladi. Ular o'z faoliyati haqida to'liq ma'lumot va hisobotlar berishi shart. Zaruriyat tug'ilsa, 39-moddada tilga olingan ma'lumot va hujjatlar ham talab qilinishi mumkin.
3. Mablag'ning byudjet qonunida ko'rsatilgan maqsadga muvofiq sarflanayotganini kuzatadi.
4. Milliy Kongress va Prezidentga yillik hisobot tayyorlaydi. Unda a) razvedka organlariga berilayotgan mablag'ning qanday sarflangani tahlil qilinadi; b) Ikki kamerali qo'mita nazorati tafsilotlari va tavsiyalar aks ettiriladi".

Manba: Argentina Davlat Razvedkasi to'g'risida Qonun N° 25.520, 27 noyabr 2001.

Ko'pgina davlatlar muayyan darajada rasmiy nazorat tizimiga ega. Odatda bu qonunchilik qo'mitalari tomonidan bajariladi. Mudofaa yoki qurolli kuchlar bo'yicha qo'mitalar ayrim hollarda razvedka masalalari bilan ham shug'ullanadi. Ba'zi davlatlar parlamentida esa aynan razvedka va maxfiy xizmatlar ishini kuzatuvchi qo'mita yoki quyi qo'mitalar tashkil etilgan.

Mazkur qo'mitalar axborot olish, razvedka xizmati rahbarlarini tayinlash va byudjetni nazorat qilish vakolatiga ega bo'lishi lozim. (24-izohga qarang).

Ayrim davlatlarda razvedka masalalarini ko'rib chiquvchi alohida qo'mitalar (parlamentdan tashqarida) tuziladi. Ular ijroiya organi yoki vazirlar mahkamasidan tashqarida ishlasada, boshqaruv yoki idora jihatdan unga bog'liq bo'lib, u qadar mustaqil faoliyat yuritmasligi mumkin. Parlament qo'mitalarining ustun tomoni shundaki, ular siyosiy maydonni va uni aks ettiruvchi vakillarni o'z ichiga oladi.

25 - izoh

Maxfiy hujjatlar bilan ishlovchi qonunchilik qo'mitalari faoliyatidan

- ▷ Zaruriyat tug'ilganda qo'mita yopiq eshiklar ortida uchrashishi mumkin;
- ▷ Qo'mita parlament sessiyasida hisobot berishi va nomaxfiy masalalar yuzasidan omma o'rtasida mukomaga yo'l ochishi mumkin;
- ▷ Qo'mita ma'lumot so'rashi mumkin, lekin ularda amaldagi operatsiyalar yoki razvedka xizmati xodimlari va ularning ism-sharifini talab qila olmaydi;
- ▷ Qo'mita ko'pchilik tomonidan ma'qul deb topilganda xalq manfaati yo'lida biror ma'lumotni e'lon qilishi mumkin;
- ▷ Qo'mita so'ralgan ma'lumot bilan cheklanib qolmaydi. Razvedka xizmatlariga javobgar vazirlar o'z tashabbusi bilan, masalalarni yodini-lashtirish maqsadida, qo'mitani axborot bilan ta'minlab turishi zarur.

Demokratik jamiyatlarda razvedka xizmatlari uchun me'yorlar

Davlatning qonuniy an'analari, siyosiy tuzum va tarixiy faktorlar razvedka yoki maxfiy xizmatlarni nazorat qilishda o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Masalan, asosi Britaniya qonunlariga borib taqaladigan ayrim mamlakatlarda adliya nazoratiga ahamiyat katta. Yevropa va zamonaviy tarixda repressiv kuchlar hukmronlik qilgan jamiyatlarda esa, aksincha, parlament nazorati ustunlik qiladi. Amerika Qo'shma Shtatlarida esa razvedka nazorati mexanizmlari ijroiya, qonunchilik va adliya tizimlarida joriy etilgan. Ba'zi davlatlarda ombudsmanga o'rin berilib, u xavfsizlik xizmatlari tomonidan inson huquqlari buzilishi hollarni tekshiradi va o'z xulosalarini jamoatchilikka taqdim etadi (16-bobga qarang).

Nazorat ko'lami

Razvedka xizmatlari nazorat ko'lami ancha cheklangan. Bunga xizmatlarning faoliyat turi, jumladan, mahalliy, kontr- razvedka yoki tashqi razvedka, qolaversa operatsiya usullari va yashirin amaliyotlar sabab bo'lishi mumkin.

Parlamentdagi ochiq yoki maxfiy munozaralar

Umuman olganda, demokratik jamiyatlarda razvedka ustidan nazorat haqida boshqa sohalarga qaraganda unchalik ochiq gapirilmaydi va bunga o'rganilmagan. Masalan, masala bilan mashg'ul qonunchilik qo'mitalarida muhokamalar ommaga ochiq emas va a'zolar ma'lumotlarning naqadar maxfiy ekanini tan olib, ularni e'zozlashga qasamyod qilishi mumkin. Nazorat qanday yuritilishidan qat'iy nazar demokratik jamiyatlar bu turdagi tashkilotlarni mas'uliyatli bo'lishga va qonun asosida ishlashga chorlaydi. Lekin bir paytning o'zida razvedka faoliyatlari maxfiy ekani va ularning davlat xavfsizligi uchun naqadar muhim ekani tan olinadi. Bu borada muvozanatli siyosat yuritish asosiy vazifadir.

Vazifalarning taqsimlanishi

Razvedkani turli qismlarga bo'lib nazorat qilish bu sektorni monopoliyadan saqlaydi. Qurolli kuchlar va ichki ishlar qoshida maxfiy xizmat idoralari faoliyat yuritishi yoki mahalliy va tashqi razvedkaning alohida ishlashi ba'zida samarasiz tuyulishi mumkin. Ba'zida byurokratik raqobatga ham olib boradi. Ammo ularni demokratik nazorat qilish osonroq. Shu sabab ko'p davlatlarda ichki va harbiy razvedka xizmatlari bir-biridan ajratilgan. Demokratik jihatdan qo'l kelsada, maxfiy ma'lumot to'plovchi va uni bir joyda tahlil qiluvchi yagona tizim mavjud emasligi ayrim hollarda pand beradi. AQSh buning oqibatlarini ayniqsa 2001 yilning 11 sentyabridagi terror xurujlaridan keyin tushundi.

Razvedka xodimlarini tayyorlash

Maxfiy xizmat xodimlarini tayyorlash va mutaxassislar tizimini joriy etish bu sektorni nazorat qilishning asosiy qismidir. Bu soha egalari malakasini oshirishda ularning professionalism darajasini, demokratik me'yor va inson huquqlari prinsiplariga sodiqligini hamda fuqarolik mas'uliyatini yuksaltirishga ahamiyat qaratish lozim. Demokratik jamiyatlarda razvedka xizmati faqat harbiylar qo'lga topshirilmay, bu ishga fuqarolarni yollash ma'qul ko'riladi.

Ma'lumotni deklassifikatsiya qilish

Yana bir muhim vazifa maxfiy faoliyat xususidagi ma'lumotni, biroz vaqt o'tgach, omma e'tiboriga havola qilishdir. Buni maxfiy axborotni vaqti kelib jamoatchilikka oshkor qilishni ko'zda tutgan qoidalar va axborot erkinligi haqidagi qonunga binoan amalga oshirish mumkin. Kechiktirilgan bo'lsa-da, bu singari oshkorlik va omma tahlili uchun zamin yaratish demokratik nazoratning bir qismidir (21-bobga qarang).

Qonunchi sifatida nima qila olasiz?

Parlament nazorati uchun mexanizmlar

- ▷ Parlamentda razvedka xizmatlarini nazorat qilish kuchiga ega qo'mita yoki quyi qo'mita bo'lsin (15-bobdagi qonunchilik qo'mitalari qiyosiga qarang).
- ▷ Qo'mita vazifasi aniq ko'rsatilgan bo'lsin va iloji boricha cheklanmasin. A'zolar zarur ma'lumot va maslahat olish imkoniga ega bo'lsin.
- ▷ Qo'mita choralar ko'ra olsin. Doimiy hisobotlar, xulosa va tavsiyalar bilan chiqa olsin.

Demokratik va qonuniy tizim

- ▷ Razvedka xizmatlari to'g'risidagi qonunda quyidagilar aks etishi lozim: xizmatlar maqomi, vakolat doirasi, operatsiya, hamkorlik, vazifa, kimga hisobot berishi va nazorati aniq tar'iflansin. Shuningdek ma'lumot olish usullari, shaxsiy ma'lumotlarni saqlash va maxfiy xizmat xodimlari maqomi haqida qonuniy yo'riqlar berilsin.



Razvedka xizmatlari siyosiy jihatdan neytralmi? Kasbiy etika, demokratik normalar va fuqaroviy majburiyatlarga rioya qilayaptimi? Shuni kuzatish kerak.

- ▷ Razvedka xizmatlarini nazorat qiluvchi qonunchilik qo'mitasi bu soha vakillari demokratik prinsiplar va inson huquqlari haqida qonunlar yuzasidan ta'lim olishi uchun zarur choralar ko'rsin.
- ▷ Parlament davlatning barcha uch organiga maxsus vazifalar yuklovchi qonunlar qabul qilsin toki:
 - Ijroiya organi razvedka xizmatlariga topshiriq berish va nima muhim ekanini belgilash mas'uliyatiga ega bo'lsin;
 - Parlament tegishli qonunlar qabul qiladi, byudjetni nazorat qiladi va ma'muriyat hamda razvedka xizmatlari ishini kuzatadi; parlament razvedka amaliyotlariga aralasha olmaydi;
 - Adliya razvedka xizmatlariga xususiy mulkka kirish va/yoki aloqaga aralashish uchun ruxsat beradi. Maxfiy xizmatlarning qonun doirasida faoliyat olib borayotganini kuzatadi.

Oshkoralik va javobgarlik

- ▷ Razvedka xizmatlarini nazorat qiluvchi qonunchilik qo'mitasi ijroiya organining bu sohadagi umumiy siyosati bilan yaqindan tanish bo'lsin.
- ▷ Razvedka xizmatlarini nazorat qiluvchi qonunchilik qo'mitasi bu soha qonuniy, tartibli va mas'uliyat bilan ishlashini ta'minlasin. Bunga faoliyatning naqadar maxfiy ekanini hisobga olinishi lozim, jumladan, fuqarolarning telefon aloqalarini kuzatishga ruxsat beruvchi qonunlar ham.
- ▷ Qo'mita razvedka xizmatlari faoliyati xususida to'liq ma'lumotga ega bo'lsin. Razvedka va maxfiy xizmat rahbarlarini tayinlashda muhim rol o'ynay olsin.

Maxfiylikka doir masalalar

- ▷ Axborot erkinligi to'g'risidagi qonun bevosita va vositali nazorat va mas'uliyat bilan ta'minlovchi manba sifatida xizmat qilsin.
- ▷ Maxsus Audit tizimi joriy etilgan bo'lsin. Maxfiy operatsiyalar uchun mablag' ajratishga maxfiylik va javobgarlik o'rtasida muvozanat ta'minlansin.
- ▷ Maxfiy ma'lumotlarni qachon va qay shartlar asosida ommaga oshkor etish yoki etmaslik qonunda belgilangan bo'lsin. Bu oshkoralik uchun yo'l ochadi. Axborot erkinligi to'g'risidagi qonunga muvofiq bu ma'lumotlar nomi doimiy hisobotlar orqali berib turilsin.

Terrorizm haqida 20-bobga va moliyaviy manbalar yuzasidan esa VI-qismga qarang.

Xususiy xavfsizlik va harbiy kompaniyalar

Davlat xavfsizlikni ta'minlash yo'lida o'z qudratini ishga solish huquqiga ega yagona kuchdir. Davlat ichki xavfsizlik uchun javobgar va xalqni tashqi tahdididan himoya qiladi. Biroq keyingi yillarda yuzaga kelgan ichki mojarolar girdobida yangi bir tushuncha vujudga keldi: xavfsizlik ishlarining xususiylashtirilishi. Natijada nodavlat xavfsizlik kuchlari paydo bo'la boshladi. Harbiylarni demokratik nazorat qilish qiyinlashdi.

1990-yillardan beri xususiy xavfsizlik va harbiy firmalar ko'paydi. Ularni asosan uch guruhga bo'lish mumkin: xususiy armiya, xususiy harbiy kompaniyalar va xususiy xavfsizlik kompaniyalari. Ularning faoliyati davlat tomonidan nazorat qilinishi juda muhim.

Xususiy xavfsizlik va harbiy kompaniyalar xavfi va vazifalari

Odatda mojarolarni boshdan kechirgan va siyosiy jihatdan beqaror davlatlar xususiy xavfsizlik va harbiy kompaniyalarga murojaat qiladi. Sabab shuki bunday mamlakatlarda armiya yetarlicha malaka va kuchga ega bo'lmaydi va fuqarolarni xavfsizlik bilan ta'minlay olmaydi. Ba'zida armiya hukumatga uning ustidan kuch bilan demokratik nazorat o'rnatish uchun yo'l bermaydi. Ayrim hollarda esa mamlakat ichki mojarolar bilan yuzlashayotgan bo'lishi mumkin.

Bunday vaziyatlarda xususiy harbiy/xavfsizlik kompaniyalarini yollash qisqa muddatda ijobiy natijalar berishi mumkin. Ayniqsa mamlakat qurolli kuchlarining o'ziga nisbatan ishonchini va tajribasini oshirishda. Lekin bu qaror demokratik jarayonlarga ko'p tomonlama salbiy ta'sir qilishi ham mumkin (26-izohga qarang).

Omma, demokratik ravishda saylangan hukumat va parlament nafaqat o'ziga tegishli xavfsizlik tizimlarini balki yollangan xususiy harbiy kompaniyalarni ham boshqara olishi va demokratik nazorat qila olishi lozim.

26 - izoh

Xususiy xavfsizlik/harbiy kompaniyalar va ularning demokratiyaga ehtimoliy tahdidi

- ▷ Xususiy xavfsizlik kuchlari barqarorlik olib kelishi mumkin, ammo uzoq muddatda ba'zi hukumatlar ichki muammolarni yechishda faqat ularga tayana boshlaydi;
- ▷ Chetdan kuch yollash maqsad va byudjet yuzasidan, demokratik va samarali boshqaruv nuqtai nazaridan qator savollar uyg'otadi. Bu masalalar jamoatchilik orasida va parlamentda muhoma qilinishi kerak;
- ▷ Ko'p hollarda xususiy kuchlar nufuzli missiyalarga qo'shilish bahonasi-da qurol-aslaha turlarini targ'ib qiladigan agentlar bo'lib xizmat qilishi ham mumkin.

Xususiy armiyalar

Yollanma kuchlar degan tushuncha ancha uzoq tarixga ega. Lekin ularning hali ham dunyoning turli burchaklaridagi mojarolarda qo'llanayotganiga guvohmiz.

1989 yilning 4 dekabrda BMT Bosh Assambleyasi 44/34-rezolyutsiyani tasdiqlab, Xususiy Armiyalarni Yollash, Qo'llash, Moliyalash va Tayyorlashga Qarshi Xalqaro Konvensiya qabul qilingan. Hujjat 2001 yilning 20 oktabrida kuchga kirgan bo'lsa-da, bugungacha uni juda kam davlatlar ratifikatsiya qilgan. Mazkur konvensiyaning 1-moddasida xususiy kuchlarga 1949 yili Jeneva Konvensiyasining Qo'shimcha Protokolidagi 49-moddada berilgan ta'rif ancha kengaytirilgan. Xususan, hukumatlarni zo'ravonlik yo'li bilan ag'darish, konstitutsion tuzum yoki hududiy birlikka qarshi harakatlar uyushtirishda chetdan maxsus qo'shinlar yollash kabilar hollar kiritilgan.

1- Modda. "Mazkur Konvensiyaga ko'ra:

- Xususiy askar 1) mamlakat ichida yoki chet elda qurolli mojaroda jang qilish uchun yollangan shaxs; 2) Xususiy manfaat yo'lida jang qiladi. Urush olib borayotgan tomon unga moddiy kompensatsiya va'da qilgan. Bu to'lov miqdori uni yollagan davlat armiyasida o'sha daraja yoki salohiyatda xizmat qilayotgan harbiylarga beriladigan haqdan yuqori; 3) Urush olib borayotgan davlat fuqarosi emas va uning hududida yashamaydi; 4) Urushayotgan davlat qurolli kuchlari a'zosi emas; 5) Urushmayotgan biror davlat tomonidan harbiy vazifa bilan jo'natilmagan.*
2. *Xususiy askar, shuningdek 1) mamlakatda yoki chet elda quyidagi maqsadlarda uyushtirilgan zo'ravonliklarda xizmat qilish uchun yollanadi; 2) hukumatni yoki konstitutsion tuzumni to'ntarish; 3) davlatning hududiy birligini buzish; 4) Mojaroda shaxsiy va moddiy foyda evaziga qatnashadi. Unga moliyaviy kompensatsiya va'da qilingan; 5) Mojaro uyushtirilgan davlat fuqarosi emas va unda yashamaydi; 6) Biror davlat tomonidan rasman jo'natilmagan; 7) Mojaro kechayotgan davlatning qurolli kuchlari a'zosi emas".*

Xususiy askarlar yollash, ulardan foydalanish, ularni moliyalash yoki ular malakasini oshirish Xalqaro Konvensiya nazarida jinoyatdir. Hukumatlarning xorijdan maxsus maqsadlarda (masalan, terrorizmga qarshi amaliyotlar) harbiy maslahatchilar (masalan, uchuvchilar) yollashi bunga kirmaydi.

BMT Inson Huquqlar Kengashining xususiy armiyalar bo'yicha Maxsus Vakili hisobotida quyidagilar tavsiya qilinadi: "Bosh Assambleya Konvensiyani ratifikatsiya qilmagan yoki ma'qullamagan a'zo davlatlarga hujjat ahamiyati haqida eslatishi lozim. A'zo davlatlar o'z qonunchiligini Konvensiya talablariga moslashga chaqirilsin". (par. 70).

Xususiy harbiy kompaniyalar

Xususiy harbiy kompaniyalar zamonaviy va korporatsiya shaklidagi "yollanma kuchlardir". Shunday ekan, ular moliyaviy foyda uchun ishlab, harbiy xizmatlar ko'rsatadi va davlat kuchlarining malaka oshirishda yordam beradi. Harbiy kompaniyalar ham jang maydonida, ham undan tashqarida faoliyat yuritishni maqsad qilgan. Qonuniy jihatdan ular xususiy armiya ta'rifiga mos emas. Chunki bu kompaniyalar faol xizmatni tark etgan, iste'fodagi harbiylardan tashkil topgan. Xususiy harbiy birlashmalar jangovar va operatsion ishlar uchun; harbiy tayyorgarlikdan o'tkazish; qurol-aslaha olish, maxfiy ma'lumotlar to'plash va dushman tomonidan garovga olingan insonlarni qutqarishda maslahat berish uchun yollanadi. Qanday xizmatlar taklif qilishidan qat'iy

nazar bu kompaniyalar hukumatlar iltimos va taklifiga binoan faoliyat yuritadi, ayniqsa urush zonalari yoki urushdan keyingi qayta qurish harakatlarida.

Bunday xususiy harbiy kompaniyaga misol tariqasida AQShda asoslangan MPRI ni keltirish mumkin. Kompaniya mudofaa masalalari bilan bog'liq muammolarni hal etish, harbiy maslahat va yordam berish, qonun-tartibot va boshqaruv tizimini taraqqiy ettirish maqsadida yollanadi. MPRI 1988 yilda sobiq qo'mondonlar tomonidan ochilgan va uni asosan iste'fodagi harbiylar yuritadi.

Xususiy xavfsizlik kompaniyalari

Xususiy xavfsizlik kompaniyalari biznes va mulkni himoya qiladi. Shu yo'l bilan ular jamiyatda jinoyatning oldini olishga hissa qo'shadi. Bu kabi firmalar keng tarqalgan. Notinch hududlarda bizneslar xavf ostida ekan, jahonning qaynoq nuqtalarida ularga talab yanada oshgan. Chunki ko'p hollarda davlat zarur muhofaza bilan ta'minlay olmaydi. Xavfsizlik kompaniyalarga harbiy ishlar emas, asosan mulk va xodimlarni asrash vazifasi yuklanadi. Lekin amalda harbiy va xavfsizlik ishlari bir-biri bilan shu qadar bog'liqki, kompaniyalar har ikkisini bajarishga harakat qiladi. Shunday ekan ayrim hollarda xususiy harbiy va xavfsizlik kompaniyalari o'rtasidagi farqni sezish qiyin.

Yuqorida tilga olingan xususiy tashkilotlar kun sayin ko'payar va ularning ahamiyati oshib borar ekan, demokratik idoralar, ayniqsa, parlament xavfsizlik sektoridagi bu kuchlar ustidan muntazam va mustahkam nazoratni yo'lga qo'yishi lozim. Aks holda demokratik prinsiplarga putur yetishi mumkin.

Qonunchi sifatida nima qila olasiz?

Qonunlar

- ▷ Davlatingiz 1989 yilda imzolangan, Xususiy Armiyalarni Tayyorlash, Moliyalash, Qo'llash va Yollashga Qarshi Xalqaro Convensiyaga a'zomi? Bu borada zarur hujjatlar qabul qilinganmi? Shuni aniqlang.
- ▷ Xususiy xavfsizlik va harbiy kompaniyalar to'g'risidagi qonunchilik kuchda bo'lsin.

Me'yor va qurol embargosiga rioya qilish

- ▷ Xususiy xavfsizlik va harbiy kompaniyalar chet elda mojaroli mintaqalarda xizmatda ekan, parlament ular faoliyatini tekshirib tursin. Mamlakatingizda asoslangan kompaniyalar davlat xavfsizlik strategiyasi va tashqi siyosatiga asosan ish tutyaptimi? Xalqaro qonun, norma va rezolyutsiyalarga amal qilyaptimi? Shularni diqqatni qarating.



PI va QKDNQ – Xavfsizlik sohasi ustidan parlament nazorati, 2003

- ▷ Qurollar embargosi joriy etilgan mamlakat yoki mintaqalarda xususiy xavfsizlik va harbiy kompaniyalar ishlashini man etuvchi qonun qabul qilinsiz.

Oshkoralik

- ▷ Parlament ruxsatisiz biror xorijiy xususiy xavfsizlik va harbiy kompaniya mamlakat hududida ishlay olmasin, hatto ular hukumat iltimosiga binoan yoki uning ruxsati bilan kelgan bo'lsa ham.
- ▷ Parlament hukumatning xususiy xavfsizlik va harbiy kompaniyalari faoliyati uchun ajratgan mablag'ini nazorat qila olsin.

Javobgarlik

- ▷ Parlament xususiy xavfsizlik va harbiy kompaniyalarning har bir harakati uchun hukumatni javobgarlikka tuta olsin. Ham qonunan, ham ijro jihatdan. Ham chet elda, ham mamlakatda.

To'rtinchi qism

Davlat xavfsizligi parlament nazoratida:

Shart va mexanizmlar

Parlament nazorati samarasi yo'lidagi shartlar

Parlamentning ijroiya organi va mudofaa kuchlari ustidan qanday kuchga ega ekani uning xavfsizlik sektorini qanchalik nazorat qila olishini belgilaydi. Bunda vakolat – xalq istagini aks ettiruvchi palata sifatida hukumat qarorlariga ta'sir qilishdir. Parlament tomonidan belgilangan siyosat, qabul qilingan qonun va qarorlar hamda byudjetning amalga oshirilishini kuzatish ham shu vakolatning bir qismi. Bu nafaqat konstitutsiya va boshqa qonunlarda ko'rsatilgan bo'ladi, balki parlament faoliyati bilan bog'liq qoida va odatlarga ham asoslanadi.

Parlamentning xavfsizlik kuchlari ustidan effektiv nazorat yuritishi quyidagilarni talab qiladi:

- ✓ Aniq konstitutsion va qonuniy vakolatlar;
- ✓ Odatiy amallar;
- ✓ Resurs va bilim;
- ✓ Siyosiy istak va iroda.

Konstitutsion va qonuniy vakolatlar

Konstitutsiya – davlat bosh qonuni parlamentning xavfsizlik sektorini nazorat qilishi uchun eng muhim asosdir. Turli davlatlar siyosiy, madaniy, iqtisodiy va ijtimoiy kelib chiqishiga qarab turlicha konstitutsiyaga ega. Lekin bosh qonunlar aksariyat hollarda shunday bandlarni o'z ichiga oladi:

- ✓ Ijroiya organi (masalan, prezident, bosh vazir yoki mudofaa vaziri) xavfsizlik xizmatlari uchun javobgardir;
- ✓ Ijroiya organi parlament oldida javob beradi.

Konstitutsiya eng oliy yuridik maqomga ega ekan, parlament xavfsizlik sektori ustidan nazorat qilishga haqli ekanini bosh qonunda qayd etish maqsadga muvofiqdir. Konstitutsiyani o'zgartirish oson emas va bu odatda parlamentda ko'pchilik ovozni talab qiladi. Shu bois ham parlament vakolatlarini konstitutsiya orqali muhofaza qilgan ma'qulroq. Bu vakolatlar maxsus qonunlar orqali yanada kuchaytirilishi mumkin. Shu tariqa ijtimoiy normalar, javobgarlik va parlament nazorati rivojlana boshlaydi.

27-izoh parlamentlar xavfsizlik sektorini qanday yo'llar bilan nazorat qilishini tasvirlaydi. Bu vakolatlarning ko'piga navbatdagi boblarda to'xtalamiz.

27 - izoh

Xavfsizlik sektorini demokratik nazorat qilish uchun foydali vositalar

1. Umumiy vakolatlar

- a. Qonun tashabbusi bilan chiqish;
- b. Qonunlarni o'zgartirish yoki qayta yozish;
- c. Ijroiya organi a'zolarini so'roq qilish;
- d. Ijroiya organi a'zolarini parlament yig'ilishlarida hisobot berishga chaqirish;
- e. Harbiy va fuqaro (noharbiy) xizmatchilarni parlament yig'ilishlarida hisobot berishga chaqirish;
- f. Mutaxassislarni parlament yig'ilishlarida so'zlashga chaqirish
- g. Ijroiya organidan zarur hujjatlar olish;
- h. Parlament tergovlarini tashkil etish;
- i. Tinglovlar o'tkazish.

2. Byudjet nazorati

- a. Byudjetga doir hujjatlarni olish;
- b. Mudofaa va xavfsizlik byudjetini qayta ko'rib chiqish va o'zgartirish;
- c. Dasturlar, loyihalar va ularning biror qismiga doir xarajatlarni nazorat qilish;
- d. Mudofaa va xavfsizlik uchun qo'shimcha mablag' ajratish takliflarini tasdiqlash yoki rad etish.

3. Tinchlik missiyalari/xorijga harbiylarni safarbar etish: parlamentning ma'qullash yoki rad etish vakolati

- a. Qo'shinlar jonatilishidan avvalgi muhokamalarda qatnashish;
- b. Missiyaga ruxsat berish; BMT ruxsatini olishni kafolatlash;
- c. Missiya byudjetini ko'rib chiqish;
- d. Harbiylar yuzlashadigan xavfni o'lchash;
- e. Operatsiya qoidalari va rejasini belgilash;
- f. Qo'mondonlik tizimi/nazoratni ta'minlash;
- g. Missiya muddatini belgilash;
- h. Missiyada qatnashayotgan qo'shinlarni ko'rishga borish.

4. Harbiy ta'minot

- a. Ijroiya organi parlamentni harbiy ta'minot borasida to'liq ma'lumot bilan ta'minlaydi;
- b. Parlament shartnomalarni tasdiqlash yoki rad etish vakolatiga ega;
- c. Parlament harbiy ta'minot jarayonini tekshirish vakolatiga ega:
 - i. Yangi vositaga zaruratni aniqlash;
 - ii. Ishlab chiqaruvchilarni taqqoslash va tanlash;
 - iii. Kompensatsiyani sarhisob qilish.

5. Mudofaa va xavfsizlik siyosati: tasdiqlash yoki rad etish vakolati

- a. Xavfsizlik siyosatini tahlil qilish;
- b. Favqulodda vaziyatlar boshqaruvini ko'rib chiqish;
- c. Qurolli kuchlar tizimini ko'rib chiqish;
- d. Harbiy strategiya va doktrina bilan tanishish.

6. Mudofaa va xavfsizlik xodimlari

- a. Kadrlar bo'yicha rejani ma'qullash yoki rad etish;
- b. Qo'shin sonini belgilash;
- c. Yuqori harbiy lavozimlar uchun nomzodlarni ma'qullash, rad etish yoki bu borada maslahat berish

Odatiy amallar

Qonun hamma narsani nazorat qila olmaydi. Ijtimoiy normalar, jumladan, o'zaro hurmat va ishonchga asoslangan nazoratni ta'minlashda siyosiy an'ana va amallar juda qo'l keladi. Masalan, qonunchilarni xavfsizlik ahvoli haqida xabarbor qilib turish va ularni bu boradagi say-harakatlarga jalb etish nafaqat oshkorlik va javobgarlik, balki jamiyatda o'zaro muloqot uchun ham yo'l ochadi.

Resurslar va bilim

Parlamentning xavfsizlik sektorini nazorat qila olishi vaqt, qonunchilarning bilim darajasi va qo'lidagi ma'lumotiga ham bog'liq.

Vaqt

Parlament hukumatning xavfsizlik haqidagi qaror va maqsadlari haqida o'z vaqtida xabardor etilishi kerak. Ba'zida hukumat yakuniy qarorga kelib, keyin bu haqda qonunchilarga ma'lum qilishi mumkin. Bunday hollarda parlament hukumat qarorini ma'qullash yoki rad etish vakolatiga ega.

Favqulodda vaziyatlarda hukumat tezlikda chora ko'rishi va o'z qarorlari haqida parlamentni ular ijrosidan keyingina xabardor qilishi mumkin. Biroq bu bilan hukumat parlament tomonidan qabul qilingan qonun va qoidalarni buza olmaydi.

Doimiy va uzoq muddatli siyosatga kelganda, mudofaa va uning byudjeti hamda qurol-aslaha ta'minoti bilan bog'liq masalalarni tahlil va muhokama qilish uchun parlamentga yetarlicha vaqt berilishi lozim.

Tig'iz vaziyatda samarali ishlash uchun parlament ehtimoliy hollarni nazarda tutgan alohida strategiyaga ega bo'lishi kerak. 28-izoh bu strategiyani tushuntiradi.

28 - izoh

Parlament uchun faol strategiya

Qonunchilar ishini kundalik yangiliklar tebratadi desak xato bo'lmaydi. Ularning har kunlik faoliyati ko'p jihatdan ma'muriyat qo'yayotgan qadamlarga bog'liq. Yechimini kutayotgan masalalar ko'p ekan, vaqt ham cheklangan. Shu sabab parlament xavfsizlik sektorini ko'zdan qochirmaslik uchun avvaldan kuchli choralar joriy etishi kerak bo'ladi.

Siyosiy agenda: Parlament a'zolari xalq xohishi va irodasini tushuna olishi va uni ro'yobga chiqarish uchun aniq siyosiy maqsadlar – agenda bilan chiqishi darkor.

So'nggi o'zgarishlar: Parlament mamlakatda va xalqaro maydonda xavfsizlik va harbiy sohalarda qanday o'zgarishlar bo'layotganidan boxabar bo'lib turishi kerak. Axborot nafaqat hukumat idoralaridan olinadi, balki qonunchilar buning uchun nohukumat tashkilotlar, oliygohlar va siyosiy tahlil markazlariga ham murojaat qilishi mumkin.

O'tmish saboqlari: Parlament xavfsizlik sektori olib borgan operatsiyalar natijasidan tegishli xulosalar chiqarishi va kelajakda to'g'ri yo'l tutish ayrim masalalarni qayta ko'rib chiqishi kerak bo'ladi.

Davomiy tekshiruv: Parlament xavfsizlik siyosatini tuzishda ijroiya organidan bugungi maqsad va shu kungacha orttirilgan tajribani hisobga olishni talab qilishi lozim.

Axborot, bilim va parlament xodimlari

Xavfsizlik sohasini effektiv nazorat qilish uchun parlamentga bilimi o'tkir mutaxassislar va boy resurslar kerak. Ko'pincha parlament bu jihatdan ma'muriyat yoki xavfsizlik kuchlari bilan tenglasha olmaydi. Qonunchilik palatalari odatda unchalik chuqur izlanish salohiyatiga ega emas. Vaholanki, ijroiya organi bu borada mudofaa va xavfsizlik bilan shug'ullanadigan boshqa vazirliklarga tayanadi. Dunyoning ayrim mamlakatlarida, masalan, Argentinada parlament – Kongress qo'shida harbiy ma'lumot bilan ta'minlovchi doimiy idora bor. Mazkur markaz qonunchilar va ularning xodimlariga va eng asosiysi, mudofaa va xavfsizlik masalalari bo'yicha qo'mitalarga maslahat beradi. Parlament a'zolari cheklangan muddatga saylanadi. Davlat xizmatchilari va harbiylar esa aksariyat hollarda butun kasbiy faoliyatini mudofaaga bag'ishlagan insonlardir. Tabiiyki, ular qonunchilarga qaraganda ko'proq bilim va tajribaga ega. Bunda parlament bir muammoga e'tibor qaratishi kerak: qonunchilar ma'lumotni ular nazorat qilishi kerak bo'lgan sektor xodimlaridan olmoqda. Bu hol parlamentning ma'muriyat va armiya bilan ishlashini qiyinlashtiradi. Tizimga xos maxfiylik, harbiy faoliyat, mentalitet, ta'lim va davlat xavfsizligi bilan bog'liq ayrim ma'lumotlarni sir tutish haqidagi qonunlar ham deputatlar ishini murakkablashtiradi.

29-izoh qonunchilarga xavfsizlik haqidagi bilimini oshirishga yordam beradi.

29 - izoh

Parlamentning xavfsizlik bobidagi bilimini oshiruvchi mexanizm va amaliyotlar: qator tavsiyalar

- ▷ Palatada xavfsizlik va mudofaa masalalari bilan shug'ullanadigan qonunchilik qo'mitasi tashkil eting. Qo'mitalar harbiy ta'minot, kadrlar, byudjet va tinchlik missiyalari bo'yicha ishlovchi alohida bo'limlarga – quyi qo'mitalarga bo'linishi mumkin;
- ▷ Mahalliy va xalqaro anjumanlarda qatnashing. Ta'limiy-amaliy safarlariga chiqing. Xavfsizlik inshootlariga tashrif buyuring. Qonunchilar uchun tashkil etilgan ilmiy tadbirlarda ishtirok eting. Ba'zida bu yig'inlar mamlakat qo'shinlari xizmat qilayotgan davlatlarda bo'lishi mumkin;
- ▷ Chet davlatlardagi qonunchilar bilan tajriba almashing. Xalqaro parlamentlar assambleyalari buning uchun qulay imkoniyat.
- ▷ Idorangizda kuchli bilim va malaka egalari ishlasin. Ularning soni yetarlicha bo'lsin;
- ▷ Maxsus ma'lumotlar va zarur hujjatlar bilan ta'minlovchi kutubxona va manbalardan foydalanishni yo'lga qo'ying. Siyosiy tahlil markazlari, jumladan, elektron ma'lumot manbalariga chiqa oling;
- ▷ Nohukumat tashkilotlariga murojaat qiling. Universitetlar va tadqiqot institutlari mutaxassislari yoki iste'fodagi zobitlar bilan maslahatlashib turing. (6-bob, fuqarolik jamiyati mavzusiga qarang);
- ▷ Xalqaro va mintaqaviy bitimlar, ularning ratifikatsiyasi hamda bu kelishuvlarni kim kuzatishi bilan bog'liq ma'lumotning davlat tiliga tarjima qilinishini ta'minlang.
- ▷ Har yili xavfsizlik sektoriga tegishli ikki yoki uch masalani tanlab, uni quyi qo'mitalar orqali chuqur o'rganing va tekshiring.
- ▷ Parlamentdagi barcha partiya vakillarini o'z ichiga olgan va xavfsizlik masalalarini o'rganuvchi kengash tuzing. Bu guruh siz uchun foydali ma'lumot manbai sifatida xizmat qilishi mumkin.

Siyosiy istak va iroda

Parlament nazorati uchun qonuniy sharoit yaratilib, palata xavfsizlik masalalari bilan yaqindan tanishish va ularni muhokama qilish imkoniyatiga ega bo'lsa-da, bu sektor effektiv darajada kuzatilayapti deya olmaymiz. Nazoratning mustahkam bo'lishi ortida yana bir muhim omil bor. Qonunchilar o'z qollaridagi barcha vosita va vakolatlarni ishga solishi uchun avvalo ularda istak va iroda bo'lishi shart. Siyosiy xohish yetishmasligiga quyidagi hollar sabab bo'lishi mumkin:

- ✓ Hukmron siyosiy partiya a'zolari ijroiya organi yoki boshqaruvni boy bermaslik uchun uni ochiqchasiga tanqid qilishni ma'qul topmaydi.
- ✓ Ko'p davlatlarda jamoatchilik xavfsizlik masalalari bilan unchalik qiziqmaydi. Shu bois deputatlar ham unga katta e'tibor qaratmaydi. Chunki qonunchi nazarida, u parlamentga xavfsizlik masalasi deb saylanmagan yoki bu uning qayta saylanishida muhim rol o'ynaydigan mavzu emas.
- ✓ Razvedka masalalari bilan shug'ullanadigan qonunchilik qo'mitalari maxfiylik zaruratidan kelib chiqib, o'z xulosalari haqida gapirishdan bosh tortishi mumkin.

Yuqoridagi sabablarga ko'ra parlament ijroiya organining hatti-harakati va siyosatini passiv holda nazorat qilishi mumkin. Favqulodda vaziyat yoki biror mojaroli holat vujudga kelganda bu nazorat sal kuchaygandek bo'ladi. Ahvol qanday ekanidan qat'iy nazar ijroiya organini o'z qilmishlari yuzasidan javobgarlikka tutish har qanday parlament uchun konstitutsion burchdir.

Parlamentning xavfsizlik sektoriga tegishli mexanizmlari

Barcha qonuniy tizimlar parlamentlarga amaldagi siyosat haqida zarur ma'lumot olish, ma'muriyatni nazorat qilish, fuqarolarni himoya qilish va adolatsizlikka qarshi chora ko'rish vakolatini beradi. Bundan tashqari deputatlar konstitutsion va qonuniy talablarga muvofiq ravishda o'ziga xos ish uslublari va norasmiy usullar bilan chiqishi mumkin.

Parlamentga hukumatdan axborot olish uchun imkon beradigan qonuniy usullar:

- ✓ Qonunchilik debatlari yoki munozaralari;
- ✓ Parlament so'rovi yoki tushuntiruv talabi;
- ✓ Parlament tekshiruvi yoki tergovi.

Xavfsizlik yuzasidan parlament munozaralari

Qonunchilik palatalarida xavfsizlik bobida kechadigan debatlar nozik ma'lumot va faktlar hamda hukumat maqsadlari haqida fikr almashish uchun muhim imkoniyatdir. Parlament xavfsizlik siyosati va masalasini odatda quyidagi besh holatda muhokama qilishi mumkin:

- ✓ Ijroiya organi yillik mudofaa byudjeti taqdim etgach;
- ✓ Mudofaa yoki tashqi ishlar vaziri rasmiy yoki norasmiy bayonot bergach;
- ✓ Davlat mudofaasiga doir biror oliy hujjat havola etilgach;
- ✓ Saylovdan keyin hukumatning yangi dasturi e'lon qilingach;
- ✓ Mojaro chiqsa, xavfsizlikka tahdid solinsa yoki biror ofat yuz bersa.

30 - izoh

Parlamentning umumiy jihatlari va ijroiya ustidan nazorat

▷ **Umumiy debat**

“Ayrim mamlakatlarda konstitutsiya ijroiya organidan parlamentga doimiy hisobot berib turishni talab qiladi... Ba’zi davlatlarda esa umumiy siyosat haqida bunday talab yo’q. Ko’p hollarda masala deputat tomonidan ko’tarilsagina munozara uyg’otishi mumkin...”

▷ **Siyosiy so’rov**

“... Klassik deb ta’riflanuvchi parlamentlar ma’lumot olish va nazoratni ta’minlash uchun siyosiy so’rov (interpellyatsiya) bilan chiqadi. Qonunchilik palatasi a’zosi biror vazir yoki davlat rahbaridan amaldagi siyosatni tushuntirib berishni so’rashi mumkin. Interpellyatsiyaning ikki muhim jihati bor: birinchidan u umumiy munozaraga sabab bo’ladi; ikkinchidan esa bu munozara siyosiy chora (sanksiya) tomon yetaklaydi. Chunki hukumat bergan javobga qarab, parlament yo undan qoniqadi yo qoniqmaydi. Siyosiy so’rov o’ta samarali jarayon. Sabab parlament bevosita ijroiya organiga murojaat qilmoqda. Undan qonunlar ijrosi yuzasidan javob berishini talab qilmoqda. Bu faqat ma’lumot olish emas, balki organni to’g’ridan-to’g’ri nazorat qilish demakdir...”

▷ **Favqulodda muhokama**

“Britaniya siyosiy tizimida interpellyatsiya degan tushuncha mavjud emas. Lekin “adjournment motion” degan amal bor. Unda o’ta dolzarb deb topilgan masala favqulodda muhokama qilinadi va hukumat savolga tutiladi. Parlament ta’tilga chiqishidan oldidan bunday muhokama yuz berganida, masala ovozga qo’yilmaydi...”

▷ **Savollar**

“Savol berish orqali ijroiya organi faoliyatiga doir aniq ma’lumot olinadi, xatolar fosh etilib, tuzatiladi. Shuningdek, jarayonda parlament a’zolariga zarur faktlar berilishi mumkin. Bu ularga qonun loyihalarining murakkab tomonlarini tushinishda yordam beradi. Savol berish orqali muxolifat hukumatning zaif jihatlari aniqlaydi. Muammolarning jamoatchilikka ayon bo’lishi, tabiiyki, oppozitsiya manfaati uchun xizmat qilishi mumkin. Savol berish keng qo’llaniladigan vakolat, chunki parlament a’zolari xalq vakili sifatida erkin so’ray oladi...”

▷ **Tekshuruv qo’mitalari:** 32-izohga qarang.

Manba: Parlamentlar, Maykl Ameller, Parlamentlararo Uyushma, 1966.

Parlamentning xavfsizlik yuzasidan so’rovlari

Yozma yoki og’zaki so’rov parlamentning asosiy vazifalaridan va hukumatni nazorat qilishda ko’p ishlatiladigan usullardan biri.

Savollar, ayniqsa, xavfsizlikdek nozik sektorni effektiv nazorat qilish uchun qo’l keladi. Parlament so’rov orqali xususan quyidagilarga erishadi:

- ✓ Qonunchilik palatasi a’zolari hukumatning mudofaa va xavfsizlik siyosati hamda u bilan bog’liq masalalar haqida o’z vaqtida, haqqoniy va eng so’nggi ma’lumotlar bilan ta’minlanadi;
- ✓ Parlament uchun xavfsizlikka doir qonunlar ijrosini nazorat qilish osonlashadi;

Mudofaa va xavfsizlik masalalariga jamoat e'tibori oshadi. Ayniqsa, agar parlament savollarni televideniye orqali bersa yoki qonunchilik palatasidagi debatlarida ko'tarsa, ma'lumot kengroq ommaga yetishi, masala axborot vositalarida yoritilishi, nohukumat tashkilotlar va fuqarolik jamiyati e'tiborini jalb etishi mumkin.

- ✓ Hukumatning xavfsizlik bobidagi siyosiy maqsadlariga ta'sir o'tkazadi va ular yo'nalishini o'zgartiradi;
- ✓ Muxolifatga xavfsizlikning ular nazarida muhim lekin mavhum jihatlari haqida so'rashga imkon beradi

Xavfsizlik murakkab soha ekan, uning yuzasidan savol berish oson emas. Mas'ul vazir ko'pincha qonunchilarning savollariga javob bermaslikka urinadi. Buning sabablari yana xavfsizlik sektorini tebratadigan maxfiylikka borib taqaladi. Davlat xavfsizligiga doir hujjatlar sir tutilishi va shu bois na parlamentga va na xalqqa oshkor etilishi mumkin.

31 - izoh

Javobgarlikka tutishning samarali usullari

- ▷ Har tomonlama tayyorgarlik: Xavfsizlik masalalarini chuqur tushunish talab qilinadi, ayniqsa, uning texnik tomonlarini. Harbiylar orasida tanishlar bo'lishi va zobitlar bilan aloqada turish qonunchilarga qo'l kelishi mumkin.
- ▷ Aniq va lo'nda savollar berish: Savol to'g'ri tuzilmagan bo'lsa, uni tushunish qiyin bo'ladi. Natijada unga to'g'ri yoki to'liq javob ololmaysiz.
- ▷ So'rash uchun fursat: savolni qachon va nima uchun berish masalaning ommaga ta'sirini belgilaydi. Masalani o'z fursatida ko'taring.

Ijroiya organining biror hujjatni maxfiy deb belgilash vakolati qonunan cheklanganini ham unutmaslik lozim. Ma'lumotlarni maxfiylashtirish jarayoni oshkora olib borilishi shart. Toki kim qaysi hujjatni nima uchun qancha vaqtga va qanday shartlar asosida sir tutishni buyurayotgani ayon bo'lsin.

Quyidagi omillar ham parlament so'rovining samara berishiga hissa qo'shadi:

- ✓ Javob qoniqtirmasa, qonunchilar vazirlarga masala yuzasidan qo'shimcha savollar berishga tayyor turishi kerak;
- ✓ So'rov paytida ko'tarilgan masalalarni munozaralar orqali davom ettirish mumkin;
- ✓ Parlament a'zolari so'rov jarayonida faol qatnashishi kerak;
- ✓ Ommani parlament so'rovlariga kiritish yoki jarayonni radio yoki televideniye orqali namoyish etish;
- ✓ Munozaralar mazmuni va savol-javoblarni jamoatchilik e'tiboriga havola etish toki omma ular bilan istagan paytda tanisha olsin.

Parlamentning xavfsizlik yuzasidan maxsus tekshiruvlari

Qonunchilik jarayonidagi roldan tashqari parlament qo'mitalari hukumat siyosatini nazorat qilishda ham faol ishtirok etadi. Ijroiya organi faoliyati haqida ma'lumot yig'ish vazifasi bir necha qo'mitaga yuklangan bo'lishi mumkin va bu borada katta hisobotlar taqdim etiladi. Maxsus tekshiruv qo'mitalari esa yuridik tergov vakolatiga, jumladan, so'roq qilish uchun chaqirish kuchiga ega bo'lishi kerak.

Tekshiruv qo'mitalarining ustun tomonlari va xususiyatlari

Xavfsizlik va mudofaa masalalariga kelganda, ad hoc, ya'ni maxsus maqsadlarda tuzilgan qo'mitalarning o'ziga xos ustunliklari bor. Xususan:

- ✓ Maxsus tuzilgani sabab ular, omma nazarida, ijobiy siyosiy qadam;
- ✓ Xavfsizlikka doir nozik masalalarni alohida va izchil tekshirish vositasi;
- ✓ Amaldagi xavfsizlik siyosatini chuqur tahlil qilish va zarur bo'lsa, ayrim jihatlarini tuzatish yoki boshqa tomonga yo'naltirishni taklif qiladi. Bu ijroiya organi va parlamentga o'ta dolzarb mavzular yuzasidan til topishish imkoniyatini beradi.

32 - izoh

Tekshiruv qo'mitalarining asosiy jihatlari

"... Tergov qo'mitalari asosan maxsus masalalarni o'rganib chiqish uchun tuziladi. Shu maqsadda parlament bir necha a'zoga ma'lumot to'plash vazifasini topshiradi. Mustahkam nazorat uchun bu juda zarur harakatdir. Yig'ilgan axborotga asoslanib hisobot yoziladi. Zarur deb topilsa, masala qonunchilik palatasida muhokamaga qo'yiladi va bir qarorga kelinadi..."

... Tergov o'tkazish parlament ijroiya organining har bir harakati yuzasidan boxabar qilib turilishi shart degan tamoyilga asoslanadi.

Ba'zi davlatlarda tekshiruv qo'mitalarining samarali tergov olib borishi qiyin. Ko'pincha ularning biror rasmiyni so'roq qilish uchun chaqirishga vakolati yo'q. Yagona yo'l vazifani sudga topshirishdir. Bu hol esa masalaga hukumatni aralashtiradi, jarayonni sekinlashtiradi va tergovni susaytiradi... Samarali tergov qasam ostida guvohlik olishni talab qiladi...

...Davlat xizmatchilaridan guvohlik olish qator muammolar tug'diradi, chunki bu xodimlar muayyan vazirga bo'ysunadi. Rahbariyat qaysi lavozim egalari parlament savollariga javob bermaslikni buyurishi mumkin? Ayrim davlatlarda so'rov ostidagi vazirlik guvohlik berishga majbur. Lekin mustasno hollar bor: "So'ralayotgan ma'lumot berilgan taqdirda bu jamoat xavfsizligiga rahna solishi yoki davlatga xizmat qilishni qiyinlashtirishi mumkin..."

Ta'kidlash joizki, tizim qanday bo'lishidan qat'iy nazar tergov olib borayotgan qo'mita dalil va fakt yig'ish bilan band xolos. Uning asosiy vazifasi parlamentga masala yuzasidan hisobot berish. Undan tegishli xulosa chiqarish esa butun qonunchilik palatasi qo'lida..."

Manba: *Parlamentlar, Maykl Ameller, Parlamentlararo Uyushma, 1966*

Tekshiruv qo'mitalarining yana bir o'ziga xos jihati bu ularning tarkibidir. Qo'mitada muxolifat va parlamentda ko'pchilikni tashkil etuvchi tomondan qancha a'zo borligi tekshiruv natijasiga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Tekshiruv vakolatlari parlamentlar va qo'mitalarga qarab dunyoda bir-biridan juda farq qiladi. Asosiy vakolatlar ko'pincha quyidagilardan iborat:

- ✓ Tergov qilinadigan masalani belgilash;
- ✓ Harbiy baza va boshqa xavfsizlik inshootlariga safar qilish (17-bobga qarang);
- ✓ Prezident, hukumat idoralari va xodimlardan barcha tegishli ma'lumotni olish, jumladan, davlat sirlari saqlangan o'ta maxfiy hujjatlarni;
- ✓ Prezident idorasi, hukumat muassasalari, harbiylar va fuqarolik jamiyatidan qasam ostida guvohlik olish;
- ✓ Jamoatga ochiq va yopiq tinglovlar tashkil etish.

Kanada askarlarining Somaliga safarbar etilishi ustidan kechgan tekshiruv parlament tergoviga namuna bo'lishi mumkin (33-izohga qarang).

33 - izoh

Kanadaning Somaliga qo'shin jo'natishi ustidan tergov komissiyasi: Xavfsizlik yuzasidan parlament hisobotlarining jamoatchilikka ta'siri

1993 yili Kanada qo'shinlari Somaliga safarbar etilgach yuz bergan voqealar xalqni dahshatga solgan: Kanadaning Belet Xuendagi bazasiga kirgan somaliliklarning otib tashlanishi, Kanada harbiy havo kuchlarining 2-Kommandosi askarlari qo'lida bir o'smirning o'lguncha do'pposlanishi, bu askarlardan birining o'z joniga qasd qilishga urinishi va missiya ketidan muhim ma'lumotlarning yashirilishi va o'zgartirilishi. Kanada harbiy kuchlari safidagi zo'ravonliklarni tasvirlovchi video kassetalar topildi. Masala yuzasidan olib borilgan harbiy tekshiruv jamoatchilik talabiga javob bermaydi deb topilgach, Kanada parlamenti ochiq tergov boshladi.

Ko'lam va vakolat – Kanadaning parlament tergovlariga doir qonunlariga binoan maxsus komissiya guvohlarni so'roq qilish uchun chaqirish, ularni tinglash, zarur mutaxassis va maslahatchilar yollash va dalil-isbotlarni tahlil qilish vakolatiga ega. Guvohlik olish kuchi parlamentga Somali va Davlat Mudofaa Qarorgohida nimalar bo'lganini aniqlash uchun zamin yaratdi. 116 guvoh Kanada bo'ylab televideniye orqali namoyish etilgan tinglovlarda so'roq qilindi. Tekshiruv ko'lami faqat Somalidagi voqealar bilan cheklanmadi. Kanada qurolli kuchlarining boshqaruv tizimi, armiyadagi ahloq, harbiy operatsiyalar, Mudofaa vazirligining harakat va qarorlariga katta e'tibor qaratildi. Tergovning ikkinchi qismida tekshiruv komissiyasi Somali missiyasidan oldingi, missiya davomidagi va undan keyingi vaziyatni ko'rib chiqdi.



PI va QKDNQ – Xavfsizlik sohasi ustidan parlament nazorati, 2003

Sud emas – Tergov sud qilish maqsadida olib borilmadi. Lekin tinglovlarda fojining idoraviy sabablari elakdan o'tkazildi. O'tmishda ro'y bergan hodisalar, nima choralar ko'rilgani va javobgar shaxslar sudga tortilib, jazo olgani tahlil qilindi. Tergovda asosiy diqqat xizmatchilarga emas, Kanada Kuchlari va Mudofaa vazirligidagi ma'muriy va boshqaruv bilan bog'liq muammolarga qaratildi. Biroq tekshiruv, tabiiyki, boshqaruv tizimidagi shaxslar va ularning qay tarzda rahbarlik qilgani va ish yuritganini chetlab o'ta olmadi.

Natija – Ikki yillik tekshiruv xilma-xil masalalarni o'z ichiga olgan uzun hisobot bilan yakunlandi. Somaliga qo'shin yuborilgan paytda Kanada Kuchlari va Mudofaa vazirligi tuzilmasi qanday bo'lgani, Kanada armiyasida boshqaruv tizimi ahvoli, harbiy mentalitet va ahloq, Kanadada fuqaro-harbiy aloqalari kabi masalalar yoritildi. Hukumat siyosatini o'zgartirish va Kanada Kuchlari faoliyatini yaxshilash yo'lida qator tavsiyalar qilindi. Ularning ko'pi hayotga tadbiiq etila boshlangan.

*Manba: Professor Donna Vinslov
Kanada Parlament Tergoviga Texnik Maslahatchi, 1996.*

Parlamentning mudofaa yoki xavfsizlik bo'yicha qo'mitalari

Xavfsizlik sektori o'ta murakkab ko'rinishga ega. Parlament bu sektorni boshqaruvchi ijroiya organi ustidan haqiqatda nazorat o'rnatmoqchi bo'lsa, mustahkam asosga ega qo'mitalar tashkil etishi kerak. Buning uchun bir emas, bir necha qo'mitalar talab qilinadi. Ularning nomlari turli davlatlarda turlicha, shu jumladan, ularga yuklangan vazifalar ham.

Ba'zan qo'shma sessiyalarga yig'ilib turadigan bu qo'mitalar ko'p hollarda quyidagilar:

- ✓ **Mudofaa qo'mitasi** (ba'zida qurolli kuchlar qo'mitasi, davlat mudofaasi va xavfsizligi bo'yicha qo'mita yoki xavfsizlik va tashqi aloqalar qo'mitasi deb ham nomlanadi) xavfsizlik bilan bog'liq barcha masalalar bilan shug'ullanadi. Missiyalar, ularning tuzilmasi, harbiy kadrlar, operatsiyalar, armiyani moliyalash, xizmatga yollash va harbiy ta'minot shular jumlasidandir;
- ✓ **Tashqi aloqalar bo'yicha qo'mita** tinchlikparvarlik missiyalarida qatnashish yoki xorijiy qo'shinlarni mamlakatga qabul qilish, xalqaro xavfsizlik, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar, bitimlar va kelishuvlar kabi masalalar bilan mashg'ul;
- ✓ **Byudjet va moliya bo'yicha qo'mita** xavfsizlik sektoriga doir jamiki byudjetlar taqdirini hal etadi. Butun mamlakat byudjetini, jumladan, mudofaa xarajatlarini audit qiluvchi qo'mita ham bo'lishi mumkin;
- ✓ **Razvedka bo'yicha qo'mita** yoki quyi qo'mita xavfsizlik bilan bog'liq maxfiy masalalarni ko'pincha yopiq eshiklar ortida muhokama qiladi;
- ✓ **Sanoat va savdo bo'yicha qo'mita** vazifalari qatoriga qurol-aslaha ta'minoti va savdosi hamda kompensatsiya kabi masalalarni ko'rib chiqish ham kiradi;
- ✓ **Fan va texnologiya bo'yicha qo'mita** harbiy tadqiqot va taraqqiyot masalalariga ham qaraydi;
- ✓ **Ichki ishlar bo'yicha qo'mita** mahalliy qonun-tartibot, politsiya, chegarani qo'riqlash va ko'p hollarda yarim-harbiy tashkilotlar masalasi bilan ham shug'ullanad.

Vakolat va vosita

Parlament qo'mitalarining chetdan dalil to'plash vakolati har yerda har xil. Masalan, Britaniya quyi palatasida maxsus qo'mitalarga axborot yig'ish huquqi berilmagan. Biroq AQSh Kongressidagi bu kabi qo'mitalar qasam ostida guvohlik olish uchun cheksiz vakolatlarga ega.

Ayrim qo'mitalarda qonun chiqarish, yangi qonunlar yoki o'zgartirishlar taklif qilish va qabul qilish kuchi bor. Boshqalari esa ijroiya organi hatti-harakatlarini nazorat qilish va byudjet ajratish bilan cheklanadi.

Qo'mita o'z vazifasini to'liq bajarishi uchun unga zarur vositalar, bilim va tajriba kerak. Uning qo'li ostida yetarli sonda va yetarli ilm va malakaga ega xodimlar ishlayotgan bo'lishi lozim. Izchil izlanish, muayyan va umumiy, alohida va shu bilan birga parlamentning boshqa bo'limlari bilan ishlay olish, ma'lumot va tegishli hujjatlar yoki ularning nusxalarini olish, mutaxassislarni taklif qilish, tinglov va tekshiruvlar olib borish talab qilinadi (14-bobga qarang).

34 - izoh

Mudofaa va xavfsizlik bo'yicha qonunchilik qo'mitalarining ehtimoliy vazifalari

Xavfsizlik siyosati

- ▷ Mudofaa vazirligining har qanday yirik siyosiy tashabbusini tekshirish va tahlil qilish;
- ▷ Mudofaa vaziri ishini doimiy ravishda tekshirib turish;
- ▷ Mudofaa vazirligi axborot erkinligi qonuniga qanchalik rioya qilayotganini va parlamentga berayotgan axborot sifatini tekshirib turish;
- ▷ Xavfsizlik sektori ustidan, harbiylar va fuqarolar tomonidan, tushgan shikoyatlarni va arizalarni ko'rib chiqish.

Qonunchilik

- ▷ Hukumat taklif qilayotgan qonun loyihasini ko'rib chiqish va tahlil qilish;
- ▷ Mudofaa vazirligi javob beradigan xalqaro va mintaqaviy bitim va kelishuvlarni ko'rib chiqish;
- ▷ Zarurat tug'ilganda vazirlikdan yangi qonun loyihasi tuzishni so'rash yoki uni yozish.

Xarajatlar

- ▷ Mudofaa vazirligining yillik xarajati va hisoblarini ko'rib chiqish;
- ▷ Mudofaa vazirligining qo'shimcha xarajat hisobi bilan tanishish va masalani, kerak bo'lsa, parlament diqqatiga olib chiqish;
- ▷ Lozim topilsa, tegishli idoralarga audit qilishni buyurish.

Boshqaruv va idora

- ▷ Rahbariyat tomonidan har bir lavozimga kim tayinlanganini tekshirish va bayonot berish;
- ▷ Mudofaa sektorining ichki tuzilmasini ko'rib chiqish. Uni parlamentdan tashqaridagi tashkilot tomonidan tekshirtirish (masalan, ombudsman) va ehtimoliy nuqsonlarga parlament e'tiborini qaratish.

Manba: Parlament Tekshiruvini bo'yicha Gansard Jamiyati Komissiyasi Hisobotiga asoslangan, Britaniya, 2001.

35-izoh Norvegiya parlamentining ish uslubi bilan tanishtiradi.

35 - izoh

Tashqi aloqa va mudofaa qo'mitalarining qo'shma majlislari: Storting, Norvegiya parlamenti misolida

"Tashqi aloqalar qo'mitasining vazifasi muhim qarorlar qilishdan hukumat bilan tashqi siyosat, savdo siyosati va davlat xavfsizlik siyosatini muhokama qilishdir. Favqulodda vaziyatlarda kengaytirilgan qo'mita Stortingga alohida tavsiyalar bilan chiqadi.

Bu qo'mita Tashqi aloqalar qo'mitasi a'zolari, Storting prezidenti va vitse-prezidenti, Mudofaa qo'mitasi raisi hamda Saylov Komissiyasi tomonidan tayinlangan 11 vakildan iborat. Ular partiyaviy tenglikka asoslangan holda tanlanadi.

Xuddi shu qoidaga binoan Saylov Komissiyasi a'zolarining o'rinbosarlarini ham tayinlaydi. A'zolar ishga chiqmagan taqdirda muovinlar ular vazifasini bajaradi.

Qo'mita rais zarur deb topgan vaqtda yoki bosh vazir, tashqi ishlar vaziri yoki qo'mitaning uchdan ikki qismi iltimos qilganda uchrashadi.

Kengaytirilgan qo'mita ishi sir tutiladi. Ba'zida, lozim topilsa, tafsilotlar ommaga havola etilishi mumkin. Qo'mitalarning qo'shma majlislari ham shu qoidaga rioya qiladi. Rais hatto qo'mita yig'ilayotganini ham ham sir tutishni buyurishi mumkin.

Kengaytirilgan qo'mita majlisi kun tartibiga qanday masalalar qo'yilayotgani Storting yig'ilishida, agar shu masala ko'rilyotgan bo'lsa va qo'mitaning kamida olti a'zosi iltimos qilsa, bayon etiladi.

Qo'mita Storting masalani muhokama qilishga tayyor ekanini aniqlab, bu haqda prezidiumni xabardor etadi. Storting kamera qarshisida bu majlis faqat kamera oldida yoki omma diqqatida o'tish-o'tmasligi haqida qaror qiladi. Storting muhokamasi hukumat a'zosi tomonidan bayonot orqali tanishtiriladi. Debat bu tanishtiruv ketidan yoki Storting qaroriga ko'ra keyingi yig'ilishda o'tkaziladi. Qo'mitalar muhokama uchun taklif bera olmaydi".

*Manba: Norvegiya Parlamenti Ish Uslubi Qoidalari, 13-qism
(Storting: <http://www.stortinget.no/g>)*

Qonunchi sifatida nima qila olasiz?

Parlamentingizda mudofaa masalalari bilan shug'ullanadigan qo'mitaga e'tibor qarating

- ▷ Qo'mita va quyi qo'mitalar vazifalarini ko'rib chiqing toki:
 - ular aniq ko'rsatilgan bo'lsin;
 - qo'mita barcha sohalarni izchil tekshira olsin;
 - qo'mita tutgan yo'l xavfsizlik siyosati, shuningdek, tashqi ishlar, havo va dengiz yo'llari xavfsizligi, sanoat va energetika siyosatida muammolar tug'dirmasin.



Effektiv qonunchilik qo'mitasi

- ▷ Siz a'zo parlament qo'mitasi 34-izohda keltirilgan qonuniy va amaliy mexanizmlarga ega bo'lsin.
- ▷ Mudofaa sohasining turli qirralari uchun alohida quyi qo'mitalar tuzing. Xususan, byudjet, harbiy ta'minot, kadrlar va tinchlik missiyalari.
- ▷ Xavfsizlik sektorida axborot siyosati va mudofaa xarajatlarini tekshiruvchi jarayon to'g'risida qonun ishlab chiqing.
- ▷ Qo'mita zarur moddiy va ilmiy manbalarga ega bo'lsin, jumladan, mutaxassislarni maslahatga chaqira olsin.
- ▷ Parlamentning xavfsizlik ustidan samarali nazorati haqida xalqaro namunalarni bilan tanishing.

Ombudsman

Xavfsizlik sektorini kuzatuvchi mustaqil tashkilotlar orasida ombudsman alohida o'rinini egallaydi. Ayrim davlatlarda ombudsman hukumatga nisbatan tushgan shikoyatlarga javob izlasa, ba'zi mamlakatlarda bu vazifani Jamoatchilik Shikoyatlari Qo'mitasi (masalan, Nigeriya) yoki Komissari bajaradi. Boshqa davlatlarda esa aynan qurolli kuchlar masalalari bilan shug'ullanuvchi ombudsmanlar bor.

36 - izoh

Ombudsman

"...Ombudsman ommadan hukumat qarorlari, harakatlari va boshqaruvi borasida tushgan shikoyatlarni ko'rib chiqadi. Lavozim egasi parlament tomonidan saylanadi yoki davlat rahbari tomonidan, parlament bilan maslahatlashgan holda tayinlanadi. Ombudsman xalq huquqlarini himoya qiladi. Ombudsman boshqaruv suiste'mol qilinmasligini, xatolarga yo'l qo'yilmasligini, qarorlar omma manfaatini ko'zlashini, hukumat adolatli va oshkora siyosat yuritishini hamda mas'uliyatli bo'lishini ta'minlaydi. Ombudsman idorasi haqida davlat konstitutsiyasida bitilgan va uning tashkil etilishi qonunchilikda kafolatlangan bo'lishi lozim ...".

Huquqni himoya qilishda ombudsman turli vakolatlarga ega:

- 1) hukumat o'z faoliyatida qonunga qanchalik rioya qilayotganini tekshirish;
- 2) agar boshqaruvda nojo'ya harakatlar topilsa, ularni qanday bartaraf etishni tavsiya qilish;
- 3) maxsus ishlar yuzasidan hukumatga hisobot berish va shikoyatnoma bilan chiqish va agar ombudsman bergan tavsiyalar hukumat tomonidan qabul qilinmasa, parlamentga murojaat qilish. Ko'pchilik ombudsmanlar qonunchilik palatasiga va jamoatchilikka yillik hisobotlar taqdim etadi.

Ombudsman odatda hukumatga buyruq bera olmaydi. O'zgarishlar qilishni tavsiya qila oladi xolos... Ombudsman hukumatning ayrim idoralari hattiharakatini kuzatish vakolatiga ega. Bu muassasalarga adliya, ichki ishlar boshqarmalari va armiya ham kirishi mumkin. Ba'zida esa ulardan biri yoki bir nechasi ataylab kiritilmagan bo'ladi".

Manba: Xalqaro Ombudsman Instituti Ma'lumotnomasi
<http://www.law.ualberta.ca/centres/oi/>

Mudofaa ombudsmani

Alohida institut sifatida ombudsman turli davlatlar parlamentlarida turlicha nomlanadi. Jumladan, Finlandiya, Norvegiya, Portugaliya va Germaniyada mudofaa ombudsmani deyiladi. Isroilda uni *Harbiy Shikoyatlari Komissariati*, Kanadada *Davlat Mudofaasi va Kanada Kuchlari Departamenti Ombudsmani*, Avstraliyada esa *Avstraliya Mudofaa Kuchlari Ombudsmani* deb atashadi.

37 - izoh

Ayrim davlatlardagi mudofaa ombudsmanlari

<i>Davlat</i>	<i>Kuch</i>	<i>Vazifa</i>	<i>Kimga hisobot berishi va hukumat bilan munosabati</i>
Avstraliya	- Mudofaa Kuchlari Ombudsmani - Vazirlik qarori bilan tayinlanadi	Avstraliya Mudofaa Kuchlari boshqaruv tizimidagi xatolarni tekshiradi.	- Vazirga parlamentga taqdim etish uchun yillik hisobot beradi.
Kanada	- Mudofaa Ombudsmani - Vazirlik qarori bilan tayinlanadi	Davlat Mudofasi Departamenti va Kanada Kuchlari a'zolarining huquqlarini himoya qiladi.	- Davlat Mudofasi Departamenti va Kanada Kuchlariga maxsus masalalar yuzasidan hisobotlar berib turadi. - Vazirlikka yillik hisobot beradi. - Neytral and xolis. Mudofaa vazirligidan mustaqil.
Norvegiya	- Mudofaa uchun Ombudsman - Norvegiya parlamenti ko'rsatmasi bilan tayinlanadi	Askar manfaatlarini ko'zlaydi. Mudofaa tizimining turli jabhalarida oshkoralik va o'zaro ishonchni mustahkamlash va kelishmovchiliklarga yechim topishda asosiy rol o'ynaydi.	Tavsiyalar beradi, vaziyatni baholaydi va tanqid qiladi. Mudofaa tizimi ularga asoslangan holda ish ko'radi.

Ombudsman armiyani fuqarolar va parlament nomidan kuzatuvchi qo'shimcha mexanizmdir. Harbiy ombudsmanning asosiy vazifasi xavfsizlik va mudofaa vazirliklaridagi kamchiliklarni va ular yo'l qo'yg'an xatolarni tekshirishdir.

Harbiy ombudsmanning siyosiy tizimdagi o'rni har bir davlatda boshqacha. Germaniya va Shvetsiya kabi mamlakatlarda harbiy ombudsman parlament tomonidan tayinlanib, unga hisobot bersa, Isroil va Kanada singari davlatlarda esa bu lavozimga kimni tanlash mudofaa vazirligi ixtiyorida. Ba'zida ombudsman idorasi parlamentda joylashgan. Masalan, Germaniyada. Shvetsiyada esa u parlamentdan tashqarida ishlaydi.

Armiya tomonidan huquqi buzilgan fuqaro va harbiy ombudsmanga shikoyat qilib, undan masalani tekshirishni so'rashi mumkin. Ko'p hollarda bu ishlar - majburiy xizmatdan ozod etilish yoki kechiktirilish, xizmat paytida boshqa joyga ko'chirilish, ovqatlanish, xizmatdan ozod etilish, dam olish, ahloq buzulishi va jazoga tortiladigan harakatlar bilan bog'liq. Ombudsman shikoyatni asosli deb topsa, boshqaruvga tavsiyalar bilan murojaat qiladi. Xususan, tizimdan vaziyatni yoki qarorni o'zgartirishni talab qilishi mumkin.

Ombudsman and maxfiylik

Davlat xavfsizligiga tegishli ekani sabab ayrim ma'lumotlar jamoatchilikka oshkor etilmaydi. Ko'plab mamlakatlarda ombudsmanning davlat xavfsizligi masalalariga qanday yondashishi alohida qonunlarda belgilangan. Ombudsman eng maxfiy mavzularni ham tekshirishi mumkin. Buning uchun unga harbiy bazalarga kirish va kerakli hujjatlar bilan tanishishga imkon beriladi. Sharti shuki, bu hollarda ombudsman o'z xulosalarini keng omma e'tiboriga havola eta olmaydi.

38 - izoh

Germaniya parlamentida Qurolli Kuchlar Komissari

1950-yillarda qurolli kuchlarini qayta tiklagan Germaniyada ularning parlament tomonidan nazorat qilinishiga alohida e'tibor qaratgan. Davlat konstitutsiyasi harbiylar huquqi inson huquqidir deya qayd etarkan, unga 45b-modda kiritilgan. Unga binoan:

"...Qurolli kuchlar a'zolari huquqini himoya qilish va Bundestagga armiyani nazorat qilishda yordam berish uchun parlament komissiyasi joriy etiladi." Bu moddaga qanday amal qilish haqida "Qurolli Kuchlar uchun Parlament Komissari to'g'risidagi Qonun" da batafsil ko'rsatilgan.

Parlament Komissari Bundestagning bir qismi. Qonunchilik palatasi a'zosi. U Bundestag yoki mudofaa qo'mitasi ko'rsatmasi bilan yohud o'zi asosli ravishda tekshiruvlar olib boradi.

Komissar mudofaa vazirligiga so'zini o'tkaza oladi. Vazirlikdan va unga tegishli agentliklar yoki xodimlardan tekshiruv ostidagi masala yuzasidan ma'lumot so'rashi yoki manbalarning unga ochib berilishini talab qilishi mumkin. Komissar avvaldan ogohlantirmay biror bo'lim, qarorgoh yoki boshqarmaga borishi va kerak bo'lsa, qurolli kuchlar rahbariyati oldiga kirishi mumkin. Komissar xavfsizlik xizmatidagi turli daraja va lavozim egalaridan tushgan shikoyatga qarab tergov e'lon qilishi mumkin. Qurolli kuchlar a'zosi komissarga rasmiy ruxsatsiz, bevosita murojaat qila oladi. Ariza yozgani uchun harbiy jazolanmaydi yoki kamsitilmaydi.

Manba: <http://www.bundestag.de/>

Ombudsman: armiyaga ishonch garovi

Shvetsiya Harbiy Ombudsmani misolida qarajak, 1915 yildan beri ishlab kelayotgan bu tizim xalqning qurolli kuchlarga nisbatan ishonchini oshiruvchi kuchli qurol ekani-ga guvoh bo'lamiz. Ombudsman erkak va ayol xizmatchilarni armiya safida kamsitilishdan asraydi. Eng muhimi, ombudsman xavfsizlik sektoridagi o'zaro ishonchni mustahkamllovchi vosita. Bu lavozim egasi harbiy tizim yoki armiya tayyorgarligiga putur yetkazmagan holda boshqaruvda oshkorlikka yo'l ochadi.

Qonunchi sifatida nima qila olasiz?

Ombudsman

- ▷ Davlatingizda bu institut bo'lmasa, uni joriy etish haqida o'ylang.
- ▷ Ombudsman haqida xalqaro miqyosdagi qo'llanma, foydali hujjatlar va tajriba bilan tanishing: <http://www.ombudsmaninternational.com>

Mudofaa yoki xavfsizlik sektori ombudsmani

- ▷ Davlatingizda bu singari institut hali tuzilmagan bo'lsa, unga asos solish haqida o'ylang.
- ▷ Mudofaa Ombudsmani ishlaydigan davlatlar tajribasi bilan tanishish uchun zarur ma'lumotlar oling.
- ▷ Mamlakatingizda Mudofaa Ombudsmani ishlab kelayotgan bo'lsa, uning ishi, vazifalari, parlamentga hisobotlari, ta'siri, manbalari va byudjetini ko'rib chiqing. Ularni boshqa davlatlardagi ombudsmanlar bilan qiyoslang.

Xavfsizlik inshootlarini ko'zdan kechirish

Ahamiyat

Xavfsizlik sektori haqida chuqur bilimga ega bo'lish barcha qonunchilar uchun birdek muhim. Nazariy va amaliy bilim bir-birini yanada boyitadi. Soha bilan yaqindan tanishish xavfsizlik xizmatlari yuzlashayotgan masalalar zaminini tushunishga yordam beradi. Parlament a'zolarining xavfsizlik inshootlariga safar qilib turishi muloqotga yo'l ochadi. Bunday tanishuvlar natijasida siyosatchi va harbiylar o'rtasida ishonch ortadi va ular bir-birini yaxshiroq tushuna boshlaydi. Qonunchilik organi a'zolari askarning kundalik muammolari nima ekanini biladi. Bu esa ularga harbiylar maqsadi va ravnaqi parlament nazariidan chetda emasligini isbotlash uchun imkon beradi.

39 - izoh

Argentina misolida

Siyosatchilar qurolli kuchlar bilan fikr almashish maqsadida harbiy baza va qismlarda bo'lib turadi. Bu safarlar harbiy boshqaruvga xabar bergan holda amalga oshiriladi. Safarlar parlament va armiya o'rtasidagi ishonchsizlik va salbiy tushunchalarni bartaraf etish uchun xizmat qiladi. Harbiy muammolarni yaxshiroq tushunish uchun parlament va qurolli kuchlar muntazam aloqada bo'lib turishi lozim. Xavfsizlik sektoridagi masalalarga kelganda qoida va vaqt boshqacha. Harbiy qismlarga safarlar siyosatchilarga buni anglashda yordam beradi.

Manba: Pablo Karlos Martinez, " Qurolli kuchlarni qayta tuzish va parlament roli: Argentina tajribasi", <http://www.pdgs.org>

Qamoq va hibsonalarni xavfsizlik xodimlari nazorat qiladi. Mahbuslar huquqi ko'p hollarda tahdid ostida. Qamoqxonalarda qiynoq va zo'ravonlik hollari tez-tez uchrab turadi. Shu bois ham, ayniqsa, shu inshootlardagi ahvolni ko'zdan kechirish va kuza-tib borish maqsadga muvofiq. Mazkur maskanlarda inson huquqlari buzilishining oldini olish uchun parlament a'zolari va mutaxassislar u yerlarga safar qilib turishi zarur. BMT Qiynoqlarga Qarshi Konvensiyasining qo'shimcha protokoli qamoqxonalardagi vaziyat bilan tanishish yo'llarini tushuntiradi.

40 - izoh

Qiynoqlarga Qarshi Konvensiya protokoli xavfsizlik inshootlariga borish imkoniyatini kengaytiradi

2002 yilning dekabr oyida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi BMT Qiynoqlar va Boshqa Shafqatsiz va Noinsoniy yoki Kamsituvchi Munosabat yoki Jazoga Qarshi Konvensiyasiga qo'shimcha kiritib, ixtiyoriy protokol qabul qildi. Hujjat a'zo davlatlardan salbiy munosabatlarning oldini olish uchun yo'l ko'rsatadigan mustaqil mahalliy va xalqaro mutaxassislariga o'z qamoqxonalari ochib berishni talab qiladi.

Qo'shimcha ma'lumotlar: <http://www.unhchr.org>

Muvaffaqiyatli safar shartlari

Parlament a'zolarining xavfsizlik xizmatlariga tegishli inshootlarga, xususan, harbiy bazalarga safari vazirlik (masalan, mudofaa) bilan hamkorlikda tashkil etilishi kerak. Kutilmagan yoki birgalikda uyushtirilmagan safarlar o'ta salbiy oqibatlariga olib borishi mumkin. Mudofaa tizimi parlament unga ishonmaydi deb o'ylashi, harbiy boshqaruv chetlab o'tilgani norozilik uyg'otishi va qurolli kuchlar faoliyatida uzilishlar ro'y berishi mumkin. Safar qilayotgan delegatsiya tarkibida turli siyosiy partiya a'zolari bo'lishi va ular aniq maqsad bilan borishi lozim.

Boshqa tomondan esa qonunchilarning safarlari cheklansa, ular qo'mondonlar yoki harbiy rahbarlar ko'rsatgan joylarni ko'radi xolos. Bunda muammolar yaqqol ko'zga tashlanmaydi va harbiylar fursatdan foydalanib o'z manfaatini ko'zlay boshlaydi. Jumladan, byudjetdan ko'proq mablag' ajratilishini so'rashi mumkin. Parlamentning harbiy inshootlarga safarlarini uch turga bo'lish mumkin: armiya tavsiyasi bilan, parlament tashabbusi bilan va oldindan ogohlantirilgan hamda parlament tomonidan sal oldin (balki bir kun avval) e'lon qilingan safarlar.

Qonunchi sifatida nima qila olasiz?

Xavfsizlik inshootlariga safarlar haqida qonunchilik

- ▷ Parlamentning harbiy va xavfsizlik maskanlariga safarini qonun orqali talab qiling.
- ▷ Safarlarga ruxsat beruvchi qonun mavjud bo'lmasa, mazkur inshootlarga boradigan guruhlar safida qonunchilar bor-yo'qligini aniqlang. Nima asosda, qanday tartib va shartlar ostida borish mumkin? Buning ta'siri bo'ladimi? Bu borada surishtiring.
- ▷ Shunday qoidalar joriy etingki:
 - aynan qanday inshootlarga kirish mumkinligi aniq bo'lsin;
 - safar qachon, qanday vaziyat va shartlar ostida o'tishi ko'rsatilsin;
 - safar talabi qo'yilsin va necha marta amalga oshirilishi belgilansin;



- ▷ safarlar tafsiloti yozma ravishda parlament yoki tegishli qo'mitalarga taqdim etilsin va muhokamaga qo'yilsin;
- ▷ safarlar ta'siri tahlil qilinsin;
- ▷ davlat, hali ulgurmagan bo'lsa, BMT Qiynoqlarga Qarshi Konvensiyani va uning qo'shimcha protokolini ratifikatsiya qilsin.

Parlament delegatsiyalari tarkibi

- ▷ Safar qilayotgan qonunchilar orasida parlamentdagi ko'pchilik va muxolifatdan teng sonli a'zo bo'lsin;
- ▷ Delegatsiyada iloji boricha erkak va ayollar soni teng bo'lsin. Jinsiy muvozanat ta'minlashga harakat qiling.

Safarga tayyorgarlik

- ▷ Maqsadga qarshi ish tutmaylik desangiz, safarni mudofaa vazirligi bilan kelishgan holda tashkil eting.

Parlamentga hisobot berish

- ▷ Batafsil hisobot parlament yoki uning tegishli qo'mitalariga taqdim etilib, muhokama qilinsin.
- ▷ Xavfsizlik rasmiylari bu hisobot bilan oldinroq tanishib, uning yuzasidan o'z mulohazasini bildirsa o'lsin.

Ta'sir va targ'ibot

- ▷ Delegatsiya xulosalari va tavsiyalari hisobga olinib, parlamentning bu boradagi qarori amalga oshirilishini ta'minlang. Ularni jamoatchilik e'tiboriga havola etish haqida ham bir to'xtamga keling.

Beshinchi qism

**Xavfsizlik xizmatlari
faoliyatini nazorat qilish:
favqulodda vaziyatlar va amaliyotlar**

Istisno holatlar

Urush, ichki mojaro yoki boshqa favqulodda vaziyatlarda davlat barqarorlikni tiklash maqsadida maxsus vakolatlarini ishga soladi. Lekin bunda demokratik tizim buzilmasligi lozim.

Notinchlik harbiy choralar ko'rishni yoki komendantlik tartibi o'rnatishni talab qilishi mumkin. Bunday hollarda qurolli kuchlar va xavfsizlik sektori Xalqaro Insonparvarlik Qonuni kabi umumbashariy prinsip va qoidalarga rioya qilishi kerak. Demokratik nazorat boy berilmasligi zarur. Insonning asosiy haq-huquqlari poymol etilishiga yo'l qo'yilmasligi kerak. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Inson Huquqlari Qo'mitasida 2001 yil avgustida qabul qilingan Fuqaro va Siyosiy Huquqlar haqidagi 24-sonli Umumiy Sharhning 4-moddasida bu aniq qayd etilgan.

Urush vaziyatlari

BMT Xartiyasining 2.4-moddasiga binoan:

"Tashkilot a'zolari xalqaro aloqalarda tahdid qilmaydi yoki kuch ishlatmaydi..."

Bir davlatning boshqa biriga nisbatan kuch ishlatishi shu tariqa cheklanadi. Parlamentning muhim vazifalaridan biri shuki u ijroiya organi qurolli tahdidni man etuvchi xalqaro qonunlarga qanday rioya qilayotgani va urush davrida o'z vakolatlaridan chiqib ketmayotganini tekshirib turadi. Shveysariya kabi neytrallikni ma'qul ko'ruvchi davlatlar har qanday urushni rad etadi. Yaponiyaning 1946 yilda qabul qilingan konstitutsiyasi davlatga armiyaga ega bo'lishni taqiqlaydi. Vengriya singari mamlakatlar nazarida davlatlararo kelishmovchiliklar urush bilan hal etilmaydi.

Urush qarori, davlat konstitutsiyasiga qarab, parlamentlar tomonidan kamida uch yo'l bilan qabul qilinadi:

- 1) **Konstitutsiya parlamentga urush e'lon qilish vakolatini beradi.** Ammo urushlar ko'p hollarda hech qanday ogohlantiruvsiz boshlanishi mumkin va parlamentlar bu borada qaror qilishga ulgurmaydi.
- 2) **Konstitutsiya ijroiya organidan urush yoki tinchlik harakatini boshlashdan avval parlamentdan ruxsat olishni talab qiladi.** Bu qonun parlamentga urush yoki xorijdagi biror harbiy harakat masalasini muhokama qilish uchun imkon beradi.
- 3) **Konstitutsiya ijroiya organidan o'z qarori haqida parlamentni ogohlantirishni talab qiladi.** Lekin bu qonun hukumatga urush boshlashdan oldin parlamentdan ruxsat olish majburiyatini qo'ymaydi. Dunyo konstitutsiyalarining ko'piga ko'ra parlament urush qarori haqida ogohlantirilishi shart.

Favqulodda holat

Favqulodda holat yoki umummamlakat inqirozi turli sabablar bilan yuzaga kelishi mumkin. Bunday vaziyat qachon tan olinishi yoki e'lon qilinishi shartlari davlat konsti-

tutsiyasi va qonunlarda belgilanadi. Xususan, konstitutsion tuzumga qurolli tahdid, tabiiy ofat, epidemiya, moliyaviy yoki iqtisodiy inriqozlar favqulodda hollarga yetaklashi mumkin.

Bu borada o'ta maxsus sharoitlarda qaror qilinadi va eng muhimi, demokratik tamoyillarga putur yetmasligi lozim (41-izohga qarang). Maxsus sharoitlar deganda nima nazarda tutilishini esa davlat konstitutsiyasi yoki bosh qonun izohlaydi. Qonunlar hukumatga siyosiy partiya manfaatlarini yo'lida favqulodda holat e'lon qilishga ruxsat bermasligi kerak. Shuningdek, konstitutsion va boshqa tegishli qonunlar hukumatning harbiylar tomonidan to'ntarilishini man etmog'i lozim.

41 - izoh

Favqulodda holatlar: maqsad va asos

"Barcha huquqiy tizimlar favqulodda holatlarga doir alohida qonunlarga ega. Lekin huquqlarning bekor qilinishi vaqtincha bo'lib, asl maqsad barqarorlikni tiklash va eng fundamental huquqlarni himoya qilishdir ..."

Xalqaro tamoyillar

"Favqulodda holatlar haqida qabul qilingan xalqaro prinsiplarni qisqa qilib quyida sanab o'tish mumkin:

Qonuniylik. Bir tomondan favqulodda holat e'lon qilinishi va bu vaziyatda nima choralar ko'rilishi bayon etiladi. Ikkinchi tomondan esa e'lon ichki qonunlarga mos kelishi kerak. Ichki qonunlar xalqaro qonunlarga to'g'ri kelishi talab qilinadi.

E'lon. Favqulodda vaziyat jamoatchilikka e'lon qilinishi lozim.

Aloqa. O'zaro bitimga ega davlatlar va BMT Inson huquqlari bo'yicha maxsus vakilini favqulodda holat haqida xabardor etiladi.

Vaqtincha. Favqulodda vaziyat istisno holat bo'lib, cheklangan muhlat mobaynida hukm surishi mumkin xolos.

Tahdid. Favqulodda vaziyatga turtki berayotgan inqiroz haqiqatda jamoatchilik hayotiga xavf solayotgan bo'lishi lozim.

Mutanosiblik. Inqiroz darajasi qanday yuqori bo'lsa, shuncha ko'p chora ko'rilishi lozim.

Bebaho huquqlar. Shunday huquqlar borki, ular zaruriyati va ahamiyat sarhisob qilinmaydi, chunki ular insonning asosiy erkinliklari. Shu bois ularga favqulodda holatlarda ham tegilmaydi.

"Parlament, inson huquqlarining asosiy himoyachisi, favqulodda holatning birinchi qurboniga aylanmasligi lozim – bevosita tarqatilib yuborilmasligi, bekor qilinmasligi, qonunchilik yoki ijroiya organini nazorat qilish vakolatlari cheklanmasligi kerak. Aksincha parlament favqulodda vaziyat e'lon qilish va uni yakunlashda muhim rol o'ynashi shart..."

Favqulodda holatning qonuniy jihatlari

" ... Favqulodda holat va bu borada ko'rilgan choralar, jumladan, ayrim huquqlarning bekor qilinishi yoki cheklanishi, davlat qonunlariga asoslanishi lozim va jarayon aynan ularga binoan nazorat qilinadi..."



Parlament faoliyati

“Mustaqillik va davlatning turli organlari orasidagi muvozanat qonun ustuvorligining ajralmas qismidir. Shu bois dunyo bo‘ylab ko‘pchilik huquqiy tizimlar parlamentga favqulodda holatlar e‘lon qilish yoki ijroiya qarorini tasdiqlashda muhim rol o‘ynash vakolatini beradi. Maqsad – bu qadar muhim masalani faqat ijroiyaning o‘zi hal etmasin...”

Favqulodda holatga doir qonunlar darajasi

“Tajriba shuni ko‘rsatadiki, favqulodda holatlar to‘g‘risidagi qonunlarning konstitutsion darajaga chiqarilgani ma‘qul. Bu borada ayrim qonunlar aniq, ayrimlari esa uni quyidagicha kafolatlaydi: “Hech bir tomon favqulodda holatlarga asoslanib qonunchilik vakolatini olmaydi...”

BMT Inson huquqlari va favqulodda holatlar bo‘yicha maxsus vakili L. Despuyning Parlamentlararo Uyushma simpoziumida qilgan nutqidan, Budapesht, 1993

Uzoq muddatli va “de facto” istisno holatlar

Uzoq muddatli istisno holatlar parlament tomonidan yilma-yil yangilanadi. Bunday vaziyatlarda fuqaro boshqaruvi xavfsizlik sektori ustidan nazoratni boy berishi, hatto qurolli kuchlarning demokratiyaga rahna solayotgani ham kechirilishi mumkin. Oqibatda parlament o‘z kuchini yo‘qota boshlaydi. Ko‘plab mamlakatlardagi “de facto”, ya‘ni noqonuniy, shuningdek zo‘ravon hukumatlar parlamentga xavfsizlik kuchlarini nazorat qilishga yo‘l ermaydi. Hukmdorlar ular ekan, harbiy kuchlar ham ular ixtiyorida.

Qonunchi sifatida nima qila olasiz?

Istisno holatlarga doir qonunchilik

- ▷ Istisno holat turlari konstitutsiya yoki boshqa qonunlarda aniq ta‘riflangan bo‘lsin.
- ▷ Istisno holat muhlati har uch yoki olti oyda avtomatik ravishda tugasin. Parlament debat va ovoz berish orqali uni yangilashi mumkin.
- ▷ Qonuniylik, e‘lon qilish, aloqa, vaqtincha joriy etish, tahdid, mutanosiblik va fundamental huquqlar haqidagi prinsiplar istisno holatlar to‘g‘risidagi qonunlarga kiritilsin.
- ▷ Istisno holatlarda insonparvarlik qonuni, konstitutsiya va inson huquqlari haqidagi qonunlar hurmat qilinsin.
- ▷ Istisno holat e‘lon qilishdan tortib, uni bekor qilishgacha ijroiya va parlament qanday vakolatlarga ega ekani konstitutsiya va boshqa qonunlarda aniq belgilansin.

Istisno holatida parlament vakollari

- ▷ Istisno holatlarda parlament ijroiya organining xavfsizlik va insonning asosiy huquqlariga munosabatini nazorat qilish vakolatidan ayrilmasin.

Ichki xavfsizlikni saqlash

Ichki xavfsizlik va tartibni saqlash jamoatchilik oldidagi eng asosiy xizmat. Bu butun jamiyat, jumladan, mamlakatda yashayotgan muhojir va chet elliklar manfaatini ham himoya qilishdir. Tartib-intizomni ta'minlashda hech bir inson kamsitilmasligi lozim. Bu xizmatni amalga oshirishda biror siyosatchi yoki kuchning yoki xavfsizlik sektorining manfaatlari ko'zlanmaydi. Aksincha xavfsizlik organlarining eng oliy burchi bu aholi tinchligini asrashdir.

Qonunchilik asoslari va xususiyatlari

Har bir tizimda favqulodda holatlar e'lon qilmasdan mavjud tahdid va ichki xavfsizlikka rahna solayotgan omillarga qarshi chora ko'rishga chaqiruvchi qonunlar bor.

Qandaydir darajada bu qonunlar ijroiya organiga maxsus vakolatlar beradi. Ayrim huquqlarning cheklanishi yoki bekor qilinishiga ruxsat beradi toki o'sha huquqlar evaziga insonning xavf ostida qolgan fundamental erkinliklari himoya qilinsin. Bu vaziyatlar nimadan iborat bo'lishi qonunlarda aniq ta'riflangan bo'lishi lozim.

Ko'p hollarda cheklanadigan huquqlar qatoriga axborot olish, namoyishga chiqish, ozodlik, boshpana olish kabi erkinliklarni kiritish mumkin. Xalqaro qonunlar insonning yashash, qiynoqqa solinmaslik, jismoniy jazolanmaslik, kamsitilmaslik va noinsoniy muomala qilinmaslik huquqlarini har qanday sharoitda ta'minlashni buyuradi, ya'ni bu uzviy huquqlar hatto favqulodda vaziyatlarda ham bekor qilinmasligi shart. Qaltis holatlarda asosan muhojirlar, jurnalistlar, siyosiy faollar, inson huquqlari himoyachilari, boshpana izlayotganlar, qochqinlar, diniy va etnik ozchilikni tashkil etuvchi guruhlar tazyiqqa uchraydi.

Uzviy huquqlarga nisbatan tahdidlar

Ichki xavfsizlik va tartibni saqlash xususidagi qonunchilikning zaif tomonlari:

- ✓ Tahdidlarning aniq ta'riflanmasligi va natijada ijroiya organi turli vaziyatlarni o'z yo'lida talqin qilishi;
- ✓ Ijroiya organi va u orqali xavfsizlik tashkilotlariga haddan tashqari keng va uzoq muddatli vakolatlar berilishi. Qonunlarning qanday amalga oshirilayotganini tekshirmaslik, siyosiy muvozanat yetishmasligi, boshqaruv va adliya sanksiyalarisiz ishlashga yo'l berish;
- ✓ Ayrim hollarda alohida bir guruh, siyosiy rahbariyat yoki xavfsizlik sektori manfaatini ko'zlab, butun aholi hayotiga xavf solish. Bu yo'lda umum jamoatchilik huquqlari va harakatlarini cheklash;

Politsiya, ichki qonun-tartibot xizmati va armiya, tashqi xavfdan himoya qiluvchi vositaning yaqinlashishi va qorishishi. Harbiy kuch yetarlicha moliyalanmagan hollarda korrupsiya avj olib, xavfsizlik kuchlari o'z manfaatini ko'zlay boshlaydi. Ichki ishlar xizmatining harbiylashishi ba'zida hukumatga undan (yoki razvedka yoki yarimharbiy kuchlardan) xavfsizlik va tartibni saqlash emas, muxolifatni nazorat qilish va unga bosim o'tkazish vositasi sifatida qo'llanishga zamin yaratadi. Ichki xavfsizlikni ta'minlashda harbiy kuchdan tez-tez foydalanish armiyaning siyosiy lashishiga olib boradi.

- ✓ Parlament va adliya tizimining o'z vakolatlarini qo'llashdan tortinishi, ayniqsa, ijroiya organini savolga tutishga, unga ta'sir qilishga haddi sig'masligi.

Qonunchilik zaif ekan, xavfsizlik va tartibni saqlash maqsadida amalga oshiriladigan choralar aksariyat hollarda inson huquqlarining buzilishiga sabab bo'ladi. Hatto ayrim vaziyatlarda xavfsizlik kuchlari bundan foyda ham ko'radi. Bunday muhitda ko'pincha insonning yashash, qiynoqqa solinmaslik, noinsoniy munosabatda bo'linmaslik, aybsiz qamoqqa olinmaslik, odil sudga tortilish, erkin fikrlash, so'z erkinligi va erkin uyushish huquqlari poymol etiladi.

42 - izoh

Xavfsizlik va demokratiyani asrash

Ko'plab rivojlanayotdan davlatlarda avtoritar hukumatlar azaldan demokratik harakatlar va bu mafkura jamoat va fuqaro tinchligiga rahna soladi deya bosim o'tkazib kelgan. Tarix guvohki, demokratiya buning aksi: xavfsizlik kuchlari ustidan demokratik nazorat o'rnatish fuqaro xavfsizligini ta'minlovchi muhim omil. Bunday nazoratsiz inson xavfsizligi aslida tahdid ostida.

Manba: BMT Inson Taraqqiyoti Hisoboti, 2002 (87-bet)

Ayrim davlatlarda demokratiyani himoya qiluvchi maxsus qonunlar qabul qilingan. Argentinada, masalan, 1984 yilda "Demokratiya Mudofaasi" nomli Qonun N° 23.077 ma'qullanib, jinoiy kodeks o'zgartirilgan. Unda demokratik tizimni oyoq osti qilish jinoyat deb belgilangan. Bu qonunga binoan demokratiyani xavf ostiga qo'ygan yoki konstitutsiyani hurmatsizlagan kishi jazolanadi.

Fuqarolarni ichki xavfsizlik va tartibga tahdid solganlikda ayblab hisbga saqlash

Ichki xavfsizlik va jamoatchilik orasida tartibni saqlash to'g'risidagi barcha qonunlar tinchlikka rahna solganlarni qamoqqa olishni buyuradi. Asosan ikki turli qonunlar bor:

- ✓ Davlat xavfsizligiga haqiqatda tahdid solganlikda ayblab qamoqqa olish haqidagi qonunga ko'ra hibsni adliya yoki ba'zi hollarda faqat ijroiya organi buyuradi degan qonun;
- ✓ Ijroiya organi nazarida davlat xavfsizligiga tahdid solayotgan har bir fuqaro qamoqqa olinishi mumkin va xavfni oldindan bartaraf etish ma'qul deya ijroiya organiga bunday vakolat beruvchi qonun.

Britaniya Hamdo'stligiga kiruvchi ko'p davlatlarda ikkinchi turga o'xshash qonunlarni uchratish mumkin. Ularga muvofiq ijroiya organi konstitutsion huquqlarning bir nechasini bekor qilish kuchiga ega. Buning uchun boshqaruvdan parlament yoki adliya ruxsatini yoki uning aralshuvini so'rashi talab qilinmaydi. Masalaning bir jihati, ijroiya davlat xavfsizligiga tahdid solganlikda ayblab fuqarolarni ma'muriy yoki vazirlik qamoqxonalarida saqlashni buyuradi. Bu fuqarolar ijroiya qo'lida uzoq vaqt qolib ketishi, muddat bir necha bor yangilanishi va mavhum qolishi mumkin. Ayrim davlatlarda qonunchilik bu borada kuzatuv hay'ati tuzishni talab qiladi. Bu hay'at ijroiya maslahat berishi yoki aksincha fuqaroni hibsdan ozod etishni buyurishi mumkin. Bu hay'atlar muayyan darajada ijroiya tashabbusi yoki aralashuvi bilan tuziladi.

Ko'p mamlakatlarda bunday qonunlar mustamlaka davridan qolgan va hozirda keng muhokama ostida. Hatto ularga qarshi chiqayotganlar bor. Bu tomonlar nazarida ijroiya, xavfsizlik kuchlari, ayniqsa politsiyaga bu qadar keng vakolat berish fuqaro erkinliklari va siyosiy huquqlarni cheklaydi.

43 - izoh

Jiddiy oqibatlariga olib boruvchi xatolar

Hokimiyat o'z qudratini oshirishda xavfsizlik kuchlariga tayanar ekan, bunday siyosat jamiyat va qo'shni davlatlar tinchligiga soya soladi... Ichki ishlar xodimlari, yarimharbiy politsiya va maxfiy xizmatlar ichki siyosiy kurashlarga aralasha, demokratik boshqaruv ko'p hollarda xavf ostida.

BMT Inson Taraqqiyoti Hisoboti, 2002 (hal. 87 dan 92)

Qonunchi sifatida nima qila olasiz?

Ichki xavfsizlik va tartibni saqlash to'g'risidagi qonunlar

- ▷ Xavfsizlik va tartib xalq manfaatini ko'zlaydi. Shu sabab ham ular fuqarolarni ezish yoki siyosiy maqsadlarga erishish yo'lida qo'llanilmaydi. Politsiyaning xalqqa bosim o'tkazish va o'ta harbiylashishiga yo'l qo'ymang;
- ▷ Ijroiya parlament oldida javob bersin va uning vakolatlari aniq qonunlar orqali cheklang;
- ▷ Xavfsizlik sektori kuch ishlatishda chegaradan o'tganda unga nisbatan ma'muriy va adliyaviy choralar qo'llanishi ta'minlang;
- ✓ ▷ Demokratiyani muhofaza qilish qonunining amaliyoti va samarasini sarhisob qiling.



Parlament nazorati

- ▷ Parlament doimiy tarzda ichki xavfsizlik va tartib bilan bog'liq masalalarni muhokama qilsin va mavjud qonunlar mutanosibligini tekshirib chiqing;
- ▷ Parlamentning tegishli qomitasi barcha imkon va resurslarni ishga solgan holda ichki xavfsizlik va tartib haqida zarur ma'lumotlarni to'plasin. Zarur bo'lsa, qo'mita qo'lidagi vositalar mustahkamlansin;
- ▷ Masala yuzasidan iloji boricha ko'proq tinglovlar tashkil etishga undang;
- ▷ Ichki xavfsizlik va tartib masalasi bilan shug'ullanuvchi va bu boradagi siyosatning inson huquqlari va fundamental erkinliklarga ta'sirini o'rganuvchi xususiy yoki nohukumat tashkilotlar bilan aloqa o'rnatang.

Terrorizm

“Terrorizm davlat o‘z fuqarolarini himoya qilishi kerak bo‘lgan xavflardan biri. Bu har qanday hukumat uchun nafaqat huquq balki burch hamdir. Ammo bunda davlatlar terrorizmga qarshi choralar inson huquqlariga soya solmasligini va ularning buzilmasligini ta‘minlashi lozim.”

“Mamlakat tinchligini saqlash yo‘lida asosiy erkinliklar boy berilishi mumkin. Bu bilan esa umumiy xavfsizlik mustahkamlanish o‘rniga zai-flashadi. Oqibatda demokratik tuzumlar ichidan chiriy boshlaydi.”

Kofi Annan, BMT Bosh kotibi, 21 noyabr 2001

Terrorizm mahalliy, mintaqaviy va xalqaro tinchlikka rahna soladi. Unga qarshi odatda murakkab choralar ko‘riladi, ayniqsa, agar terrorizm uyushgan jinoyat tizimlariga bog‘langan bo‘lsa. Bunga ichki ishlar, chegara nazorati, maxfiy xizmatlar olib boradigan operatsiyalardan tortib, moliyaviy choralar, jinoiy qonunlar va axborot texnologiyasi asosida olib boriladigan harakatlar kiradi.

2001 yilning 11 sentabridan keyin ko‘plab davlatlar yuqorida tilga olingan sohalar faoliyatini kuchaytirish muhim degan qarorga keldi. Maxfiy ma‘lumotlar almashish va axborot texnologiyalari bobida davlatlararo hamkorlik mustahkamlandi. Lekin bu say-harakatlar inson huquqlari va fuqaro erkinliklarini chetga sura boshladi.

Terrorizmga qarshi xalqaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish maqsadida BMT Xavfsizlik Kengashi 2001 yilning 28 sentabrida qabul qilgan 1373-rezolyutsiyasida (44-izohga qarang) moliyaviy nazorat masalasiga asosiy diqqatni qaratdi. Bu qarorda chegara, shaxsiy guvohnoma va chet elga chiqish uchun talab qilinadigan hujjatlarni kuchliroq nazorat qilish orqali terrorchilarning ichki va chegara osha harakatlarini to‘xtatish ko‘zlangan. Rezolyutsiya, shuningdek, terror guruhlariga a‘zo yollash, ularni qurol-aslaham hamda nozik ma‘lumotlar bilan ta‘minlash yo‘llarini to‘shish va bunda xalqaro rish-talami ishga solishni tavsiya qiladi. Hujjat terror harakatlarini moliyalayotgan, rejalayotgan, tayyorlayotgan yoki ularni qo‘llab-quvvatlayotgan tomonlarni javobgarlikka tortish, ularga qarshi choralar ko‘rish, qonunlarda terror harakatlarini og‘ir jino-yat deya belgilash va uni amalga oshirganlarni jazolashga chaqiradi. Rezolyutsiya terrorizmga qarshi kurashda axborot xalqaro va mahalliy qonunlarga muvofiq almashinilsin deydi. U ma‘muriy va yuridik hamkorlikka undaydi. Ushu hujjat asosida Xavfsizlik Kengashi Qo‘mitasi tashkil etilgan bo‘lib, u kengashga a‘zo barcha davlatlar vakillaridan iborat. Qo‘mita rezolyutsiya amaliyotini kuzatadi va jarayonda ko‘maklashadi.

44 - izoh

BMT Xavfsizlik Kengashining 11 sentabr voqealariga javobi

Xavfsizlik Kengashi...

3. Barcha davlatlarni shunga undaydiki:

- a) Terror tashkilotlari va terrorchi shaxslar faoliyati va harakati haqida ma'lumot to'plash ishlari jadallashtirilsin. Qalbaki va soxta hujjatlar; qurollar, portlovchi moddalar va nozik materiallar savdosi; terror guruhlarining axborot texnologiyalaridan foydalanishi va ularning om-maviy qirg'in qurollarini qo'lga kiritishiga qarshi kurash kuchaytirilsin;
- b) Axborot xalqaro va mahalliy qonunlar asosida axborot almashilsin. Terror xurujlarining oldini olish uchun ma'muriy va yuridik hamkorlik qilinsin;
- c) Terror kuchlariga zarba berish va hujumlarning oldini olish uchun ikki tomonlama va ko'p tomonlama bitimlar orqali hamkorlik yo'lga qo'yilsin;
- d) Terrorizmga qarshi xalqaro shartnomalarga, xususan, Terrorizmni Moliyalashga Yo'l Qo'ymaslik haqida 1999 yilning 9 dekabrda asos solingan Xalqaro Konvensiyaga imzo chekilsin;
- e) Terrorizmga qarshi kurashga doir xalqaro konvensiya va shartnomalarga hamda Xavfsizlik Kengashining 1269 (1999) va 1368 (2001)-rezolyutsiyalariga to'liq amal qilinsin va hamkorlik oshirilsin;
- f) Biror shaxsga boshpana berishdan oldin uning terror xurujlari rejalamagani, ularda qatnashmagani va hissa qo'shmaganini aniqlash uchun davlat va xalqaro qonunlar asosida, jumladan, inson huquqlariga rioya qilgan holda izchil tekshiruvlar olib borilsin;
- g) Boshpana terror xurujlari tashkilotchilari, amalga oshiruvchilari va jinoyatchilarga berilmasligi xalqaro qonunlarga mufoviq ravishda ta'minlansin. Terrorizmga ayblanganlarni ekstraditsiya qilish iltimosi siyosiy sabablarga ko'ra rad etilmasin...

Manba: BMT Xavfsizlik Kengashi, 1373-rezolyutsiya, S/RES/1373, 28 sentabr, 2001
<http://www.un.org/Docs/scres/sc2001.htm>

Terrorizmni Moliyalashga Yo'l Qo'ymaslik haqidagi Xalqaro Konvensiya BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1999 yilning 9 dekabrda qabul qilingan. 2002 yilda kuchga kirgan bu hujjatga binoan terror faoliyatini moliyalayotgan shaxslar ekstraditsiya qilinishi shart. U a'zo davlatlardan shubhali moliyaviy muomalalarni tekshirishni talab qiladi. 2002 yilning 2 apreldan beri mazkur konvensiyaga kamida 132 davlat imzo chekkan. 26 dan ziyod mamlakat uni ratifikatsiya qilgan.

11 sentabr xulosalari

Xalq vakillari, ya'ni qonunchilar hukumatning terrorizmga qarshi qanday choralar ko'rayotganini yaqindan kuzatib bormog'i lozim toki amaldagi siyosat xavfsizlik va inson huquqlarini birdek himoya qilayotgan bo'lsin. Terrorga qarshi qonunlar shu maqsaddan kelib chiqib qabul qili-nishi kerak. Xavfsizlik choralari aniq yondashuv va muvozanatga asoslansin. Bu strategiya xalqaro insonparvarlik va huquq borasidagi qonunlarni buzmasin.

Terrorizmning qonuniy ta'rifi

Terrorizmning yagona ta'rifi ustida xalqaro maydonda biror kelishuv mavjud emas. Bu borada yakdil bir izoh bilan chiqilmas ekan, terrorizm noto'g'ri talqin qilinishda davom etadi. Xalqaro qonunga ko'ra chet el istilosiga qarshi kurash va milliy ozodlik va mustaqillik uchun bosh ko'tarish har bir xalqning huquqi va bu terror harakati emas. Shuningdek, xalqaro hamjamiyat nazarida, jumladan, Parlamentlararo Ittifoq qayd etishicha terrorizmni biror din, millat yoki xalq, qolaversa madaniyatga bog'lamaslik va uni bu omillar asosida oqlamaslik lozim. Terrorizm nima ekani xuruj turiga ham bog'liq. Odatda bunday hujumlar keng jamoatchilik tomonidan qoralanadi: ommaga qarshi qonli xurujlar, xususan, begunoh fuqarolarning nishonga olinishi va biror mamlakatda asoslangan yoki xalqaro, noqonuniy va yashirin guruhlar amalga oshiradigan hujumlar.

Fuqarolarga nisbatan yoppasiga va vahshiyona hujumlar, insoniyatga befarqlik va o'zini zo'ravonlik orqali tanitish harakatlari – terrorizmdir. Keng tarqalgan terror usullariga transport vositalarini olib qochish, mashinalarni portlatish, suiqasd hujumlari va ommaviy qirish kiradi. Uzluksiz terror harakatlari olib borish uchun katta mablag' va qurol-aslaha zaxirasi kerak. Ko'p hollarda bunday faoliyat xalqaro tizim tomonidan quvvatlangan bo'ladi. Ko'pincha terrorchi guruhlar biror davlatdan ham yordam oladi yoki u yerda yashirinadi. 45-izoh terrorizmga nisbatan qanday amaliy choralar ko'rish mumkinligiga nazar tashlaydi. Terrorizmga zarba berish juda muhim, ammo bunda fuqarolarning siyosatga qarshilik bildirish huquqi chetga surilmasligi lozim. Izohda keltiriladigan 37-bandda ta'kidlanishicha, terrorizmga qarshi choralar faqat terror o'choqlarini emas, balki terrorchilarni tayyorlab berayotgan jamiyatlarni ijtimoiy- siyosiy jihatdan rivojlantirishni ham ko'zlashi zarur.

45 - izoh

Terrorizmga qarshi kurash

34. ... Anjuman shuni tan oladiki, chet el istilosidan mustaqillik va milliy ozodlik uchun kurash xalqaro rezolyutsiyalarda kafolatlangan huquq bo'lib, bunday maqsadga terror harakati deb qaralmaydi. Ammo, anjuman yana shuni ham tan oladiki, hech bir kurash odamlarni yoppasiga qirish, ayniqsa begunoh insonlar hayotiga xavf solishga asoslanishi yoki biror davlat homiyligi ostida olib borilishi mumkin emas.

37. Anjuman shuni qayd etadiki, terrorizmga qarshi choralar iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyot va demokratiya istiqbolini maqsad qilgan holda ishlab chiqilishi kerak.

Manba: Parlamentlararo Uyushmaning O'rtayer dengizi hududidagi xavfsizlik va hamkorlik mavzusida o'tgan uchinchi anjumani xulosalari, Valetta, Malta, noyabr, 1995

Terrorizmga qarshi turli qonunlar, xususan, Avstriya Jinoyat kodeksining 278-b bandi, Germaniya Jinoyat kodeksining 129-a bandi va Kanada qonunidagi C-36 band quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Qotillik, garovga olish, samolyotlarni o'g'irlash, terroristik portlatishlar yoki terror faoliyatini moliyalash terrorizm deya sanaladi. Bular mavjud qonunlarda jinoyat deya qaraladigan ishlar (Germaniya, Avstriya va Kanadaning terrorga qarshi qonunlarida);
- Terrorchi tashkilotga yetakchilik qilish yoki uni quvvatlash (moliyaviy yoki boshqa jihatdan) noqonuniydir (Germaniya, Kanada va Avstriya);

PI va QKDNQ – Xavfsizlik sohasi ustidan parlament nazorati, 2003

- Terror faoliyatning sabablari – siyosiy, mafkuraviy va diniy (Kanada);
- Terror faoliyatining maqsadi – jamoatchilikni qo'rqitish va uning tinchligiga xavf solish; xalq yoki hukumatni biror narsa qilishga majburlash yoki biror yo'ldan qaytishga zo'rlash (Kanada);
- Terror faoliyatining bevosita maqsadi – qatliom yoki zo'ravonlik qilish, inson hayotiga xavf solish, zarar keltirish yoki xalq uchun muhim xizmatlar ko'rsatadigan tizimlarni ishdan chiqarish (Kanada);
- Demokratiya barpo etish yoki uni qayta tiklash va qonun ustuvorligini ta'minlash hamda insonparvarlik qonunlarini himoya qilishni ta'qiqlash (Avstriya). Bu singari qonuniy talablar fuqarolarning namoyish qilish huquqini cheklab, kurashni jinoyitlashtiradi.

Bu qonunlarga qarab terrorizmni qisqa qilib, qon to'kuvchi hamda shaxs va tuzumga zarar keltiruvchi harakat deb atash mumkin.

Terror harakati nimadan iborat ekani bu qonunlarda yana boshqa izohlarga ham ega. Terrorizmga nafaqat terror xuruji qilish balki terror guruhining a'zosi, tarafdori yoki yetakchisi bo'lish ham kiradi.

Qonunchilik nuqtai nazaridan terrorizm tushunchasini to'g'ri talqin qila olish o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Terrorizmga qarshi qonunlarda ta'rif u qadar tor bo'lmasligi kerak, aks holda terror guruhlarining ayrim harakatlariga ko'z yumilishi mumkin. Lekin boshqa tomondan terrorizm u qadar keng ta'riflanmasligi ham lozim, chunki bu bilan demokratik huquq va harakatlar jinoyat deb qabul qilinishi mumkin. Xo'sh, demokratik jamiyatda zo'ravonlik yoki xunrezlik nima va u qay darajada oqlanishi mumkin? Bu savolga qonun chiqaruvchilar turli davlatlarda turlicha javob berishi mumkin. Chunki xunrezlik har bir jamiyatda o'ziga xos mazmunga ega bo'lishi mumkin. Bunda asosiy omil – qon to'kishdan kutilayotgan maqsad. Maqsad huquqiymi? Xunrezlikni oqlash uchun tahdid va uning ortidagi maqsadlar zaminini isbotlash lozim.

Terrorizmga qarshi choralar aynan terror tahdidiga qaratilishi kerak. Qonunlardan maqsad shuki ular ichki ishlar va xavfsizlik xizmatlariga terror faoliyatlariga bolta urish uchun yo'l ochsin. Bu fuqarolarning so'z va fikr erkinligi hamda uyushish huquqini cheklash, siyosiy o'zgarish yo'lini to'sish yoki muxolifatga bosim o'tkazish degani emas.

Terrorizmga qarshi uch yondashuv

Xavfsizlik xizmatlari jamiyat va tuzumni terror xavfidan himoya qilish uchun uch xil chora ko'rish mumkin:

- ✓ **Terrorizmga qarshi choralar:** xalq, turmush, inshoot va infratuzilmalarni kuchliroq muhofazalash
- ✓ **Terrorizm oldini olish choralari:** terrorchilarni aniqlab, ularga hujum qilish uchun yo'l bermaslik.
- ✓ **Bo'hronni nazorat ostiga olish:** Terror xurujidan keyingi vaziyatni qo'lga olish/boshqarish.

Tahliliy xulosalarga asoslanib, shuni aytish mumkinki, terrorga qarshi choralar asosan quyidagilarga bog'liq: 1) davlat qonuni, uning qanday amalga oshirilishi va qancha mablag' ajratilishi, 2) ichki xavfsizlik, 3) ajnabiy shaxslar, 4) chet elga chiqish va chegara nazorati, 5) moliya, 6) xalqaro hamkorlik va 7) yadroviy, biologik va kimyoviy tahdidlar.

Tobora uzayib borayotgan bu ro'yxat terrorizmga qarshi chora ko'rishda qo'llanma sifatida ishlatilishi mumkin.

Davlat qonuni, amaliyoti va byudjet

- Terrorga qarshi maxsus qonunlar qabul qilish yoki mavjud qonunlarni o'zgartirish;
- Choralar va tashkilotlar (ichki ishlar, chegara nazorati, milliy havo yo'llari, sog'liqni saqlash, pochta va armiya) uchun qo'shimcha mablag' ajratish;
- Ichki xavfsizlik xizmatlari orasida ma'lumot almashishni kengaytirish;
- Xavfsizlik xizmatlari (ichki ishlar, armiya, razvedka, chegara) faoliyatini uyg'unlashtirish, samarali choralar ko'rish uchun kadrlarni mustahkamlash va tegishli idoralar ishini kuchaytirish;
- Maxfiy xizmat va huquq-tartibot xodimlariga shaxslarning boj va soliq idoralaridagi ma'lumotlari bilan tanishish imkoniyatini berish.

Ichki xavfsizlik

- Internet, telefon va faks aloqalarini kuzatish (qonuniy ruxsatsiz);
- Telekommunikatsiya xizmatlaridan mijozlarning aloqalari (masalan, bir yilgacha bo'lgan muddatdagi) haqida ma'lumot talab qilish va bu bilan huquq-tartibot idoralariga bu manbalar bilan tanishishga imkon berish;
- Bank, internet xizmati va kredit byurolaridan shubha ostidagi shaxslarning elektron ma'lumotlarini bu odamlarga bildirmasdan olish;
- Bir necha manbalarni fuqarolar haqidagi ma'lumotlar bilan qo'shgan holda yangi va kengroq kompyuterlashtirilgan tizim yaratish;
- Ichki ishlar nazorati ostidagi shaxsiy ma'lumotlarning boshqa idora rasmiylari tomonidan ko'zdan kechirilishi;
- Shaxslarni ko'proq ma'lumot talab qilib, hibsdan uzoq ushlab turish;
- Umumamlatkat qidiruv tizimlari ishlab chiqish, masalan, shaxsiy guvohnomalar.

Ajnbabiy shaxslar (muhojirlar, boshpana so'rayotganlar va chet el fuqarolari)

- Xavfsizlik kuchlariga chet elliklar/ajnbabiyarlarga doir ma'lumotlarni ochishga ruxsat berish;
- Muayyan kelib chiqishga ega shaxslarni nishonga olish;
- Boshpana so'rayotgan shaxs terror faoliyatida shubha qilinayotgan bo'lsa, uning yuridik tekshiruviga yo'l bermaslik;
- Tegishli vazirlik shaxsni davlat xavfsizligiga tahdid deb topsa, unga boshpana bermaslik;
- Immigratsiya va boshpana uchun olingan barmoq izlarini 10 yilgacha saqlash;
- Biror shaxsni terror tahdidida ayblab hibsdan saqlash va mamlakatdan chiqarmaslik;
- Viza berish jarayonidagi tekshiruvlarni kuchaytirish; viza yoki boshpana so'rab murojaat qilayotganlarning siyosiy tarixini izchil ko'zdan kechirish.

Chet elga chiqish va chegara nazorati

- Chegara nazoratini kuchaytirish;
- Fuqaro aviatsiyasini qurollantirish;
- Samolyot boshqaruv xonasi eshigini o'q-o'tmas material bilan o'rash;
- Aeroportlarda barcha yukni 100 foiz elektron tekshiruvdan o'tkazish;
- Shaxsiy guvohnoma va pasportlarga biometrik ma'lumotlarni qo'shish;
- Nozik o'tish punktlarida, jumladan port, tunnel va aeroportlarda tez-tez va izchil tekshiruvni yo'lga qo'yish;
- Davlatga kirish joylarida muayyan guruh vakillarini kuzatish.

Moliya

- Moliyaviy harakatlarni kuzatish;
- Moliyaviy qonunbuzarlikka yo'l qo'ymaslik uchun bank va qarz beruvchi boshqa muassasalar ustidan nazoratni kuchaytirish; terror faoliyatida gumon qilinganlarning bank hisoblarini muzlatish;
- Banklardan shubha ostidagi shaxslarning hisob raqamlariga doir ma'lumotlar talab qilish; moliyaviy muassasalarga, terror maqsadlarida pul o'tkazilgani yoki olingani ma'lum bo'lgan yoki shubha qilingan taqdirda, hukumatni xabardor etish talabini qo'yish;
- Moliya vazirligi qoshida maxfiy ma'lumotlar bilan ishlovchi bo'limlar tashkil etish).

Xalqaro hamkorlik

- Xalqaro hamkorlikni oshirish, masalan, Yevropada Hisbga Olish Kafolati yoki darhol ekstraditsiya qilish singari tashabbuslar bilan chiqish;
- Davlat qonunchiligida terrorizmga qarshi xalqaro kelishuvlarni tanishtirish;
- Afg'onistondagi Xalqaro Xavfsizlikni Quvvatlash Kuchlari qatoriga qo'shin safarbar etish;
- Terrorizmga qarshi BMTda qabul qilingan konvensiyalarni ratifikatsiya qilish;
- Xalqaro xavfsizlik tashkilotlari orasida ko'proq ma'lumot almashunivini ta'minlash;
- Terrorizm ildizlariga e'tibor qaratish va terrorizm o'chog'iga aylangan mamlakatlarga taraqqiy etish uchun yordam berish.

Yadroviy, Biologik va Kimyoviy Tahdid

- Yadroviy, biologik, kimyoviy va radiologik qurollarga qarshi ish yuritadigan markazlar tashkil etish yoki mavjud maskanlar ishini kuchaytirish; bu soha mahsuldorligini oshirish; xilma-xil vaksinalar ishlab chiqarish va ular omborini yaratish;
- Sog'liqni saqlash vazirligi va xodimlarni favqulodda vaziyatlarga tayyorlash; tibbiy ta'minotni mustahkamlash;
- Yadroviy inshootlar xavfsizligini yaxshilash (masalan, past uchayotgan samolyotlarni aniqlovchi radar tizimlarini o'rnatish).

Inson huquqlari va xavfsizlik orasidagi muvozanat

Terrorizmga qarshi ko'rilyotgan choralar vaqtincha emas. Ular uzoq muddatni ko'zlaydi va jamiyat hayotining bir qismiga aylanib ketadi. Bu choralar fuqaro huquqlari, jumladan, so'z erkinligi, turli uyushma va tashkilotlarga a'zolikka kirish va shaxsiy erkinliklarga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Terrorizm xavfiga qarshi olib borilyotgan siyosat muhlati cheklanmagani uchun ham favqulodda holat e'lon qilish tavsiya qilinmaydi.

Bu choralar huquq-tartibot va maxfiy xizmat faoliyati orasidagi farqni ham qisqartiradi. Huquq-tartibot, jumladan, ichki ishlar va maxfiy xizmatlar, jumladan, razvedka alohida vazifa va majburiyatlarga ega. Razvedka xizmati ehtimoliy tahdid haqida ma'lumot to'plasa, ichki ishlar xodimlari qonuniy tartib uchun javob beradi. Maxfiy xizmatlar odatda gumon ostidagi odamlarni hibsga olmaydi. Politsiya esa odatda tahdidning oldini olish uchun maxfiy ma'lumot yig'maydi va jinoyatni oldindan bashorat qila olmaydi. Demokratik boshqaruvga asoslangan tuzumda razvedka xizmati mamlakat fuqarolari ustidan josuslik qilmaydi. Turli davlatlarda terrorizm xavfi oshib, unga nisbatan xilma-xil va keskin choralar tadbir etilar ekan, odatda chet eldagi faoliyatda qo'llanadigan maxfiy usullar endi ichki jinoyi qidiruvlarda ham ishlatila boshlagan.

Yana bir muammo shuki xavfsizlik xizmatlari sud ruxsatisiz fuqarolarni kuzata boshlaydi. Bu ehtimol fuqaro huquqlarining qo'pol tarzda buzilishidir. Kuzatuv haqida ma'lumot berilmas ekan, fuqarolar, ombudsman va nohukumat tashkilotlar uchun hukumat va unga tegishli boshqarmalarni javobgarlikka tutish qiyinlashadi.

To'rtinchi masala – terrorga qarshi choralar doirasida, ayniqsa, muhojir, boshpana so'rayotganlar va chet el fuqarolarining nishonga olinishi. Bunday vaziyatda jamiyatdagi turli etnik guruhlar orasida kelishmovchiliklar va tengsizlik vujudga kelishi mumkin.

Terrorizmga qarshi kurashda yuqorida tilga olingan choralarning roli beqiyos. Biroq parlament ularning xalqaro insonparlik va inson huquqlari qonunlariga mutanosib ekanini ta'minlashi shart. Mutlaq xavfsizlikka erishish mumkin emas ekan, xalqaro va davlat qonunlari va huquqiy kafolatlar e'zozlanishi lozim. Demokratiya mutlaq hokimiyatni rad etadi. Shuning uchun barcha qonuniy tizimlar ijroiya organi vakolatlarini cheklaydi. Terrorga qarshi bugungi kurashda erkinlik va xavfsizlikni birdek ta'minlash har bir davlat qonunchisi oldidan turgan murakkab vazifa. Deputat xalq saylagan vakil va uning huquqlari kafolatchisi ekan, u bu oliy ishni butunlay ijroiya organi bo'yniga yuklay olmaydi.

Qonunchi sifatida nima qila olasiz?

Terrorga qarshi kurash

- ▷ Nafaqat muhofaza va xavfsizlik haqida o'ylang, balki terrorizmni keltirib chiqarayotgan muammolarga, jumladan, ichki nizolarga qarshi chora ko'ring. Mintaqaviy mojarolarni tinch yo'l bilan hal etish, etnik-madaniy muloqot olib borish va yakdillikka intilish terrorizmning oldini olishga yordam beradi.
- ▷ Ko'plab mintaqaviy nizolar aslida etnik yoki diniy noroziliklarga borib taqaladi. Ularni tinchitish uchun qurolli kuch safarbar etish har doim ham samara beravermaydi. Ozchilikdan chiqqan vakillar mudofaa, razvedka va adliya masalalari bo'yicha qo'mitalarga a'zo bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Parlamentlar ozchilikdagi guruhlar manfaatini himoya qiluvchi maxsus komissiya va tribunallar tashkil etishi zarur.
- ▷ Davlat terrorizmga qarshi xalqaro konvensiya va bitimlarga, jumladan, 1999 yilning 9 dekabrda qabul qilingan Terrorizmni Moliyalashga Yo'l Qo'ymaslik haqidagi Xalqaro Konvensiyaga qo'shilsin. Kerak bo'lsa, bu kelishuvlarni ratifikatsiya qilish va ularga doir qo'shimcha qonunlarni tasdiqlash uchun harakat qiling.
- ▷ Yadroviy terrorizmning oldini olish va terrorizmni butunlay bartaraf etish maqsadida BMT Bosh Assambleyasi tomonidan maxsus konvensiyalar qabul qilinishini yaqindan kuzating.



PI va QKDNQ – Xavfsizlik sohasi ustidan parlament nazorati, 2003

- ▷ Terror xurujlaridan jabr ko'rgan insonlarga kompensatsiya berish haqida qonun qabul qilishni o'ylang. Bunday qonunchilik xalq orasida birdamlik va hamdardlik hissiyotini kuchaytiradi.
- ▷ Terrorizmga qarshi qabul qilingan qonunlar xavfsizlik va huquqni muvozanatlasin. Xavfsizlik talabi fuqaro erkinliklari va siyosiy huquqlarga soya solmasin. Bu qonunlarning tegishli sohalarga ehtimoliy ta'siri va ularning amaliyoti qancha mablag' talab qilishi haqida bosh qotiring.

Istisno holatlar haqida 18-bobda, ichki xavfsizlik va tartibni saqlash xususidan 19-bobda berilgan tavsiyalarga qarang.

Xavfsizlik va informatsion texnologiya: Yangi qurol va muammolar

Axborot texnologiyasidagi qator yangiliklar xavfsizlikni ta'minlashda ulkan hissa qo'shmoqda, ammo bu soha taraqqiyoti yangi muammolarga ham turtki bermoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Xavfsizlik Kengashining 1373- rezolyutsiyasida (2001) qayd etilganidek (44-izohga qarang), xalqaro hamjamiyat informatsion texnologiyalarning terrozim quroli sifatida ishlatilishini va bu global xavfsizlik va tinchlikka naqadar rahna solishini anglab yetgan.

O'tgan yillar davomida turli xalqaro tashkilotlar informatsion texnologiyalarning jinoyi maqsadlarda qo'llanmasligini va bu sohaning umumbashariy tinchlikka xavf solish uchun ishlatilmasligini ta'minlashga urinmoqda. Shuningdek, bu tashkilotlar hukumatlarning axborot texnologiyalaridan inson huquqlari va erkinliklarini cheklash uchun foydalanmasligiga qarshi ham kurashib kelmoqda.

Quyida bu masalalar yuzasidan qonun ishlab chiqish yuzasidan ayrim foydali ma'lumotlar beriladi.

Internetdagi jinoyatlar

Hozirgi zamonda Internetda biror egri harakat sodir etilmagan kun yo'q, ammo jahon tarmog'ida nima jinoyat deya qaralashi haqida hali umumiy bir tushuncha ham mavjud emas. Shunisi ma'lumki, axborot texnologiyalari orqali turli qora ishlar amalga oshiriladi. Ko'pincha ular xakerlar, ya'ni xilma-xil kompyuter tizimlariga noqonuniy ravishda kiradigan shaxslar va viruslar tarqatilishi bilan bog'liq. So'nggi yillarda bu masalalarga e'tibor ancha oshgan bo'lsa-da, kompyuter vositasida qilinadigan qonunbuzarliklar yangilik emas. Elektron mashinalar davri boshlanganidan beri ulardan qabih maqsadlarda foydalanish mumkinligiga ko'p marta guvoh bo'lingan. Bugun Internet eng ommabop texnologiya ekan, unda jinoyat darajasi ham oshgan. Jahon tarmog'i – cheksiz imkoniyatlar manbai va odamlar undan kun sayin ko'proq foydalanishga o'tmoqda. Buning oqibatida esa ko'plab muammolar ham vujudga kelmoqda.

2001 yilning 23 noyabrida Yevropa Kengashi Internet Jinoyatlariga Qarshi Konvensiya qabul qildi. 2002 yilning mayiga borib unga kengashga a'zo 29 va a'zo bo'lmagan 4 davlat imzo chekdi. Konvensiya axborot texnologiyalaridagi jinoyatlarga qarshi umumiy choralar ko'rishga, zarur qonunlar qabul qilishga va muammoga qarshi xalqaro hamkorlikni oshirishga chaqiradi.

Informatsion tizimlar xavfsizligi

Axborot texnologiyalarining misli ko'rilgan miqyosda keng tarqalishi va ularning jami-ki soha va maqsadlarda qo'llanishi xalqaro tashkilotlarni yangi tahdidlar haqida xavotirga solib qo'ygan. 1992 yilning noyabrida Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti Kengashi informatsion tizimlar xavfsizligini ta'minlash haqida qator yo'riqlar bilan chiqdi:

- ✓ “Axborot tizimlariga nisbatan xavf haqida ogohlantirish va unga qarshi chora ko'rishni targ'ib qilish;
- ✓ Hukumat idoralari va xususiy sektorda bu xavfga qarshi kurashayotgan tomonlarga yordam berish, aniq choralar ishlab chiqish va amalga oshirish, xavfsizlikni ta'minlash jarayonini kuchaytirish;
- ✓ Choralar, amaliyot va jarayonlarda hukumat va xususiy sektor orasida hamkorlikni targ'ib qilish;
- ✓ Axborot tizimlariga ishonchni oshirish, ularni to'g'ri ta'minlash va qo'llash usullarini targ'ib qilish;
- ✓ Axborot tizimlarini xavfdan saqlash uchun xalqaro hamkorlikni oshirish”.

Konvensiyani qabul qilishda, Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti Kengashi “Yo'riqlar davlatlarning xavfsizlik va qonun-tartibot borasida mustaqil siyosat yuritish huquqini buzmaydi va mamlakat qonunlariga binoan qo'llanishi kerak” deya qayd etilgan.”

Kompyuterlashtirilgan shaxsiy ma'lumot manbalari

1990 yilning dekabrda BMT Bosh Assambleyasi Kompyuterlashtirilgan Shaxsiy Ma'lumot Manbalari Haqida Yo'riqnoma taqdim etdi. 1980 yilning sentabrda Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti Shaxsiy Ma'lumotlarning Chegaralararo Oqimi va Muhofazasi To'g'risida Tavsiyalar bilan chiqqan edi. Yevropa Kengashida ham 1981 yilda Shaxsiy Ma'lumotni Avtomatik Ravishda Tekshirish Yuzasidan Fuqaro Himoyasi Konvensiyasi qabul qilingan edi. (46-izohga qarang).

46 - izoh

Shaxsiy Ma'lumotlarni Avtomatik Ravishda Tekshirish Yuzasidan Fuqaro Himoyasi Konvensiyasi (ETS no. 108)

“Mazkur konvensiya shaxsga tegishli ma'lumotlarni to'plash va tekshirish jarayonida uning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan birinchi xalqaro hujjatdir. Konvensiya bu ma'lumotlarning chegaralararo oqimini nazorat qilishni ham ko'zlaydi. Hujjat shaxsning irqi, siyosiy qarashlari, sog'lig'i, dini, jinsiy hayoti, jinoiy tarixi va boshqa “nozik” ma'lumotlarni ko'rib chiqishda, ortiqcha huquqiy himoyasiz ham, uning manfaatlarini muhofaza qilishni kafolatlaydi. Konvensiya shaxsga u haqda ma'lumotlar saqlanayotganini bilish va zarur bo'lsa, xato joylarini to'g'rilash huquqini beradi. Bu huquq faqatgina xalq tinchligi tahdid ostida bo'lgan hollarda, jumladan, davlat xavfsizligi va mudofaa maqsadlari sabab cheklanishi mumkin. Konvensiya shaxsiy ma'lumotlar himoya qilinmaydigan davlatlarga bu manbalarni kiritmaslikka undaydi”.

Manba: Yevropa Kengashi, <http://conventions.coe.int>

Qonunchi sifatida nima qila olasiz?

Informatsion texnologiyalar to'g'risidagi qonunchilik

- ▷ Tobora rivojlanib borayotgan axborot texnologiyalari va Internetdagi jinoyatlarga qarshi qonunlar qabul qiling. Mavjud texnologiyalarning zamon talablariga javob berishini ta'minlang.
- ▷ Davlat axborot texnologiyalari xavfsizligi bilan bog'liq xalqaro va mintaqaviy konvensiyalarga imzo cheksin va o'z qonunchiligi va siyosatini bunga moslasin.
- ▷ Informatsion texnologiya va Internetdagi jinoyatlarga qarshi qonunlar ishlab chiqish va ularni amalga oshirishda inson huquqlari va fundamental erkinliklar himoyasiga alohida e'tibor qarating.
- ▷ Biror xatoga yo'l qo'yilgan taqdirda parlament hukumatdan tushuntiruv talab qilsin. Tinglov joriy etib, masalasini tekshirsin va zarur choralar ko'rsin.

Parlament ega vosita va manbalar

- ▷ Axborot texnologiyalar va ulardan foydalanish masalalari bilan shug'ullanuvchi qonunchilik qo'mitasi yoki quyi qo'mita bu sohadagi o'zgarishlarni doimiy ravishda kuzatib borsin.
- ▷ Bunday qo'mitalar yo'q bo'lsa, ularni tuzishga undang yoki mavjud qo'mitalarning bu masalalarga alohida e'tibor qaratishini ta'minlang.
- ▷ Parlamentning tegishli qo'mitalari vazifani to'liq bajarish uchun barcha zarur manba, kadr va kuchga ega bo'lsin.
- ▷ Ehtimol axborot texnologiyasidagi yangilik va muammolarni kuzatib boradigan va fikr almashadigan norasmiy qonunchilik kengashi yoki guruhi tashkil etarsiz. Unga parlamentdagi barcha partiyalardan a'zolar, hatto har ikki palata vakillarni taklif qiling.

Xalqaro tinchlik missiyalari

Bugun xalqaro maydondagi mojarolarni bartaraf etish uchun amalga oshirilayotgan harakatlar BMT Xartiyasining VI (Kelishmovchiliklarni tinch yo'l bilan hal etish) yoki VII (Tinchlikka tahdid va agressiyaga qarshi chora ko'rish) bobiga asoslanadi. BMT shu maqsadlarda qator usul va amaliy rejalar bilan chiqqan (47-izohga qarang). Tinchlik missiyalarini tashkil etish va olib borish yo'llari ham belgilangan (48-izohda BMT tinchlik missiyalari qadamma-qadam tushuntiriladi va 50-izohda BMT tinchlikparvar kuchlari tayyorgarligi haqida so'z yuritiladi). Vaziyatga qarab, a'zo davlatlardan bu missiyalarga qo'shin yuborish so'ralishi mumkin.

Xorijdagi tinchlik missiyalariga hissa qo'shish

Tinchlik saqlash, uni tadbiq etish va uni tiklash ishlari a'zo davlatlarning Xavfsizlik Kengashi tomonidan tasdiqlangan holda qatnashishiga bog'liq. Mamlakatlar xorijga qo'shin jo'natib, beqaror nuqtalarda xavfsizlikni tiklashga hissa qo'shishi bugungi dunyoda ajablanarli hol emas. Harbirlarni chet elga safarbar etish xalqaro qonun-qoidalarga binoan amalga oshirilishi juda muhim. Kitobning 5-bobi davlat xavfsizlik siyosati va xalqaro qonunlarni izohlaydi.

Samarali boshqaruv nuqtai nazaridan siyosiy muvozanatga asoslangan tuzumda parlament qurolli kuchlarni xorijga safarbar etish qaroriga ta'sir qila olishi lozim.

47 - izoh

Tinchlikni tiklash, saqlash, ta'minlash va mustahkamlash: BMT ta'rifi

Tinchlikni tiklash

Tinchlikni tiklash urushayotgan tomonlar orasida diplomatik usullar bilan sulhga erishish va dushmanlarni til topishishga ko'ndirish demakdir. BMT tomonlar iltimosi bilan vositachilik vazifasini bajaradi. Tinchlikni tiklashda shu bois kuch ishlatilmaydi.

Tinchlikni saqlash

1948-2003 yillar orasida BMT tinchlikni saqlash bobida 54 amaliyot o'tkazgan. Ulardan 41 tasi 1991-2003 yillarda Xavfsizlik Kengashi buyrug'i bilan joriy etilgan missiyalar. 2003 yilda BMT dunyo bo'ylab 15 joyda tinchlikni saqlash ishlari bilan mashg'ul edi.



BMT davlatlararo mojarolarni hal etish va qurolli urushlarni to'xtatish maqsadida bir necha mamlakatdan yig'ilgan harbiylarni bu qonli nutqaga safarbar etadi. Qo'shinlar BMT boshqaruvi ostida harakat qiladi. Bugunga kelib bunday missiyalar bir davlat ichidagi mojaro va fuqaro urushlariga qarshi olib borilmoqda. BMT tinchlik saqlovchi kuchlari, ya'ni harbiy mutaxassislar, fuqaro politsiyasi va boshqa xodimlarga urushayotgan tomonlarga murosaga kelish va kelishmovchiliklarga tinch yechim topishda yordam berish vazifasi yuklangan. Bunga tinchlik bitimlarini amalga oshirish, sulhga rioya qilishni kuzatish, neytral zonalar yaratish, hukumat bilan ishlovchi siyosiy tashkilotlar tuzish, insonparvarlik ishlari bilan shug'ullanuvchi nohukumat tashkilotlar va jamoatchilik guruhlari faoliyati uchun sharoit yaratish, sobiq jangarilarni qurolsizlantirish va ularni jamiyatga qayta qo'shish, hududni minalardan tozalash, saylovlar tashkil etish va o'tkazish hamda taraqqiyot uchun zamin hozirlash, uni targ'ib etish kiradi. A'zo davlatlar ixtiyoriy ravishda harbiy kuch va vosita yo'llaydi, chunki BMT armiya va politsiyaga ega emas. Saylov va inson huquqlari kuzatuvchilari, qolaversa boshqa xizmatchilar harbiylar bilan yonma-yon ishlaydi. Tinchlik saqlovchi qo'shinlarning eng kuchli "qurolli" bu ularning betaraf ekanidir. Tinchlikni saqlash – xavfli vazifa. 1948 yildan beri BMT tinchlik missiyalarida 1,650 dan ortiq xodim halok bo'lgan.

Tinchlikni ta'minlash tinchlikni saqlash deganimi?

Tinchlikni ta'minlash deganda BMT Xavfsizlik Kengashi a'zo davlatlarga bunga erishish uchun barcha choralarni ishga solish vakolatini beradi. Urushayotgan tomonlardan ruxsat yoki tasdiq olish shart emas. Bungay vaziyatlarga bir necha misollar keltirish mumkin: Fors ko'rfazi, Somali, Ruanda, Gaiti, Bosniya va Gersegovina, Albaniya va Sharqiy Timordagi urushlar. Mazkur operatsiyalarning hech biri BMT nazoratida olib borilmagan, balki tinchlikni ta'minlash bir davlat yoki bir necha davlatdan tuzilgan guruhga topshirilgan. Xususan, Avstraliya 1999 yilda Sharqiy Timorda, NATO 1995 yilda Bosniya va Gersegovina, 1999 yilda esa Kosovoda tinchlikparvar kuchlarni boshqargan va BMT u yerdagi muvaqqat hukumatlarni yuritgan.

Tinchlik saqlash va barqarorlikni ta'minlash ishlari xalqaro tinchlik va xavfsizlik borasida BMT Xartiyasida qayd etilgan tamoyillarga asoslanadi.

Tinchlikni mustahkamlash

Mamlakatlarni mojarolar ketidan barqarorlikni parvarishlashga o'rgatish tinchlikni mustahkamlash deyiladi. Bunday operatsiyalar juda katta vazifalarni o'z ichiga oladi, chunki bunda gap davlat qurish va mamlakatni qayta tiklash haqida ketyapti.

Insonparvarlik missiyalari

Fuqarolar urushi, ocharchilik va tabiiy ofatlar-suv toshqini, qurg'oqchilik, to'fon va zilzila yuz bergan hollarda, insonparvarlik yordami ko'rsatiladi. Missiya ishtirokchilari – turli hukumatlar, nohukumat tashkilotlar, BMT agentliklari murakkab sharoitlar ostida birgalikda ish olib boriladi. Ba'zan harbiy kuchlar yordami kerak bo'ladi, chunki busiz jabrdiydalarga yordam yetkazishning boshqa yo'li topilmaydi.

Manba: BMT <http://www.un.org>

Xorijga qo'shin safarbar etishda parlament rolini kengaytirish hukumat va xalq manfaatlari uchun xizmat qiladi. Parlament a'zolari masalani muhokama qiladi va takliflar ovozga qo'yiladi. Bu esa missiya borasidagi qarorning demokratik ekanini isbotlab, omma olqishiga sazovor bo'ladi.

Qo'shinlarni xorijga yo'llashda parlament roli

Xalqaro bo'hronlarga barham berish ko'p hollarda chet elga harbiylarni safarbar etishni taqazo etsada, ko'plab davlatlarda parlamentning bu masala yuzasidan vakolatlari cheklangan. Ayrim davlatlarda tinchlik missiyalarida qatnashish uchun qonunchilik palatasidan ruxsat olish talab qilinmaydi. Buni o'zgartirish lozim, aks holda parlament xavfsizlik siyosatini idora eta olmaydi.

Quyida keltirilgan uch holatda parlament rolini oshirish va uning bevosita aralashuvini ta'minlash mumkin.

Parlamentning a priori yoki a posteriori tasdig'i (kuchli roli)

A priori ("bilim va irodadan kelib chiqib") tasdiq talab qilinganda qo'shinlar chet elga parlament so'zsisiz yuborilmaydi. Amerikada masala Kongressda muhokama qilinadi va ovozga qo'yiladi. Shvetsiyada esa masala yuzasidan maxsus qonun qabul qilinishi, unda missiya maqsadi va vazifasi aniq belgilanishi shart. Har ikki hol insonparvarlik va tinchlikparvarlik missiyalariga nisbatan demokratik yondashuvdir.

Mudofaa sohasida vaqt eng muhim omil ekan, qonunchilik jarayonlari sekin kechgani uchun qarorni oldindan tasdiqlash oson emas. Shu bois ayrim hollarda parlament xorijga harbiy kuch jo'natish yuzasidan a posteriori ("tajribadan kelib chiqib")- ular safarbar etilganidan keyin bir qarorga keladi. Masalan, AQShda "Urush Vakolatlari Rezolyutsiyasi"ga binoan Kongress qo'shinlarning chet elga 92 kundan ko'pga safarbar etilishiga rozi bo'lishi lozim. Bunda harbiylarning qonunchilik palatasi ruxsatisiz jo'natilgan holatlar nazarda tutilayapti. Niderlandiyada esa buning aksidir. Mamlakat konstitutsiyasining 100-moddasiga ko'ra parlament va hukumat bu borada hamkorlik qilishi shart. Hukumat qonunchilik palatasiga chetga qo'shin yo'llash zarurati, qaysi turdagi harbiylar nima uchun safarbar etilishi kerakligi va bu boradagi xalqaro qonunlar haqida barcha zarur ma'lumotlarni taqdim etishi kerak. Bunga qurolli mojarolarni hal etish uchun gumanitar yordam sifatida ham qaraladi.

Parlamentlarning muhokama qilish vakolati (cheklangan roli)

Bunda konstitutsiya yoki qonunlar parlamentga to'siqlar qo'yadi. Palata masalani muhokamaga qo'yishi mumkin, lekin uni ovozga qo'ya olmaydi va ijroiya organining chet elga qo'shin jo'natish qarorini o'zgartira olmaydi. Hukumat parlamentni o'z qarori haqida ogohlantiradi xolos. Shunday bo'lsa-da, xalq vakillari orasida masala yuzasidan munozara kechishi demokratiyaga xos ko'rinishdir va jamoatchilikning bu haqdagi fikrini katta sahnaga olib chiqadi.

Parlament vakolatlari cheklanganda qonunchilar askarlarning xalqaro missiyalarda qatnashishiga rasman ta'sir o'tkaza olmaydi. Biroq parlament va hukumat orasida bu borada o'ziga xos debat vujudga kelishi oddiy hol. Ba'zan parlamentlar nomiga bo'lsa ham masalani ovozga qo'yadi.

Parlamentlarning qaror qilish jarayonidan chetlashtirilishi (rol berilmasligi)

Bunda parlament chetga qo'shin yuborish masalasini hatto muhokama qila olmaydi ham. Ularning safarbar etilganidan keyin ham o'z fikrini bildira olmaydi. Askarlarni xorijga jo'natish tashqi siyosatga tegishli qaror va bu ijroiya organi qo'lida deb qaraladi. Parlamentning bu jarayonga yaqinlashtirilmasligi uni tinchlik missiyalarini kuza-tish imkonidan ayiradi.

Parlamentning boshqa imkoniyatlari

Parlamentning qo'li qanchalik bog'langan bo'lmasin, u hukumatga mazkur masala bobida kamida to'rt usul orqali bosim o'tkazishi mumkin:

- ✓ Parlament ijroiya organidan qo'shinlarni safarbar etish qarori haqida tushuntiruv talab qilishi mumkin. Ammo agar parlament davlatning qanday xalqaro bitimlarga a'zo ekani haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lmasa, ijroiyaning so'roq qilishdan naf ko'rmaydi.
- ✓ Parlament ijroiya organi byudjetni o'zgartirish taklifi bilan chiqqanda uni savolga tutishi mumkin. Rejalangan va kutilmagan missiyalar vujudga kelsa, parlamentdan qo'shimcha mablag' ajratish so'raladi. Parlament moliyaviy qudratidan va fursatdan foydalanib o'z qarashlarini namoyon etishi mumkin (Masalan, Fransiya).
- ✓ Parlamentning roli faqat debat yoki ovoz berishdan iborat emas. Missiya qanday ketayotganini suritishirish, jarayonni tekshirish va bu borada hukumatdan ma'lumot talab qilish ham muhim majburiyatlardir. Shuningdek, parlament a'zolari xorijda xizmat qilayotgan askarlarni ko'rishga borishi mumkin (17-bobga qarang).
- ✓ Missiya yakunlangach uning samarasi va oqibatlarini tahlil qilish uchun hukumatdan hisobot berishni so'rash mumkin.

48 - izoh

BMT tinchlik saqlovchi kuchlarini safarbar etish jarayoni

Birlashgan Millatlar Tashkiloti qoshida armiya yo'q. Tinchlikni saqlash amaliyotlari har bir vaziyatdan va shart-sharoitdan kelib chiqqan holda tashkil etiladi. Xavfsizlik Kengashi har safar yangi operatsiya joriy etishni buyurganda, uning har bir qismi yangidan yig'iladi.

15 a'zolik Xavfsizlik Kengashi amaliyotdan ko'zlangan maqsadlarni belgilaydi. Qaror kamida to'qqiz a'zo tomonidan ma'qullanishi shart va besh doimiy a'zolar – Xitoy, Fransiya, Rossiya, Britaniya va AQSh tomonidan vetoga uchrashi, ya'ni rad etilishi mumkin. Bosh kotib operatsiyani qanday tashkil etish va olib borishni tasviya qiladi va jarayon yuzasidan hisobot berib turadi. Jahon bo'ylab tinchlik missiyalarini amalga oshirish, kundalik faoliyat, boshqaruv va bu xizmat bilan bog'liq boshqa barcha ishlar BMT Tinchlik Saqlash Operatsiyalari Departamentiga yuklanadi.

Bosh kotib Tinchlik Kuchlari Qo'mondonini tanlaydi va a'zo davlatlardan qo'shin, politsiya xodimlari va boshqa turdagi xizmatchilar jo'natishni so'raydi. Harbiy va noharbiy ta'minot, transport vositalari va tashkiliy yordam ham a'zo davlatlardan yoki shartnoma asosida xususiy kompaniyalardan keladi. Missiyada ishtirok etadigan noharbiy xodimlar BMT tizimidan yuborilishi, a'zo davlatlardan vaqtincha yollanishi yoki maxsus vazifalar uchun mahalliy yoki xalqaro miqyosda ishga olinishi mumkin.

Missiyaning boshlanishi a'zo davlatlarning qo'shinlarni qanchalik tez yuborishiga bog'liq. Moliyaviy manbalar yetishmasa yoki strategik tayyorgarlik puxta bo'lmasa, safarbarlik ham kechikadi. 1973 yilda, masalan, BMT II Favqulodda Kuchlarining ayrim qismlari Yaqin Sharqqa 24 soatda yetib borgan. Lekin ba'zi missiyalarni boshlash vazifa o'ta murakkab va xavfli ekani, tashkil-lashtirish jarayoni uzoq vaqt olishi sabab bir necha oyga cho'zilishi mumkin.

Manba : BMT <http://www.un.org>

49 - izoh

Tinchlik missiyalari uchun shart va qoidalar

Parlament qo'shinlarning chet elga safarbar etilishini tasdiqlaganda harbiy kuchning qay daraja va sharoitda qo'llanishini, ya'ni amaliyot qoidalarini ham belgilashi lozim.

Asosiy shart shuki operatsiyada yoppasiga kuch ishlatish cheklanadi. Har bir holatga aholida yondashuv, iloji boricha kamroq qon to'kish va bir paytning o'zida qo'shinlarga o'zini himoya qilish uchun yetarlicha erkinlik berish ko'zda tutiladi. O'z-o'zini xavfdan saqlashga urinish – tabiiy harakat. Qoidalar - askarlarni muhofaza qiluvchi manbalar, shunindek, operatsion va taktik chegaralar hamdir. Ular amaliy va siyosiy omillar hamda BMT Xavfsizlik Kengashi rezolyutsiyalari singari xalqaro qonunlarga muvofiq tuziladi.

Amaliyot qoidalari nizolarga barham berish maqsadida kuch ishlatish darajasini o'zgartirishni ham o'z ichiga oladi. Bunda iloji boricha kamroq zarar yetkazgan holda, ammo qonli mojaro ko'lamiga mos ravishda javob berish asosiy maqsadga aylanadi. Kuch ishlatish darajasi quyidagicha belgilanadi (minimumdan maksimumgacha):

- Qo'shin o'zini himoya qilishi uchun
- Qo'shin o'zini va fuqarolarni himoya qilishi uchun
- Qo'shin o'zini, fuqaro va zarur inshootlarni (masalan, kasalxona, ko'prik) himoya qilishi uchun
- Amaliyot maqsadiga erishish uchun bor kuchni ishga solish.

Qoidalarda qaysi operatsiyada qanday qurollar qo'llanishi ham qayd etilmog'i lozim. Bu umuman qurol ishlatmaslikdan tortib, og'ir qurollar, jumladan, harbiy kema, samolyot va raketalarni ham o'z ichiga olishi mumkin.

Askarlarni tinchlikparvarlikka tayyorlash

Tinchlikni saqlash operatsiyalarida qatnashish harbiy kuch uchun og'ir vazifa. Bu qo'shimcha tayyorgarlik va malaka talab qiladi.

Ayniqsa amaliy jihatdan askarlar keng salohiyatga ega bo'lmog'i lozim. Xususan, minalardan tozalash, aholi bilan muomala qilish, ba'zida ularning tilini bilish, mahalliy urf-odatlardan boxabarlik, inson huquqlari va bu boradagi qonunlarni tushunish va har bir missiya shart va qoidalarini izchil bilish. Aynan qoidalar kelganda, shuni qayd etish joizki, tinchlik missiyalarida kuch ishlatish odatda juda cheklangan. Ayrim vaziyatlarda hatto harbiy kuchlar qurolsiz xizmat qiladi.

Maxsus tayyorgarlik missiyani rejalashtirish jarayonining ajralmas bir qismi. Qurolli kuchlar ko'p hollarda vatandan uzoq va notanish yurtlarga safarbar etilar ekan, askarlar uchun transport va ta'minot ham murakkab masalalardir. Missiya talablari ba'zi davlatlar cho'ntagiga juda og'ir tushishi mumkin.

Missiya boshqaruvi va uni tashkillashtirishda ham qo'shimcha tayyorgarlikning ahamiyati katta. Tinchlikparvarlik operatsiyalari olib borilayotgan hududlarda o'sha mamlakat askarlari ham xizmat qilayotgan bo'lishi mumkin. Bunda vaziyat aslida kimning nazorati ostida ekani mavhumlashadi. Davlat qurolli kuchlari va Xalqaro Qizil Xoch Qo'mitasi singari tashkilotlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish talab qilinadi.

BMT boshqaradigan tinchlik missiyalarida qo'mondonlik nafaqat Xavfsizlik Kengashi rezolyutsiyalari, balki operatsiya shartlari, BMT amaliy va ahloqiy qoidalari hamda tashkilotning ko'p-millatli kuchlari bilan bog'liq ma'muriy to'siqlar bilan yuzlashadi.

50 - izoh

BMTda tinchlikparvar kuchlar tayyorlash

BMT Bosh kotibiyati qoshidagi Tinchlikparvarlik Operatsiyalari Departamentida ochilgan Tayyorgarlik Bo'limi a'zo davlatlarga maslahat berish, professional yordam ko'rsatish va ma'lumot tarqatish bilan shug'ullanadi. Bo'lim uzoq yillik tinchlikparvarlik tajribasiga asoslangan ilmiy qo'llanmalar, o'quv loyihalari, amaliy uslub va me'yorlarni o'rgatuvchi materiallar taklif qiladi. Maskan harbiy o'quv yurtlari, turli davlatlardagi va mintaqaviy malaka oshirish institutlari hamda tinchlik missiyalari bilan ishlaydi. Tinchlikparvarlik dasturlari yuritilayotgan davlatlarda BMT Tayyorgarlik Guruhlari faoliyat olib boradi va murabbiylar uchun kurslar ochiladi. Umumiy me'yorlarni targ'ib qilish va joriy etish maqsadida Ahloqiy Qoidalar va boshqa xilma-xil qo'llanmalar ishlab chiqilgan.

Manba: BMT <http://www.un.org>

Xorijga insonparvarlik missiyalari uchun qo'shin safarbar etish shartlari

Parlament va ijroiya organi chet elga askar yuborish shartlarini ishlab chiqishi mumkin. Bu qaror qilish jarayonini oydinlashtiradi va shu tariqa xalqni tinchlik missiyalarini quvvatlashga undaydi. Birinchi shart siyosiy bo'lib, operatsiya turi bilan bog'liq. Ikkinchisi esa missiya vazifasi, boshqaruvi, muddati va qanday qo'shinlar talab qilinishiga tegishlidir.

Qonunchi sifatida nima qila olasiz?

Missiyalar turi

- ▷ Parlament va uning tegishli qo'mitalari quyidagilarga e'tibor bersin:
 - davlatning xalqaro majburiyatlari;
 - tinchlik missiyasiga qo'shin yuborish yoki qabul qilish qanchalik ma'qul ish?
 - biror mojaroga aralashish ortidagi sabablar (masalan, o'sha mamlakatda inson huquqlarining keng miqyosda poymol etilayotangani);
 - mintaqaviy yoki global tinchlik missiyalari yuzasidan umumiy shartlar joriy etish;
 - mintaqaviy yoki global tinchlik missiyalarida qatnashayotgan askarlar uchun qoidalar;
 - harbiy kuchni talabga mos ravishda ishlatish;
 - samarali siyosiy qarorlar qilish uchun tamoyillar;
 - hokimiyatga nisbatan cheklovlar;
 - tinchlik missiyalariga qo'shilish yuzasidan xalq munosabati – ijobiy yoki salbiy?
 - missiya sarhisobi va uni yakunlash bilan bog'liq masalalar;
 - missiya yakunida uning natijasi haqida parlamentning to'liq ma'lumot olish kerakligi.



Muayyan missiya shartlari

- ▷ Parlament va uning tegishli qo'mitalari quyidagilarga e'tibor bersin:
 - tinchlik missiyasi ko'lami va vazifasi;
 - safarbar etilayotgan harbiy bo'linma turi;
 - missiyaning harbiy jihatdan maqsadga erishish-erishmasligi ehtimoli;
 - harbiy bo'linma va materiallar mutanosibligi va mavjudligi;
 - harbiylarga nisbatan ehtimoliy xavf;
 - amaliyot muddati va uni uzaytirish shartlari;
 - byudjetga ta'siri;
 - masalaga omma munosabati.

Parlament jarayonlari

- ▷ Parlament quyidagi imkoniyatlarga ega:
 - tinchlik missiyalari yuzasidan ommaga ochiq tinglovlar o'tkazish;
 - tinchlik missiyasi amaliyotini tekshirish;
 - tinchlik missiyasi xizmatchisi inson huquqlarini buzganlikda gumon qilinsa, adolat oldida javob berishini ta'minlash.
- ▷ Tinchlik missiyalari amalga oshirilayotgan paytda masala yuzasidan tegishli organlarni so'roq qilish, hisobot talab qilish yoki tinglovga chaqirishdan tortinmang.

Oltinchi qism

**Moliyaviy manbalar:
Xavfsizlik sektori byudjetining
samarali nazorati**

Xavfsizlik va hamyon qudrati

Xavfsizlik – parlament va byudjet

Parlamentlardan xavfsizlik sektori uchun byudjetni ma'qullash va uni nazorat qilishdek muhim vazifani bajarish kutiladi. Lekin siyosiy jihatdan qonunchilik palatalari barcha davlatlarda birdek kuchga ega emas. Ko'pincha parlamentlarning davlat xarajatini tekshirishga qurbi yetmaydi. Xavfsizlikni ta'minlash maxfiy amaliyotlar talab qilarkan, bu sohaga aslida qancha pul ajratilayotgani va sarflanayotgani ham oshkor etilmaydi. Aksariyat mamlakatlarda ijroiya azaldan xavfsizlik sektorini yuritishga o'rganagan va mudofaa xarajatlari ham aynan shu organ va qurolli kuchlar tomonidan boshqariladi.

Qonunchilar bunda bir narsani chuqur anglab yetmog'i lozim. Davlat byudjeti xavfsizlik sektorini idora etish vositasidir. Bu soha jamiyat talabiga qarab isloh qilinmog'i lozim. Davlat hamyoni parlament qo'lida. Bu esa unga xalq puli xalq istaganidek sarflanishini ta'minlash uchun vakolat beradi.

51 - izoh

Byudjet: demokratik boshqaruv uchun asosiy vosita

- ▷ “Davlat byudjeti daromad va xarajat hisobini ko'rsatuvchi texnik vositagina emas. Bu yil davomida ijroiya tomonidan taqdim etilayotgan eng muhim siyosiy hujjat. Byudjet loyihasi mamlakatning siyosiy jihatdan qay tomon yo'nalayotganini, xalqning ijtimoiy-iqtisodiy aholi haqida hukumat qanday fikrda ekanini aks ettiradi. Hujjat hukumatning moliyaviy va iqtisodiy maqsadlari bayoni va uningcha eng ijtimoiy va iqtisodiy vazifalar nimadan iborat ekanini namoyon etuvchi manba... Byudjet loyihasi, shuningdek, hukumat rejalari va uning shu kungacha nimaga erishganidan dalolat beradi.
- ▷ “Byudjet hokimiyatni oshkoralik, javobgarlik, mas'uliyat va izchillik bilan hamda samarali yuritish kafolatidir. Hujjat xarajatlar hisobini qanchalik haqqoniy, aniq va mufassal ifoda etsa, parlament va xalq ham mablag'ning qayerga ketayotganini shunchalik yaxshi biladi va bu o'z navbatida hukumat ishini oydinlashtiradi. Hukumat pulni sarflash yoki daromadni yig'ishdan oldin byudjet parlament tasdig'idan o'tishi shart. Vazirlar bu borada parlament va uning tegishli qo'mitalari oldida javobgardir.
- ▷ “Oshkoralik va javobgarlik, ayniqsa, byudjetni qabul qilish jarayonida konstitutsiyaviy talablar sifatida ko'rilishi shart. Oshkoralik byudjet, javobgarlik esa demokratiya yuragidir”.

Manba: Parlamentlararo Uyushmaning Parlament va Byudjet mavzusida o'tgan seminari hisoboti, Nairobi, 2000

Parlament byudjet yili davomida xavfsizlik masalalariga quyidagi to'rt bosqichda alohida e'tibor qaratishi mumkin:

Byudjet loyihagini tuzish: Qay maqsadlar yo'lida qancha mablag' sarflashni ijroiya organi taklif qilsa-da, parlament va uning a'zolari loyihaga turli rasmiy yoki norasmiy mexanizmlar orqali o'z hissasini qo'shishi mumkin.

Byudjetni tasdiqlash: Mablag' ajratishda parlament xalq fikri va uning manfaatlarini hisobga olishi lozim. Xavfsizlik sektorini moliya bilan ta'minlar ekan, unga maxsus ko'rsatmalar berishi mumkin.

Ijro yoki xarajat: Parlament hukumat xarajatlarini tekshirar ekan, oshkoralik va javobgarlik talab qilishi mumkin. Qo'shimcha moliya so'ralganda, parlament bu talabni izchil ko'rib chiqishi va ijroiya batafsil hisobot so'rashi kerak.

Audit yoki tekshiruv: Parlament ajratilgan mablag' maqsadga muvofiq ishlatilgan yoki ishlatilmaganini tekshiradi. Shuningdek parlament byudjetni doimiy ravishda kuzatib boradi va javobgarlik, samaradorlik va haqqoniylikni ta'minlash uchun jarayonni auditdan o'tkazadi.

Pengeluaran untuk pertahanan

52 - izoh

Byudjet tuzilishida parlament nega faol ishtirok etmog'i lozim?

- ▷ Muxolifat byudjet muhokamasida muqobil takliflar bilan chiqishi mumkin.
- ▷ Ko'pchilik byudjetga ovoz berib ijroiya nisbatan ishonchini isbotlashi va bu bilan hokimiyatga saylanishda bergan va'dalarini unutmayotganini namoyon etishi mumkin.
- ▷ Byudjet nazorati hukumat siyosatiga ta'sir qilishning muhim yo'llaridan biri.
- ▷ Byudjetni qayta ko'rib chiqish qonuniga binoan ijroiya ishdan olinishi va shu bilan byudjet yili ham tugatilishi mumkin.

Manba: Parlamentlararo Uyushmaning Parlament va Byudjet mavzusida o'tgan seminari hisoboti, Bamako, Mali, 2001

Mudofaa xarajati

Quyidagi jadvalda jahonning turli davlatlari mudofaa uchun qancha mablag' sarflashi bilan tanishasiz. Sovuq Urush ketidan ayrim mamlakatlarda xarajat kamayganini kuzatish mumkin. Bu "tinchlik foydasi" sifatida ko'rilgan. Biroq Osiyo va Afrikada usbu davrga kelib mudofaa uchun ko'proq moliya ajratila boshlagan.

53 - izoh

Dunyo bo'ylab mudofaa xarajatlari, yalpi daromadga qarab % hisobida

	1985	2000	2001
NATO	4.0	2.2	2.2
AQSh	6.5	3.0	3.2
Britaniya	5.2	2.4	2.5
Fransiya	4.0	2.6	2.6
Germaniya	3.2	1.6	1.5
Yevropaning NATOga kirmagan qismi	4.3	2.8	2.3
SSSR/Rossiya	16.1	5.0	4.3
Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika	11.9	6.7	7.2
Markaziy va Janubiy Osiyo	4.3	5.2	3.8
Sharqiy Osiyo, Avstraliya va Okeaniya	6.4	3.5	3.3
Yaponiya	1.0	1.0	1.0
Karib davlatlari va Lotin Amerikasi	3.2	1.7	1.7
Afrikaning Quyi Saxarasi	3.1	3.8	3.4
Eritreya	n.a.	30.0	20.9
Global hisob	6.7	3.6	3.5

Manba: Harbiy Muvozanat 2002-2003, IISS, London

Xavfsizlik sektori uchun effektiv byudjet

Byudjet mahsuldorligi javobgarlik va oshkorlik talab qiladi. Javobgarlikni ta'minlash uchun byudjet tuzish jarayoni oshkora olib borilishi shart. Bu maqsadga esa effektiv byudjet tamoyillariga rioya qilgan holda erishish mumkin:

Tasdiqlash – Parlament ijroiya organiga mablag'ni sarflash uchun buyruq beradi.

Yagona hujjat – Barcha xarajat va daromad hisobi parlamentga yagona hujjatda topshirilishi lozim.

Muddat – Ijroiya byudjet loyihasini har yili parlamentga bir vaqtda taklif qilish kutiladi. Ajratilgan moliya qachon sarflanishi ham alohida belgilanishi kerak.

Aniqlik – Byudjetning har bir qismi, har bir modda va uning maqsadi hukumat tomonidan alohida va aniq izohlanishi lozim. Izoh va so'ralayotgan mablag' miqdori bir-birga mutanosib bo'lishi shart.

Qonuniylik – Barcha xarajat va faoliyat qonun asosida amalga oshiriladi.

Byudjetni tushunturish – Ijroiya organi byudjet loyihasini hamma tushunadigan ko'rinishda va aniq bir tizimda taqdim etishi kerak toki parlamentning har bir vakili daromad va xarajat hisobi bilan bevosita tanisha olsin.

To'liqlik – Davlat byudjeti xavfsizlik sektorining barcha yo'nalishlari xarajatini to'liq aks ettirishi shart: xavfsizlik xizmatlaridan tortib, armiya, harbiy tashkilotlar, ichki ishlar, maxfiy xizmatlar va hukumat yollaydigan xususiy harbiy kompaniyalarga sarflanadigan moliyaviy hisoblar.

Ommaga havola etish – Har bir fuqaro byudjet loyihasi bilan tanisha olishi va uning yuzasidan fikr bildira olishi lozim. Buning uchun byudjet bilan bog'liq hamma hujjatlar oddiy ko'rinishda omma orasida keng tarqatilishi kerak. Jamoat joylarida, masalan, kutubxonalarga qo'yilishi mumkin.

Mutanosiblik – Siyosat, reja, byudjet va ijro bir-biriga mos kelishi shart.

Mablag' va natija – Byudjet taklif qilinganda a) mablag'; b) salohiyat va ijro; c) ko'zlangan maqsad aniq tushuntirilishi kerak. Loyiha shunday tuzilsinki, zarur topilsa, uning bu uch qismini o'zgartirish mumkin bo'lsin.

Bu tamoyillar xalq talabiga javob beradigan byudjet tuzish asoslaridir. Parlament a'zolari xavfsizlik sohasi xususida yetarli ma'lumotga ega bo'lmasa, ijtimoiy-iqtisodiy masalalar va mudofaa xarajatlari orasidagi bog'liqni anglay olmaydi.

Xavfsizlik uchun to'g'ri byudjet tuzish shartlari

Parlament xavfsizlik sektori ustidan nazoratni kuchaytirish uchun byudjetni tasdiqlashga qator omillarga e'tibor qaratishi mumkin. Konstitutsiya va huquq, pul qadri, mablag'ni to'g'ri ishlatish, vaqt va fuqarolik jamiyati bilan aloqa bunda alohida ahamiyat kasb etadi.

Konstitutsiya va huquq

Parlament a'zolarining xavfsizlikni nazorat qilishga haqli ekani konstitutsiya va boshqa qonunlar orqali aniq kafolatlanishi shart. Qonunchilik palatasi hukumatdan ma'lumot talab qila olishi va bu qonunda belgilangan bo'lishi kerak. Parlamentning xavfsizlikni byudjet orqali idora etishi siyosiy tuzumning bir qismiga aylanishi lozim. Bu qonunchilardan shijoat va jiddiy harakatlar talab qiladi.

Pul qadri

Byudjetni tasdiqlash jarayonida pul bilan bog'liq ikki qoidaga amal qilinishi shart:

- ✓ Samaradorlik: siyosiy maqsadlarga erishish ("To'g'ri ish qilish")
- ✓ Ekonomiklik: siyosiy maqsadlarga iloji boricha kam xarajat qilgan holda erishish ("Mablag'ni ayab ishlatish").

54 - izoh

Rejalashtirish, dasturlashtirish va byudjet tizimi

"Rejalashtirish, dasturlashtirish va byudjet tizimi ilk bor 1960-yillarda AQShda mudofaa xarajatlarini belgilashda qo'llanilgan. Hozirda bu usul butun dunyo bo'ylab tarqalgan. Jarayon rejalashtirishda boshlanadi, ya'ni xavfsizlik, davlat manfaatlarini va mavjud tahdidlar tahlil qilinadi. Shunga binoan qurolli kuchlar uchun eng muhim vazifalar nimadan iborat ekani haqida bir to'xtamga kelinadi. Keyin ana shartlar asosida dasturlar tuziladi. Har bir dastur, ish rejasi, aniq maqsadlarni ko'zlashi lozim. Bu byudjet zanjirining eng muhim qismi. Maqsad moliyaviy salohiyatga borib taqaladi, yani byudjet dasturi cho'ntakka, moliyaviy cheklovlarga qarab tuziladi. Shunday ekan, xavfsizlik uchun mablag' ajratilayotganida eng asosiy maqsadlar hisobga olishi kerak. Maqsadga erishilmagan taqdirda bu qanday oqibatlarga olib borishi oldindan muhokama qilishi va zarur choralar haqida o'ylanishi maslahat beriladi. Moliyaviy yil oxirida byudjet qanday ijro etilgani tekshiruvdan o'tadi. Vazirlik maqsadga qay darajada erishilgani haqida hisobot beradi va jamiyat natijalarni tahlil qiladi..."

Manba: Mudofaa Byudjetida Oshkoralik va Internet, Kate Starki va Andri van Meni Axborot & Xavfsizlik, 5-tom, 2000. C4, Mudofaani Ishlab Chiqish.

Parlament mudofaa byudjeti pulning qadriga yetsin desa xarajatni siyosiy dastur va maqsadlarga moslashi kerak (54-izohga qarang). Barcha sarf-xarajatlar belgilangan vazifaga qarab guruhlariga ajratilishi shart. Parlament mablag'ni ayab ishlatilganini aniqlash uchun auditorlarni ham ishga solishi lozim (kelasi bobda). Hukumatdan byudjetni daromadga qarab tuzish kutiladi. Rejalashtirish, dasturlash va byudjet tizimi xavfsizlik xizmatlari oshkora va qonun doirasida faoliyat olib borgandagina samara beradi.

Mablag'ni to'g'ri ishlatish

Hukumat qonunni buzmasligi va byudjetni parlament belgilaganidek amalga oshirishi uchun muayyan bir tartibga rioya qilishi shart. Parlament buni quyidagi talablar bilan ta'minlashi mumkin:

- ✓ Harbiy xarajat va uni qoplovchi moliya o'rtasidagi bog'liqlik;
- ✓ Pulning qanday sarflanayotganini o'lchovchi va kuzatuvchi me'yorlar;
- ✓ Byudjetning to'g'ri amalga oshirilishi uchun choralar;
- ✓ Mudofaa xarajati tushganda yoki oshganda parlament moliya vazirligi yoki vazirlar mahkamasini ogohlantirishi lozim;
- ✓ Mudofaa xarajati oshganda qo'shimcha mablag'ni qayerdan olishni belgilash.

Vaqt

Xavfsizlik sektori uchun to'g'ri byudjet tasdiqlashga yetarlicha vaqt ajratilishi kerak. Byudjetning barcha qirralari bilan yaqindan tanishish va ularni muhokama qilish uchun kamida 45 kun yoki uch oygacha muddat berilishi tavsiya qilinadi.

Parlament mudofaa byudjeti yuzasidan xolis, ishonchli, aniq va so'nggi axborot bilan ta'minlanishi lozim. Chunki:

- ✓ ma'lumot xavfsizlikning zaif tomonlarini ko'rsatishi, islohotlar va o'zgarishlar zarurati haqida ogoh etishi mumkin;
- ✓ byudjet oshkora boshqarilsa, xavfsizlik sektori xalq va parlament oldida javobgar ekani isbotlanadi va jamoatchilikning hukumatga ishonchi oshadi.

Fuqarolik jamiyati bilan aloqa

Parlament moliyaviy tekshiruv va kuzatuv jarayoniga chetdan mutaxassis jalb etishi mumkin. Ayniqsa xavfsizlik masalalari haqida gap ketganda, bu sektor byudjetining noaniq tomonlarini tushunishda mudofaa bo'yicha tahlilchilar bilan maslahatlashishning foydasi katta. Byudjetni tasdiqlash jarayoni boshqa ko'plab tamoyillar qatori axborot olish erkinligi qonuniga ham asoslanishi kerak.

Sohani o'rganish

Parlamentda a'zolar va ularning xodimlari xavfsizlik sohasini o'rganib, bu boradagi bilim va tajribasini oshirishi, aynan mudofaa masalalari bilan shug'ullanuvchi xizmatchilarga esa izlanish imkoniyati yaratilishi kerak bo'ladi. Parlamentlararo Ittifoq demokratik boshqaruv va qonunchilikni targ'ib qilish maqsadida mintaqaviy seminarlar o'tkazib, ularga parlament vakillari va xodimlarini taklif qiladi (www.ipu.org). Shuningdek, maxsus qo'llanmalar ishlab chiqqan.

55 - izoh

Mudofaa byudjeti asoslari: Ispaniyaning 2002 yilgi mudofaa byudjeti

Moddiy talab va xizmatlar
Oziq-ovqat
Infrastrukturani saqlash
Yonilg'i
Elektr quvvati, suv, telefon va hokazo
Kiyim-kechak
Moliyaviy yordam
Transport
Tayyorgarlik
Sog'liq saqlash
Boshqa operatsion xarajatlar
Boshqa moliyaviy xarajatlar
Hozirgi harakatlar
Xalqaro tashkilotlar
Avtonom organlar
Boshqa faoliyatlar
Real sarmoya
Qurolli kuchlarni zamonaviylashtirish
Qurollarni saqlash va materiallar
Tadqiqot va taraqqiyot
Boshqa sarmoya
Moliyani ko'chirish
Moliyaviy boyliklar

Manba: Ispaniya 2002 Mudofaa Byudjeti, Ispaniya Mudofaa Vazirligi.

Xavfsizlik byudjetida oshkoralik va javobgarlik

Oshkoralik va maxfiylik

Qarorlarni oshkora qilish xalq xohish-istagi va uni aks ettirgan siyosiy maqsadlarga binoan ish tutish demakdir. Mudofaa uchun mablag' ajratish jarayonini jamoat ko'zi oldida olib borish esa parlamentga bu sohani samarali idora etishda ko'maklashadi. Natijada jamiyat xavfsizlik sektoriga ishona boshlaydi. Oshkora faoliyat yuritilmagan taqdirda byudjet puxta tuzilmaydi yoki xavfsizlik maqsadlari aniq belgilanmaydi. Bunga audit tashkilotlarining qonunan ko'p-qirrali tekshiruvlar olib bora olmasligi, konstitutsiyada siyosiy qarorlarni tanqid ostiga olish huquqi yaxshi kafolatlanmagani va qog'ozbozlik singari maxfiylik javobgarlikdan ustun qo'yiladigan holatlar sabab bo'ladi. Auditorlar va qonunchilar tizimdagi bu muammolarni tan olishi va ularga qarshi choralar ko'rishi kerak.

56 - izoh

Mudofaa byudjetini oshkora tuzish yo'lidagi to'siqlar

"Oshkoralik va javobgarlikning yetishmasligi, ayniqsa, byudjet tuzishda pand beradi. Chunki bunda ijroiya organidagi bir necha kishi mamlakatning xavf-



sizlik siyosati qay tomon yo'nalishi va uning uchun qancha mablag' sarflanishini hal etadi. Moliya vazirligi va ijroiya organining boshqa qismlaridagi yuqori lavozimli rasmiylar bu qarorlardan chetda qoladi yoki ularning fikri inobatga olinmaydi. Parlament – davlat konstitutsiyasiga rioya qilinishini nazorat qiluvchi organ, axborot vositalari va fuqarolik jamiyati haqiqatda nima bo'layotganini bila olmaydi”.

”Xavfsizlik kuchlarining barcha xarajatlari – kadrlar, amaliyotlar va asbob-uskunalar uchun zarur mablag' byudjetda o'z aksini topishi lozim. Hujjatda mablag'ning qayerdan olinishi ham ko'rsatilishi kerak. Ammo ko'p hollarda xavfsizlik byudjetida bu ma'lumotlar topilmaydi. Byudjet qismlari juda noaniq va umumiy xarajat – turli bo'limlarga ajratiladigan mablag' mavhum bo'ladi. Byudjetdan tashqarida katta xarajatlarni qiluvchi davlatlarda hatto hukumatlarning o'zi aniq va ishonchli ma'lumotlarga ega emas. Shunday ekan, bu jamiyatlarda hukumat o'zini xalq oldida javobgar tutmaydi. Byudjet rejasi ijro va natijaga qiyoslanmaydi. Mudofaa vazirligi va boshqa idoralarda rasmiylar xavfsizlik bilan bog'liq barcha texnik masalalarni tushunishi kerak, aks holda ular mudofaa siyosati, byudjet va ta'minot bobida to'g'ri qarorlar qila olmaydi. Byudjetdan tashqarida xarajat qilishga nisbatan chora ko'rish fuqaro-harbiy munosabatlarini tubdan o'zgartirishni talab qilishi mumkin.”

Manba: Inson Taraqqiyoti Hisoboti, 2002 (89 va 91- betlar)

Mudofaa va xavfsizlikning nazorat qilina oladigan va olinmaydigan xarajatlari

Xavfsizlik sektorini nazorat qilib, xalq puli to'g'ri maqsadlarda sarflanayotganini ta'minlash uchun parlamentning qo'li byudjet bilan bog'liq barcha ma'lumotlarga yeta olishi lozim. Parlamentga faqat umumiy hisobni ko'rsatish byudjetning aniqlik qoidasiga mos kelmaydi. Agar xarajatlarni batafsil tushuntirilmagan bo'lsa, qonunchilik palatasi o'z konstitutsion vazifasini bajara olmaydi, ya'ni mudofaa byudjetini kuzata yoki idora eta olmaydi.

Parlament mudofaa xarajatlari yuzasidan hamma hujjatlar bilan tanishi juda muhim. Ayrim davlatlarda, jumladan, Daniya va Lyuksemburgda byudjet juda izchil tuziladi, ya'ni parlamentga har biy mayda xarajat izohi beriladi. Ammo Fransiya, Gretsiya va Polsha kabi mamlakatlarda esa mudofaa masalalari bo'yicha qonunchilik qo'mitasigina bunday chuqur ma'lumotlar bilan ta'minlanishi mumkin. Samarali boshqaruv parlament yoki uning qo'mitasiga xarajat va talab haqida to'liq hisobot berilishini taqozo etadi. Bu shart xavfsizlik sektorining barcha jabhalari, xususan, razvedka byudjetiga ham tegishlidir.

Axborot erkinligini kafolatlovchi yoki boshqa qonunlar ruxsat bersagina mudofaa byudjetining ayrim qismlarini maxfiy tutish mumkin (57-izohga qarang).

Xavfsizlik byudjeti muhokama qilinayotgan yoki unga ovoz berilayotgan paytda parlamentning majburiy xarajatlari (masalan, harbiy ta'minot bo'yicha o'tgan yili imzolangan shartnoma) va ijtimoiy muhofaza dasturlariga (masalan, harbiylar nafaqasi va tibbiy xizmat) o'zgartirish kiritishi qiyin. Bu xarajatlarni o'zgartirish uzoq vaqt oladi.

57 - izoh

Xavfsizlik byudjetini maxfiy tutishning uch darajasi

Parlament aʼzolari maxsus holatlarda maʼlumotni sir tutib maxfiy ravishda mablagʻ ajratganda javobgarlikni chetga surmasligi lozim. Muvozanatni taʼminlash uchun byudjetni quyidagi darajalarga boʻlish mumkin:

- ▷ Mudofaa byudjetining umumiy koʻrinishini parlamentga taqdim etish;
- ▷ Mudofaa va harbiy byudjet boʻyicha quyi qoʻmita tomonidan koʻrib chiqiladigan maxfiy moliyaviy hisob va xarajatlar;
- ▷ Qoʻmitaning ayrim aʼzolari tomonidan koʻrib chiqiladigan yuqori darajadagi maxfiy xarajatlar. Bu vakillar davlat sirlarini saqlash haqidagi qonunga asosan barcha maxfiy maʼlumotlar bilan tanisha olishi kerak.

Manba: Ravinder Pal Singx, Qurollar Taʼminoti Yuzasidan Qaror Qilish Jarayoni, 1-tom, Oksford Universiteti Nashriyoti, Oksfor.

Xalq pulini yemirish va korrupsiyaga qarshi oshkoralik

Parlamentlar hukumat xalq pulini yemirmayotganini taʼminlashda asosiy rol oʻynovchi organdir. Bu kabi qonunbuzarliklar, ayniqsa, xavfsizlik byudjetiga doir hollarda yuz beradi. Chunki bu soha juda murakkab texnik tizim va strategik koʻrinishga ega.

Mudofaa byudjetiga oshkoralik va javobgarlik bilan yondashilmasa, parlament xavfsizlik sektorini nazorat qila olmaydi. Oshkoralik javobgarlikka yoʻl ochadi va har ikkisi boshqaruvning samarali boʻlishi uchun zamin yaratadi. Bu ikki omil byudjet yilining asosi desa ham boʻladi.

“Mudofaa byudjetida javobgarlik va oshkoralik yetishmasa mamlakat qurolli kuchlari hajm va salohiyat jihatdan izdan chiqib, maqsaddan uzoqlashadi. Harbiy xarajatlar qanchalik oshkora boʻlsa, bu sohada mojaro yoki tushunmovchiliklar chiqish ehtimoli ham shu qadar past boʻladi”.

Pol Jorj, “1990-yillarda Mudofaa Xarajati: Rivojlanayotgan Mamlakatlarda Byudjet va Moliya Siyosati”, 2002.

Harbiy xarajat oshgan sari xalqning iqtisodiy ahvolini yaxshilash va ijtimoiy taraqqiyot uchun kamroq mablagʻ ajratila boshlaydi. Xalq vakillari nima sabab qurolli kuchlar koʻp moliya soʻrayotgani haqida maʼlumot talab qilishi va soliqdan tushgan daromad nega asosan xavfsizlik uchun ketayotganini surishtirishi lozim. Bu, ayniqsa, rivojlanayotgan jamiyatlarda katta muammo. Hukumat mamlakatni samarali boshqarmochi boʻlsa xavfsizlik siyosatini yuritishda xalq fikrini inobatga oladi. Mudofaa byudjeti taraqqiyot va xavfsizlik uchun birdek xizmat qilishini taʼminlash – parlament boʻyninga yuklangan masʼuliyat. Quyidagi izoh bu boradagi qator toʻsiqlarni tahlil qiladi.

58 - izoh

Xavfsizlik byudjeti nazoratini cheklovchi muammolar

- ▷ **Konstitutsiyaviy vakolatlar yetishmasligi** – Mamlakat bosh qonuni parlament aʼzolariga xavfsizlik sektorini idora etish uchun zarur huquqlar bermasa, byudjet tuzish va uning ijrosini nazorat qilish qiyin kechadi.



- ▷ **Axborot yetishmasligi** – Axborot olish erkinligi kafolatlanmagan bo'lsa, nozik ma'lumotlar bilan tanishish mumkin emas. Shu bois parlament byudjet loyihasi yoki uning amaliyotini yaqindan kuzatish imkoniyatiga ega bo'lmaydi. Oqibatda esa xalq va parlament hukumatni javobgarlikka tuta olmaydi. Vaholanki, demokratik tuzumda hukumat jamoatchilik oldida har bir hatti-harakati yuzasidan javob berishi kerak.
- ▷ **Byudjetdan tashqari xarajat va daromad** – Byudjetdan tashqarida olinayotgan daromad va ularning asl manbai (jumladan, harbiy kompaniya daromadiga sheriklik yoki boshqa xizmatlardan tushgan pul) parlament va hatto vazirlik rasmiylariga ham ayon bo'lmasligi mumkin. Bu faoliyatlar parlamentga oshkor etilishi va daromad xavfsizlik sektorini moliya bilan ta'minlash uchun ishlatilishi kerak.
- ▷ **Mudofaa xarajatini yashirish** – Xavfsizlik sektorining nafaqa, infrastruktura, transport va boshqa maqsadlar uchun qilgan xarajati ko'p hollarda ijtimoiy ta'minot, uy-joy ta'minoti yoki temir yo'l xizmati kabi sektorlar byudjetiga o'tkaziladi. Mudofaa byudjetining o'sha qismlariga e'tibor berilishi kerak. Aks holda omma va parlament aslida mudofaa uchun qancha mablag' sarflanayotganini bila olmasligi mumkin.
- ▷ **Zaif matbuot** – Ko'p davlatlarda ommaviy axborot vositalari professional va moddiy jihatdan kuchli emas. Ular xavfsizlik sohasi va parlament ishini yaqindan yorita olmaydi. Bu esa xalqni uning qonunchilik organiga saylangan vakillari va xavfsizlik bilan ta'minlovchi organlar haqida so'nggi va haqqoniy ma'lumotlar olish imkoniyatidan ayiradi.
- ▷ **Izchil tekshiruv uchun vaqt yetishmasligi** – Vaqt tig'iz va oz ekan, parlament mudofaa byudjetini chuqur tahlil va keng nazorat qila olmaydi.
- ▷ **Infrastruktura, kadrlar va bilim yetishmasligi** – Ko'plab parlamentlarda ijroiya organini xalq oldida javobgarlikka tutish uchun sharoit, professional kuch va salohiyat yo'q.

Demokratik mamlakatlarda byudjet nazorati

1990-yillarda Yevropada demokratik to'lqin tarala boshladi. Parlament nazorati yo'lga qo'yildi va bu o'z samarasini bera boshladi. 59-izoh Janubi-sharqiy Yevropa mamlakatlaridagi ahvolga nazar tashlaydi. Bu jamiyatlardagi siyosiy tizimlar oshkorlik va javobgarlik tamoyillarini o'zlashtirdi.

59 - izoh

Janubi-sharqiy Yevropa davlatlaridagi mudofaa byudjetlari (2001)

Albaniya: 2000 yilning oktabrida byudjet boshqaruvi idorasi ochildi. Mudofaa siyosati yuzasidan hujjat qabul qilinib, unda 2008 yilgacha xavfsizlikni ta'minlash talablari bayon qilindi. Bu davlatda byudjet uchun mudofaa vazirligi javobgar.



Bolgariya: Mamlakatning 10 yillik mudofaa byudjeti Milliy Assambleya, ya'ni parlamentda muhokama qilingan. Qonunchilik organi asta sekin xavfsizlik kuchlari ustidan nazoratni kuchaytiradi degan umid bor.

Xorvatiya: Hukumat parlament byudjet loyihasini taqdim etgan va u "Rasmiy Byulleten" shaklida nashr qilingan. Byudjet qabul qilish jarayoni iyul oyidan noyabrgacha davom etadi. Hujjat moliya va mudofaa vazirliklari qo'lidan o'tadi. Parlament mudofaa uchun jami qancha mablag' zarurligi yuzasidan qaror qila oladi xolos. Byudjet qismlarini idora etish vakolatiga ega emas.

Makedoniya: Byudjet loyihasini mudofaa vazirligi tayyorlaydi va moliya vazirligiga uzatadi. Boshqa vazirliklar bilan maslahatlashiladi. Dastlabki o'zgartirishlar kiritilgach, hujjat qonunchilik organiga havol etiladi. Mudofaa vaziri byudjet loyihasini Ichki Siyosat va Mudofaa Qo'mitasiga taqdim etadi. Parlament ovoz berib bo'lgach, prezident unga qo'l qo'yadi. Makedoniyada mudofaa uchun mamlakat yalpi daromadining 2.12 % ajratiladi.

Ruminiya: Mamlakat 2000 yilda rejalashtirish, dasturlashtirish, byudjet tuzish va tekshiruv tizimini joriy etgan. Jarayon mudofaa vazirligi qo'lida. Unga, boshqa vazifalar qatorida, xavfsizlik bilan bog'liq barcha faoliyatlarni oshkora olib borish yuklangan. Byudjet tuzishda parlamentning bir necha qo'mitalari, xususan, mudofaa, huquq-tartibot, davlat xavfsizligi, byudjet, moliya va banklar bo'yicha qo'mitalar ishtirok etadi. Mudofaa vazirligida Parlament va Jamoatchilik bilan Aloqalar, Qonunchilik va Uyg'unlik Bo'limi bor. Mudofaa rejasini aks ettiruvchi hujjat Internetda chop etiladi.

Qonunchi sifatida nima qila olasiz?

Byudjet yilida xavfsizlik sektori ustidan nazorat

- ▷ Parlament byudjetning to'rt bosqichida ham xavfsizlik sektori faoliyatiga diqqat qaratsin: byudjetni tayyorlash, tasdiqlash, ijro va audit.
- ▷ Nazoratni qonuniy audit idoralari tomonidan amalga oshiring.
- ▷ Parlament va boshqa organlar muofaa xarajatlarini tekshirganda siyosiy maqsad, byudjet talabi va samarasi bir-biriga solishtirilsin.

Xavfsizlik byudjetini oshkora olib borish uchun qadamlar

- ▷ Byudjet kitobning bu bobida tilga olingan effektiv byudjet tamoyillari asosida tayyorlanishini talab qiling.
- ▷ Taklif qilinayotgan loyiha, undagi xarajatlar va hisoblar to'g'ri, oshkora va maqsadga muvofiq ekanini aniqlash uchun parlamentga chetdan mutaxassislar jalb qiling va ular yordamidan foydalaning.
- ▷ Xavfsizlik xizmatlari moliyaviy rejalash va byudjet tuzishning zamonaviy usullarini qo'llayotgan bo'lsin. Bu parlamentga mudofaa xarajatini tahlil qilish, maqsad, ijro va natijani qiyoslashda yordam beradi.
- ▷ 58-izohga qarab o'z mamlakatingizdagi vaziyatni tahlil qiling. Tizimning zaif jihatlarini aniqlang va bu muammolarga yechim qidiring.

Davlat byudjetining xavfsizlikka doir qismini tekshirish

Parlament va davlat audit idorasi

Parlament uchun xavfsizlik byudjetini qabul qilish bilan ish bitmaydi. Endi u byudjet amaliyotini kuzatishi va tekshirishi kerak. Chunonchi parlamentga barcha audit hisoblarini ham raqam, ham tahliliy ko'rinishda taqdim etish demokratik talablardan biri. Xavfsizlik sektorining yillik moliyaviy-tahliliy hisoboti parlamentga mablag' qanday sarflanganini ko'rsatuvchi asosiy manbalardir.

Qonunchilarga bu ma'lumotlarni ko'rib chiqishda mustaqil muassasa – davlat audit idorasi yordam beradi. Ba'zida bu tashkilot Bosh Auditor, Davlat Auditor Idorasi, Byudjet Idorasi yoki Hisobot Palatasi deb ham atalishi mumkin. Mazkur idora konstitutsiyaga muvofiq tashkil etiladi va ijroiya, qonunchilik hamda adliya organlaridan mustaqil holda faoliyat yuritadi.

Parlament bunda quyidagi vazifalarni bajaradi:

- ✓ Bosh auditorni tayinlaydi va uning vakolat muddatini belgilaydi;
- ✓ Bosh auditor mustaqil ravishda faoliyat yuritishi uchun unga barcha huquqiy va amaliy sharoitlar yaratib beradi va mablag' bilan ta'minlaydi;
- ✓ Bosh auditordan turli xarajatlar yuzasidan istalgan paytda mustaqil hisobotlar oladi.

Parlament bu idoraga adliyaviy vakolatlar berishi unutmazligi lozim toki bosh auditor korrupsiya yoki davlat mulki amaldorlar yoki siyosiy organlar tomonidan yemirilgan hollarni tergov qilish imkoniyatiga ega bo'lsin. Parlament auditor idorasi xatoga yo'l qo'ygan hollarda ularni tuzatish uchun qanday choralar ko'rilishini ham belgilashi kerak.

60 - izoh

Bosh Auditor

"Ijroiya, qonunchilik yoki adliya qo'li ostida bo'lgan taqdirda ham Audit Idorasi butunlay mustaqil yoki butunlay avtonom ravishda ish tutishi zarur. Buning uchun resurslar to'g'ri taqsimlanishi lozim. Idoraga odatda uch vazifa yuklanadi:



Moliyaviy nazorat

Audit Idorasi ijroiya tizimi va davlat tashkilotlarining moliyaviy hisoblarini ko'zdan kechiradi. Mablag' to'g'ri va maqsad muvofiq, qonunda ko'rsatilganidek sarflanayotganini tekshiradi. Idora xarajatlarni yurituvchi va moliya uchun javobgar davlat hisobchilari va rasmiylari faoliyatini ko'rib chiqadi. Qing'ir harakatlarni tergov qiladi. Qonunbuzarliklar aniqlansa, Audit Idorasi adliya tizimiga bu borada hisobot berishi shart.

Audit Idorasi ijroiya tizimi va davlat tashkilotlarining moliyaviy hisoblarini ko'zdan kechiradi. Mablag' to'g'ri va maqsad muvofiq, qonunda ko'rsatilganidek sarflanayotganini tekshiradi. Idora xarajatlarni yurituvchi va moliya uchun javobgar davlat hisobchilari va rasmiylari faoliyatini ko'rib chiqadi. Qing'ir harakatlarni tergov qiladi. Qonunbuzarliklar aniqlansa, Audit Idorasi adliya tizimiga bu borada hisobot berishi shart.

Qonuniy nazorat

Audit Idorasi davlat muassasalari qonunan tasdiqlangan byudjet asosida xarajat qilayotgani va daromad olayotganini aniqlashi lozim.

Xalq pulini to'g'ri sarflash

Audit Idorasi davlat samarali boshqarilishi uchun xalq puli quyidagi uch talab ostida sarflanayotganini ta'minlashi kerak:

- 1) **Pul qadrlansin:** kamroq mablag' evaziga yuqori samaraga erishilsin;
- 2) **Mahsuldorlik:** maqsad va rejalar amalga oshsin;
- 3) **Taqsimot:** mablag' to'g'ri ajratilsin.

Audit Idorasi bu talablarga qanday rioya qilinganini o'z tashabbusi yoki parlament iltimosiga ko'ra tekshirishi mumkin".

Manba: Parlamentlararo Ittifoqning Parlament va Byudjet Jarayoni haqidagi seminar hisobotidan (Bamako, Mali, 2001)

Xavfsizlik byudjetini amalda audit qilish

Xavfsizlik byudjetini audit qilish parlament uchun o'ta murakkab jarayon. Bunda mudofaa va qurolli kuchlarga tegishli keng ko'lami moliyaviy hisobotlar tahlil qilinadi. Hujjatlar savdo, sanoat, kommunikatsiya va bank tizimlari bilan ham bog'liq. Qonunchilar turli sohalarni bir-biri bilan bog'lay olishi va ular o'rtasidagi munosabatlarni tushuna olishi kerak.

Xavfsizlik masalalari bilan shug'ullanuvchi mudofaa, ichki ishlar, savdo, sanoat, aloqa va moliya vazirliklari parlamentga byudjet qanday yuritilayotgani haqida doimiy hisobotlar berib turishi zarur. Parlament va uning qo'mitalari bu vazirliklardan olingan yillik hisobotlar, xarajatlar ro'yxati, audit qilingan moliyaviy tahlilnomalarni ko'zdan kechiradi. Qonunchilar bu hujjatlarni o'zaro muhokama qiladi.

Audit parlamentga byudjet qanchalik qonuniy va samarali yuritilganini ko'rsatuvchi jarayon. Mablag' ayab ishlatildimi? Xarajat nima mahsul berdi? Maqsadga erishildi-mi? Qonunchilar shu savollarga javob izlashi darkor.

61 - izoh

Xavfsizlik sektori ustidan parlament nazoratida Britaniya Davlat Audit Idorasining roli

Britaniya Davlat Audit Idorasi 1983 yilda joriy etilgan mustaqil muassasa bo'lib, Revizor/Bosh Auditor markaziy hukumat xarajati yuzasidan parlamentga hisobot beradi. Moliyaviy audit qilish va pul qadri bo'yicha tekshiruv olib borish idoraning asosiy vazifalaridir.

▷ **Moliyaviy audit**

Qonunan Revizor/Bosh Auditor va uning idorasi barcha vazirliklar va agentliklar hisobini audit qilishi va parlamentga bu borada hisobot berishi shart. Revizor/Bosh Auditor davlat hisoblari qanday yuritilayotganini sharhlaydi. Idora barcha sarf-xarajatlar parlament belgilaganidek amalga oshirilayotganini aniqlaydi. Xatolar topilsa, Revizor/Bosh Auditor ularga nisbatan fikr bildiradi. Topilmagan taqdirda ham parlamentga hisobot berilishi lozim. Bu masalalarni Quyi Palataning Davlat Hisoblari bo'yicha Qo'mitasi ko'rib chiqadi.

▷ **Pul qadri auditi**

Har yili Britaniyada Revizor/Bosh Auditor hukumat idoralari pulni qanchalik ayab ishlatayotgani haqida qariyb 50 hisobot tayyorlaydi. Davlat Audit Idorasi sarflangan mablag'dan nima foyda ko'rilganini tekshiradi. Hisobotlarda asosiy e'tibor byudjet amaliyotiga qaratilsada, Revizor/Bosh Auditor pulni qadrlash yo'lida tavsiyalar qilish ham kutiladi. Davlat Audit Idorasining 2000-2003 yillardagi maslahatlariga rioya qilib, hukumat J1.4 milliard (funt) ayagan. Vertolyot ta'minoti, jang maydonlarini o'rganish/aniqlash, yerda yuradigan harbiy vositalarni ta'mirlash, zaxirani kamaytirish va mudofaa vazirligi joylashgan binoni tuzatish kabi sohalarda ham mablag'ni ayab ishlatish yo'llari taklif qilingan. Davlat Audit Idorasi harbiy xaridlar bo'yicha 30 loyiha yuzasidan ham hisobot beradi.

▷ **Parlament bilan aloqa va javobgarlik**

Parlament bilan aloqa qilish, xususan, Davlat Hisoblari bo'yicha Qo'mita bilan yaqin munosabatda bo'lish Revizor/Bosh Auditor uchun juda muhim. Qonunan u Quyi Palata xizmatchisidir. Shu bois uning butun faoliyati parlament bilan chambarchas bog'langan. O'zaro javobgarlik tizimi ham joriy etilgan. Markaziy hukumat byudjetdagi mablag'ni sarflab bo'lgach, Revizor/Bosh Auditor parlamentga buning qanday amalga oshirilganini baholab beradi. Davlat Hisoblari bo'yicha Qo'mita audit qilinayotgan tashkilotning bosh rasmiysi hisobotini tinglashi mumkin. Qo'mita bu tashkilotga qator tavsiyalar berishi va hukumat ularga rioya qilishi yoki munosabat bildirishi kerak. Davlat Audit Idorasi hukumat xarajatlari bo'yicha parlament a'zolarining turli so'rovlariga ham javob beradi.

Manba: Tom Makdonald, Katta Auditor, Mudofaa, Britaniya Davlat Audit Idorasi, 2002

Audit idoralarining asosiy xususiyatlari

Audit idorasi xavfsizlik sektorini nazorat qilishda parlamentga yaqindan yordam beradigan mexanizmlardan biri. Audit samara berishi uchun quyidagi talablarga amal qilishi kerak:

- ✓ Audit idorasi parlamentning hukumat hisoblari bo'yicha qo'mitasiga javob beradi. Bunda byudjet bo'yicha qo'mita nazarda tutilayotgani yo'q;

Audit idorasi hukumat qarorlarini to'g'ri tahlil qilish uchun maxfiy ma'lumotlar bilan tanisha olishi lozim, ammo bu haqda jamoatchilikka bildira olmaydi;

- ✓ Audit idorasi xavfsizlik sektorining turli jabhalari haqida texnik, moliyaviy va qonuniy bilim, malaka va salohiyatga ega bo'lishi lozim.

62 - izoh

Gruziya parlamenti va byudjet nazorati

2001 yil so'nggida Gruziya parlamenti a'zolari 2002 yilgi byudjet muhokamasini bir oyga qoldirdi. Sabab hukumat byudjet loyihasini juda kech taqdim etdi. Qonunchilar xarajatlar hisobi yuzasidan kelisha olmadi va debatlariga vaqt qolmadi. Biroq Gruziya Mudofaa vazirligi amerikalik mutaxassislar ko'magi bilan ilk bor mudofaa byudjeti dasturini ishlab chiqdi. Qonun chiqaruvchilar qurolli kuchlarning tuzilish strukturasi bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'lib, mudofaa sarf-xarajatlari borasida tasavvur hosil qildi. Byudjet loyihasi NATO standartlari asosida yozildi. Xarajatlar uch qismga bo'lindi: kadrlar, harbiy ta'mir-ta'minot va sarmoya.

Parlament byudjetni 2002 yilning yanvarida ma'qulladi. Muammo shundaki a) prezident, moliya vaziri va mudofaa vaziri mudofaa xarajatlari haqida turlicha fikr bildirdi; b) byudjetdagi ayrim raqamlar oxirgi daqiqada qonunchilarga tushuntirmagan holda o'zgartirildi; c) parlament a'zolariga mudofaa vazirligida kadrlarni kamaytirish rejasi va buning moliyaviy ta'siri haqida bildirilmadi. Shuningdek, hukumat agentliklarining xarajati, byudjet qonuniga kiritilmagan hisoblar, parlament nazoratidan chetda qoldi.

Parlament mudofaa uchun faqat 38 million GEL ajratdi. Vaholanki mudofaa byudjeti dasturi uchun 71 million GEL zarur edi. Mablagni hukumat organlari o'rasida qanday taqsimlanishini prezident va Davlat Xavfsizlik Kengashi hal qiladigan bo'ldi. Parlament loyihani keng muhokama qilmay va uni shu asosda maq'ullamay, byudjet ustidan demokratik nazorat o'rnatish imkoniyatini boy berdi.

Manba: David Darchiashvili,
Gruziya parlamentining tadqiqot bo'limi rahbari, 2002.

Qonunchi sifatida nima qila olasiz?

Effektiv mustaqil audit

- ▷ Konstitutsiya yoki qonunchilik Oliy Audit Idorasi tashkil etilishini ta'minlasin va unda:
- davlat audit idorasi va parlament o'rtasidagi aloqalar aniq belgilansin;
 - davlat audit idorasi, uning xizmatchilari va rasmiylari mustaqil holda ishlay olsin va moliyaviy mustaqillikka ega bo'lsin;
 - parlament audit idorasi va davlat hisoblari bo'yicha qo'mita taqdim etgan ma'lumotlarni izchil ko'zdan kechirsin va hukumatning ular yuzasidan bergan javobi va ko'rgan choralarni kuzatsin.



Audit Qoidalari bo'yicha Lima Deklaratsiyasi, Oliy Audit Idoralari Xalqaro Tashkiloti Internet sahifasi www.intosai.org da chop etilgan tamoyillar, mamlakatingiz qonunchiligida o'z aksini topsin va amalga oshirilsin.

Qonuniylik auditi, tartib auditi and ijro auditi

- ▷ Davlat audit idorasi xavfsizlik sektori byudjetini yuqoridagi uch tartibda tekshirsin.
- ▷ Xavfsizlik bobidagi xarajatlar auditiga qarab, parlament, ayrim hollar-da kech bo'lsa-da, saboq olsin va kelasi safar mablag' ajratishda o'sha tajribaga tayansin.
- ▷ Audit hisobotlari ko'pincha moliyaviy ma'lumot bilan cheklanadi. Audit idorasi alohida loyihalarni izchil tekshirsin. Mutaxassis yetishmagan taqdirda chetdan maslahatchilar yollab, byudjetni tahlil qilsin.
- ▷ Audit idorasi xavfsizlik xizmatlarining moliyaviy bo'limlari faoliyatini ham ko'zdan kechirsin.

Yettinchi qism

Xavfsizlik sektori kadrlari:

**Professionalizmni ta'minlash
va demokratik nazorat**

Xavfsizlik sektorini demokratlashtirish

Harbiylar jamiyatning bir qismiga aylanishi va demokratiyaga tahdid solmasligi uchun qurolli kuchlar demokratik ta'lim va tarbiya olishi lozim. Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, armiya demokratik nazorat qilinmasa va aholidan ajralib qolsa, erkin yoki erkinlikka intilayotgan tuzum qator xavflar bilan yuzlashadi:

- ✓ nokonstitutsion ta'sir kuchi yoki hukumatning harbiylar tomonidan ag'darilishi;
- ✓ noqonuniy harbiy va tijoriy faoliyatlar;
- ✓ haddan tashqari ko'p mablag' yemirish, jamiyatning boshqa sohalaridan o'g'irlash;
- ✓ xalq pulini va mulkini suis'temol qilish;
- ✓ inson huquqlarini buzish (masalan, talon-taroj, o'g'rilik, zo'ravonlik va jinsiy tahqirlash hollari).

Xavfsizlik sektori xodimlari orasida demokratik qarashlarni shakllantirish usullari

Qurolli kuchlar orasida demokratiyani targ'iboti harbiy tashkilotlarda demokratik qadriyatlar, institutlar va inson huquqlarini hurmat qilishga o'rgatuvchi tuzilmalar tashkil qilishni talaba qiladi. Bu ichki mexanizmlar parlament, hukumat, qolaversa butun jamiyatga harbiy sektor ustidan nazoratni ta'minlashga yordam beradi. Quyida armiyani demokratlashtirishda ko'maklashuvchi omillar keltiriladi.

Konstitutsiya va davlat idoralariga sodiqlik

Xavfsizlik kuchlariga ular jamiyat xizmatida ekani, qonun ustuvorligi, konstitutsiya va davlat organlari hurmat qilinishi zarurligi uqtirilmog'i lozim. Askarlar va demokratik jamiyatning boshqa qo'riqchilari biror siyosiy rahbar emas, konstitutsiya va davlatga sodiq bo'lish uchun qasamyod qiladi. Bunday "noshaxsiy" qasam amaldagi hukumatga emas, xalq vakillari tomonidan qabul qilingan konstitutsiya va boshqa qonunlarga rioya qilish oliy maqsad ekanini aks ettiradi. Harbiylarni nazorat qilish uchun ular qasamyodi mazmuni va undagi va'da qanday amalga oshirilishiga ham e'tibor berish kerak.

Xavfsizlik sektorida kuchli ichki intizom

Xavfsizlik sektorida ichki tartib bilan bog'liq qonunlar demokratik nazorat nuqtai nazaridan tadbiq etilmog'i lozim:

- ✓ Zobitlarning konstitutsion huquqlarini cheklash;
- ✓ Majburiy xizmat va harbiy xizmat turlari haqidagi qonun, harbiy jinoyat kodeksi, Jeneva konvensiyalari yuzasidan hujjatlar qabul qilish yoki ularni qayta ko'rib chiqish;
- ✓ Noqonuniy buyruqni tan olmaslik burch ekanini targ'ib qilish.

Konstitutsiya fuqarolarga huquq va erkinliklar kafolatlaydi, ammo ko'plab davlatlarda harbiy xizmatchilarning huquqlari maxsus vazifalar sabab cheklanishi mumkin. Harbiylar boshqa fuqarolar bilan teng huquqqa ega, chunki ular formadagi fuqarolar. Biroq harbiylar maxfiy hujjatlar bilan ishlagani va xavfsizlikni ta'minlash uchun safarbar etilishi tufayli ularning so'z, harakat va siyosiy lavozimlarga saylanish huquqiga muayyan darajada tosiqlar qo'yiladi. Barcha demokratik mamlakatlarda ham shunday emas. Masalan, Skandinav davlatlari, Germaniya va Niderlandiyada harbiylar kasaba uyushmalari tuzishi va ularga a'zo bo'lishi mumkin. Ayrim davlatlarda esa vakillik tashkilotlariga ruxsat beriladi xolos. Bu cheklovlar bo'ysunish qonunlariga asoslanadi va harbiy darajasi, lavozimi va davlat xavfsizligiga ahamiyati bilan bog'liq.

Harbiy vakillik tashkilotlari va uyushmalar

Ko'ngilli va majburiy harbiy xizmat manfaatlarini himoya qilish uchun ko'plab davlatlarda zobitlarga kasaba uyushmalari tuzish yoki ularga a'zolikka kirish man etiladi. Odatda bu taqiq ortida uyushmalar qurolli kuchlar tizimidagi tartib va ahloqni buzilishiga olib boradi degan fikr yotadi. Inson Huquqlari va Fundamental Huquqlar bo'yicha Yevropa Konvensiyasining 11-moddasiga binoan harbiy xizmatchilarga vakillik tashkilotlari, hatto kasaba uyushmalari faoliyati uchun sharoit yaratilgan mamlakatlar ham bor. Jumladan, Avstriya, Belgiya, Chexiya Respublikasi, Daniya, Finlandiya, Germaniya, Irlandiya, Lyuksemburg, Niderlandiya, Norvegiya, Portugaliya, Rossiya, Slovak Respublikasi, Sloveniya, Shvetsiya va Shveysariya kiradi. Bu jamiyatlardagi vakillik tashkilotlari va harbiy kasaba uyushmalari turiga qarab turli huquqlarga ega. Ularning hammasi mudofaa vaziriga maslahat bera oladi. Ayrimlariga esa hatto mehnat shartnomalari yuzasidan muzokara olib borish erkinligi berilgan. Bu tashkilotlar zobitlar sog'lig'ini saqlash va xavfsiz sharoitda ishlashi uchun kurashadi. Harbiylar va ular ishlaydigan idora o'rtasida kelishmovchilik chiqqanda uyushmalar xizmatchi huquqlarini himoya qiladi. Yevropada harbiylar uchun ikki yirik tashkilot ishlaydi. Biri, EUROMIL – Yevropa Harbiylari tashkiloti Bryusselda joylashgan bo'lib, darajasidan qat'iy nazar barcha zobitlar manfaatlarini muhofaza qiladi. Ikkinchisi, Majburiy Xizmat bo'yicha Tashkilotlarning Yevropa Kengashi deb ataladi va Stokgolmda asoslangan.

63 - izoh

Qurolli kuchlar a'zolarining kasbiy uyushish huquqi yuzasidan Yevropa Kengashi maslahatlari

1. Parlament Assambleyasi shuni qayd etadiki qurolli kuchlarning professional a'zolari normal vaziyatda uyushish huquqiga ega, ammo norozilik namoyishi qilish taqiqlangan...



4. O'tgan yillar ichida ayrim a'zo davlatlarning armiyalari majburiy xizmatni bekor qilib, professional xizmat tizimini joriy etdi. Natijada harbiy xodimlar tobora "odatiy" ishchiga aylanib bormoqda. Ish beruvchi esa Mudofaa vazirligi bo'lib, Inson Huquqlari va Yevropa Ijtimoiy Xartiyasi bo'yicha Yevropa Konvensiyasida qayd etilganidek, ishchilar huquqini kafolatlashi lozim.
5. Qurolli kuchlar a'zolari, formadagi fuqarolar sifatida, armiya tinch paytda, kasbiy uyushmalarga birlashishi, ularga qo'shilishi va faollik ko'rsatishi mumkin. Burchini o'tayotgan zobitlar bu tashkilotlar orqali o'z kasbiy manfaatlarini demokratik ravishda himoya qila olsin.
6. Harbiylar fuqaro huquqlariga, xususan, qonuniy siyosiy partiyalarga a'zolikka kira olsin.
7. Shu maqsadda Assambleya Vazirlar Qo'mitasidan a'zo davlat hukumatlariga quyidagilarni tavsiya qilishni so'raydi:
 - i. qurolli kuchlar a'zolari va harbiy xizmatchilarga o'z uyushmalarini tuzishga ruxsat berilsin va ularga maosh va mehnat shartlari yuzasidan muzokaralar olib borish huquqi berilsin;
 - ii. qurolli kuchlar a'zolarining uyushish huquqiga qo'yilgan ortiqcha cheklovlar olib tashlansin;
 - iii. qurolli kuchlar a'zolari qonuniy siyosiy partiyalarga a'zolikka kirishi uchun yo'l berilsin;
 - iv. bu huquqlar harbiy qonun-qoida va a'zo davlatlar kodekslaridan joy olsin;
 - v. Mehnat va xizmat borasida kelishmovchiliklar yuzaga kelganda harbiy xizmatchi shikoyat qila oladigan Ombudsman idorasi tuzish masalasi ko'rib chiqilsin.
8. Assambleya Vazirlar Qo'mitasini Yevropa Ijtimoiy Xartiyasini qayta ko'rib chiqib, 5-moddani quyidagicha o'zgartirishga chaqiradi: "Ishchi va ish beruvchi mahalliy, umumamlatkat yoki xalqaro tashkilotlar tuzib, ularga a'zo bo'lib, o'z iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlarini himoya qilishi davlat qonunida cheklanmaydi. Bu moddadagi huquqiy kafolatlar ichki ishlar va qurolli kuchlarga qanchalik tegishli ekani davlat qonun- qoidalarida ko'rsatiladi".

1572-tavsiya (2002)

Yevropa Parlament Assambleyasi Kengashi, 3 sentabr 2002

Muhim asos va me'yorlar haqida ta'lim berish

Harbiy ta'lim shunday yuritilsinki, tizim sodiq, fidoiy va salohiyatli mutaxassislar yetishtirsin. Ularga siyosiy jihatdan neytral bilim berilsin. O'quv dasturlariga siyosiy mafkura va propoganda aks etmasin. Asosiy e'tibor demokratiya, konstitutsiya, xalqaro va insonparvarlik qonunlari hamd inson huquqlariga qaratilsin. Xavfsizlik sektorda demokratiya qadriyatlarini targ'ib etish uchun harbiylarga xalqaro insonparvarlik va inson huquqlari haqidagi qonunlarni o'qitish juda muhim. Parlament a'zolariga "Xalqaro Insonparvarlik Qonuni" haqida qo'llanmani o'qish tavsiya qilinadi. Kitobcha 1999 yilda Parlamentlararo Uyushma va Xalqaro Qizil Xoch Qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan. Xalqaro Qizil Xoch Qo'mitasi va BMT Inson Huquqlari Kengashi insonparvarlik va inson huquqlari haqidagi qonunlarni e'zozlash yo'lida texnik yordam ko'rsatadi.

Siyosiy neytrallik va xizmatdan xoli faollik

Xavfsizlik kuchlari siyosiy jihatdan betaraf bo'lishi lozim va shu sabab siyosiy partiyalarga harbiy qismlarda targ'ibot ishlari olib borish man etiladi. Ba'zi davlatlarda harbiylar xizmat davrida ham partiyalarga qo'shilishi mumkin bo'lsa, boshqalarida esa, ayniqsa, sobiq kommunistik jamiyatlarda, zobitlarga siyosiy faollik taqiqlangan. Masalan, Polshada ichki ishlar vazirligi xodimlari, xususan, maxfiy xizmat yoki polit-siya siyosiy partiyalarga kira olmaydi. Ko'pchilik mamlakatlarda harbiylar davlat parlamentiga saylana olmaydi. Lekin Niderlandiya va Germaniyada harbiylar xizmatda bo'lsa-da, mahalliy yoki mintaqaviy qonunchilik palatalariga saylanishi mumkin.

Xavfsizlik xizmatlari – jamiyat ko'zgusi

Qoidaga ko'ra xavfsizlik xizmatlaridagi barcha ish o'rinlari jins, siyosiy qarash, sinf, irq yoki dinidan qat'iy nazar hamma fuqarolar uchun ochiq bo'lishi kerak. Tanlovni salohiyat va bilim belgilashi lozim. Ko'plab davlatlar xavfsizlik kuchlari, ayniqsa polit-siya va qurolli kuchlar jamiyat ko'zgusi bo'lishi kerakligini tushunadi. Bu mamlakatlarda xizmatga jamiyatning har bir qatlamidan vakillar tanlash uchun maxsus siyosiy qoidalar joriy etilgan. Ozchilikni tashkil etuvchi guruhlariga e'tibor beriladi.

Noqonuniy va huquqbuzar buyruqlarga bo'ysunmaslikni qonuniylashtirish

Xavfsizlik xizmatlari faoliyatiga tegishli har bir element - maqom, qamrov, amaliyot, hamkorlik, vazifa, hisobot, burch va nazorat qonunda belgilangan. Barcha vakolatlar qonunda ko'rsatiladi. Armiyada askarlar uchun harbiy xizmat qonunlari yoki harbiy jinoyat kodeksi kabi hujjatlar buyruqqa qachon bo'ysunish va bo'ysunmaslik borasida maxsus ko'rsatmalar beradi. Qo'mondon buyruq berayotganda qonunga binoan ish tutishi shart. Bu uning vakolatlari cheklanganini bildiradi. Noqonuniy buyruqlarga bo'ysunmaslik esa xizmatchining burchidir. Zobit uni jimoyatga undovchi buyruqqa yo'q deyishi shart. Shuningdek, harbiy uning xizmat doirasiga kirmaydigan ishni qilishdan yoki inson huquqlarini buzishdan bosh tortishi kerak. Bu degani yuqoridagilar qanday buyruq bergan bo'lmasin, zobit har bir qilmishi uchun shaxsan javobgarlikka tutiladi.

Harbiy rahbariyat demokratiya va konstitutsiyani e'zozlashda va ahloq jihatdan butun xavfsizlik kuchlariga namuna bo'lmog'i lozim. Bosh qonunni buzish va ahloqsizlik jazolanadi degan qoida ostida ishlash kerak. Bu, ayniqsa, sobiq harbiy diktaturalar qurolli kuchlari faoliyatida chuqur ahamiyat kasb etadi. Masalan, Argentinada demokratik tuzum tiklangach mamlakat bosh generallari ongsiz va ahloqsiz buyruq berish va unga bo'ysunish qonunbuzarlikdir degan shior bilan chiqqan. Bunday bayonot bilan qo'mondonlik, askar jinoiy va ahloqsiz qadamlari uchun o'zi javob beradi va buyruqqa bo'ysunganini ro'kach qila olmaydi, demoqda.

Xavfsizlik kuchlari safida qonunbuzarlikni cheklashning yana bir samarali yo'li kasbiy ahloqsizlik, xalqaro insonparvarlik qonunlari va inson huquqlarini buzish tegishli ma'muriy yoki adliyaviy organlar tomonidan jazolanishini ta'minlashdir.

Xavfsizlik kuchlari bosh rahbarini tayinlash uchun shartlar

Xavfsizlik xizmatlaridagi yuqori lavozimlar, jumladan, qurolli kuchlar qo'mondoni yoki razvedka xizmatlari rahbari vazirlar mahkamasi yopki mudofaa vaziri tomonidan tayinlanadi. Ayrim davlatlarda yuqori darajali harbiy lavozimlarga nomzodlar parla-

ment muhokamasidan va tasdig'idan o'tishi lozim. Bu o'rinlar siyosiy rahbariyat tomonidan tayinlansada, kimning tanlanishini asosan kasbiy shartlar belgilab beradi.

Xavfsizlik boshqarmasidagi fuqaro lavozimlari

Samarali boshqaruvni ta'minlash uchun xavfsizlik xizmatlari, xususan, qurolli kuchlar harbiy emas, fuqaro tomonidan boshqarilishi kerak. To'g'ri qarorlar qabul qilish tegishli vazirlikdan nafaqat generallar, balki fuqarolar maslahatiga ham tayanishni talab qiladi.

Professional etika

Professional etika amaliy tajriba, qonun-qoida va siyosatga asoslanadi. Harbiylar davlat idoralari bilan ishlaydi va konstitutsiyaga rioya qiladi. Ular jamoat xizmatida bo'lishga, vazifa va burchni astoydil va samarali o'tashga, vakolatni va xalq mulki va mablag'ini suist'emol qilmaslikka so'z beradi. Kasbiy etika majburan emas, xohish bilan rioya qilinadigan qoidadir. Xohish shunga asoslanadiki, zobit konstitutsiya va davlat idoralari hurmat qiladi, chunki u jamiyatni demokratik qadriyatlar tebratishiga ishonadi.

Ko'plab mamlakatlarda harbiylar uchun ahloqiy kodekslar qabul qilingan. Quyidagi 64-izohda Germaniya qurolli kuchlarining professional etikasi tasvirlanadi.

64 - izoh

Germaniya qurolli kuchlarida yetakchilik va ijtimoiy ta'lim: "Innere Führung" tamoyili

"... Ikkinchi Jahon Urushi ketidan Bundesverni tashkil etish muhokama qilinganda, "Innere Führung" (xavfsizlik kuchlarini ahloq va ta'limga asoslangan holda boshqarish) qurolli kuchlarni isloh qilish va eski odatlardan vijdonan voz kechishning ma'qul yo'li deya ko'rilgan.

... "Innere Führung" bir tomondan Bundesverning ichki tuzilmasini belgilab beradi. Ikkinchi tomondan esa qurolli kuchlarning davlat va jamiyat bilan uyg'unlashishi uchun zamin yaratadi.

... "Innere Führung" fuqaro erkinliklari va zobitlarning fuqaro sifatidagi huquqlari hamda harbiy burch talablari o'rtasidagi tafovutni kamaytiradi. Yuqori lavozimli zobitlar konstitutsiya asosi – inson va uning huquqlarini hurmat qilishi shart...

Tashqi tomondan, Bundesverning maqsadi qurolli kuchlarni davlat va jamiyatga yaqinlashtirish va harbiy xizmatchilar orasida fuqarolik hissini shakllantirish ... Toki Bundesver "davlat ichidagi davlat" ga aylanib qolmasin. Qurolli kuchlarning jamiyatdan ajralib qolishi hamisha shunday xavf tug'dirib kelgan.

"Innere Führung" quyidagi maqsadlarni ko'zlaydi:

- ▷ Qurolli kuchlarning Bundesverning siyosiy va qonuniy asosi haqidagi bilimini oshirish va ularga harbiy xizmat maqsadi va mazmuni haqida tushuntirish;



- ▷ Bundesver va harbiy kuchlarni davlat va jamiyatga yaqinlashtirish hamda jamoatchilik orasida ularning rolini targ'ib qilish;
 - ▷ Harbiy xizmatchilarning o'z vazifa va burchlarini vijdonan o'tashiga hissa qo'shish va qurolli kuchlar orasida odob va tartibni saqlash;
- Qurolli kuchlarning ichki tuzilmasi inson va uning huquqlari, qonun va konstitutsiyani qadrlashga asoslanishini ta'minlash va harbiy xizmat ko'zlangan maqsad yo'lida amalga oshirilsin.

Manba: Germaniya Federal Parlamenti sayti www.bundestag.de

Xalqaro maydonda demokratik jamiyatlarda professional harbiy ahloq haqida ikki kodeks vujudga kelgan. Biri 1979 yilda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Huquq-Tartibot Xodimlari Xalqaro Kodeksidir (65-izohga qarang). Bu umumiy qoidalar jamlanmasi bo'lib, nafaqat formadagi xizmatchilar, balki huquq-tartibot tizimida ishlovchi barcha fuqarolardan unga rioya qilish kutiladi.

65 - izoh

Qonun-tartibot xodimlari uchun ahloqiy qoidalar

Bosh Assambleya tomonidan 1979 yilning 17 dekabrda qabul qilingan 34/169 – rezolyutsiya

1 - modda – Qonun-tartibotga javobgar xodimlar doimo qonunda belgilangan burchlarini ado etib, jamoatchilik manfaati uchun xizmat qiladi. Ular kasbiy mas'uliyatlariga yuksak darajada yondashgan holda barcha fuqarolarni jinoyatdan himoya qiladi.

2 - modda – Qonun-tartibot xodimlari o'z xizmatini ado etarkan, insonni qadrlaydi va uning huquqlarini e'zozlab, ularni himoya qiladi.

3 - modda – Qonun-tartibot xodimlari faqat o'ta zarur bo'lgandagina kuch ishlatishi mumkin va bunda burch chegarasidan chiqib ketmaydi.

4 - modda – Qonun-tartibot xodimlari faoliyati bilan bog'liq maxfiy ma'lumotlarni sir saqlaydi, ammo burch va adolat talab qilsa, masalalar omma-ga oshkor etiladi.

5 - modda – Qonun-tartibot xodimlari qiynoq yoki boshqa har qanday noinsoniy munosabat yoki jazo turini qo'llamaydi, unga boshlamaydi yoki toqat qilmaydi. Qonun-tartibot xodimlari favqulodda holatlar, xususan, urush yoki urush tahdidi, davlat xavfsizligiga tahdid, ichki beqarorlik yoki boshqa tartibsizliklarga qarshi kurashni fuqarolarga nisbatan qiynoq yoki boshqa beshafqat munosabat yoki jazo bilan oqlamaydi.

6 - modda – Qonun-tartibot xodimlari hibsdagi barcha insonlar sog'lig'ini saqlash uchun javobgarlikni o'z bo'yniga oladi va zarur bo'lganda tibbiy yordam bilan ta'minlaydi.

7 - modda – Qonun-tartibot xodimlari korrupsiyaga qo'l urmaydi. Ular bunday qonunbuzarliklarga qarshi kurashadi.

8 - modda – Qonun-tartibot xodimlari qonunga va mazkur kodeksga bo'y-sunadi. Ular o'z salohiyatidan kelib chiqqan holda qonun buzilmasligi uchun va jinoyatlarga qarshi kurash olib boradi. Qonun-tartibot xodimlari mazkur kodeks buzilgani yoki buzilishi mumkinligi haqida xabar topsa, bu haqda rahbariyatga va chora ko'rish kuchiga ega boshqa tegishli rasmiy yoki idoralarga ham ma'lum qiladi.

Eslatma: Yuqoridagi moddalarning har biri alohida sharhga ega va bu izohda keltirilmaydi. Kodeks bilan www.UN.org da to'liq tanishish mumkin.

Xalqaro miqyosdagi ikkinchi harbiy etika majmuasi Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotida ishlab chiqilgan Xavfsizlikning Siyosiy-Harbiy Jihatlarini bo'yicha Ahloqiy Kodeksdir (66-izohga qarang). Kodeks xavfsizlik sohasining barcha jabhalariga tegishli bo'lib, qurolli kuchlar a'zolari uchun kasbiy qo'llanma hisoblanadi. U harbiy xizmatchilardan qonun, demokratiya, betaraflik, inson huquqlariga hurmat bilan yondashishni va xalqaro insonparvarlik qonunlariga bo'ysunishni talab qiladi. Mazkur qoidalarda qayd etilishicha harbiylar insonparvarlik qonunlarini buzgani uchun shaxsan javobgarlikka tortilishi mumkin. Kodeksda mahalliy adliyaga doir masalalar ham tilga olinadi. Hujjat Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotiga a'zo davlatlar tomonidan 1994 yilda imzolangan va shundan beri bu mamlakatlar qo'shin yo'llash, o'qitish, tayyorlash va boshqarish bobidagi me'yorlarni o'zlashtirib kelmoqda. Chunonchi kodeksga ko'ra qurolli kuchlarning kasbiy mahoratini oshirish ular ustidan demokratik nazorat o'rnatishni osonlashtiradi.

66 - izoh

Xavfsizlikning siyosiy-harbiy jihatlarini yuzasidan YXHT Ahloqiy Qoidalari (1994)

- ▷ Ichki kuchlar deganda razvedka xizmati, yarimharbiylar va politsiya xodimlari tushuniladi. Demokratik rahbariyatning o'z vakolatlariga tayangan holda xavfsizlik kuchlari ustidan demokratik nazorat o'rnatishi har bir davlat uchun burchdir (20 va 21-paragraflar);
- ▷ Mudofaa byudjeti parlament tomonidan tasdiqlanadi va harbiy sarf-xarajat qilishda mablag'ni ayashga undaladi. Qurolli kuchlar bilan bog'liq ma'lumotlar omma oshkor etiladi (22-paragraf);
- ▷ Qurolli kuchlar siyosiy jihatdan neytral bo'ladi (23-paragraf);
- ▷ Qurolli kuchlar a'zolari xalqaro insonparvarlik qonunlarini buzgani uchun shaxsan javobgar tutiladi (31-paragraf);
- ▷ Qurolli kuchlar urush yo tinchlik bo'lishidan qat'iy nazar xalqaro qonunga muvofiq ravishda boshqariladi, faoliyat yuritadi, tayyorlanadi va zarur vositalar bilan ta'minlanadi (34-paragraf);
- ▷ Ichki xavfsizlik amaliyotlarida kuch ishlatish qarori qonunni tadbiq etishga asoslanishi lozim. Qurolli kuchlar fuqaro va uning mulkiga zarar yetkazmaslik uchun qo'ldan kelgan barcha chorani ko'radi (36-paragraf);
- ▷ Inson huquqlari va fuqaro erkinliklari qurolli kuchlar vositasida cheklanmaydi. Aholiga bu huquqlardan tinch va qonunon foydalanish uchun yo'l beriladi. Qurolli kuchlar fuqarolarni milliy, diniy, madaniy, til yoki etnik boyliklaridan ayira olmaydi (37-paragraf).

Manba: YXHT Ahloqiy Kodeksi, VII va VIII qismlar. YXHT sayti: www.osce.org dan OSCE va YXHT Ahloqiy Kodeksi sayti: http://www.osce.org/docs/english/1990-1999/summits/buda94e.htm#Anchor_COD_65130

Harbiy adliya

Harbiy tartib harbiy vazifa va maqsadlar hamda ularning shartlariga asoslanadi. Harbiy sohada jinoyat o'ziga xos ta'rifga ega. U aholi orasidagi jinoyat tushunchasidan ancha farq qiladi. Fuqaro xizmatchi o'z vazifasini bajarishdan bosh tortsa yoki

uddasidan chiqsa olmasa jinoyat javobgarlikka tutilmaydi. Xizmatchi ishdan haydalishi mumkin yoki boshqa joyga ishga kirish uchun tavsiyanoma olmaydi, ammo jinoyat sudga tortilmaydi. Harbiy esa xizmat joyini tark etgani yoki vazifani maxsus me'yor va talablar asosida bajarmasa jinoyat choralari bilan yuzlashadi. Bunday hatti-harakatlar nafaqat mas'uliyatsizlik deb qabul qilinadi, balki boshqa harbiy xizmatchilar manfaatiga va xavfsizligiga rahna solishi mumkin. Soxta ma'lumotlar bilan yollanish, xizmatni tark etish yoki undan qochish, xizmatdan ruxsatsiz ketish, yuqori darajali zobitlarni hurmat qilmaslik, qozg'olon ko'tarish, dushmanga yordam berish va xizmat paytida uxlash ham harbiy sohada jiddiy jinoyatlardir.

Qanday jinoyatlar harbiy va qanday jinoyatlar fuqaro sudida tortilishi kerak? Qoidaga ko'ra harbiy sudlar cheklangan ravishda faoliyat yuritishi, fuqaro sudlari iloji boricha ulardan ustun qo'yilishi kerak. Harbiy adliya harbiy vazifani o'tash paytida yo'l qo'yilgan jinoyatlarni ko'rib chiqishi lozim va harbiy ahloq kodekslari fuqaro jinoyat qonunlaridan o'tib ketmasligi lozim.

Ko'pchilik davlatlarda harbiy sudlar mamlakat adliya tizimiga kirmaydi. Ular qurolli kuchlarning ma'muriy tribunali bo'lib, ijroiya organining bir qismi hisoblanadi. Bu degani harbiy sudyalarning konstitutsion talablarga binoan tayinlanmaydi. Biroq harbiy sudlardagi jarayonlar davlat adliyasi tomonidan kuzatib borilishi shart. Ko'plab mamlakatlarda harbiy adliyani kuzatish fuqaro apellyatsion sudlariga topshirilgan.

Qonunchi sifatida nima qila olasiz?

Quyidagilarni ta'minlang:

1. Harbiy xizmatchilar shaxsga emas, konstitutsiya, qonun ustuvorligi va davlat tizimiga sodiqlik uchun qasamyod qilsin.
2. Harbiy tayyorgarlikdan o'tkazishda zobitlarga demokratik qadriyat va me'yorlar, fuqaro huquqlari va insonparvarlik qonunlari o'qitilsin.
3. Harbiylar parlamentga saylanmasin.
4. Yangi askar va zobitlar kasbiy talablarga asosan tanlansin.
5. Harbiylarning jinoyat va qonunbuzar buyruqlarga bo'ysunmasligi qonuniy harakat deb belgilansin.
6. Harbiy etika ko'ngilli ravishda amal qilinadigan qoida bo'lsin va ahloqiy kodekslarda o'z aksini topsin.
7. Harbiy adliyadan iloji boricha kamroq foydalanilsin va harbiy sud hukmlari fuqaro jinoyat sudlarida qayta ko'rib chiqilsin.
8. Xavfsizlik xizmatlari ham qonuniy, ham amaliy jihatdan davlatning barcha asosiy konstitutsion elementlari oldida javob bersin. Xavfsizlik xizmatlarining ichki tuzilmasi qonunda belgilansin. Unga binoan tartibsizlik va shikoyatlar ichki tekshiruvdan o'tsin hamda javobgar tomonlar jazolansin. Bu mexanizmlar to'g'ri ishga solinsin va samara bersin. Parlament mustaqil tekshiruvlar talab qilsin va gumon ostidagi xizmatchilar tergov qilinsin.



Harbiylarning fuqaro huquqlari

- ▷ Harbiy xizmatchilarning ish saviyasini oshirish va siyosiy neytralligini ta'minlash uchun ularning fuqaro huquqlarini qonun orqali cheklang.
- ▷ Lekin huquqni cheklash xavfsizlik xizmatlari bilan bog'liq alohida vaziyat va vazifaga tegishli bo'lsin. Masalan, harbiylar jamiyat ustidan kuch o'tkazmasligi uchun ular ayrim huquqlardan mahrum etiladi.
- ▷ Fuqaro huquqlari nima uchun cheklanishi tegishli idoralar tomonidan tushuntirilishi va bu boradagi shikoyatlar ko'rib chiqilishi lozim.

Bo'ysunish

- ▷ Harbiylarning, xususan, majburiy xizmatdagi askarlar uchun noqonuniy yoki ahloqsiz, xalqaro insonparvarlik qonunlari va inson huquqlari me'yorlariga xilof buyruqlarga bo'ysunmasligi burch ekani qonunda belgilansin.
- ▷ Bu burch xavfsizlik xizmatlaridagi tartib tizimi doirasida o'talsin.

Qonunbuzarlik va korrupsiya

- ▷ Xavfsizlik xizmatlarida tartibsizlik yoki qonunbuzarlik kuzatilsa, darhol chora ko'ring.
- ▷ Izchil tekshiruvlar buyuring va lozim topilsa, tegishli idoralar sanksiyasi asosida tergov olib borilsin.
- ▷ Xavfsizlik xizmatlari xodimlariga ikkinchi ishda ishlash yoki shaxsan va guruh sifatida tijoriy faoliyat bilan shug'ullanish qonun orqali taqiqlansin.

Xavfsizlik sektorida kadrlar boshqaruvi

Harbiy sohada ishlash jismoniy xavf, tinimsiz ko'chish, oiladan uzoqda bo'lish va boshqa majburiyatlarni talab qiladi. Parlamentlar harbiylik oddiy kasb emasligini anglashi lozim. Shu sabab kadrlar boshqaruvi to'g'ri yo'lga qo'yilishi kerak. Tanlov, yollash, kadrlar ta'minoti, maosh, ta'lim va rag'batlantirish tizimi mukammal bo'lmasa, xavfsizlik sektori taraqqiy etmaydi va soha demokratik tamoyillarga rioya qilmaydi. Natijada qonun va xalq manfaatlari ustuvor bo'lmaydi.

Parlamentlar xavfsizlik xizmatlarining kasbiy talablar asosida tashkil etilishi va faoliyat yuritishini kuzatib boradi. Qonunchilik organi kadrlar boshqaruvi rejasi tuzilishi va amalga oshirilishi va shu tariqa demokratik va professional ishchi kuchi vujudga kelishini ham ta'minlashi zarur. Hukumat ish beruvchi sifatida harbiy xizmatchilarga nisbatan adolatli munosabatdami? Maosh, ish sharoiti, moddiy yordam, pensiya va boshqa ijtimoiy imtiyozlar talabga javob beradimi? Bu borada tekshirib turish ham parlamentning burchidir.

67 - izoh

Kadrlar boshqaruvi: qonunchilar uchun dolzarb masalalar

Parlamentlar hukumatning xavfsizlik xizmati boshqaruviga doir takliflari yuzasidan quyidagilarni bilishi shart:

Siyosiy masalalar

- ▷ Parlamentdan xavfsizlik sohasi boshqaruvi bilan bog'liq qarorlarni byudjet doirasida yoki alohida hujjat sifatida tasdiqlash so'raladimi?
- ▷ Boshqaruv va harbiy tuzilma borasida qilinayotgan qarorlar byudjet va iqtisodiyotga mutanosibmi? O'zgarishlar uchun xarajatni mamlakat cho'ntagi ko'taradimi?

Qudrat va shartlar

- ▷ Parlament qurolli kuchlar, politsiya yoki maxfiy xizmat xodimlari sonini belgilaydimi?
- ▷ Parlament harbiy daraja egalari sonini cheklaydimi?
- ▷ Harbiy boshqaruv bilan bog'liq qarorlar jamoatga ko'rsatiladimi?
- ▷ Parlament har bir harbiy daraja egalari soni, maoshi, vazifasi va bo'sh o'rinlar haqida zarur ma'lumot oladimi?
- ▷ Xavfsizlik sohasidagi islohotlar xizmatchilar ishdan ketgach yuzaga keladigan ijtimoiy muammolarni hisobga oladimi?



Xizmatga yollash va tanlov

- ▷ Xizmat o'rinlari qonunan har bir fuqaro, jumladan, ayollar uchun qonunan ochiqmi?
- ▷ Harbiy xizmatga yollash tizimi ochiqmi yoki jamiyatning alohida bir qismi bu sohaga munosib ko'riladimi?
- ▷ Tanlovda kasbiy talablar qo'yiladimi?
- ▷ Xavfsizlik xizmatida qancha ish o'ri bor?
- ▷ Tanlovning birinchi bosqichidan o'tgach qancha odam xizmatga kirish qaroridan qaytadi?

Kadrlar ta'minoti

- ▷ Kadrlar yollanadi va ko'rsatgan xizmatiga qarab ko'tariladi degan qoida asosida ish yuritiladimi?
- ▷ Professional baholash tizimi mavjudmi?
- ▷ Bu tizim oshkora, xolis va adolatli ishlaydimi?
- ▷ Harbiy xizmat kasbiy o'sish imkoniyatini taklif qiladimi?
- ▷ Xizmatchi boshqa maoshli ish bilan shug'ullana oladimi?
- ▷ Yetakchi qo'mondonlar amaliy tajribaga egami va xorijda tinchlik misiyalarida xizmat qiladimi?
- ▷ Mudofaa vaziri yoki boshqa tegishli vazirlar yuqori lavozimlarga, masalan, bosh qo'mondonlikni kimni tayinlash yuzasidan parlament yoki qonunchilik qo'mitalari bilan mashalatlashadimi?

Maosh

- ▷ Harbiylarning maoshi boshqa kasb egalariniki bilan tenglasha oladimi? Xavfsizlik sohasi xodimlarining oyligi mehnat bozorida xususiy sektor bilan raqobatga chidaydimi?
- ▷ Maosh vaqtida to'lanadimi?
- ▷ Harbiylar qilgan xizmatiga qarab rag'batlantiriladimi?
- ▷ Harbiyning aslida qanday xizmat qilayotgani uning maoshiga ta'sir qiladimi?
- ▷ Harbiylarning maoshi soha vakillari va jamoatchilikka ayonmi?
- ▷ Nafaqa va iste'fo borasida qanday muammolar bor?
- ▷ Nafaqa tizimi qoniqarlami? Harbiy nafaqaga chiqqach nima yutadi yoki yo'qotadi?

Qonunchi sifatida nima qila olasiz?

Xavfsizlik xizmati vazifalari va hajmi

- ▷ Qurolli kuchlarga yuklangan vazifalar va qo'shin hajmi davlatning iqtisodiy salohiyatidan kelib chiqqan holda belgilansin.



Xavfsizlik xizmatida maosh

- ▷ Xizmatchining maoshi iqtisodiy va ijtimoiy talablarni qondirsin hamda mehnat bozorida raqobatga chidasin.
- ▷ Maosh vaqtida to'lsin.
- ▷ Maosh oz bo'lsa xavfsizlik xizmatining nufuzi tushadi va yoshlar bu sohaga qiziqmay qo'yishi mumkin.
- ▷ Maosh oz bo'lib, vaqtida to'lanmasa, xavfsizlik xizmatida korrupsiya, jinoyat va zo'ravonlik avj olishi mumkin.
- ▷ Harbiylar va ularning rahbarlariga taklif qilinadigan moliyaviy imtiyoz va siylovlar ularning siyosiy ta'sirga ega bo'lishi uchun imkon yaratmasin. Imtiyozlar nimadan iborat ekani jamoatchilikdan yashirilmasin. Hukumatning boshqa organlaridagi xizmatchilar uchun ham o'xshash sharoitlar yaratilsin. Harbiylar xavfli joylarda xizmat qilishga majbur ekanini hisobga olibgina, ularga alohida imtiyozlar berish mumkin.
- ▷ Nafaqa qoniqarli bo'lsin.

Harbiy xizmat va uning vijdonan rad etilishi

Deyarli har bir davlat konstitutsiyasiga ko'ra, mamlakatni mudofaa qilish fuqaroning burchi va oliy majburiyatidir. Ayrim jamiyatlarda harbiy xizmat majburiy bo'lib, har bir fuqaro hukumat zarur topganda qurolli kuchlar safiga qo'shilishi kerak degan talab qo'yiladi. Ko'pincha erkaklarga taaluqli majburiy xizmat faqat konstitutsiya emas, alohida qonunlarga binoan yo'lga qo'yiladi va quyidagilarni qoplaydi:

- ✓ Kim majburiy xizmatni o'tashi kerak?
- ✓ Xizmat muddati
- ✓ Xizmatni kechiktirish/ istisno hollari
- ✓ Xizmatga kirish jarayoni
- ✓ Xizmatdan qochish jazosi
- ✓ Minimum va maksimum yosh.

Ba'zi davlatlarda askarlarga qurolsiz yurish, xizmatni vijdonan rad etish va uning muqobil turlarini taklif etuvchi qonunlar bor.

Majburiy xizmatning ustun tomonlari

Ko'plab mamlakatlar majburiy xizmat tizimini ma'qul ko'radi. Asosiy sabablardan biri shuki ular nazarida bu kabi xizmat demokratiyani mustahkamlab, xalq shijoatini oshiradi. Biroq bugungi dunyoda majburiy xizmatni tanqid ostiga olayotganlar tomonlar ham talaygina. Qurolli kuchlar zamonaviylashib, o'z ko'rinishini yangilab borar ekan, majburiy xizmatning foydasi va maqsadi nima degan savol tug'iladi. Bir necha mamlakatlar bunday tizimdan voz kechgan yoki uni bekor qilish harakatida. Hatto zamonaviy majburiy xizmat degan tushunchani tanishtirgan jamiyat - Fransiya 2001 yilda uni yo'q qilishga qaror qildi. Mutaxassislar bashorat qilishicha, kelajakda katta sonli armiyalarga hojat qolmaydi. Ularning o'rnini faqat ko'ngilli xizmatchilardan tashkil topgan oz sonli, ammo ilg'or texologiyaga asoslangan tezkor qo'shinlar egallashi mumkin.

68 - izoh

Jahonda harbiy xizmat

Xizmat yoshi: Ko'pchilik davlatlarda harbiy xizmat 18 yoshda boshlanadi. Lekin armiyaga 16, 17, 19 yoki 20 da oladigan mamlakatlar ham bor. Ayrimlarida ayollar ham majburiy xizmatga chaqiriladi.

Xizmat muddati: Olti oydan uch yilgacha.



Xizmatni vijdonan rad etish va muqobil xizmat: dunyo davlatlarining yarmi bunga ruxsat beradi.

Majburiy xizmatdan bosh tortgan kishi ko'p hollarda qamoq jazosiga mahkum etiladi.

Manba: BMT Bosh kotibining Inson Huquqlari Komissiyasining 1995/83-rezolyutsiyasi uchun taqdim etgan hisoboti, 1997. E/CN.4/1997/99

Majburiy xizmatning ijobiy va salbiy tomonlari

Majburiy xizmatning ijobiy va salbiy tomonlarini tahlil qilishda, qonunchilar quyidagilarni yodda tutmog'i lozim:

Majburiy xizmat zarurati

Bu tizimni yoqlovchilar nazarida:

- ✓ Majburiy xizmat ko'pincha demokratiyaga bog'lanadi, chunki vatanni himoya qilish har bir fuqaro (ko'p hollarda erkak) burchi deb qonunda belgilangan. Demokratiyaga sinf, din yoki irqidan qat'iy nazar barcha fuqarolar teng hissa qo'shishi kerak. Bunda jinsning ham farqi yo'q. Ayol va erkak birdek jon kuydirishi zarur.
- ✓ Majburiy xizmatni o'tayotgan shaxslar formadagi fuqarolardir. Ular armiyani davlatga rahna solishdan saqlaydi. Bu fuqarolar jamiyat va qurolli kuchlar orasidagi ko'prikdir.
- ✓ Majburiy xizmatga asoslangan armiyalar ko'ngillilardan tashkil topgan harbiy kuchga qaraganda kamroq mablag' talab qiladi. Majburiy xizmatchilarga ko'ngilli askarlardan kamroq maosh to'lanadi.
- ✓ Majburiy xizmat jamiyatning turli qatlamlari vakillarini bir joyga to'playdi. Ular o'zlari bilan turlicha bilim va kasbiy tajriba olib keladi. Hisobchi, muhandisdan tortib, vodoprovodchi va dehqonlargacha. Armiya ular malakasidan katta foyda ko'radi. Ayniqsa, qaynoq nuqtalarda tinchlikni tiklash, urushni boshdan kechirgan mamlakatlarni qayta qurish va ichki tizimlarni yangidan barpo etishda turli kasb va ilmga ega askarlarning roli beqiyos.

Majburiy xizmatga qarshilik

Yirik armiyalar va majburiy harbiy xizmatga barham berish fursati yetdi deganlar nazarida:

- ✓ O'tgan chorak asr mobaynida, ayniqsa, Sovuq Urush tugaganidan beri ko'plab davlatlarda armiyalar kichrayib, kamroq odam majburiy xizmatga chaqirila boshladi. Natijada armiyaga chaqirish jarayoni adolatsiz olib borilyapti degan tanqid kuchaydi. Yevro-Atlantika davlatlarida armiyalar bugun ancha siyraklashgan. Ammo Afrika va Osiyoda bu hol ko'zga tashlanmaydi.

- ✓ Armiya tobora professional va ilg'or texnologiyaga tayanuvchi kuchga aylanmoqda. Askarlar xizmatga safarbar etilishdan avval maxsus tayyorgarlikda o'tishi, murakkab va zamonaviy qurollarga o'rganishi zarur. Majburiy xizmat muddati cheklangan ekan, askarlar bu texnologiya sirlarini egallashga ulgurmaydi. Armiya mahoratli va ko'ngilli askarlarga muhtoj.
- ✓ Tinchlik missiyalarini eplash uchun harbiylar turli tomonlar bilan muzokara qila olishi va kelishib keta olishi lozim. Majburiy xizmatga olinganlar tinchlikni tiklash ishlarini bajarish uchun yetarli bilim va malakaga ega emas.
- ✓ Ayrim davlatlar konstitutsiyasiga ko'ra davlat hududini himoya qilish uchungina majburiy xizmatga chaqirish mumkin. Bu askarlarni xorijiy missiyalarga yuborish man etiladi.

69 - izoh

Majburiy xizmatchiga bosim o'tkazilishi

Harbiy xizmatda yosh va keksa askarlar orasida norasmiy bo'ysunish tizimi bo'ladi. Keksalar yoshlarga armiyadagi qoida va odatlarni o'rgatadi. Bu armiya hayoti uchun juda muhim. Lekin ko'p hollarda sal tajribaga ega askarlar bu tizimni o'z foydasi uchun qo'llaydi. Bu harbiylar yangi kelganlarni majburan ishlatadi va ularga jismoniy zug'um o'tkazadi. Nazorat qilinmasa, vaziyat izdan chiqishi va yosh askarlar jismoniy va ruhiy tazyiq hamda zo'ravonlik qurboni bo'lishi mumkin. Majburiy Xizmat Tashkilotlarining Yevropa Kengashining (ECCO) ogohlantirishicha, yosh askarlarni ezish qattiq jarohat, nogironlik, hatto o'lim yoki o'z joniga qasd qilish hollariga yetaklaydi. Ularni bu xavflardan himoya qilish va armiya nufuzini saqlash uchun harbiy boshqaruvdan tazyiqlarning oldini olish talab qilinadi. Shuningdek, ichki va tashqi nazorat organlari tashvishli holatlarni tergov qilishi va zarur choralar ko'rishi hamda armiyada qonun ustuvorligini ta'minlashi lozim.

*Manba: Ilona Kiss, Tinchlik davridagi majburiy xizmatchi huquqlari, 2001 www.dcaf.ch
ECCO (Markaziy va Sharqiy Yevropada majburiy xizmatchilar huquqi bo'yicha Qora Kitob,
1996, <http://www.xs4all.nl/~ecco/>)*

Vijdoniy raddiya va muqobil xizmat

Ba'zida odamlar vatanni qurol bilan himoya qilishdan diniy yoki shaxsiy sabablar bilan bosh tortishi mumkin. Ayrimlar insonlarni o'ldirish gunoh deb bilsa, boshqalar har qanday zo'ravonlikni qoralaydi. Harbiy xizmatni rad etgani uchun ular sudga tortilishi, hatto oliy jazoga loyiq topilishi mumkin.

Lekin o'tgan yarim asr mobaynida armiyaga bormaslik va qo'lga qurol olmaslik ko'plab davlatlarda inson huquqi sifatida qarala boshladi va qonun sifatida qabul qilindi. Bu davr ichida Britaniya, Germaniya, Irlandiya, Niderlandiya, Belgiya, Lyuksemburg, Fransiya, Ispaniya, Italiya va Portugaliya majburiy xizmatni bekor qildi.

Qurol ko'tarish, harbiy tayyorgarlik yoki xizmatni vijdonan rad etuvchilar turli e'tiqod vakillari va xilma-xil falsafiy-siyosiy qarashlarga ega insonlardir.

Parlament qarori

Vijdoniy raddiya oddiy holga aylana ekan, parlamentlar fuqaro qanday vaziyatda bu huquqni ro'kach qilishi mumkinligini belgilovchi qonunlar ishlab chiqishga majbur bo'ldi. 1997 yilga kelib AQSh, G'arbiy Yevropadagi barcha davlatlar va Gretsiya harbiy xizmatdan vijdonan bosh tortish fuqaro erkinligi deya tan oldi.

Bu huquqni inkor etuvchi mamlakatlarda harbiy xizmatni o'tamaslik armiyadan qochish yoki vatanga xiyonat degan ayblovlar ostida sudga tortilish va og'ir jazolar olish demakdir. Qurolli kuchlar safiga kirmaslik ayrim davlatlarda alohida jinoiy-harbiy kodekslarga binoan jazolanadi.

Vijdoniy raddiya: kim qabul qiladi va nima asosda?

Fuqaroning harbiy xizmatdan nima sabab bosh tortayotganini aniqlash murakkab jarayon. Unda kishining shaxsiy qarashlari nima uchun armiyada mavjud mafkuraga tog'ri kelmasligi va insonning tarjimai holi izchil tekshirib chiqiladi. Armiyaga chaqirilayotgan erkak yoki ayolning xizmatni vijdonan rad etishga haqqi bor yoki yo'qligi haqida maxsus komissiya qaror chiqaradi. Bu komissiyalar Shveysariya, Bolgariyada mehnat vazirligi, Sloveniyada ichki ishlar vazirligi, Xorvatiyada esa adliya vazirligi qoshida faoliyat yuritadi.

Vijdonan bosh tortish – inson huquqi

2000 yilning aprel oyida BMT Inson Huquqlari Komissiyasi 1998/77-rezolyutsiyada ta'kidlangan tamoyillar asosida 2000/34-rezolyutsiyani ovozsiz qabul qilib, har bir shaxs harbiy xizmatdan vijdonan bosh tortish huquqiga ega va bu uning fikr, vijdon va e'tiqod erkinligi bilan chambarchas bog'liq deya bayon qildi. Mazkur fundamental huquqlar BMT Inson Huquqlari bo'yicha Umumjahon Deklaratsiyasi hamda Fuqaro va Siyosiy Erkinliklar Xalqaro Konvensiyasida bitilgan. 1993 yilda BMT Inson Huquqlari Qo'mitasi vijdoniy raddiya yuqorida tilga olingan xalqaro konvensiyaning 18-moddasiga asoslanadi deb chiqdi. Ushbu moddada "qonli kuch ishlatish majburiyati insondan o'z e'tiqod va ishonchiga qarshi harakat qilishni talab qilishi mumkin" deyiladi. BMT Inson Huquqlari Qo'mitasining qayd etishicha "Insonning bu huquqi qonun yoki amalda tan olinganda, u diniy jihatdan yoki harbiy xizmatni o'tamagani uchun kamsitilmaydi".

70 - izoh

BMT Inson Huquqlari Komissiyasining 1998/77-rezolyutsiyasi: harbiy xizmatdan vijdonan bosh tortish

Komissiya,

Inson Huquqlari bo'yicha Umumjahon Deklaratsiyasi va Fuqaro va Siyosiy Huquqlar Xalqaro Konvensiyasiga binoan har bir inson ozod va xavfsiz yashash huquqiga, shuningdek, fikr, vijdon, e'tiqod va kamsitilmaslik erkinligiga ega ekanini tan olgan holda;



Harbiy xizmatdan vijdonan bosh tortish vijdon erkinligi, diniy ishonch va ahloqiy me'yorlar, insonparvarlik prinsiplari va shu singari boshqa sabablarga asoslanishini tan olgan holda shuni:

1. Shuni qayd etadiki, Inson Huquqlari bo'yicha Umumjahon Deklaratsiyasining 18-moddasi va Fuqaro va Siyosiy Erkinlar Xalqaro Konvensiyasining 18-moddasiga binoan har bir inson harbiy xizmatni fikr, vijdon va e'tiqod erkinligiga asoslanib rad etishi mumkin.
2. Shuni olqishlaydiki, ayrim davlatlar raddiyani tekshiruvsiz ham qabul qiladi;
3. Shunga chaqiradiki, bu borada mustaqil va xolis qaror qiluvchi tizimlar mavjud bo'lmagan davlatlarda xizmatni vijdonan rad etayotganlar hech bir jihatdan kamsitilmasin;
4. Shuni eslatadiki, harbiy xizmat majburiy bo'lgan va vijdoniy raddiya qabul qilinmaydigan davlatlarda armiyaga borishni istamagan shaxslarga muqobil xizmat turlari taklif etilsin. Ular harbiy-jangovar yoki huquq-tartibot tizimida emas, jamoat xizmatlarida ishlasin;
5. Shunga urg'u beradiki, davlatlar xizmatni vijdonan rad etganlarni qamashdan va qayta-qayta jazolashdan cheklansin. Qonun va sud tartibida jazo olgan yoki oqlangan shaxs eski ayblov bilan yana javobgarlikka tortilishi yoki jazolanishi mumkin emas...

Manba: BMT Inson Huquqlari Komissiyasining 1998/77 – rezolyutsiyasi

Muqobil xizmat

Vijdoniy raddiyani huquq sifatida tan oluvchi mamlakatlarning ko'pchiligi, tegishli qonun asosida, muqobil xizmat qilishni so'raydi. Bunday xizmatni ikki turga bo'lish mumkin:

- ✓ Qurolli kuchlar safida qurol ko'tarmay xizmat qilish;
- ✓ Ijtimoiy xizmat tizimida, xususan, kasalxonalar, bolalar bilan ishlaydigan muassasalar, nogironlar uyi va boshqa maskanlar; ba'zan nohukumat yoki hukumatlararo faoliyat yuritadigan tashkilotlarda ishlash.

Muqobil xizmat odatda harbiy xizmatdan ko'proq muddatni o'z ichiga oladi. Masalan, Fransiyada armiyaga 10 oyga borilar, muqobil xizmat esa 20 oy edi. Avstriyada muqobil xizmat bir yil bo'lsa, harbiy xizmat 7 oy. Bolgariyada muqobil xizmat ikki yil, harbiy xizmat esa atigi 6-9 oy.

71 - izoh

Muqobil xizmat: Shveysariya misolida

Shveysariya G'arbiy Yevropada majburiy harbiy xizmatni saqlab qolgan davlatlardan biri. Tizim konstitutsiyaning 59.1-moddasi, 1995 yilda qabul qilingan Harbiy Tizim Qonuni va Harbiy Xizmat Qonuniga binoan yuritiladi. Armiya yoshi 20-42 orasida bo'lib, yuqori darajali xizmat uchun 55 yoshgacha bo'lganlar chaqirilishi mumkin. Xizmatning dastlabki qismi to'rt oy. Keyin har ikki yilda uch haftalik xizmatga boriladi, shuningdek, yillik qurolli mashqlarida qatnashish lozim.



1996 yilda Muqobil Xizmat Qonuni tanishtirilib, armiyaga ahloqiy, falsaviy va diniy sabablarga ko'ra bormaslik fuqaro huquqi deya tan olindi. Sanoat va mehnat vazirligi bu borada da'vo arizalari qabul qiladi va ularni uch a'zolik komissiya ko'rib chiqadi. Aslida komissiyada 120 vakildan iborat bo'lib, ular maxsus tanlovdan o'tgan fuqarolardir. Tanlov odatda matbuotda e'lon qilinadi. Armyaga chaqirilganlarning taxminan besh foizi vijdonan bosh tortib, bu boradagi arizasi qabul qilinsa, da'vosi rinsiz deb topilganlar 4-5 oy qamoq jazosi o'tashi mumkin.

Muqobil xizmat 450 kun bo'lib, jamoat yoki xususiy sektorda ijtimoiy foydali mehnat bilan shug'ullanish talab qilinadi. Kasalxona, yoshlar markazi, ilmiy maskanlar, o'rmon xo'jaligi va boshqa muassasa yoki sohalarda ishlash mumkin.

Manba: Vijdoniy Raddiya bo'yicha Yevropa Byurosi (EBCO)

Qonunchi sifatida nima qila olasiz?

Majburiy xizmat foydasi va zarari

- ▷ Ijobiy va salbiy jihatlarini o'z davlatingiz misolida taqqoslang.
- ▷ Mazkur bobda tilga olingan omillar va mamlakatingizda ahvol haqida o'ylang.

Majburiy xizmatga olinganlarning kamsitilishi

- ▷ Askarlar zo'ravonlikka uchraganda darhol chora ko'ring.
- ▷ Izchil tergovlar olib borilsin va zarur bo'lsa, tegishli idora sanksiya bersin va tezlikda joriy etilsin.
- ▷ Mamlakatingizda askarlarning huquqi buzilganda ularni tekshirish vakolatiga ega Mudofaa Ombudsmani bo'lsin.

Xizmatni vijdonan rad etganlar

- ▷ Mamlakatingizda xizmatni vijdonan rad etishga yo'l beruvchi qonunlar bormi? Yoq bo'lsa, aniq mazmunga ega qonunlar bilan chiqing. Bor bo'lsa, ularni qayta ko'rib chiqing va zarur topilsa, tuzating.
- ▷ Boshqa davlatlarda bu masalaga qonuniy va amaliy yondashuv qanday ekani haqida ma'lumot oling.

Muqobil xizmat

- ▷ Mamlakatingizda muqobil xizmat joriy etilganmi? Bu borada aniq qonunlar tanishtiring yoki mavjud qonunlarga tuzatishlar kiriting.
- ▷ Boshqa davlatlardagi qonuniy va amaliy tajriba bilan tanishing.

Sakkizinchi qism

Moddiy manbalar:

**Qurol-aslaha olish va ko'chirishni
samarali nazorat qilish**

Qurol va harbiy aslaha olish

Qurol- aslaha olish davlat xavfsizlik yoki mudofaa siyosati asosida amalga oshirilishi kerak. Yangi qurollar yoki harbiy vositalarga xarid qilish uchun avvalo ularga nisbatan talabni va buning mamlakat xavfsizligiga ta'sirini o'rganib chiqish lozim.

Davlat xavfsizlik siyosati mustahkam bo'lsa, mudofaa boshqaruvi barqaror bo'ladi. Bu bilan esa uzoq muddatli maqsadlar oydinlashadi. Mudofaa sohasi uchun ajratilgan mablag' va vositalar mamlakat tinchligini ta'minlash borasida ko'zlangan maqsadlarni qondira olishi zarur. Aks holda xavfsizlik sektori va jamiyat o'rtasida muvozanat bo'lmaydi.

Qurol olishda oshkoralik

Demokratik tuzumda byudjet bilan bog'liq jarayonlar va ayniqsa, qurol olish xalq oldida javobgarlikni his qilgan holda va oshkora amalga oshirilishi kerak. Siyosat, reja, byudjet va qurol ta'minotiga yuksak mas'uliyat bilan yondashish talab qilinadi. Chunki bular bir-biri bilan mantiqan va amaliy jihatdan bog'liq jarayonlar. Afsuski, ko'plab mamlakatlarda parlamentning qurol sotib olish ishlariga aralashmaydi yoki uning roli cheklangan.

Qurol-aslaha olish uchun mablag' ajratayotganda qonunchilik palatasi bu amaliyotning qonuniyligini tekshirishi, uning xalqaro qonun va kelishuvlarga zid emasligini aniqlashi kerak. Qurollarni Yoymaslik Shartnomasi (1968), Aksil-Insoniy Minalarni Qo'llash, Saqlash, Ishlab Chiqarish va Transportirovka Qilishga Qarshi va Ularni Yoq' Qilishni bo'yicha Ottava Konvensiyasi (1997) va BMTning ko'plab rezolyutsiyalari turli qurol turlari yaratish, sotish va xarid qilish va foydalanishni man etadi.

Parlamentlar uzoq yillar davomida mudofaa uchun qancha qurol olinganini hisoblash chiqishdek murakkab masala bilan yuzlashadi. Xususan, urushlar ketidan qayta tiklanayotgan va rivojlanayotgan mamlakatlarda qurol sotuvchi tashqi va ichki kuchlar o'z mahsulotlarini targ'ib qilishga urinadi. Demokratik talablardan xavfsiramaydigan bu bu bizneslar uchun mahsulotni iloji boricha qimmatroq narxda sotish muhimroq.

Shu bois parlamentlarga qurol-aslaha ta'minoti masalalari bilan shug'ullanuvchi qo'mita yoki quyi qo'mitalar tuzish maqsadga muvofiqdir. Toki ular mazkur sohada oshkoralikni ta'minlab, ijroiya organining bu boradagi qarorlarini tekshirib tursin.

Parlamentlar uchun qiyin tomoni shundaki, hukumatlar qancha yirik qurol va aslahalarga (jangovar samolyotlar, qurollangan mashinalar, artilleriya, yo'l ko'rsatuvchi va radar tizimlar, raketalar va hokazo) ega ekani va yana qancha miqdorda talab qilinishini aks ettiruvchi hisoblarni oshkor etgisi kelmaydi. Shuningdek, ijroiya organi kichik turdagi (100 mm kalibrdan kichikroq) qurollar zaxirasi haqida ham ma'lumot bermaslikka harakat qiladi.

Aslida qurol-aslaha olishga qaror qilishdan avval hukumati parlament bilan maslahatlashishi zarur. Harbiy salohiyatni kuchaytirish harakati uzoq muddatda mamlakat cho'ntagiga og'ir tushmasligi kafolatlanishi lozim. Qurol-aslaha ta'minoti dasturi xalq hayoti uchun muhim bo'lgan boshqa sohalardan ustun qo'yilmasligi va umumzaruri-

yatdan kelib chiqqan holda tuziladi. Shuning uchun qarorlar nafaqat harbiy sabablarga ko'ra, balki butun jamiyat uchun ahamiyat kasb etuvchi iqtisodiy-ijtimoiy omillarni tahlil qilgan holda qilinadi. Ushbu qarorlarni sarhisob qilish va ularning turmushga ta'sirini o'rganish parlamentning vazifasidir.

72 - izoh

Qurol-aslaha olishda qonunchilar roli

- ▷ Qurol xalq puliga olinadi.
- ▷ Qurol sotib olish faqatgina xavfsizlik bilan bog'liq texnik masala emas. Bunda davlat "qurolmi yoki non"? deya o'ylanishi kerak. Javob "qurol" bo'lsa, unda qanday qurol, necha pulga va nima uchun?
- ▷ Qurol sotib olish mamlakat hamyoniga qisqa va uzoq muddatda og'ir tushmasligi lozim.
- ▷ Parlament qurol xarajatini jamiyatdagi boshqa zaruriyatlarga qiyoslashi kerak;
- ▷ Qurol-aslaha olish oshkora, parlament oldida javobgar holda amalga oshirilsin. Korrupsiyaga yo'l qo'yilmasin, xalq puli suiste'mol yoki isrof qilinmasin.
- ▷ Parlament va jamoatchilik vaziyatni ko'zdan qochirmasa, qurollarning mintaqaviy savdosi susayishi mumkin.

Maxsus holatlar maxfiylik talab qiladimi?

Gap xalq hayoti va uni farovonlashtirish uchun qanday siyosat yuritish haqida ketarkan, har bir qaror, jumladan, qurol sotish yoki xarid qilish samarali boshqaruv va oshkoralik tayomillariga asoslanadi. Shunday ekan, mudofaa bobida aynan qay holatda hukumat biror ma'lumotni sir tutishi mumkinligi izchil muhokama qilinishi lozim.

Hukumat, ayniqsa, qurol olib-sotish yuzasidan omma naqadar javobgar ekanini unutmasligi va bu borada barcha ma'lumotlarni oshkor etib borishi kerak. Qurol sotayotgan yoki olayotgan tomon savdoning biror jihatini maxfiy tutishni istagan bo'lsa, buning sabablari aniq ko'rsatilishi shart. Mazkur sabablar qonuniy bo'lishi va kelishuv korrupsiyaga yo'l ochmasligi, ochish ehtimoli sezilsa, har ikki tomon buni tan olgan va aniqlagan holda tegishli choralar ko'rishga so'z berishi kerak.

73 - izoh

Qurol olishda mujmal siyosat yoki o'ta yashirin harakatlar oqibati:

- ▷ Qurol sotib olish sabablari va talabni chuqur o'rganmaslik;
- ▷ Hukumatlarning davlat va mintaqa xavfsizligiga rahna soluvchi va salbiy oqibatlarga olib boruvchi qarorlar qilishi;
- ▷ Qo'shni davlatlarning xavotirlanishi;
- ▷ Qurol olish va butun harbiy ta'minot sohasining korrupsiyaga botishi;
- ▷ Xalqning armiyaga nisbatan ishonchi pasayib, qurolli kuchlarning jamiyatdagi nufuzi tushishi va ular haqida turli tortishuv va ziddiyatlarning avj olishi.

Qurol olish qarorining asoslari

Yirik qurol tizimlarini sotib olishda quyidagi jarayon va asoslarga tayanib qaror qilish va ish tutish maslahat beriladi:

- ✓ Tahdidni tahlil qilish;
- ✓ Mudofaa kuchlari salohiyatini uzoq-muddatni ko'zlagan holda kuchaytirish;
- ✓ Yangi vositalar uchun moddiy talabni sarhisob qilish;
- ✓ Qurol olish uchun byudjetdan mablag' ajratish;
- ✓ Mahsulotning texnik sifatini tekshirish va xariddan keyin yana audit qilish;
- ✓ Qurollarni saqlash, ta'mirlash va yangilash qanchaga tushishini ko'rib chiqish;
- ✓ Kompensatsiya takliflarini o'rganish.

Parlament bu jarayonlarni kuzatish va tekshirish orqali ijroiya organida moddiy isrof-garchilik, korrupsiya va jinoyatning oldini oladi. Qonunchilik palatasi hukumatdan qurol olib-sotish haqida uni yaqindan xabardor etib, bu borada zarur ma'lumotlar bilan ta'minlab turishni talab qilishi kerak. Shuningdek, parlament qurol-aslaha savdosi bo'yicha barcha kelishuvlar yuzasidan qaror qilish huquqiga ega bo'lmog'i lozim. Niderlandiya parlamenti, masalan, qurol ta'minoti jarayonining har bir bosqichini yaqindan kuzatib boradi (74-izohga qarang).

74 - izoh

Niderlandiyada mudofaa ta'minoti: parlament nazorati asoslari

Niderlandiya mudofaa ta'minotini kuchli nazorat qiluvchi va bu borada boy amaliy tajribaga ega mamlakat. Qonunan, 25 million yevrodan ziyod miqdorni o'z ichiga olgan savdo bitimlari parlament tasdig'idan o'tishi shart. Jarayon maxsus qoidalar asosida olib boriladi. Mudofaa vaziri qurol olish maqsadini tushuntirish uchun parlamentga A, B, C yoki D turdagi maktublar yo'llaydi. Ular qurollarni yangilash zaruratidan tortib, biror yangi turdagi mudofaa tizimi sotib olish taklifini aks ettirishi mumkin.

Parlament qurol olishning har bir bosqichiga ta'sir ko'rsata oladi. Hukumat yangi qurol-aslahaga talab borligi yoki eskisini yangilash zarur ekanini bildirganda, qonunchilar rad javobini berishi yoki taklifga o'zgartirishlar kiritishi mumkin. Qonunga ko'ra, hatto yakuniy qarorlar ham oxirgi daqiqada o'zgartirilishi mumkin, ammo amalda bu hol kuzatilmaydi. Mudofaa vazirligidan tushgan taklif parlamentda keng muhokama qilinadi va masala ovozga qo'yiladi.

Qurol sotib olish uchun 100 million yevrodan ko'proq mablag' so'ralsa, parlament "Yirik Loyihalar" sarasiga kiruvchi bu taklifni maxsus jarayon orqali ko'rib chiqadi. Parlament bunda vazirlikdan izchil ma'lumotlar talab qiladi. Misol tariqasida Niderlandiya hukumatining Amerikada ishlab chiqarilgan Birlashgan Jangovar Hujum Tizimi (Joint Strike Fighter) – F-16 harbiy samolyotining yangi turiga qiziqish bildirganini keltirish mumkin.



Xolosa shuki, Niderlandiya qonunchiligi mudofaa ta'minotini nazorat qilish uchun zarur imkoniyat yaratadi. Moliyaviy cheklovlar va texnik masala va jarayonlarda parlament rolini oshirish to'g'risida qizg'in munozara olib borilmoqda. Mustaqil faoliyat yurituvchi mudofaa institute hukumat beradigan ma'lumotlar, u bilan uzviy bog'liq masalalar va qurol ta'minotiga qarshi isbot va dalillarni tahlil qiladi. Qurol ishlab chiqarish sanoati, uni targ'ib qiluvchi lobbichilar va ularning parlamentning mudofaa bo'yicha qo'mitasi a'zolari bilan munosabatlari tez-tez tilga olinadi. Biroq biror katta xato yoki mojaroli hollar ko'zga tashlanmaydi.

Manba: Yan Xokema, Niderlandiya parlamentining sobiq a'zosi, 2002

Qonunchi sifatida nima qila olasiz?

Qurol olishni nazorat qilish

- ▷ Parlament qurol ta'minotini nazorat qilish haqida qonun qabul qilishi kerak.
- ▷ Xavfsizlik sektori ustidan izchil nazorat yuritilsin va shu asosda qurol olib-sotish bilan bog'liq jarayonlar ham kuzatib borilsin. Quyidagilarga alohida diqqat qaratilgani:
 - Xavfsizlik talablari;
 - Mintaqaviy qurollar poygasiga yetaklovchi omillar va buning siyosiy oqibatlari;
 - Byudjetga qisqa va uzoq muddatdagi ta'siri;
 - Mamlakatning xususiy va davlat qaramog'idagi ishlab chiqarish sanoatiga ta'siri.

Qurol olishda oshkorlik va javobgarlik

- ▷ Qurol-aslaha va harbiy vositalar sotib olishda parlament o'z munosabatini bildirsa oling;
- ▷ Parlament yoki uning tegishli qo'mitasiga yirik turdagi qurollar (jangovar samolyotlar, qurollangan mashinalari, artilleriya, yo'l ko'rsatuvchi va radar tizimlar, raketalar va hokazo) va kichik turdagi qurollar (100 mm kalibrdan kichikroq) zaxirasi va ularning texnik sifati hamda yangi qurollarga talab yuzasidan hisobot berib turilsin
- ▷ Parlamentga mudofaa tizimining uzoq muddatli salohiyatini tiklovchi maqsadlar tanishtirilsin.
- ▷ Qurol olishda maxfiy tutiladigan ma'lumotlar qonunchilik asosida parlament yoki tegishli qo'mita tomonidan muhokama qilinsin. Qonun xalq oldidagi mas'uliyatni va harbiy sirlarni saqlash ahamiyatini hisobga oling.



Qurol olish tahlili

- ▷ Qurol-aslahaga ta'minoti rejasi xavfsizlik siyosatiga mos kelsin.
- ▷ Parlament qurol-aslahaga sotib olish xalq hayoti uchun muhim bo'lgan boshqa sohalar va ijtimoiy talablarga iqtisodiy jihatdan og'ir kelmasligi haqida o'ylansin, vaziyatni o'rgansin va sarhisob qilsin. Qurol sotib olish mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotiga to'sqinlik qilishiga yo'l qo'yilmasin.
- ▷ Qonunchilik mamlakatning haddan tashqari ko'p qurol sotib olishiga yo'l bermasin. Parlamentlar rejalar ortidagi maqsadlarni tekshirsin toki uzoq muddatda mamlakat harbiy muammolar bilan yuzlashmasin.

Qurol ta'minotini tekshirish

- ▷ Qurol-aslahaga va harbiy vositalar ta'minoti mudofaa siyosati, unga asoslangan rejalar va ko'zlangan byudjet doirasida bo'lsin.
- ▷ Qurol olingach, ular maxsus amaliy tekshiruvdan o'tkazilsin.

Qurol ta'minoti bo'yicha qonunchilik qo'mitasi

- ▷ Qurol-aslahaga ta'minoti masalalari bilan shug'ullanuvchi qo'mita bo'lmasa, uni tashkil eting. Bu bilan siyosiy-moliyaviy rejalashtirish va audit hamda mudofaa sanoati, ilmiy tadqiqot va taraqqiyot o'rtasidagi bog'liqlikka e'tibor qarating.
- ▷ Boshqa davlatlarda parlamentlar qurol-aslahaga ta'minoti masalasiga qanday yondashishi va qonunchilik jarayonlari haqida ma'lumot so'rang va o'rganing.
- ▷ Siz a'zo parlament qurol-aslahaga bo'yicha bilim va tajribaga ega mutaxassislar bilan aloqada bo'lsin va maslahatlashib tursin.

Qurol savdosi va tashilishi

Parlamentlar qurol savdosi va uning transportirovkasini nazorat qilishda muhim rol o'ynaydi. Qurol-aslahalar xarid qilish davlat qonunlari, byudjeti, moliyaviy shartnomalar hamda kelishmovchiliklarni hal qiluvchi qonunchilikka binoan olib borilishi lozim. Qurol savdosi bilan bog'liq siyosat va qonunchilik oshkoralik va xalq oldida javobgarlikka asoslanishi kerak.

75 - izoh

Qurollar transportirovkasi ta'rifi

Qurol-aslahalar transportirovkasi deganda davlatlar yoki xususiy tashkilotlar o'rtasidagi qurol savdosi tushuniladi. Unga qurol sotish, xarid qilish, ta'minlash va bepul berish kiradi.

Qurol savdosi va transportirovkasi bo'yicha siyosat

- ✓ Oddiy qurollar importi va eksporti parlamentning tegishli qo'mita yoki qo'mitalari tomonidan nazorat qilinsin;
- ✓ Qurollar savdosi BMT Xartiyasidagi tamoyillar, xalqaro qonunlar va BMT qurollar embargosiga zid bo'lmasin va qurollarni sotib olayotgan mamlakatlarning iqtisodiy, siyosiy, ahloqiy va xavfsizlik sohalaridagi talab va xavotirlarini nazarda tutsin;
- ✓ Savdo haqqoniy va mas'uliyat bilan amalga oshirilishi uchun jarayon oshkora olib borilsin;
- ✓ Savdo nomaqbul yo'llar bilan qilinmasligini ta'minlovchi qonunlar taklif qilinsin va ular BMT, tegishli xalqaro tavsiya va qoidalar hamda boshqa davlatlar tajribasiga asoslansin; ta'minotchi va xaridor o'rtasida haqqoniylik kodeksi tuzilsin;
- ✓ Parlament qurol savdosi mijoz davlatning mudofaa talablarini o'sha mamlakat parlamenti tasdiqlaganidek qondirayotganini ta'minlasin;
- ✓ Qurol sotayotgan davlat parlamenti mijoz davlat inson huquqlari va erkinliklarini hurmat qilishi va qurol-aslahalar xarid qilish haqidagi qarorlar oshkoralik va mas'uliyat bilan qilinishini aniqlasin;

Parlament sotilgan qurol-aslaha tinchlikka rahna solmasligini, mintaqaviy kelishmovchiliklar yoki qurolli mojarolarga olib bormasligini, qurollar poygasiga turtki bermasligini yoki yangi, kichik va yengil qurol tizimlarini tanishtirib mintaqaviy beqarorlik uyg'otmasligini ta'minlashi kerak; parlamentlarning mudofaa bo'yicha qo'mitalari xavfsizlik, qurollar ta'minoti va bu sohadagi korrupsiya muammosi yuzasidan o'zaro muloqot boshlasa, ushbu masalalar mintaqaviy miqyosida muhokama qilinishi mumkin.

- ✓ Muayyan bir davlatga sotilayotgan qurol-aslaha shartnomaga zid ravishda boshqa maqsadlar uchun qayta eksport qilinishi va uzatilishining oldini olish uchun maxsus mexanizmlar ishlab chiqilsin.

Parlament qurol savdosini mustaqil nazorat qiluvchi va tekshiruvchi audit tizimi joriy etib, unga qonuniy vakolatlar bersin. Bu tizim parlament belgilagan tamoyil va ko'rsatmalarga binoan faoliyat yuritsin. 76-izoh qurol-aslaha savdosi bo'yicha ayrim xalqaro bitim va ba'zi davlatlarda mavjud qoidalarni tasvirlaydi.

76 - izoh

Qurollar transportirovkasi uchun mintaqaviy choralar

▷ Yevropa Ahloqiy Kodeksi

Yevropa Ittifoqi Kengashi Yevropa Ahloqiy Kodeksini 1998 yilning 8 iyunida ma'qullagan. Mazkur rezolyutsiya ittifoqqa a'zo davlatlarga inson huquqlari poymol etilishi mumkin bo'lgan mamlakatlarga qurol sotishni va uning oqimining oldini olishni maqsad qilgan. Yevropa Ittifoqi bu qarorga kelishdan oldin sakkiz yil davomida bir necha nohukumat tashkilot tomonidan bosimga uchrab keldi. Bu guruhlar ittifoqdan qurol-aslaha savdosi siyosatini yangilashni talab qildi. Kodeks nozik manzillar ro'yxatini o'z ichiga oladi va unga ko'ra, qurol ta'minotini tekshiruvchi va kuzatuvchi tizim joriy etilgan. Shuningdek, ushbu hujjatga binoan mamlakatlar qurol savdosi haqida ma'lumot almashadi va eksport uchun ruxsat berish bobida maslahatlashadi.

Biroq Yevropa Ahloqiy Kodeksi qonun emas va a'zo davlatlar qoidalarni buzganda ularni javobgarlikka tutuvchi mexanizm mavjud emas. Inson huquqlarini toptovchi tomonlarga qurol eksport qilmaslikni ta'minlovchi qonunlar qabul qilish va tegishli choralar ko'rish davlatlar ixtiyorida.

Kodeks qurol eksport qilish borasida a'zo mamlakatlarga quyidagi sakkiz shartni qo'yadi:

- 1) "Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlarning xalqaro majburiyatlariga amal qilinsin, ayniqsa, BMT Xavfsizlik Kengashi qo'ygan sanksiyalarga...;
- 2) Qurol sotilayotgan mamlakatda inson huquqlari buzilmasin...
- 3) Qurol sotilayotgan mamlakat tinchligi buzilmasin, mavjud qurolli mojarolarga hissa qo'shilmasin...;
- 4) Qurol sotib olishni istagan davlat bu vositalarni boshqa mamlakatga qarshi ishlatishi yoki ular yordamida biror hudud uchun kurashishi mumkin bo'lsa, eksport uchun ruxsat berilmasin...;
- 5) A'zo davlatlar xavfsizligi, tashqi aloqalarda ularga tayanuvchi hududlar hamda ittifoq bilan do'stona aloqa yuritadigan va ittifoqdosh davlatlar tinchligiga soya solinmasin...;



- 6) Qurol sotib olishni istagan davlatning xalqaro hamjamiyat bilan rish-talari ko'rib chiqilsin va uning terrozimga munosabati, unga ittifoq-dosh davlatlar hatti-harakati va ularning xalqaro qonunlarga qancha-lik rioya qilishi tekshirilsin...;
- 7) Xaridor davlat qurolni nomaqbul tomonga uzatmasligi aniqlansin va ehtimoliy xavflar o'rganilsin...;
- 8) Xaridor davlatning so'ralayotgan qurol-aslahaga uchun zarur texnik va iqtisodiy salohiyati tekshirilsin".

Manba: <http://europa.eu.int>

▷ Amerika Davlatlari Tashkiloti va qurollar transportirovkasi

Amerika Davlatlari Tashkilotining 19 a'zosi oddiy qurollar transportirovkasi bo'yicha shartnoma imzolagach, qit'ada qurol savdosi yanada oshkora yuri-tila boshladi. Oddiy Qurollar Olishda Oshkoralik yuzasidan Inter-Amerika Konvensiyasi Gvatemala shahrida o'tgan Bosh Assambleyada ma'qullangan. Hujjat a'zo davlatlardan yirik qurol eksporti va importi haqida yillik hisobot berishni talab qiladi.

Kelishuvning 3-moddasiga muvofiq "A'zo davlatlar yil davomida qilingan oddiy qurollar import-eksporti va savdo olib borilgan davlat to'g'risida ma'lumot, qancha va qay turdagi qurol-aslahaga olingani yoki sotilgani haqi-da hisobot beradi. A'zo davlatlardan boshqa barcha tegishli, jumladan, qurollar modeli va darajasi borasida ham ma'lumotlar berish kutiladi..." Shuningdek, bitimning 4-moddasiga binoan, a'zo davlatlar bir-birini import va ichki ishlab chiqarish hisobiga qancha qurol-aslahaga ega ekani haqida ham xabardor etib turadi.

Manba: <http://www.oas.org>, 2002

Qurollarning xalqaro embargosiga rioya qilish

Biror davlat xalqaro qonunlarni buzish yoki tinchlik va xavfsizlikka rahna solishga uri-nayotgan bo'lsa, jahon hamjamiyati sanksiyalar orqali bu harakatni qoralaydi. Buning qonuniy asosi BMT Xartiyasining 41-moddasidir. Unga ko'ra, BMT Xavfsizlik Ken-gashi a'zo davlatlarni xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash maqsadida qurolsiz va noharbiy chora ko'rishga undaydi. 1945-1990 yillar orasida BMT xavfsizlik Kengashi faqat ikki davlatga qarshi sanksiya qo'ygan xolos. 1990-2003 yillarda Kengash jami 12 sanksiya joriy etgan.

Sotilgan qurolning oxir-oqibatda nima maqsadda va qayerda ishlatilayotgani haqida to'liq hisobot talab qilish parlamentning to'g'ri qarorlar qilishi uchun zamin yaratadi. Bu talab qurol-aslahaga savdosiga ruxsat berish jarayonining bir qismiga aylanishi kerak. Biroq olingan hisobot har doim ham haqiqatni aks ettirmaydi.

✓ BMT Qurollar Ro'yxati

1991 yilning 6 dekabrda BMT Bosh Assambleyasi o'zining 46/36-L-rezolyutsiyasini qabul qildi. Hujjat "Qurol-Aslahaga bobida Oshkoralik" deb nomlanadi va Bosh Kotibdan BMTning Nyu-Yorkdagi qarorgohida umumbashariy Qurollar Ro'yxati tuzishni talab qiladi. Unda jamiki qurollar, ularning xalqaro oqimi, a'zo davlatlarning harbiy salohiy-ati, ta'minot, ishlab chiqarish va siyosati haqida axborot to'planadi.

1992 yildan beri yuritilayotgan ro'yxat yetti kategoriyani o'z ichida oladi: jangovar tanklar, qurollangan mashinalar, yirik-kalibrli artilleriya sistemalari, jangovar samolyotlar, hujumchi vertolyotlar, harbiy kemalar va raketalar/raketa otuvchi tizimlar. Bosh Kotib bu borada Bosh Assambleyaga doimiy hisobot berib boradi. Unda 110 davlatning qurol-aslaha import-eksporti haqidagi ma'lumotlar o'z aksini topadi. Qo'shimcha ma'lumotlar: <http://disarmament.un.org/cab/register.html>.

“Aqli sanksiyalar” ga tal

BMT Bosh Kotibiyati nazarida umumiy iqtisodiy sanksiyalar odatda samara bermaydi. Ular ko'p hollarda nishondagi mamlakat xalqi va qo'shni davlatlarga zarar keltiradi. Shu bois ayrim mutaxassislar fikricha sanksiyalar aniq va muayyan maqsadni ko'zlashi kerak. Qurollar embargosi “aqli sanksiyalar” turiga kirib, moliyaviy va safarlar embargosidan keyingi o'rinda turadi. Aqli sanksiyalar aynan hukumat va hukmron elitaga qarshi qo'yilib, oddiy xalq va muxolifatga tegmaydi. Lekin bunday sanksiyalarni amalga oshirish va ulardan naf ko'rish juda qiyin. Maqsadga erishish uchun ularni qayta ko'rib chiqish, tuzatish va kuchaytirish tavsiya qilinadi (77-izohga qarang).

77 - izoh

Qurollarga qarshi sanksiyalarni kuchaytirish: parlament nima qila oladi?

Qurol eksport qiluvchi davlat parlamenti quyidagi talablarni qondirishi lozim:

- ▷ Qonunchilik, xususan, boshqaruv va tartib-qoidalar ko'rsatmasi hamda BMT qurollar embargosiga rioya qilmaslik jinoyat ekanini belgilash;
- ▷ Hukumatda muvofiqlashtirish tizimi joriy etish va muayyan bir departamenti zimmasiga embargo amaliyotini yuklash;
- ▷ Hukumat idoralari orasida va boshqa davlatlar bilan ma'lumot almashishni yo'lga qo'yish va buning yordamida noqonuniy eksport, manzil, transportirovka yo'nalishlari yoki dallollarni aniqlashni ta'minlash;
- ▷ Embargo ostidagi mahsulotlar ro'yxatini nazorat qilishni ta'minlash;
- ▷ Embargoga zid ravishda olib ketilayotgani gumon qilingan yukni orqaga qaytarmay, uni musodara qilishni ta'minlash;
- ▷ Noqonuniy qurollar savdosidan tushgan daromadni muzlatish yoki musodara qilishni ta'minlash;
- ▷ Nomaqbul manzilga yo'nalishi mumkin bo'lgan qurollar transportirovkasini kuzatish, aniqlash va nazorat qilishni ta'minlash.

Manba: Bonn Xalqaro Konvertatsiya Markazi, BICC www.bic.de, 2002

Sovuq Urush qoldirgan meros: ortiqchi qurollar va ularning transportirovkasi

Sovuq Urush dunyo bo'ylab armiyalarning kichrayishiga turtki bergan. Bu bilan esa millionlab qurol-aslahaga hojat qolmadi va bu ortiqcha materiallarni saqlash ko'plab davlatlarga og'ir tusha boshladi. Ularning kuchli va muntazam nazorat qilinmasligi natijasida esa hukumatlar va nohukumat kuchlararo qurollar savdosi va oqimi avj ola

boshladi. Bozor oshkora faoliyat yuritmagani bois hech kim bu tomonlarni savolga tuta olmadi. Ko'plab qurollar qo'riqsiz omborlardan o'g'irlanib, yashirin manzillarga yo'l oldi yoki.

1990-yillarda sotilgan qurol-aslahaning 40 foizi ortiqcha deb topilgan harbiy vositalar bo'lgan. Ularning aksariyati sobiq Sovet Ittifoqining katta hajmdagi arsenaliga tegishli bo'lgan. Ittifoq parchalanishi bilan bu arsenalni nazorat qiluvchi markaziy kuch ham yo'qoldi. Iqtisodiy sharoit og'irlashar ekan, qurol-aslaha naqd pul manbai sifatida xizmat qila boshladi va ayrim moliyaviy ehtiyojlarni qondirdi. Boshqa tomondan esa bu savdo siyosiy rahbariyat bilan aloqador va aloqasi bo'lmagan jinoiy tizimlar tomonidan olib borildi. Lekin sobiq Sovet Ittifoqi bu kabi ishlarga qo'l urgan yagona tuzum emas. Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlardan bir nechasi ham qurollar savdosining qizishiga katta hissa qo'shgan.

78 - izoh

Eski va ortiqcha qurollar savdosi: qurolsizlanishning salbiy mahsuli

"Yangi qurollar savdosi pasayganiga qaramay statistika ma'lumotlar eski harbiy vositalar bozori misli ko'rilmagan hamjda kengayib borayotganidan dalolat bermoqda. Bu savdoga turtki berayotgan va uni avj oldirayotgan sabablar bor. Qurolsizlanish shartnomalari, sulhlar va qurolli kuchlar sonining kamaytirilishi oqibatida 165 ming yirik turdagi qurol-aslahaga zarurat qolmadi va ulardan 18 mingdan ziyodi 1990-1995 yillar orasida eksport qilingan yoki tarqatib yuborilgan. 1994 yili tarixda ilk bor eski qurollar savdosi yangi qurollar savdosidan oshib ketdi. Jahon bozorida eski qurol ko'p va uning narxi arzonroq va ayrim hollarda bir davlatdan boshqasiga yordam dasturlari doirasida bepul taqdim etiladi. Qurolsizlanishning salbiy oqibati bo'lmish bu hollar dunyoning qaynoq nuqtalaridagi mojarolarga alanga berib, qurollar poygasini kuchaytirmoqda."

Manba: Gerbert Vulf, 1998, Bonn Xalqaro Konvertatsiya Markazi www.bicc.de

Qurol-aslaha sotib olgan mamlakatlar farovon jamiyatlar emas va umuman olganda, zaif qonunchilik tizimlariga ega. 1990-yillar mobaynida kamida 90 davlat ortiqcha va yirik turdagi qurollarini chet elga sotgan. Kichik turdagi qurollarni kuchliroq nazorat qilish kerak. Parlament hukumat va xavfsizlik sektoridan yillik zarar va o'g'irlangan qurol-aslaha va o'q-dori yuzasidan hisobot berib turishni talab qilishi lozim. Kichik turdagi qurollar ishlab chiqaruvchi inshootlarni noharbiy mahsulotlar fabrikasiga aylinishini ta'minlash ham qonunchilik organining muhim vazifasidir.

1997-2001 yillar orasida qurollar savdosi global miqyosda ancha pasaydi. AQSh bu davrda qurol eksportini qisqartirdi. 1998 yildan boshlab chetga 65 foiz kamroq qurol sotilgan bo'lsa-da, Amerika 1997-2001 yillarda jahonning eng yirik harbiy ta'minotchisi bo'lib qoldi. Ikkinchi o'rinni Rossiya egallab, 2000-2001 yillarda qurol eksportini 24 foizga oshirdi va aslaha sotishda 2001 yilda AQShda ham o'zib ketdi.

O'sha yili xorijdan eng ko'p qurol sotib olgan davlat Xitoy bo'ldi. 2001 yil bu mamlakat import hajmini 44 foizga ko'tardi. Hindiston esa 50 foizga oshirib, dunyoning eng yirik qurol xaridorlaridan biriga aylandi. 1997-2001 yillarda Saudiya Arabistoni, Tayvan and Turkiya ham o'z harbiy vositalar zaxirasini kengaytirdi. (Manba: Stokgolm Xalqaro Tinchlik Tadqiqot Instituti Yilnomasi 2002).

79 - izoh

Kichik turdagi qurollar soni va savdosining taxminiy hisoblari

“Kichik turdagi qurollar ish chiqarish hajmi Sovuq Urushning oxirgi yillariga qaraganda ancha kichraygan bo’lsa-da, har yili ularning millionlab donasi yaratiladi... Taxminiy hisoblarga ko’ra, global maydonda qurol va o’q-dori sanoati 2000 yilda 4 milliard AQSh dollarini tashkil etgan. O’sha yili taqriban 4,3 million dona kichik turdagi yangi qurol ishlab chiqarilgan... Bu miqdor Sovuq Urush davridagi o’rtacha yillik hisobdan 30 foiz kam”.

“Kichik turdagi yangi qurollarga talab past bo’lsa-da, ta’minot hajmi ortib bormoqda... Ularni ishlab chiqaradigan kompaniyalar soni o’tgan 20 yilga qaraganda hozir uch barobar ko’p. 1980-yillarda 196 ta edi, bugun 600 ga chiqqan”.

... Kichik turdagi qurollar ishlab chiqarivchi kompaniya va davlatlar ko’payib borayotgani va ularning mahsulotni har kim, har taraf va har bahoda sotishga shay ekani avtoritar hukumatlar, biror davlatga qarashli bo’lmagan guruhlar, terroristlar va jinoyatchilar uchun yangicha, zamonaviy va qudratli qurollar bilan ta’minlanish uchun imkoniyat yaratadi. Qurol sanoati va bozorini nazorat ostiga olish xalqaro xavfsizlikni ta’minlash yo’lida hukumatlar oldida turgan eng dolzarb vazifadir.”

Manba: Kichik Qurollar bo’yicha So’rovnoma 2001, Oksford Universiteti Nashriyoti

80 - izoh

Kichik va yengil qurollar kontrabandasiga qarshi BMT Dasturi: parlament uchun dolzarb masalalar

“Kichik va yengil qurollarning noqonuniy savdosiga chek qo’yish, uning oldini olish va bu jinoyatga qarshi kurash yo’lida tashkil etilgan BMT anjumaniga yig’ilgan vakillar 2001 yilning uyul oyida Nyu-Yorkda qator siyosiy masalalar bo’yicha kelishib, milliy, mintaqaviy va global miqyosda yangicha qadamlar tashlashga so’z berdi. Xususan:

Milliy miqyosda

- ▷ Kichik va yengil turdagi qurollar sanoatini nazorat qiluvchi qonunlar joriy etish; tartib va boshqaruvni mustahkamlash; eksport, import, transportirovka va qayta uzatishni idora etuvchi mexanizmlar yaratish;
- ▷ Kichik va yengil turdagi qurollar ishlab chiqaruvchi, sotuvchi, to’plovchi, uzatuvchi, ularga egalik qiluvchi va bu jinoyatlarni moliyaviy quvvatlovchi noqonuniy guruh va shaxslarni aniqlash va ularga qarshi qonuniy choralar ko’rilsin;
- ▷ Kichik va yengil turdagi qurollarni qonuniy ishlab chiqaruvchi kompaniyalar mahsulotni tog’ri va ishonchli ravishda tamg’alasin;
- ▷ Kichik va yengil turdagi qurollar ishlab chiqarilishi, saqlash va transportirovka qilish haqida to’liq, haqqoniy va aniq ma’lumotlar berilsin va ular iloji boricha uzoq saqlansin;
- ▷ Davlat qaramog’idagi va ishlab chiqarishga ruxsat berilgan kichik va yengil qurollar yuzasidan javobgarlik ta’minlansin va ularni aniqlash uchun kuchli choralar ko’rilsin;



- ▷ Kichik va yengil turdagi qurollar eksporti va transportirovkasi va ularning qayerda nima maqsadda qo'llanilishini samarali nazorat qiluvchi qonunlar amalga oshirilsin, tegishli tartib-qoida va boshqaruv tizimi joriy etilsin;
- ▷ Davlat import qilingan kichik va yengil turdagi qurollarni boshqa davlatga eksport qilishdan oldin bu qurollarni unga sotgan mamlakatni ikki o'rtada imzolangan kelishuv asosida ogohlantirsin;
- ▷ Kichik va yengil turdagi qurollar bozorida dallolchilik faoliyatini nazorat qiluvchi qonunlar qabul qilinsin yoki ma'muriy mexanizm ishlab chiqilsin;
- ▷ BMT Xavfsizlik Kengashi qo'ygan qurollar embargosiga zid harakat qilinganda, tegishli choralar ko'rilsin;
- ▷ Noqonuniy manbalardan musodara qilingan, tortib olingan yoki yig'ilgan kichik va yengil qurollar yo'q qilinsin;
- ▷ Kichik va yengil qurollar olib yurishga haqqi bor harbiy qo'shin, politsiya va boshqa xavfsizlik kuchlari aniq me'yor va tartibga rioya qilsin va ularga tegishli qurollar maxsus qoidalar asosida saqlansin va nazorat qilinsin;
- ▷ Zarur topilsa, qurolsizlanish, vakolatdan ozod etish va qayta qabul qilish dasturlari ishlab chiqilsin va amalga oshirilsin.

Manba: BMT Qurolsizlanish Masalalari Departmenti,
<http://www.un.org/Depts/dda>, 2002

Yuqorida tilga olinganidek, Sovuq Urushi ketidan ulkan o'zgarishlar yuz berdi. Qurollar eksportida oshkorlik va mas'uliyat masalasi ko'plab davlatlarda qizg'in munozaralarga sabab bo'ldi. Parlamentlar bu jarayonni nazorat qilishda qanday rol o'ynashi mumkin degan savol ko'tarildi.

81-izoh Yevropa Ittifoqida bu borada ko'rilgan ayrim choralarni aks ettiradi. Oshkorlik va mas'uliyatga ahamiyat oshib, parlamentlar bu mamlakatlarda qurol sotish sohasini yaqindan idora eta boshladi. Lekin vaziyatni a'lo darajada deya olmaymiz.

81 - izoh

Qurol-aslahalar eksporti nazoratida parlament roli: Yevropa Ittifoqidagi oshkorlik va mas'uliyat

Avstriya: Bu mamlakat qonunchiligi parlament a'zolariga ma'lumotni oshkor etishni talab qilmaydi.

Belgiya: 1991 yilda qabul qilingan qonunga binoan hukumat parlamentga qurol savdosi bo'yicha yillik hisobot berib turishi shart. Lekin bu qonun kimga qurol eksporti uchun ruxsat berilishi va qurol kimga sotilishini nazorat qilish kuchiga ega emas. Bu muhim omil, chunki eksport Yevropa Ahloqiy Kodeksiga zid ravishda amalga oshirilishi mumkin emas.

Daniya: Qurol savdosi bilan bog'liq masalalarning parlamentda muhokama qilinishini yoki sohani demokratik nazorat qilishni ta'minlovchi qonun yo'q. Biroq adliya vaziri jamoatchilik bosimi ostida qurollar eksporti yuzasidan hisobot tayyorlashga kirishgan. Mazkur hujjat savdo qay tarzda nazorat qilinayotgani, eksport hajmi va qurol-aslahalar qaysi davlatga sotilayotgani haqida ma'lumot beradi.



Finlandiya: Mudofaa vazirligi yillik hisobot beradi. Hujjat qurollar savdosi Yevropa Ahloqiy Kodeksi asosida olib borilayotganini isbotlashi kerak. Hisobot barcha zarur ma'lumotlarni qoplagani uchun oshkoralik alomati deya qabul qilinishi mumkin, ammo masala parlament muhokamasiga qo'yilmaydi.

Fransiya: Fransiya parlamenti hukumatdan qurol eksporti haqidagi yillik hisobotga iloji boricha ko'proq va mufassal ma'lumot kiritishni talab qilib keladi. Xususan, kichik turdagi qurollar savdosi, politsiya va xavfsizlik kuchlari qo'lidagi qurollar va vositalar, harbiy va noharbiy maqsadlarda qo'llanishi mumkin bo'lgan texnologiyalar va xavfsizlik sektoridagi hamkorlik haqida batafsil hisobot so'raladi. Parlament hukumatdan olingan ma'lumotlarni atroflicha muhokama qilmaydi.

Germaniya: Qurollar eksporti yuzasidan ilk hisobot 2000 yilda chiqqan. Parlamentning mudofaa, tashqi aloqalar, savdo va inson huquqlari bo'yicha qo'mitalari ushbu ma'lumotlarni ko'rib chiqadi. Parlament hukumatning qurol savdosini qanday olib borganini tahlil qiladi xolos.

Gretsiya: Parlament va ommaga qurol savdosi haqida hisobot berilmaydi. Yagona rasmiy ma'lumot manbai – BMT Qurollar Ro'yxati.

Irlandiya: Bu davlat qonunchiligida hukumatni qurol eksporti to'g'risida hisobot berishga majburlovchi birorta band yo'q. Lekin Yevropa Ahloqiy Kodeksiga amal qilgan holda, Tashqi aloqalar vazirligi bir necha hisobotlar tayyorlagan. Parlament a'zolari bugunga kelib tegishli vazirliklarni qurol savdosi xususida savolga tutishni odat qilgan.

Italiya: Hukumat parlamentga mudofaa vositalari importi, eksporti va transportirovkasi haqida hisobot berishi kerak. 1990 yilda kuchga kirgan qonun bu borada qator talablar qo'yadi. Biroq parlamentning eksportni tergov ostiga olish vakolati yo'q.

Lyuksemburg: Mamlakat qurol sanoatiga ega deyish qiyin va bu borada nazorat tizimi ham yo'q.

Niderlandiya: Qurol eksporti yuzasidan birinchi hisobot 1998 yilning oktabrida taqdim etilgan. Niderland parlamenti qurol eksporti ustidan norasmiy bir vakolatga ega deyish mumkin, chunki hukumat uni ortiqcha qurol-aslaha sotilayotgani haqida, ommaga oshkor etilmagan holda, xabardor etib turadi.

Portugaliya: 1998 yili ilk hisobot chop etilmaguncha, bu mamlakat parlamenti qurol savdosini tekshira olmas edi. Masalani parlament muhokamasiga olib chiqishni talab qilivchi qonun yo'q. Qonunchilar eksport uchun berilgan ruxsatlar haqida so'rashi mumkin xolos.

Ispaniya: Qurol savdosi yuzasidan hisobotlar kam. Parlament eksportni oldindan nazorat qila olmaydi. Faqat davlat sirlari bo'yicha qo'mita bu sohaga aralasha oladi. Qonunchilik organi masalani muhokama qilishga urinmoqda.

Shvetsiya: Ilk hisobot 1984 yilda berilgan. O'sha yili parlament Harbiy Vositalar Eksporti Maslahat Kengashini tuzgan va kengash Yevropaning boshqa davlatlariga namuna sifatida xizmat qiladi. Yillik hisobotlar parlament muhokamasiga qo'yiladi.

Britaniya: Qurol savdosi borasida bu davlat eng oshkora hisobotlar taqdim etadi. Dastlabkisi 1999 yilda nashr etilgan. Mudofaa, tashqi aloqalari, xalqaro taraqqiyot, savdo va sanoat bo'yicha qo'mitalar birgalikda qo'shma qo'mita tuzgan. Mazkur qo'mita qurol eksportini nazorat qiladi va bu borada Quyi palataga axborot beradi.

Manba: www.saferworld.co.uk, 2002

Parlamentning professional qudrati

Qurol-aslahalar savdosi va transportirovkasini to'g'ri nazorat qilish parlamentdan qonuniy mohirlik, kasbiy ustunlik, boy bilim va tajriba talab qiladi. Qonunchilarning professional salohiyati past bo'lsa, qarorlar ularni chetlab o'tgan holda qilinadi va jarayon oshkora bo'lmaydi. Shu sabab parlament vakillari, ayniqsa, tegishli qo'mita a'zolari malakasini oshirish juda muhim. Ularning qo'lida ishlovchi xodimlarning qurollar savdosi, harbiy ta'minot, amaliy izlanishlar, materiallar boshqaruvi, harbiy vositalar hisob-kitobi va nazorati kabi sohalardagi bilimini boyitish va bu mutaxassislarni maxsus tayyorgarlikdan o'tkazish bilan parlament mudofaa masalalari bilan shug'ullanadigan iqtidorli kadrlar tizimiga ega bo'ladi. Xavfsizlik sektori faoliyati bilan bog'liq ma'lumot bazalari yaratish esa qonunchilik qo'mitalariga ijroiya organi va harbiy boshqaruvdan zarur ma'lumotlar talab qilish va shu tariqa siyosiy qarorlarni ko'rib chiqish va nazorat qilish imkoniyatini beradi.

Qonunchi sifatida nima qila olasiz?

Qurollar savdosini nazorat qilish

- ▷ Xalqaro qurol savdosi nazorati masalasini parlament kun tartibiga kiritishga harakat qiling.
- ▷ 80-izohdagi "Kichik va yengil qurollar kontrabandasiga qarshi BMT Dasturi: Parlament uchun dolzarb masalalar" sarlavhasi ostida berilgan tavsiyalar asosida ish tutishni targ'ib qiling.
- ▷ Davlatingizni quyidagi talablarga muntazam ravishda rioya qilishga undang:
 - BMT Qurollar Ro'yxati uchun hisobot berib turilsin;
 - Harbiy xarajatlar haqida hisobot berishda BMT me'yorlariga amal qilinsin;
 - Qurollar yuzasidan mintaqaviy kelishuvlar hurmat qilinsin;

Davlatning qurollar savdosi bo'yicha siyosati

- ▷ Qurol savdosi bo'yicha davlat siyosati zamon talablariga javob bersin va parlament tasdig'i uchun o'z vaqtida taqdim etilsin.
- ▷ Hukumatdan qurol savdosi yuzasidan hisobotlar berishni talab qiluvchi qonuniy mexanizm joriy etilsin;

Qurollar embargosi

- ▷ Qurollar embargosi bilan bog'liq masalalar, ularning sizning davlatingizga tegishli tomonlari, jihatlari va ta'siri parlament muhokamasiga qo'yilsin.
- ▷ Parlamentda "aqli sanksiyalar" (77-izoh) haqida fikr almashishga chaqiring.
- ▷ Hukumatni qurollar embargosiga bo'ysunishga undang. Embargoga rioya qilinmagan taqdirda zarur choralar ko'ring.



Ortiqcha quollar

- ▷ Parlament va boj masalalari bilan shug'ullanadigan qo'mitalarni ortiqcha quollar savdosiga diqqat qaratishga chaqiring toki ular quyidagi muammolarning oldini olsin va nazoratni kuchaytirsin:
 - Ortiqcha va eski quollarning sizning davlatdan olib o'tilishini;
 - Ortiqcha va eski quollarning davlatingiz tomonidan xarid qilinishini.
- ▷ Davlatingizni ortiqcha va eski quollarning ro'yxatga olinishi va yo'q qilinishiga hissa qo'shishga undang.
- ▷ Davlatingizni ortiqcha va eski quollarni sotayotgan kompaniyalarga qarshi chora ko'rishga va ular faoliyatini nazorat qilishga chaqiring.

Kichik turdagi quollar

- ▷ Parlament yoki uning tegishli qo'mitasiga har yili mamlakatda qancha qurol-aslaha ishlab chiqarilayotgani va savdo qilinayotgani haqida izchil ma'lumotlar berib turilsin. Yillik hisobot bu sohada ishlovchi kompaniyalar to'g'risida to'liq axborot bersin.
- ▷ Mamlakat kichik turdagi quollar ishlab chiqarishda mazkur bobda qayd etilgan barcha shartlarga rioya qilsin.

Parlamentlararo Ittifoq

Parlamentlararo Ittifoq 1889 yilda tuzilgan bo'lib, suveren davlatlar qonunchilik organlari a'zolidagi xalqaro tashkilotdir. Birlashgan Millatlar Tashkilotida kuzatuvchilik maqomiga ega bu ittifoq xalqaro maydonda parlamentlar rolini va xalq saylagan vakillarning global miqyosdagi faolligini oshirishni ko'zlaydi.

2003 yilda Parlamentlararo Ittifoqqa dunyoning 144 davlat parlamenti kirgan edi. Qonunchilik palatalari orasida muloqot va o'zaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida ushbu tashkilot:

- ▷ xalqaro manfaat va masalalarni ko'rib chiqadi,
- ▷ parlament a'zolarining huquqlarini himoya va targ'ib qiladi,
- ▷ xalq vakillaridan tashkil topgan tashkilotlarni birlashtirishga yordam beradi.

Tinchlik va xavfsizlik Parlamentlararo Ittifoq diqqat markazidagi asosiy mavzulardan biri. Tashkilot qurolsizlanish, embargolar, xalqaro sanksiyalar, Xalqaro Jinoiy Sud ko'rayotgan ishlar va terrorizmga qarshi kurash kabi masalalarni muhokama qilib keladi. 1994 yilda ittifoq xalqaro qonunlar targ'ibotini kuchaytirish uchun maxsus Qo'mita tuzdi. Qo'mita 1999 yili, Xalqaro Qizil Xoch Qo'mitasi bilan hamkorlikda, qonunchilar uchun qo'llanma ishlab chiqdi.

Parlamentlararo Ittifoq siyosiy mojarolarga muloqot orqali nuqta qo'yish tarafdoridir. Tashkilot majlislari mavjud kelishmovchiliklarga yechim topish va o'zaro ishonchni tiklash uchun imkoniyat yaratadi. Ittifoq, shuningdek, Yaqin Sharqda tinchlikni tiklash va ikkiga ajralib qolgan Kipr orolidagi siyosiy partiyalar o'rtasida muzokara olib borish uchun alohida qo'mitalar tashkil etgan. Parlamentlararo Ittifoq O'rtayer dengizi mintaqasida xavfsizlik va hamkorlikni taraqqiy ettirish yo'lida qator tashabbuslar bilan chiqqan va ularni amalga oshirmoqda.

Parlamentlararo Ittifoq Qarorgohi (Sheytsariya)

Inter-Parliamentary Union
Chemin du Pommier 5
Case Postale 330
CH-1218 Grand Saconnex, Geneva
Switzerland
Tel.: 41 22 919 41 50
Fax: 41 22 9919 41 60
e-mail: postbox@mail.ipu.org
Website: www.ipu.org

Parlamentlararo Ittifoqning BMTdagi Doimiy Kuzatuvchilik Idorasi (AQSh)

Inter-Parliamentary Union
220 East 42nd Street
Suite 3102
New York, N.Y. 10017
USA
Tel. (212) 557 58 80
Fax: (212) 557 39 54
e-mail: ny-office@mail.ipu.org

Qurolli Kuchlarni Demokratik Nazorat Qilish Jeneva Markazi (QKDNQ)

O'tgan o'n yillikda erishilgan yutuqlarga qaramay ko'plab davlatlarda fuqaro-harbiy munosabatlarni demokratik tarzda boshqarish va yangilash muhim masala bo'lib qolmoqda. Bu hol, ayniqsa, demokratiya tomon harakat qilayotgan, urush va mojarolarni boshdan kechirgan jamiyatlarda ko'zga tashlanadi. Ko'p mamlakatlarda qurolli va yarim harbiy kuchlar hamda ichki ishlar xodimlari, chegarachilar va boshqa xavfsizlik tizimlari muhim kuch bo'lib qolmoqda. Aksariyat hollarda ular o'zlariga "davlat ichidagi davlat" sifatida qaraydi. Ular moddiy jihatdan xalqqa og'ir tushib, demokratik jarayonlarni sekinlashtiradi, ichki va xalqaro mojarolarga yo'l ochadi. Shu bois ham bu kuchlarni demokratik va fuqaro nazorati ostiga olish o'ta muhim ahamiyat kasb etib, beqarorlikning oldini olish, tinchlikni targ'ib qilish, demokratiya va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashda xizmat qiladi.

Qurolli kuchlar ustidan demokratik nazoratni mustahkamlash - xalqaro hamjamiyat oldida turgan siyosiy maqsadlardan biri. Bu ezgu harakatga hissa qo'shish niyatida Shveysariya hukumati 2000 yilning oktabrida Mudofaa, Fuqaro Himoyasi va Sport vazirligi hamda Tashqi ishlar vazirligining birgalikdagi tashabbusi bilan Qurolli Kuchlarni Demokratik Nazorat Qilish Jeneva Markaziga asos soldi.

Maqsad

Markaz hukumat va nohukumat tashkilotlarning qurolli va xavfsizlik kuchlari ustidan demokratik va fuqaro nazoratini oshirish yo'lidagi harakatlarini qo'llab-quvvatlaydi. Bu borada xalqaro, xususan Yevro-Atlantika mamlakatlari orasida hamkorlikni targ'ib qiladi.

Ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun markaz:

- **Ma'lumot to'playdi, izlanishlar olib boradi va hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yadi** toki muammolar aniqlansin, amaldagi vaziyatdan saboq olinsin hamda qurolli kuchlar va fuqaro-harbiy munosabatlarni demokratik tarzda nazorat qilishning samarali yo'llari taklif etilsin;
- **Professional yordam ko'rsatadi.** Hukumatlar, parlamentlar, harbiy boshqarmalar, xalqaro muassasalar, nohukumat tashkilotlar va ilmiy doiralarga maslahat beradi.

Qurolli Kuchlarni Demokratik Nazorat Qilish Jeneva Markazi davlatlar, xalqaro va nohukumat tashkilotlar, ilmiy maskanlar va mutaxassislar bilan yaqindan hamkorlik qiladi. Markaz o'z amaliy va tahliliy faoliyatida Ta'xis Kengashidagi 42 davlat vakili, Xalqaro Maslahat Kengashidagi 50 yetuk mutaxassis va ilmiy markazlari hamda ishchi guruhlariga tayanadi. Markaz bir necha tadqiqot institutlari, xalqaro tashkilot va parlamentlararo assambleyalar bilan ishlaydi va bu borada bitimlar imzolagan.

Ish Dasturi

Qurolli kuchlar ustidan demokratik nazorat masalalari bilan puxta shug'ullanish maqsadida markaz 12 **ishchi guruh** tashkil etgan va ular quyidagilarga diqqat qaratadi: xavfsizlik sektori islohoti, qurolli kuchlar ustidan parlament nazorati, demokratik nazoratning yuridik tomonlari, mudofaa byudjeti va ta'minot, davlat xavfsizligi siyosatida noharbiy mutaxas-

PI va QKDNQ – Xavfsizlik sohasi ustidan parlament nazorati, 2003

sislar, ichki ishlar xodimlari va boshqa noharbiy xavfsizlik kuchlarini demokratik nazorat qilish, kuchlarni kamaytirish va o'zgartirishda fuqaro-harbiy munosabatlari, harbiy kuch va jamiyat, fuqaro jamiyati qurilishi, mojarodan keyingi vaziyatlarda fuqaro-harbiy munosabatlari, qurolli kuchlar ustidan demokratik nazorat shartlari va Afrika sharoitida fuqaro-harbiy munosabatlar. Bu ishchi guruhlarini markazning Ilmiy Tadqiqot Instituti rejalashtiradi, boshqaradi va yuritadi.

Qurolli Kuchlarni Demokratik Nazorat Qilish Jeneva Markazi omma xizmatidagi tashkildir. Hozirda Janubi-sharqiy Yevropa va Sharqiy Yevropada xavfsizlik sohasi islohoti va qurolli kuchlar ustidan parlament nazorati bo'yicha o'zaro loyihalar boshlangan. Markaz Janubi-sharqiy Yevropa va Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti o'rtasidagi Barqarorlik Shartnomasi asosida tuzilgan bir necha loyihalarni ham amalga oshirmoqda. Tashkilot doimiy tarzda nashrlar chiqaradi va anjuman, seminar va boshqa tadbirlar tashkil etib turadi. Muassasa o'z ishida informatsion texnologiyalardan keng foydalanadi va o'z veb sahifasi (<http://www.dcaf.ch>) orqali ham soha egalari, ham keng jamoatchilikka murojaat qiladi.

Tuzilma va Byudjet

Qurolli Kuchlarni Demokratik Nazorat Qilish Jeneva Markazi Shvetsariya qonunlariga binoan tuzilgan xalqaro jamg'armadir. Markaz Ta'sis Kengashiga 42 davlat vakili tanlanadi. Xalqaro Maslahat Kengashi esa mudofaa va xavfsizlik bo'yicha jahondagi yetakchi mutaxassislarni o'z ichiga olgan. Ular markaz direktoriga umumiy strategiya yuzasidan ko'rsatma beradi. Markazda 23 davlatdan kelgan qirqaqa yaqin xodim ishlaydi. Tashkilot to'rt bo'limdan iborat: Ilmiy Tadqiqot Instituti, Jamoat Dasturlari, Axborot Manbalari va Boshqaruv.

Markaz asosan Shvetsariya Mudofaa, Fuqaro Himoyasi va Sport vazirligi tomonidan moliyalanadi. 2002 yilda tashkilot byudjeti 8 million shveytsar frankini tashkil etgan. Yana bir muhim homiy – Shveytsariya Tashqi ishlar vazirligi. Qurolli Kuchlarni Demokratik Nazorat Qilish Jeneva Markaziga a'zo ayrim davlatlar ham xodimlar va tashkilotning ba'zi dasturlarini moddiy jihatdan quvvatlab keladi.

Kontakt

Qo'shimcha ma'lumot uchun quyidagi manzilga murojaat qiling:

Geneva Centre for the Democratic Control of Armed Forces (DCAF)
Rue de Chantepoulet 11, P.O. Box 1360, CH-1211 Geneva 1, Switzerland
Tel: +41(22) 741-7700; Fax: +41 (22) 741-7705;
E-mail info@dcaf.ch; Website: www.dcaf.ch

Mavzular indeksi

11 sentabr 40, 110-112

A

A'lo amaliyotlar 146-149
Adliya 22, 23, 46, 63, 170, 103, 146
Afrika Birdamlik Tashkiloti 33
Afrika Ittifoqi 33
Ahloqiy kodeks 157-162
An'anaviy qonunlar 20, 23, 28
Armiya/Qurolli kuchlar 53, 166
Audit 146-151
Audit idorasi 146-151
Axborot erkinligi qonuni 90
Axborot urushi (*Internet jinoyatlariga qarang*)
36, 119
Axborot vositalari 40, 42, 44, 85, 140-143

B

Birlashgan Millatlar Tashkiloti 18, 32, 46-49,
54,73, 98, 102-110
Bitimlar (*kelishuvlarga qarang*) 18,24, 28,
33-35, 50, 111
Boshqaruv 22, 77, 133, 163
Byudjet 133-144
Byudjet tizimlari 133, 137, 141

C

Chegara nazorati 61, 110, 114, 115
Chet elliklar 106, 115
Choralar 16, 28, 40, 63, 102, 103-110, 112-
116, 119-123, 137

D

Davlat 16, 27, 77, 102, 133, 153, 174
Demokratik boshqaruv 25, 63, 108, 116,
133, 138
Demokratik nazorat 22, 25, 39, 41, 56, 64,
69, 72, 78, 102, 107, 150, 153, 160
Demokratik qadriyatlar 153, 157, 161
Demokratiya 16, 28, 34, 36-40, 47, 54, 62,

66, 73, 104, 107, 108, 113, 116, 126,
134, 153, 167

Demokratlashtirish (armiyani) 36, 54, 64,
153

E

Effektiv boshqaruv 25, 41, 73, 123, 141

F

Favquloda holat (istisno vaziyatlarga
qarang) 25, 30, 103, 104, 106, 116, 159
Fuqaro huquqlari 116, 155, 161, 162
Fuqaro ta'limi 49, 56, 65, 70, 81, 157, 163
Fuqaro-Harbiy Munosabatlari 25, 140
Fuqarolik jamiyati 22, 25, 30, 34, 35-38, 81,
85, 85, 87, 136, 138, 140

G

G'arbiy Yevropa Ittifoqi 20, 33, 169,171
Gender (xotin-qizlarga qarang) 45

H

Halokat/Inqiroz 17, 55, 103
Hamkorlik 17-25, 32-34, 38, 41, 46, 54, 66,
70, 98, 110, 113-129, 156, 159, 160
Harbiy erkaklar/ayollar 45, 163
Harbiy idoralar 40, 79, 90, 114, 120, 140,
144
Harbiy ittifoqlar (vakillik uyushmalariga
qarang) 17, 24, 27, 42
Harbiy qoidalar 24, 25, 32, 49, 63, 65, 78,
80, 92, 99, 102, 128, 129, 155, 158, 159
Harbiy Ta'minot 79, 81, 89, 92, 127, 141
Harbiy xizmatni vijdonan rad etish 166, 167,
169
Hibsxonalar (qamoqxonalarga qarang) 97,
98, 108
Hukumat 16-22, 27-32, 154
Huquq-tartibot xodimlari uchun (BMT) 158

I

Ichki ishlar islohoti 54, 57, 138, 164
Ichki mas'uliyat 22, 57, 62, 63, 69-71, 93, 133, 142, 159, 161, 174
Ichki xavfsizlik 27, 53, 59, 66, 72, 106-109, 114, 118, 160
Ijroiya (*hukumatga qarang*) 20-23, 28, 34, 38, 66-68, 70, 77-82, 85, 102-107, 116, 126, 133, 134, 140, 146, 161, 174, 176
Innere Führung (boshqaruv) 157
Inson huquqlari 159, 160, 170
Inson xavfsizligi 16, 17, 45, 55, 107
Insonparvarlik missiyalari 125, 129
Insonparvarlik qonuni 102, 105, 155
Insonparvarlik yordami 47, 125
Internet 144, 150
Internet jinoyatlari 119
Islohot 54, 74, 138
Iste'fo (*nafaqaga qarang*) 74, 82, 164
Istisno holatlar (*favqulodda holatlarga qarang*) 102, 104, 105, 118

J

Jahon Banki 25
Jamiyat (*fuqaro jamiyatiga qarang*) 16-20, 25, 27, 34-40, 54-62, 68-80
Jamoat politsiyasi/nazorati 36

K

Kadrlar 24, 30, 65, 79, 81, 89, 92, 114, 140, 143, 149, 152, 163, 164
Kelishuvlar (xalqaro, *bitimlarga qarang*) 27, 33, 34, 40, 42, 46, 82, 89, 90, 115, 117, 174, 176
Kichik turdagi qurollar 168, 175
Kollektiv xavfsizlik 17, 18, 34
Konstitutsiya/konstitutsion qonunchilik 27, 34, 56, 77, 83, 93, 95, 102, 103, 105
Korrupsiya 106, 141, 146, 159, 162, 165
Kuzatuv 20, 67, 93, 94, 108, 116, 124, 137, 138

M

Mablag' ayash/pulni qadrlash 136, 148, 160
Majburiy xizmat 48, 56, 95, 154, 162, 166

Manbalar 174
Maosh (*harbiy*) 155, 163, 164, 165, 167
Mas'uliyat (*Nazoratga qarang*) 22, 57, 62, 63, 69, 70, 71, 93, 133, 142, 159, 161, 164
Maxfiylik (*Sirlarga ham qarang*) 66, 71, 81, 82, 85, 95, 139
Mojaro 16, 17, 30, 32, 33, 39, 45, 46, 50, 54, 55, 72-74, 82, 102, 123-128, 142
Mudofaa 27, 45, 53, 102, 133, 160-170
Mudofaa byudjeti 133, 146
Mudofaa islohoti 54, 57
Mudofaa qo'mitasi 38, 89, 91, 95, 144
Muhokama/debat 89, 91, 92, 99, 102, 108, 125, 126, 134, 138, 141, 143, 144, 149, 150, 157
Muqobil xizmat (*vijdonan rad etuvchilarga qarang*) 167-172
Muxolifat 84-87, 99, 107, 114, 134, 168

N

Nafaqa 33, 34, 42, 47, 54, 66, 72, 77, 79, 80, 110, 141, 143, 164-165
Nazorat 20, 26, 77, 102, 133, 153, 174
Nohukumat tashkiloti 22, 25, 30-40, 81, 87, 136, 138, 140

O

Ombudsman 23, 42, 64, 93-97, 116, 155
Oshkoralik 36, 62, 63, 69, 70-80, 94, 96, 133-145, 164-165

P

Parlament 16, 27, 53, 77, 102, 133, 153, 164
Parlament assambleyalari 43, 154, 155
Parlament nazorati 20, 26, 77, 102, 133, 153, 164
Parlament qo'mitalari 29, 35, 38-51, 57, 67, 69, 84, 86, 89-100, 122, 130, 134, 144, 147, 164
Parlamentlararo Ittifoq 166
Politsiya 38, 56, 60, 63-64, 89, 106, 108, 116, 124, 127, 156, 163

Q

Qamoqxonalar (*hibsxonalarga qarang*) 97, 98, 108
Qaror qilish jarayoni 19, 126, 129, 141
Qiynoq 97-99, 106-107, 159
Qo'mita 29, 35, 38, 41-51, 57, 67-70, 80-90
Qo'shinlar (*armiyaga qarang*) 115, 123 – 130, 165-166
Qonunchilik 22, 27, 77, 102, 133, 153, 174
Qonuniylik 103, 105, 136, 150
Qonun-tartibot 53, 55-57, 65, 74, 89, 106, 120, 158-159
Qurol-aslaha savdosi/
ko'chirish/transportirovka 159, 166
Qurollanish 154, 166
Qurollar embargosi (*sanksiyalarga qarang*) 75, 168
Qurolli kuchlar (*armiyaga ham qarang*) 25, 36, 39, 47-60, 67-89, 93-105, 123, 129, 133, 137, 139, 142, 149, 155-167
Qurolsizlanish 47, 165

R

Razvedka qo'mitasi 36, 38, 49, 50, 66-67, 69, 89, 106, 117, 141
Razvedka xizmatlari (*maxfiylikka qarang*) 28, 66-71

S

Samarali boshqaruv 25, 41, 73, 123, 141, 157, 175
Sanksiyalar 84, 106, 162, 172
Savollar 29, 31, 49, 67, 73, 84-87, 147
Shimoliy Atlantika Shartnomasi Tashkiloti (NATO) 17-18, 33, 47-54, 124, 135, 149
Sirlar (*razvedka xizmatlariga qarang*) 21, 87, 141, 168
Siyosat (*xavfsizlik siyosatiga qarang*) 17-21, 27-45, 110, 133, 153
Siyosiy mas'uliyat 22, 57, 62-70, 93, 133, 142, 159, 161
Sudlar 23, 161-162

T

Tahqirlash (*majburiy xizmatda*) 153

Tajriba/Malaka 21, 25, 31, 37-38, 45-50, 63-64, 72, 81, 90-97, 104, 125, 129, 139, 150, 153, 157, 164-168
Tamoyillar 25, 32, 44, 58, 63, 66, 86, 103, 124, 130-145, 150, 157, 163-169
Tartibsizlik/bo'ysunmaslik 159, 162
Tergov/Tekshiruv 30, 78, 83, 86-96, 146, 162, 168, 172
Terrorizm (*ichki xavfsizlikka qarang*) 17, 27-28, 40, 54, 66, 71, 74, 110-117
Terrorizm ta'rifi 110-112
Tinchlik missiyalari 123-134, 168
Tinchlik saqlash (*tinchlik missiyalariga qarang*) 27, 45, 123, 127
Tinchlikka erishish 46
Tinchlikni mustahkamlash 124
Tinchlikni ta'minlash 53, 124
Tinglovlar 29, 57, 78, 87-88, 109, 131

U

Urush 16-20, 23-39, 45-49, 51-64, 73-74, 102, 123-125, 135, 157-159, 167

V

Vakillik uyushmalari 154
Vakolatlar 17, 23, 24, 66-70, 77-99, 102-108, 116, 124-126, 133, 142, 144, 146, 156-160

X

Xalqaro qoidalar 32
Xalqaro qonun 25, 32-33, 102-106, 111, 123, 125, 128, 160-162
Xalqaro tashkilotlar 43, 50, 119 -120, 139, 155
Xalqaro tinchlik missiyalari (*tinchlik missiyalariga qarang*) 123
Xarajat (harbiy) 25, 36, 67, 78, 89, 90, 92, 133-158, 160-163
Xavfsizlik 16, 27, 53, 77, 102, 133, 153
Xavfsizlik Kengashi 46, 110-111, 119, 123-129, 150
Xavfsizlik qo'mitasi 38, 44, 47, 51, 57, 67-69, 81-92, 99-100, 117, 121, 130, 134, 144, 147, 164

PI and QKDNQ – Xavfsizlik sohasi ustidan parlament nazorati, 2003

Xavfsizlik sektori islohoti 54, 57, 171

Xavfsizlik siyosati (*siyosatga qarang*) 17-21, 27-45, 110, 133, 153

Xavfsizlikning siyosiy-harbiy jihatlari (YXHT) 159-160

Xorijiy safarbarlik (*missiyaga qarang*) 23, 30, 46-55, 73, 78, 81, 87-89, 123, 127

Xotin-qizlar, ayollar (*genderga qarang*) 45-50, 164-166

Xususiy xavfsizlik kompaniyalari 72-74

Y

Yarimharbiy bo'limlar (*harbiy idoralarga qarang*) 106-108

Yashirin kuzatish 70, 114

Yevropa Ittifoqi 33, 43, 161-162

Yevropa Kengashi 43, 119-121, 154, 168

Yevropa Kengashi Parlament Assambleyasi 154-155

Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti 25, 159-160